By the way of conclusion, Artificial Intelligence (AI) has fundamentally reshaped the landscape of language learning by providing tools and platforms that are both adaptive and learner-centered. Through intelligent tutoring systems, natural language processing, speech recognition, and machine translation, AI has allowed for language acquisition that is faster, more efficient, and tailored to individual learners' needs. Unlike traditional one-size-fits-all models, AI makes it possible to deliver personalized feedback, identify learner strengths and weaknesses, and dynamically adjust content in real time. These features have proven to be especially valuable in addressing the diverse challenges faced by language learners worldwide.

The effectiveness of AI in enhancing language acquisition lies in its ability to simulate one-on-one interaction through virtual agents, chatbots, and personalized curriculum generators. Applications such as Duolingo, Rosetta Stone, and Google's AI-powered grammar checkers have shown how immediate corrective feedback and adaptive learning paths can significantly improve learners' engagement and retention. Studies have indicated that students using AI-enhanced platforms demonstrate better vocabulary recall, more accurate pronunciation, and faster grammatical competence than those in non-AI environments. By tracking learner progress, analyzing response patterns, and adapting instructional strategies accordingly, AI supports a truly personalized learning experience—something that was once possible only through human tutors.

Moreover, AI in language learning has extended access to quality education beyond traditional classrooms. It enables remote learners, working professionals, and students in under-resourced areas to receive consistent, scalable support. Speech recognition technologies, for

⁵ Burstson, J. (2014). MALL: The pedagogical challenges of mobile-assisted language learning. *The EUROCALL Review*, 22(1), 32–47. <https://doi.org/10.4995/eurocall.2014.3690>

⁶ Klimova, B., & Pikhart, M. (2020). Artificial intelligence in foreign language learning: A systematic review. *Education Sciences*, 10(12), 1–14. <https://doi.org/10.3390/educsci10120380>

instance, help learners improve speaking fluency by offering instant evaluation and practice, while text generation tools like ChatGPT enable users to experiment with writing in various genres and tones. These affordances collectively make AI a powerful ally in language acquisition.

LIST OF USED LITERATURE:

1. Suh, S. (2025). Investigating the Impact of Personalized AI Tutors on Language Learning Performance. arXiv preprint arXiv:2505.02443.[arXiv](#)
2. Cui, W., Xue, Z., & Thai, K. P. (2019). Performance comparison of an AI-based Adaptive Learning System in China. arXiv preprint arXiv:1901.10268.[arXiv](#)
3. Font de la Vall, R. R., & González Araya, F. (2023). Exploring the Benefits and Challenges of AI-Language Learning Tools. International Journal of Social Sciences and Humanities Invention.[valleyinternational.net](#)
4. Qoura, A. A. S., & Elmansi, H. M. (2023). Artificial Intelligence in Language Education: Implementations and Policies Required. ResearchGate.[ResearchGate](#)
5. Asharudeen, N., & Indra, C. D. (2023). Impact of Artificial Intelligence Versus Traditional Instruction for Language Learning: A Survey. ResearchGate.[Academia+1ResearchGate+1](#)
6. Brown, K. (2015). Comparative Study of Traditional vs. AI Methods. Journal of Language Technology, 4(1), 26-147.
7. Williams, L. (2017). Ethical Issues in AI-based Tutoring Systems. Journal of Language Technology, 4(2), 95-150.
8. Smith, J. (2023). Effectiveness of Chatbots in EFL Classrooms. Journal of Language Technology, 3(2), 36-155.
9. Jones, M. (2017). Natural Language Processing in Education. Journal of Language Technology, 2(1), 53-143.
10. Rodriguez, E. (2021). Natural Language Processing in Education. Journal of Language Technology, 6(2), 41-141.
11. Garcia, R. (2021). Machine Learning Algorithms in EdTech. Journal of Language Technology, 10(2), 55-161.
12. Smith, J. (2021). Virtual Reality for Language Immersion. Journal of Language Technology, 1(2), 90-198.
13. Jones, M. (2017). Artificial Intelligence in Language Learning. Journal of Language Technology, 8(2), 96-136.
14. Davis, S. (2023). Comparative Study of Traditional vs. AI Methods. Journal of Language Technology, 6(1), 90-166.
15. Johnson, A. (2015). Artificial Intelligence in Language Learning. Journal of Language Technology, 12(3), 15-120.
16. Rodriguez, E. (2018). Gamification in AI-Powered Language Platforms. Journal of Language Technology, 6(4), 39-177.
17. Johnson, A. (2018). Virtual Reality for Language Immersion. Journal of Language Technology, 3(2), 72-114.

INTERNET SOURCES:

1. Russell, S., & Norvig, P. (n.d.). *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. <https://aima.eecs.berkeley.edu/>
2. University of Helsinki & MinnaLearn. (n.d.). *Elements of AI*. <https://www.elementsofai.com/>
3. DeepLearning.AI. (n.d.). *Resources*. <https://www.deeplearning.ai/resources/>
4. Massachusetts Institute of Technology. (n.d.). *MIT OpenCourseWare*. <https://ocw.mit.edu/>
5. Google AI. (n.d.). *AI at Google*. <https://ai.google/>
6. Coursera. (n.d.). *AI courses*. <https://www.coursera.org/>
7. edX. (n.d.). *Artificial Intelligence Courses*. <https://www.edx.org/>
8. Khan Academy. (n.d.). *Computing and computer science*. <https://www.khanacademy.org/>

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA O'QUVCHILARGA IQTISODIY BILIMLARNI TAQDIM ETISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Jumayeva Feruza Sayidovna, Buxoro davlat Pedagogika insituti, Umumiy pedagogika
kafedrası O'qituvchisi

jumayeva_feruza@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli ta'lim muhitida O'quvchilarining iqtisodiy savodxonligini shakllantirishda didaktik O'yinlarning pedagogik jihatlari, turlari, tarkibi, O'qituvchi va O'quvchilarning imkoniyatlarini kengaytiruvchi funksiyalarni ochib berilgan. Shuningdek, O'quvchilarga iqtisodiy bilimdonlikni rivojlantirishda didaktik O'yinlarning tutgan O'rni tavsiflangan.

Kalit so'zlar: Raqamli ta'lim, onlayn dars, raqamli texnologiya, raqamli platforma, didaktik O'yinlar, iqtisodiy bilimdonlik, muloqot, bilim va ko'nikmalar.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР В ПРЕДОСТАВЛЕНИИ УЧАЩИМСЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Жумаеву Ферузу Сайидовну, Бухарский государственный педагогический
институт, преподавателя кафедры общей педагогики

jumayeva_feruza@mail.ru

Аннотация: В данной статье раскрыты педагогические аспекты, виды, структура дидактических игр в формировании экономической грамотности учащихся в цифровой образовательной среде, функции, расширяющие возможности учителей и учащихся. Также описана роль дидактических игр в развитии экономической грамотности учащихся.

Ключевые слова: цифровое образование, онлайн-урок, цифровые технологии, цифровая платформа, дидактические игры, экономическая грамотность, общение, знания и навыки.

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF USING DIDACTIC GAMES IN PROVIDING STUDENTS WITH ECONOMIC KNOWLEDGE IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Jumayeva Feruza Sayidovna, Bukhara State Pedagogical Institute, Teacher of the
Department of General Pedagogy

jumayeva_feruza@mail.ru

Abstract: This article reveals the pedagogical aspects, types, structure of didactic games in the formation of students' economic literacy in a digital educational environment, and the functions that expand the capabilities of teachers and students. The role of didactic games in developing students' economic literacy is also described.

Key words: digital education, online lesson, digital technology, digital platform, didactic games, economic knowledge, communication, knowledge and skills.

Raqamli ta'lim - bu ta'lim jarayonining raqamli texnologiyalar va platformalar yordamida amalga oshirilishi. Bu shakl o'quvchilarga qulayligi va moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Ta'lim oluvchiga zamonaviy qulayliklar yaratib ta'lim olishni osonlashtirmoqda. Raqamli texnologiyalar joriy etilgan ta'lim tizimi vositalari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Bugun ular bilan ta'lim tizimining qurollantirilishi o'quvchilarga dars mashg'ulotlarini sifatli o'tilishini ta'minlaydi. Televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta'limga o'tishning bir debochasi sifatida qabul qilsak bo'ladi. Bu jarayon o'quvchiga uydin chiqmay turib ham ta'lim olish mumkinligini isbotlab berdi. Raqamli ta'lim yangi imkoniyatlar yaratadi, lekin muvaffaqiyatli bo'lish uchun qat'iyat va o'z vaqtida qo'llab-quvvatlash zarur. Onlayn ta'lim platformalari ta'lim olish jarayonini qulay va samarali qiluvchi muhim vositalardir. Bu platformalar orqali iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan jamiyatda yashash har bir inson ayniqsa, o'quvchilardan iqtisodiy bilimga ega bo'lishni talab qiladi. Iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirish natijasida

o'quvchilarda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, uddaburonlik, hisob-kitob yuritish ko'nikmalari shakllanadi. O'quvchilarning iqtisodiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda didaktik o'yinlar vositasida amalga oshirish orqali o'quvchilarni bilish faoliyatini rivojlantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Didaktik o'yinlar asosini bilishning u yoki bu mazmunini, o'yinning borishi belgilaydigan harakatlarni bajarishga qaratadigan aqliy va irodaviy urinishni tashkil etadi. Didaktik o'yinlar orqali asosiy fikrlash jarayonlari - tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish takomillashadi.

Yangi iqtisodiy bilimlarni o'quvchilarda singdirishda didaktik o'yinlar vositasida o'quvchining ijodiy ish faoliyatini kuchaytiradi, ixtiyoriy diqqati, xotirasini takomillashtiradi. O'yin jarayonida o'quvchilar o'zlari sezmaydigan holda juda ko'p harakatlarni hamda mashqlarni bajaradilar.

O'quvchilarni intellektual rivojlantirishda didaktik o'yinlar muhim o'rin egallaydi. Didaktik o'yinlar jarayonida o'quvchilarda bir qator intellektual ko'nikmalari shakllanadi. Jumladan, vaziyatlarni tahlil qilish, voqea-hodisalarni qiyoslash, vujudga kelgan holatlarni tushuntirish, sharhlash hamda xayol surish kabilar.

O'quvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirishda imitatsion, ishchan, rol, tashkiliy-faoliyatli o'yinlar alohida ahamiyatga ega. O'quvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirish uchun o'qituvchilar o'quv-biluv jarayonida mazkur didaktik o'yinlardan samarali foydalanishlari zarur.

O'quvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik o'yinlar muayyan syujetga asoslangan rollar hamda o'yin harakatlaridan tashkil topadi. O'quvchilarga dastlab didaktik o'yinlar oldiga qo'yilgan maqsadlar bayon qilinadi.

O'yin texnologiyalari asosida tashkil etilgan dars shakllaridagi ish jarayonida turli-tuman o'quv vositalaridan foydalaniladi. Jumladan:

- a) Darsliklar bilan ishlash.
- b) Darslik apparatidan foydalanish.
- v) O'quv qo'llanmasidagi illyustratsiyalar bilan ishlash.
- g) Iqtisodiy xaritalar.
- d) O'quv iqtisodiy suratlar.
- e) O'quv filmlari, diafilmlar, diapozitivlar, multimedia vositalari, iqtisodga oid albomlar.
- j) Badiiy asardan olingan iqtisodiy bilimlar, ma'lumotlar va dalillar ifodalangan matnlar.
- z) O'quvchilarning ijodiy ishlari.

Bilish faoliyati fikr faolligisiz amalga oshmaydi. Shuning uchun ham, bilish faoliyati uchun tafakkur jarayoni nihoyatda zarur va qiziqarli hisoblanadi. Biroq, hissiy kechinmalarga boy vaziyatlar shunchaki fikrlash, o'ylashga o'rin qoldirmaydi. O'quvchilarning har qanday o'quv faoliyatlari ularning moyilligiga asoslangan va muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi.

Mayllar har doim ehtiyojlar, qiziqishlar, qo'zg'alishlarni vujudga keltiradi. Bu esa o'quvchilarning o'quv faoliyatiga tez va jadal kirishishlarini ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda, o'quv jarayoniga nisbatan qiziqishlari barqaror bo'lishini ta'minlaydi. Buning natijasida ular o'quv topshiriqlarini yechishda qat'iylik ko'rsatadilar.

O'qitishning o'yinga asoslangan shakli boshqa texnologiyalardan farqli tarzda o'quvchilarni yo'naltirishning turli usullarini qo'llash imkonini beradi. Ular:

1. O'quvchilarda muloqot mayllarini hosil qilish. Bunda, o'quvchilar birgalikda o'quv vazifalarini yechar ekanlar o'yin faoliyatini amalga oshirib o'zaro muloqotga kirishadilar hamda sinfdoshlarining fikrlarini hisobga olishga odatlanadilar. Uyin jarayonida jamoaviy vazifalarni yechish asnosida o'quvchilar turli imkoniyatlardan foydalanadilar. Ular amaliy faoliyat davomida o'z tajribalariga tayangan holda foydali, tez anglanuvchi, tanqidiy baholovchi, batafsil ishlovchi, sinchkovlikka asoslangan munosabat o'rnatadilar. O'quvchilarning birgalikdagi hissiy kechinmalari o'yin jarayonida shaxslararo munosabatlarni mustahkamlaydi.

2. O'quvchilarda axloqiy mayllarni hosil qilish. Bunda o'yin jarayonida har bir o'quvchi o'zligi, o'z bilimlari, ko'nikmalari, malakalari, kompetentsiyalari, irodaviy sifatleri, o'quv faoliyati va atrofdagilarga nisbatan munosabatini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

3. O'quvchilarda bilish mayllarini hosil qilish. Har bir o'yin o'zining muayyan natijasiga ega bo'ladi. U o'quvchilarni maqsadga erishish, g'alaba qozonishga undaydi. Buning natijasida ular maqsadga erishish yo'llarini anglab yetadilar. O'yin jarayonida komandadagi barcha o'quvchilar bilan alohida o'quvchi o'zaro teng huquq va imkoniyatlarga ega. Natija asosan o'yin

ishtirokchilarining o'zlari, tayyorgarlik darajalari, layoqatlari, sabr- toqatliliklari, ko'nikmalari va xarakteriga bog'liq. O'yindagi o'zgacha jarayon shaxsiy ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar ijtimoiy qiyofani chamalab shaxslararo munosabatlar yukini o'z zimmlariga oladilar. Shu asosda ular o'zlarini ijtimoiy-iqtisodiy jarayonning sub'ekti sifatida baholashga erishadilar.

Muvaffaqiyatga erishish vaziyatlari qulay hissiy holatni vujudga keltirib o'quvchilarda bilish qiziqishlarining rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Muvaffaqiyatsizlik o'quvchilar tomonidan shaxsiy emas, balki jamoaviy xato sifatida talqin etiladi.

Yaratuvchilik - o'yin jarayonining tarkibiy qismi hisoblanib, o'quvchilar uchun jozibalidir. O'yindan olingan qoniqish darslardagi qulay holat hamda o'quvchilarning iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirishlarini jadallashtiradi. Chunki o'yin jarayoni o'zining muayyan sir-asrorlariga ega bo'ladi. Olinmagan javoblar o'quvchilarning fikriy faoliyatlarini faollashtiradi. Bu esa ularni javoblarni izlashga undaydi. Umumiy maqsadga erishishga yo'naltirilgan o'yin faoliyati jarayonida o'quvchilarning fikriy faoliyatlari jadallashadi. Fikrlar yechimlarni izlashga undab o'quvchilarni bilish vazifalarini yechishga rahbatlantiradi.

Iqtisod darslarining turli bosqichlarida rangba-rang o'yin vaziyatlaridan foydalanish mumkin. Jumladan:

- yangi o'quv materiallarini tushuntirishda; bunda o'qituvchi shunday usullarni qo'llashi mumkinki, uning yordamida bilvosita yangi bilimlarni o'quvchilarga yetkazish mumkin. O'quvchilar esa guruh bo'lib muhokama qilish asosida o'qituvchi tayangan printsipdan kelib chiqqan holda o'z oldilariga qo'yilgan vazifani yechadilar. Shu asosda ular to'g'ri yechimga olib boradigan yo'lni izlab topadilar.

- yangi o'quv materiallarini o'zlashtirish va mustahkamlash bosqichida; bunda klassik o'yin usullari qo'llaniladi. Jumladan, berilgan mavzu yuzasidan "Kim yaxshi ma'ruza qila oladi" o'yinini tashkil qilish mumkin. Bunda o'qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan mezonlar asosida o'quvchilar bir-birlarining ma'ruzalarini baholaydilar.

- o'tilgan materiallarni takrorlash bosqichida; o'quv jarayonining mazkur bosqichi eng doolzarb va o'yin usullarini qo'llash ehtiyoji kuchli bo'lgan bosqichlardan biri hisoblanadi.

Bu o'rinda o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlarini amalda qo'llay olishlari lozim. Ular o'zlashtirilgan bilimlarini nostandart vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmalarini namoyon qilishlari lozim. Shuningdek, muayyan vaziyatlarda egallagan ko'nikmalarini abstrakshtiyalash layoqatiga egaliklarini ko'rsata olishlari muhimdir. Buning uchun o'qituvchi o'quv jarayonini tashkiliy-faoliyatli yo'nalishda amalga oshirishi talab etiladi. Bunda o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlari shaxsiy faoliyat tajribasiga singganligi yaqqol namoyon bo'ladi. Bu o'rinda o'qituvchi muhim bir holatni hisobga olishi lozim. Jumladan, o'quvchilar nimaga qiziqadilar, ular uchun qanday faoliyatni bajarish yoqimli, ular nima haqida xayol suradilar, ular qanday kitoblarni o'qiydilar va nima haqida so'zlashadilar, kabi. O'qituvchilar o'quvchilarning yosh taraqqiyotlari bilan bog'liq holda ularning o'zlashtirgan bilimlari va is'temolchilik imkoniyatlaridan foydalanib, shaxsiy kuzatishlarini boyitishlari, kundalik tajribalariga tayangan holda o'yin jarayonlarini loyihalashtirishlari va tashkil etishlari lozim. Mazkur bosqichdagi o'yinlarning asosiy maqsadi - o'tilganlarni takrorlashdan iborat.

O'z faoliyati davomida o'qituvchi o'quvchilarning yosh xususiyatlari, o'qish mayllari va ko'nikmalariga tayanishi talab etiladi.

7-9-sinf o'quvchilari:

1. Iqtisodiy bilimlarga nisbatan keng ko'lamdagi bilish mayllari va qiziqishlariga ega bo'lishlari.

2. O'quv-biluv mayllari iqtisodiy bilimlarni egallash usullariga nisbatan qiziqish, nazariy hamda ijodiy tafakkur metodlarini takomillashtirishga intilish sifatida namoyon bo'lishi.

3. O'quv faoliyati davomida nostandart o'quv topishiriqlari o'quvchilar oldiga qo'yilishi hamda ularning yechimiga olib boradigan bir qolibdagi yechimlar izlab topilishiga erishishlari kerak.

Bu jarayonda iqtisod fani o'qituvchilari oldiga bir qator vazifalar qo'yiladi. Jumladan:

1. O'quvchilarda iqtisodiy bilimlarga nisbatan qiziqish uyg'otish.
2. Har bir o'quvchining quvvatlarini iqtisodiy bilimlarini egallashga safarbar etish.
3. O'quvchilarning navbatdagi sinfdagi taqdim etiladigan iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirishlari

uchun zamin tayyorlash.

4. Nafaqat shaxsiy darajada, balki o'quvchilarning istiqboldagi rivojlanish darajalarini hisobga olgan holda muayyan bilim, ko'nikma, malaka va ijtimoiy faoliyat tajribasini hosil qilish kabilar.

Iqtisod fani o'qituvchilari didaktik o'yinlarni tanlashda ham muayyan qonun-qoidalarga amal qilishlari kerak. o'yinlarni tanlashda o'qituvchi birinchi navbatda o'quvchilarning ehtiyojlari, ta'lim-tarbiya jarayoni oldiga qo'yilgan vazifalarni yaxshi bilishi kerak. Shuning uchun ham o'qituvchi sinfdagi o'quvchilarning holati va imkoniyatlarini chuqur tahlil qilishi lozim. Bunda o'yinga jalb etilgan o'quvchilar guruhining tarkibi, ularning intellektual rivojlanish darajasi, jismoniy tayyorgarligi, yosh xususiyatlari, qiziqishlari, muloqotga kirisha olish darajasi va birgalikdagi faoliyatini hisobga olishi lozim.

Bu jarayonda iqtisod fani o'qituvchisi oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi. Ular:

1. O'quvchilarda mustaqillikni shakllantirish.
2. O'quvchilarda iqtisodiy bilimlarga nisbatan qiziqish uyg'otish kabilar.

O'yinlarni tanlashda o'qituvchi uning o'tkazilish joyi va vaqtini aniq hisobga olishi lozim. Jumladan, iqtisod darslarida tashkil etiladigan o'yinlar iqtisod xonasida o'tishini mo'ljallab loyihalashtiriladi. Bunda dare jihozlari jumladan, metodik qo'llamalar va boshqa ashyolar aniq hisobga olinadi. Iqtisod o'qituvchisi dastlab qisqa muddat talab qiladigan o'yinlarni tanlashi kerak. Chunki darsda o'yinlarni tashkil etgandan keyin yangi mavzuni o'quvchilarga tushuntirish uchun ham vaqt qolishi kerak. 3-4 darslar esa to'liqligicha o'yinga bag'ishlanib, istiqbolda iqtisodiy bilimlarni chuqur o'zlashtirishga yo'naltirilishi kerak. Shunga ko'ra bunday o'yin darslari uchun ko'p vaqt talab qilinadi. Bunday darslarda ilgari o'tyilgan barcha mavzular umumlashtiriladi.

O'yinning maqsadi o'yin vaziyatlari doirasida namoyon bo'ladi. O'yin natijalari narsalar va mahsulotlar sifatida namoyon bo'ladi. Bu mahsulotlar badiiy ijod mahsulotlari, yangi bilimlar shaklida ifodalanadi. O'yinda mayllar tabiiy ravishda almashinadi. O'yin jarayonida o'quvchilar qoniqish hosil qilish maqsadida harakatlanadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi Toshkent-2008,-B. 198
2. Boshlang'ich talimda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O'quv qo'llanma T.G'afforova.- T.: Tafakkur, 2011.-160 b.
3. M. Inoyatova, A.Nosirov, M.Divanova, G.Boymurodova, A.Baxromov, M.Rasulova F.Abdudusova. Boshlang'ich talim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash.Toshkent- 2014
4. Sayidovna J. F. DIDAKTIK OYINLAR VOSITASIDA BOSHLANGICH SINF OQUVCHILARNING IQTISODIY SAVODXONLIGINI SHAKLANTIRISH MEXANIZMLARI //AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 891-897.
2. Sayidovna, Jumayeva Feuza. "O'QUVCHILARGA IJTIMOIIY-IQTISODIY BILIMLARNI TAQDIM ETISHDA O'YINLARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK ASOSLARI." *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM* 5.47 (2024): 272-275

O‘QUVCHILARNING TA‘LIM JARAYONIDA MA‘NAVIY –AXLOQIY KOMPETENSIYALARNING O‘RNI

Rakhmonova Gulola Shavkatovna, Buxoro davlat pedagogika instituti Umumiy pedagogika
kafedrasida katta o‘qituvchisi

gullolaraxmon76@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarning ta‘lim jarayonida ma‘naviy- axloqiy madaniyatini shakllantirishda kompetentsiyani rivojlantirishning pedagogik asoslari, imkoniyatlari va bosqichlari, kompetentsiya muammosi, axloqiy va axloqiy kompetentsiya va kompetentsiyaning mazmuni va o‘quvchilarda uni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ko‘rib chiqiladi .

Kalit so‘zlar: Madaniyat, kompetentsiya kompetentsiya, axloqiy va ma'naviy kompetentsiya, shaxsiy kompetentsiya, axloqiy va axloqiy kompetentsiya, ijtimoiy kompetentsiya.

THE ROLE OF SPIRITUAL AND MORAL COMPETENCIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF STUDENTS

Rakhmonova Gulola Shavkatovna, Bukhara State Pedagogical Institute, Senior Lecturer at
the Department of General Pedagogy

gullolaraxmon76@mail.ru

Abstract: This article examines the pedagogical foundations, opportunities and stages of competence development in the formation of students' spiritual and moral culture in the educational process, the problem of competence, the content of moral and ethical competencies and practical recommendations for its development among students.

Keywords: culture, competence, moral and spiritual competence, personal competence, moral and moral competence, social competence.

РОЛЬ ДУХОВНО –ПРАВСТВЕННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ УЧАЩИХСЯ

Рахмонова Гулола Шавкатовна

**Бухарский государственный педагогический институт,
Старший преподаватель кафедры "Общая педагогика"**

gullolaraxmon76@mail.ru

Аннотация: в данной статье рассматриваются педагогические основы, возможности и этапы развития компетентности в формировании духовно - нравственной культуры учащихся в образовательном процессе, проблема компетентности, содержание морально-этических компетенций и компетенций и практические рекомендации по ее развитию у учащихся .

Ключевые слова: культура, компетенция компетентность, нравственно-духовная компетенция, личностная компетенция, морально-нравственной компетентност, социальная компетенция.

Kirish. Yurtimizda bo‘lajak pedagoglarni zamonaviy ta‘lim olishi va egallagan bilimlarni amalda qo‘llash muammolari xalqaro ta‘lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bunda yosh o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligi, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta‘lim jarayonida qo‘llashga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o‘rin tutmoqda. Mamlakatimizda zamonaviy ilg‘or xorij tajribalari asosida uzluksiz ta‘lim tizimi uchun bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy ta‘lim tizimi talablari asosida ichki imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishda tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategyasida “Uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlarining imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Bugungi kunda zamonaviy jamiyatni shakllanish jarayonida jamiyat hayotining barcha jabhalarida raqobat kuchayib insonning axloqiy ma‘naviy va intellektual fazilatlariga talab ortib bormoqda. Axloqiy tamoyillarga ega bo‘lgan ijodkor pedagoglar jamiyat uchun ishonchli kasbiy faoliyat sohasini yaratishga qodir bo‘lishlari kerak. Bu borada axloqiy ma‘naviy, kasbiy

kompetentlikni rivojlantirish pedagogik tizimni yanada takomillashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Tahlil va natijalar. Kompetensiya bu fazilat. Olingan bilim, ko‘nikma, malakalar majmui ham deb atash mumkin. “Kompetentsiya” lotincha competence – erishyapman, munosibman, loyiqman degan ma‘nolarni anglatadi. Kompetentsiya tushunchasi ijtimoiy mazmuni juda keng bo‘lib, u ishlab chiqarishning barcha yo‘nalishlarida qo‘llaniladi.

Kompetensiyaning bazi xususiyatlari quyidagilardan iborat.

1. Kompetentsiya bir yoki bir nechta malakalardan iborat bo‘lib, ularning egallanishi kompetentsiyaga erishish imkonini beradi.
2. Kompetentsiya samaradorlikni baholash mumkin bo‘lgan uchta soha bilan Bog‘liq: bilim, ko‘nikma va munosabat.
3. Qobiliyatlar kuzatilishi mumkin bo‘lganligi sababli ular ham o‘lchanadi.

O‘qituvchi faoliyatida kompetensiyaning baholash mumkin. O‘qitish kompetentsiyalari teng miqdordagi bilim, ko‘nikma va munosabatni talab qilishi mumkin, ammo ba‘zilari buni talab qilmaydi. Kompetentsiyalar ko‘nikma yoki munosabatlardan ko‘ra ko‘proq bilimni o‘z ichiga olishi mumkin, ba‘zi kompetentsiyalar esa ko‘proq mahorat yoki ishlashga asoslanadigan bo‘lishi mumkin.

O‘quvchilarning malakasi bugungi jamiyatning turli murakkabliklari odamlarni jiddiy sinovdan o‘tkazadi. Ushbu talablar shaxslar egallashlari kerak bo‘lgan asosiy vakolatlar uchun nimani anglatadi? Bunday kompetentsiyalarni aniqlash bizga ta‘lim tizimlari va uzluksiz ta‘limning asosiy maqsadlarini aniqlash va o‘qituvchi uchun kompetentsiyalar qatorini baxolash imkonini beradi. Avvalo biz o‘quvchilar muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun, zarur bo‘lgan ko‘nikmalar va quyi ko‘nikmalarni tushunishimiz kerak. Shaxsiy rivojlanish, ularga hayotda raqobatbardosh ustunlikni ta‘minlashi kerak bo‘lgan narsalar: fikrlash va muammolarni hal qilish, fikrlashni nutqiy baholash va muammolarni imkoniyatlarga aylantirishni taxmin qilish, o‘z – o‘zini yo‘naltirish va o‘rganish, xotirani rivojlantirish, shaxsiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, jamoada ishlashni muvaffaqiyatli qilishda boshqalarni ishlantirish kabi ko‘nikma va malakalarni o‘zimizda shakllantirishimiz lozim. Pedagogning mukammallikka intilishida malaka zarur. Zamonaviy dunyoning murakkab muammolariga dosh berish uchun o‘qituvchilarga keng ko‘lamli kompetentsiyalar kerak.

O‘qitish kompetentsiyasi samarali o‘qitish jarayonining ajralmas elementi bo‘lib, u ma‘lum bir mamlakat yoki dunyoning faravonligiga hissa qo‘shishga intiladi. Ta‘lim jarayonidagi markaziy shaxslar o‘qituvchilardir. Ta‘limning muvaffaqiyati ularning tayyorgarligi bilimdonligi va ishlash sifatiga bog‘liq. Professional o‘qituvchining o‘qituvchilik mahorati va ta‘lim kompetentsiyalari quyidagilardan iborat: murakkab pedagogik vazifalarni bajarish, ruhiy va jismoniy sog‘lom barqaror va bag‘rikeng bo‘lish, yosh avlod bilan ishlashga moyillik, yaxshi kommunikativ va kuzatuvchanlik qobiliyati kabilarni o‘z ichiga oladi. “Kompetentlik” tushunchasi dastlab ta‘lim sohasiga psixologik, pedagogik izlanishlar natijasida kirib kelgan tushuncha bo‘lib, zamonaviy atama sifatida qo‘llanilib kelinmoqda.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olishi bilan bog‘liqdir Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar:

1. Ijtimoiy kompetentlik
2. Shaxsiy kompetentlik
3. Texnologik kompetentlik
4. Maxsus kompetentlik

Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati yoritilgan.

- Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalarga egalik, kasbiy faoliyatda sub‘ektlar bilan muloqotga kirisha olish . – Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o‘zishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish – Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta‘lim maqsadlari ish dunyosida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarga ko‘proq bog‘langanligini anglatadi. Demak, kompetensiyalar —faoliyatni

amalga oshirish uchun zarur bo'lgan qobiliyat, bilim va munosabat (xulq-atvor namunalari) tayyorligini o'z ichiga oladi. An'anaga ko'ra, mavzu, uslubiy va ijtimoiy kompetentsiya farqlanadi.

- Birinchi nuqtai nazarga ko'ra, "kasbiy kompetentsiya uchta atamani o'z ichiga olgan integratsiyalashgan tushunchadir - bilimlarning harakatchanligi, usullarning o'zgaruvchanligi va tanqidiy fikrlash".

- Ikkinchi nuqtai nazar, kasbiy kompetentsiyani uchta komponentdan iborat tizim sifatida ko'rib chiqishdir:

Ijtimoiy kompetentsiya (guruh faoliyati va boshqa xodimlar bilan hamkorlik qilish qobiliyati, o'z ishining natijasi uchun javobgarlikni olishga tayyorlik, kasbiy ta'lim texnikasiga egalik); maxsus kompetentsiya (aniq faoliyatni mustaqil bajarishga tayyorgarlik, tipik kasbiy vazifalarni hal qilish qobiliyati, o'z ishining natijalarini baholash qobiliyati, mutaxassislik bo'yicha mustaqil ravishda yangi bilim va ko'nikmalarni egallash qobiliyati); individual kompetentsiya (kasbiy ishda uzluksiz kasbiy rivojlanish va o'zini o'zi amalga oshirishga tayyorlik, kasbiy fikrlash qobiliyati, kasbiy inqirozlar va kasbiy deformatsiyalarni engib o'tish qobiliyati). Shu bilan birga, kompetensiyaga asoslangan yondashuvni ta'lim tizimiga tatbiq etish muammosi o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish mezonlari, ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, diagnostika jarayonlari uchun vositalar bilan ta'minlash va boshqa bir qator muammolar bilan bog'liq.

Ayniqsa:- ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning ma'nosini tavsiflovchi kontseptual apparat hali o'rnatilmagan, chunki asosiy vakolatlarni shakllantirish va bundan tashqari, ularning tizimlari fikrlarning tarqoqligini ifodalaydi;

- kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta'lim maqsadlarini belgilash, uning mazmuni, ta'lim jarayonining o'zini tashkil etish va ta'lim natijalarini baholashda o'zgarishlarni talab qiladi;

- kompetensiyaga asoslangan yondashuv nuqtai nazaridan fan dasturlarini ham o'zgartirish kerak, chunki amaldagi dasturlar, birinchi navbatda, "hajmli" ta'lim natijalariga erishishga;

- ma'lum miqdordagi bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan.

Xulosa. Shunday qilib, yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosalar

chiqarish mumkin: mahalliy ta'limni modernizatsiya qilish strategiyasining asosi bo'lgan kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta'lim tizimining eng maqbul javoblaridan biri sifatida qaralishi kerak. zamonaviy jamiyat unga qo'yadigan talablar; kompetensiyaga asoslangan yondashuvni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish ushbu hodisaning barcha tomonlarini chuqur va har tomonlama ilmiy o'rganishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. . Agaronyan A. S. Kultura povsednevnoy jizni: Sotsialno-prakticheskie aspekti. Tashkent: O'zbekistan, 1982

2. 4. Andreeva G. M. Aktualnie problemi sotsialnoy psixologii. M: Izd-vo MGU 1998

3. Рахмонова Г. III. Технологии Развития Духовно-Нравственной Компетентности Студентов //Miasto Przyszłości. – 2024. – Т. 45. – С. 306-309.

4. Sh R. G. The role of spiritual and moral education in the spiritual formation of students. – 2021.

5. Shavkatovna R. G., Bobirovna A. V. UMUMINSONIY AXLOQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA VA RIVOJLANTIRISHDA OILAVIY TARBIYANING O'RNI //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1450-1454.

6. Raxmonova G. S., Abdunabiyeva F. N. МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТASHKILOTI VA OILA HAMKORLIGI //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 729-734.

7. Рахмонова Г. III. СОДЕРЖАНИЕ И ХАРАКТЕР ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЙ ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ //Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 5-8.

8. Shavkatovna R. G. OILADA BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASH SHAKLLARI //Proceedings of International Educators Conference. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 53-56.

9. Valerievna I. G., Shavkatovna R. G. The Content and Characteristics of Spiritual and Moral Education Works in Higher Education Institutions //Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521). – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 340-342.

10. Рахмонова Г. Ш. ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ ОСНОВА БУДУЩЕГО //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 276-278.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI BILIM OLISHINI YANADA SAMARADOR BO'LISHIDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASINING AHAMIYATI

Salixova Lobar Farhodovna, BuxDPI Boshlang'ich ta'lim kafedrası 1-bosqich magistranti
umedjanova2606@gmail.com

Annotatsiya: maqolada STEAM ta'lim texnologiyasining boshlang'ich sinf o'quvchilar bilim olishidagi ahamiyati, o'quvchilarni bilim olishga ko'maklashuvchi yo'llar, innovatsion va integratsion ta'limni boshlang'ich ta'limga kiritish to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: STEAM, boshlang'ich ta'lim, innovatsiya, integratsiya, bilim, malaka, ko'nikma, ta'lim texnologiyasi.

ВАЖНОСТЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ STEAM В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Салихова Лобар Фарходовна, Магистрант 1 ступени кафедры начального образования БухГПИ
umedjanova2606@gmail.com

Аннотация: в статье рассматривается значение образовательной технологии STEAM в обучении учащихся начальных классов, способы помощи учащимся в учебе, а также внедрение инновационного и интегрированного образования в начальное образование.

Ключевые слова: STEAM, начальное образование, инновации, интеграция, знания, компетенции, навыки, образовательные технологии.

THE IMPORTANCE OF STEAM EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE EFFICIENCY OF LEARNING FOR PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Salikhova Lobar Farhodovna, 1st degree Master's student, Department of Primary Education, BuxSPI
umedjanova2606@gmail.com

Abstract: The article examines the importance of STEAM educational technology in teaching primary school students, ways to help students in their studies, as well as the introduction of innovative and integrated education in primary education.

Keywords: STEAM, primary education, innovation, integration, knowledge, competencies, skills, educational technologies.

Hozirgi zamon ta'limi tizimi o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va mantiqiy fikrlash kabi ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor bermoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu ko'nikmalarni shakllantirish, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. STEAM ta'lim texnologiyasi — bu fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika sohalarini birlashtirib, o'quvchilarni ko'p yo'nalishli, interaktiv o'quv jarayoniga jalb qilishga qaratilgan uslubdir. STEAM ta'limining maqsadi o'quvchilarni nafaqat bilim berish, balki ularda real hayotdagi muammolarni hal qilish ko'nikmalarini ham rivojlantirishdir.

STEAM ta'lim texnologiyasining asosiy jihatları

1. **Integratsiya:** STEAM yondashuvi fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika sohalarini birlashtiradi. Bu o'quvchilarni turli fanlarni bir-biri bilan bog'lab o'rganishga undaydi. Masalan, matematika va fizika asoslarini o'rganish orqali o'quvchilar o'z bilimlarini real hayotda qanday qo'llashlarini tushunadilar. Shuningdek, san'at va dizayn orqali yaratuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

2. **Ijodiy fikrlash va innovatsiyalar:** STEAM o'quvchilarga yangi g'oyalar yaratish, muammolarni yangicha usullar bilan yechish va innovatsion yechimlar topish imkonini beradi. Ijodiy fikrlash esa o'quvchilarning shaxsiy yondoshuvini rivojlantiradi, ularning o'z bilimlarini kundalik hayotda qanday ishlatishlarini ko'rsatadi.

3. **Hamkorlik va jamoaviy ish:** STEAM o'quvchilarga jamoa bo'lib ishlashni o'rgatadi. Ko'pincha o'quvchilar loyiha asosida ishlashadi, bir-biriga yordam berishadi va fikr almashishadi. Bu esa ularning ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

4. **Amaliy tajriba va eksperimentlar:** STEAM yondashuvi o'quvchilarga amaliy mashg'ulotlar va tajribalar orqali bilim olish imkonini beradi. Masalan, kimyo yoki biologiya fanlaridan olingan amaliy tajribalar o'quvchilarga nazariy bilimlarni hayotiy tajribalar bilan bog'lashda yordam beradi. Bu usul o'quvchilarning nazariy bilimlarni yaxshi o'zlashtirishiga va o'zlari yaratgan loyihalar orqali o'rganishga imkon yaratadi.

Boshlang'ich sinfda STEAM ta'limining ahamiyati

1. **Erta yoshdan bilimni o'zlashtirish:** Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun STEAM ta'limi yangi bilimlarni qiziqarli va interaktiv tarzda o'rganishga imkon yaratadi. O'quvchilar bu usul orqali ilmiy va texnik sohalarga qiziqish uyg'otib, ularning bilim olish jarayoni yanada samarali bo'ladi.

2. **Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish:** STEAM ta'limi o'quvchilarga turli vaziyatlarda tanqidiy fikr yuritish va o'zlarining fikrlarini asoslashni o'rgatadi. Masalan, matematika masalalarini yechish yoki fizikada amaliyot qilish orqali o'quvchilar tahlil qilish, sinov va xatolar orqali o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

3. **Kelajakdagi kasb tanlashda yordam:** STEAM ta'limi o'quvchilarga kelajakda turli kasb va sohalarda faoliyat yuritish uchun kerakli bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu usul orqali o'quvchilar ilm-fan, texnologiya, dizayn, muhandislik va boshqa sohalarga qiziqish uyg'otishlari mumkin.

4. **O'qituvchilar uchun yangi yondashuvlar:** STEAM ta'lim texnologiyasi o'qituvchilarga o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda o'qitishning yangi usullarini qo'llash imkonini beradi. O'qituvchilar interaktiv va amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarga bilim berishda innovatsion usullarni amalga oshiradilar.

STEAM ta'lim texnologiyasi boshlang'ich sinf o'quvchilarini faqat ilmiy bilimlar bilan ta'minlab qolmay, balki ularning shaxsiy va ijodiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu metod orqali o'quvchilar bir nechta muhim ko'nikmalarni egallashadi:

1. **Yaratish va dizayn qilish ko'nikmalari:** STEAM ta'limida san'at va dizayn o'quvchilarni ijodkorlikka o'rgatadi. O'quvchilar turli xil san'at asarlari yaratish, loyihalar tayyorlash va yangi mahsulotlar ishlab chiqishda o'z fikrlarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning kreativ qobiliyatlarini rivojlantiradi. Misol uchun, ilmiy loyihalarni san'at va dizayn bilan birlashtirish o'quvchilarga tasavvurlarini erkin ifodalash imkonini beradi.

2. **Amaliy bilimlar va real hayot bilan bog'lash:** STEAM ta'limi o'quvchilarga real dunyo muammolarini o'rganish va ularni yechish uchun turli usullarni qo'llashni o'rgatadi. O'quvchilar ilmiy tajribalar va loyihalar orqali o'rgangan bilimlarini real hayotdagi muammolarni hal qilishda sinab ko'radilar. Masalan, o'quvchilar o'zi qurilgan oddiy mexanik qurilmalar orqali energiya tejash yoki ekologik masalalarni hal qilish bo'yicha fikr yuritishlari mumkin.

3. **Kritik fikrlash va masalalarni hal qilish:** STEAM metodikasi o'quvchilarga har bir fan sohasining o'ziga xos usulini o'rganish va ularni turli vaziyatlarda qo'llashni o'rgatadi. Masalan, matematika masalalari yoki fizika tajribalarini yechishda o'quvchilar logik fikrlashni va maqsadga erishish uchun aniq strategiyalarni ishlab chiqishni o'rganadilar. Shu bilan birga, o'quvchilar xatolardan o'rganish va muammolarni yangi usullar bilan hal qilishni o'rganadilar, bu esa ularning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.

4. **Ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalar:** STEAM ta'limi o'quvchilarga o'z fikrlarini aniq va ravon tarzda ifodalashga, boshqalar bilan samarali ishlashga va jamoa bo'lib ish yuritishga imkon yaratadi. O'quvchilar loyihalar ustida ishlashda guruhlarda hamkorlik qilishadi, o'zaro fikr almashishadi va boshqalar bilan o'z bilimlarini bo'lishishadi. Bu esa ularning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradi va ijtimoiy adaptatsiyasini osonlashtiradi.

5. **Darslarni yanada qiziqarli va samarali qilish:** STEAM ta'limi darslarni monoton va oddiy qoralama o'quv jarayonidan farqli o'laroq, interaktiv, amaliy va qiziqarli qiladi. O'quvchilar darslarda tajribalar, loyiha ishlari, o'yinlar va eksperimentlar orqali bilim olishadi. Bu usul o'quvchilarga darsga qiziqish uyg'otib, o'zlashtirish jarayonini yanada samarali qiladi. Shu bilan birga, STEAM darslari o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi.

Xulosa

STEAM ta'lim texnologiyasi boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun juda muhimdir, chunki u o'quvchilarda nafaqat ilmiy bilimlar, balki ijodiy va tanqidiy fikrlash, hamkorlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Bu yondashuv o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Shuningdek, STEAM ta'limi orqali o'quvchilar kelajakdagi kasblarga tayyorlanishda o'z bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashlari mumkin. Bu esa o'z navbatida, ularga muvaffaqiyatli kelajak qurish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Sh.M.Mirziyoyev. 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son qarori.
- 2.Sh.M.Mirziyoyev 2022-yil 6-iyuldagi —2022 — 2026-yillarda O'zbekiston
- 3.Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF165-son farmoni
- 4.Bybee, R. W. (2013). The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. NSTA Press.

**ADABIYOT DARSLARIDA TO‘GARAKLAR ORQALI MUSTAQIL O‘QUV
FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING SAMARALI YO‘LLARI**
*Ro‘zimurodova Gulasal Rustam qizi, Buxoro davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va
adabiyoti 1-bosqich magistranti*

ruzimurodovagulasal02@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta’lim maktab o‘quvchilarida adabiyot fanidan mustaqil ishlash va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini adabiy-ijodiy, drama, ifodali o‘qish va badiiy ijod to‘garaklari vositasida shakllantirishning afzalliklari yoritilib, o‘quvchilarning adabiyot darslaridagi mavzularni oson o‘zlashtirilishi to‘g‘risida batafsil to‘xtalgan.

Kalit so‘zlar. Muammoli ta’lim, to‘garak, mustaqil ishlash, adabiy-ijodiy to‘garak, drama to‘garagi, ifodali o‘qish to‘garagi, badiiy ijod to‘garagi, adabiy ko‘rgazma.

**ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ
УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЧЕРЕЗ КРУЖКИ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ**
Розимуродова Гуласал Рустамовна, магистрант 1-го курса, факультет узбекского языка и
литературы, Бухарский государственный педагогический институт
ruzimurodovagulasal02@gmail.com

Аннотация. В данной статье рассмотрено преимущества формирования навыков самостоятельной работы и самостоятельного мышления по предмету «Литература» у общеобразовательных школьников посредством кружков литературно-творческого, драматического, выразительного чтения и художественного творчества, а также подробно обсуждаются легкости усвоения учащимися темы на уроках литературы.

Ключевые слова. Проблемное обучение, кружок, самостоятельная работа, литературно-творческий кружок, драматический кружок, кружок выразительного чтения, кружок художественного творчества, литературная выставка.

**EFFECTIVE WAYS TO ORGANIZE INDEPENDENT LEARNING ACTIVITIES THROUGH
CLUBS IN LITERATURE CLASSES**
Rozimurodova Gulasal Rustamovna, 1st-year Master's student, Department of Uzbek Language and
Literature, Bukhara State Pedagogical Institute
ruzimurodovagulasal02@gmail.com

Annotation. This article highlights the advantages of developing the skills of independent work and independent thinking in the subject “Literature” among general education schoolchildren through circles of literary and creative, dramatic, expressive reading and artistic creativity, as well as ease of learning by students. Topics in literature lessons are discussed in detail.

Key words. Problem-based learning, circle, independent work, literary and creative circle, drama circle, expressive reading circle, artistic creativity circle, literary exhibition.

Kirish. Adabiy to‘garaklar o‘quvchilarning badiiy asarlarni o‘qish va tushunishga bo‘lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularni ijodiy faoliyatga jalb etadigan samarali vosita hisoblanadi. Bugungi kunda ta’lim tizimida faqat darslar bilan cheklanib qolmasdan, qo‘shimcha ta’lim shakllarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Adabiy to‘garaklar orqali o‘quvchilar o‘zining badiiy didini rivojlantirishi, ijodiy tafakkurini kengaytirishi va o‘z fikrini mustaqil bayon qila olishi mumkin. Ushbu maqolada adabiy to‘garaklarning ahamiyati, ularni tashkil etish jarayonidagi asosiy tamoyillar va samaradorlikni oshirish usullari haqida batafsil so‘z yuritiladi.

Adabiyot ta’limida mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish muammoli ta’lim tizimi asosida amalga oshadi. O‘quvchining mustaqil fikrlash ko‘nikmalari asarni badiiy anglash, asarga nisbatan shaxsiy munosabatni hosil qilish bilan izohlanadi.

Muammoli ta’lim asosi Jon Dyuyi. 1851-yillar pedagog va psixolog olimi. Muammoli ta’lim o‘quvchida mustaqil fikrlash ko‘nikma va malakalarini hosil qiladi.

Tafakkur jarayoni insonning ruhiyati bilan bog‘liq holda kechadi. Fikrlaydigan inson ichki dunyosi boy, dunyoqarashi keng, bilimi chuqur bo‘lishi, uning fikr va xulosalari saviyasi bilan darajada bo‘lishiga xizmat qiladi. Inson tafakkurini tiniqlik, mantiq, erkinlik, mustaqillik, badiiylik va ijodiylik qobiliyatlarining mavjudligi bilan o‘lchanadi. Insonning bu qobiliyatlarni rivojlantirish badiiy asar mutoalasi uni to‘liq badiiy anglash vositasida amalga oshadi.

L. Vigodiskiy «Fikrlash jarayoni dastlab ota-ona bilan bo'lgan muloqot jarayonida shakllanadi. Yuqori sinflarda bu muloqot o'qituvchi va do'stlari munosabati bilan boyiydi» degan fikrlarni ilgari suradi. O'qituvchining badiiy asar bilan bo'lgan muloqoti qolgan boshqa muloqotlarda o'zining mazmundorligi bilan farq qiladi.

Adabiyot darslarida tafakkur jarayonini vujudga keltiruvchi omillar: o'smirlik yoshdagi o'quvchi faollikka moyillik, ishtiyoqining zo'rliigi, mustaqillikka intilishi kabi xarakter xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham adabiyot dasturida qiziqarli suyugetga ega sarguzasht asarlarga keng o'rin ajratilgan.

Janni Rodari pedagogik olim sifatida fikrlashga o'rgatishning muhim omili deb, bolaga ertak to'qishni sarguzashtlar tuzishni o'rgatish lozimligi g'oyasini ilgari surgan.

Fransuz faylasufi Dekart: "Men fikrlayapman, demak men mavjudman, degan g'oyani ilgari surgan. Bu fikr inson hayotida tafakkurni odamning odamligi belgisi sifatida yetakchi o'ringa chiqaradi. Uning fikricha, hech narsa insonning odam ekanligini fikrlashchalik asoslab berolmaydi. Demak, mustaqil ravishda muhokama qilish, tahlil etish, ijodiy-mantiqiy fikrlash asosiy insoniy xususiyatdir. Fikrlash insonning aqlan va ruhan sog'lomligining asosiy belgilaridir. Uning mustaqilligi tushunchalar, mantiqiy birikmalar, mavjud til vositalaridan oqilona foydalanish bilan tavsiflanadi.

"Fikrlash jarayoni, deb yozadi L. Vigdoskiy, bolaning ota-onasi bilan muloqotidan boshlanadi. Mustaqil fikrlash esa bu suhbatlarni bola "yutib", o'zicha "hazm qila boshlaganidan so'ng shakllanadi. Bu qarashga tayanib, shunday xulosa chiqarish mumkinki, fikrlash bevosita o'z yo'naltiruvchi kuchi, maqsadi, usullariga ega bo'lgandagina mustaqil faoliyatga aylanadi. Fikrlashning mustaqilligi uning yuqorida sanalgan shakllaridan biri sifatida kishi shaxsiyati va siyrati, ichki "men"i bilan bog'liq.

Demak, umuman, fikrlanganda narsa-hodisalarning boshqalar tomonidan kashf etilgan jihatlari bilib olinadi. Mustaqil fikrlaganda esa, odam olam hodisalari va hayotiy vaziyatlar mohiyatini o'zgalarnikiga o'xshamagan yo'sinda, o'ziga xos yo'l bilan bilib oladi[1].

O'smir yoshidagi o'quvchida boshlang'ich maktab bolasiga xos bo'lgan insonni baholashdagi biryoqlamalilik kamayadi. 5-7-sinf o'quvchisini shaxsning axloqiy sifatleri, uning ichki dunyosi, xarakterining shakllanishi va bunga turtki bo'lgan omillar qiziqtiradi. Ammo o'smir hali adabiy qahramonni uning shaxsiga xos bo'lgan barcha jihatlar bilan yaxlit qabul etish va baholashga qodir emas.

Mustaqil fikr aytish istagi, o'rganganlari orasidan o'zinikini ajratib ifodalashga harakat 5-sinf bolasida ham kam uchraydi.[1].

Maktab davrida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda adabiy ta'lim o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Adabiyot darslari sinfdagi o'quvchilar bilan yalpi ishlash, ayni vaqtda har bir bolaning mustaqil faoliyatini birgalikda qo'shib olib borish ko'zda tutilgan holda, o'qitishning jamoa, guruh yoki individual shakllarida tashkil etilishi mumkin. Bundan tashqari, adabiyot darslarining maqsad va vazifalariga, mazmun va metodlariga mos keladigan tizim ham zarur.[1]

Adabiyot va adabiy o'qish mashg'ulotlariga aloqador bo'lgan to'garaklar asosan 3 turlidir.

1. Adabiy-ijodiy to'garak.
2. Drama to'garagi.
3. Ifodali o'qish va badiiy ijod to'garagi.

Ma'lumki, bu uch to'garak ham o'quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi, adabiyotdan yanada ko'proq ma'lumot olishini, o'z ustida ishlashni, ijodga ilhomlantirish uchun xizmat qiladi. Shu sababdan mazkur to'garaklarning maqsad va vazifalari bir nuqtada birlashadi.

To'garakda o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan yangiliklar bilan tanishadilar. Ularni qiziqarli, jonli bo'lishiga harakat qilish kerak. To'garak a'zolarining saviya vayoshlarini albatta e'tiborga olib reja to'ziladi va har bir to'garak rahbari shu to'garakning xususiyatini aniqlagan holda ish yuritadi.

Drama to'garagiga rahbarlik qiladigan o'qituvchi: dramatik asarlarning xususiyatlarini egallagan va ma'lum darajada aktyorlik san'atidan ham xabardor bo'lishi, o'quvchilar oldida biror bir personajning harakat va nutqini odat va xarakterini ko'rsatib bera ololadigan bo'lishi lozim.[2]

Adabiy-ijodiy to'garak rahbarida esa adabiyot asarlarini tahlil etish, nazariy bilim berish va ijod ishidan ham xabardor bo'lsa, va o'z ijodidan o'quvchilarga manzur qila oladigan bo'lsa, mazkur to'garaklar obro'si yanada oshadi.

To'garak mashg'ulotlari bir oyda, bir yoki ikki marta o'tkaziladi. Mashg'ulotlar oddiy sinfda emas, balki maktab adabiyot kabineti maktab sahnasida o'tkazilgani ma'qul. Mashg'ulot o'tkaziladigan joyning tashqi ko'rinishi ham o'quvchilar ruhiyatiga kushli ta'sir qiladi. Mashg'ulotlar mavzusini xilma-xilligi ishning mazmuniga o'quvchilarning qiziqishlariga ta'sir etadi. Bir yillik mashg'ulot uchun tuzgan reja o'z navbatida dastur materiallari asosida adabiyot va adabiy o'qish yuzasidan o'quvchilarga beriladigan ma'lumotni boyitish va kengaytirishda, ayniqsa drama va adabiy-ijodiy to'garaklar ahamiyatlidir.

Adabiy-ijodiy to'garaklar. Mazkur to'garakning mashg'ulotlari 2 xil xarakterga egadir. Mashg'ulotning bir xili sinfda olingan bilimni mustahkamlash va to'ldirishga, adabiy asarlar yoki ayrim yozuvchilarning ijod yo'li bilan tanishishga qaratilsa, ikkinchi bir xili o'quvchilarning mustaqil ravishda olib boradigan ijodiy ishlarini o'stirish va unga rahbarlik qilish, yo'llanma berishga qaratilgan bo'ladi. Buning yaxshi tomoni shundaki, o'quvchilar bir mashg'ulotda biror yozuvchining asarini tahlil qilsalar, ikkinchi mashg'ulotda xuddi shu asosda to'garak a'zolari tomonidan yozilgan she'r va hikoyalarni tahlil qiladilar. Olingan nazariy bilimlar va asarning badiiy xususiyatlari, ma'naviy va madaniy san'atlar haqida bilimlari yuzasidan hosil qilgan malakalarini o'z asarlari muhokamasiga ham tatbiq qiladilar. Xuddi shu yo'sinda o'tkazilgan mashg'ulot natijasida o'quvchilarda adabiy asarlar o'qishga havas uyg'onadi. To'garakning vazifasi va maqsadi esa o'quvchilarning qiziqishini tarbiyalashdan ularga sistemali ravishda ko'rsatma berib borishdan iborat bo'lmog'i lozim.[3]

Mustaqil ijodiy ishlar albatta, nuqsonli bo'ladi. Bu ishda juda ehtiyot bo'lmoq kerak. Rahbar to'garak a'zosini bezdirib qo'ymasligi, tahlil va tuzatish jarayonida bosiqlik bilan, ilmiy nuqtai nazardan yondoshmog'i lozim.

Ijodiy mustaqil ishlarni tahlilda kishi hajmli asarlarni ayniqsa she'rlarni doskaga yozish, va doskada tushuntirib berish lozimdir. Umumiy muhokamada to'garak a'zolari o'z fikrlarini aytadilar. O'qituvchi rahbarligida shu ish nuqsonlarini tuzatib chiqish, kelgusida qanday yozish yo'llarini ko'rsatish, tahlil qilingan asarlarni gazeta va jurnallarda nashr qildirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Taqrizlar yozdiladi. Tinglash va muhokama yakunlanadi, yutuq va kamchiliklarni tuzatish yo'llari ko'rsatib beriladi.

Drama to'garagi – o'quvchilarning adabiyotga, ayniqsa dramatik asarlarga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalash vositasidir.

Xususiyatlari: to'garak a'zolari oldiga qo'yiladigan talablarning xarakteridan kelib shiqib, to'garak a'zolari adabiyot nazariyasi, badiiy asarni tahlil qilish yo'llari, janrlar va ularning xususiyatlari, tuzilishi va ishlari bilan tanish bo'lishlari lozim. To'garakka qiziquvchi havaskorlar to'planadi. Mashg'ulotlar sinfda va sinfdan tashqari o'qiladigan materiallar asosida mashg'ulot rejasi tuziladi.

To'garakning eng muhim bosqichlaridan biri asarni sahnaga qo'yishga tayyorgarlik davridir. Bu davrda o'quvchilar asarning maqsadi, badiiy xususiyati va uni o'qish texnikasi bilan tanishadi. Muhim ahamiyatga ega bo'lgan narsa repertuardir. Har qanday sahna asarlarini emas, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan, o'quvchilarda mehr-shavqat, muhabbat, vatanparvarlik ruhini tarbiyalaydigan, ularning hayotlariga yaqin turgan asarlarni, o'quvchilarga tanish bo'lgan yozuvchilarning asarlarini hikoya, roman, povest ishlab chiqilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.[4]

Drama to'garaklarda mashg'ulotning yana bir turi adabiy montajlardir. Tanlangan mavzuni yoritish ushuncha turli asarlardan kerakli epizodlarni, she'riy parchalar, ashulalar kiritiladi.

A.Navoiyning yoshlik yillari mavzusida adabiyot montajda shu davriga oid parchalar, she'r, tarixiy manba, memuar va vaqtli matbuot materiallaridan foydalanish mumkin. To'garak a'zolari nazariy malakani oshirish ushuncha ko'rgan kino, teatri haqida, aktyorlar mahorati haqida muhokama va muzokaralar o'tiladi. Bu ish ularning qiziqishlarini yanada oshiradi.

Ifodali o'qish to'garagi – asosiy maqsadi o'quvchilarni ifodali o'qish va badiiy hikoyalashga, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon anglatishga o'rgatishdan iborat. Reja tuziladi va shu asosda o'qiladigan asarlar ruhiyati aniqlanadi, o'qish texnikasi va asarlar mazmunini tushunishga yordam beruvchi nazariy ma'lumotlar bilan o'quvchilarni tanishtiriladi.

Adabiy kechalar odatda barcha to'garaklar qismi hisoblanadi .

Adabiy ko'rgazmalar. /Yozuvchi, shoir , kitoblar haqida.

Yozuvchining hayotiga oid bo'lgan eksponatlar quyidagicha:
Yozuvchining hayotiga oid bo'lgan eksponatlar quyidagicha:

1. Yozuvchining portreti, oila a'zolari, hayotining ayrim momentlari kurs ilyustratsiyalari;
2. Yozuvchining tarjimai holiga yoki yozuvchining sayohatlariga oid xarita;
3. Yozuvchi va uning zamondoshlari;
4. O'quvchilari ishlagan rasmlari;
5. Asar yuzasidan ishlangan maketlar ko'rinishi;
6. Sinxronik tablitsa ijtimoiy- siyosiy hayot va davrning adabiy harakati bilan bog'langan holda yozuvchining ijodiy yo'li;
7. Asarning obrazi va kompozitsiyasining o'zaro nisbati;
8. Asarning yaratilish tarixi;
9. Poetik tilning tahlil na'munalari;
10. Yozuvchining adabiy guruhlar tutgan o'rni;
11. Turli davradagi turli sinflar vakillarining yozuvchiga bergan baholari;
12. Yozuvchining ijodi va u yashagan zamondagi rasm san'ati;
13. Yozuvchining asarlari musiqada;
14. Asarlari teatrda va kinoda;
15. Yozuvchilarning san'atlari va kimmatli fikrlari;
16. Yozuvchi haqida nimalar o'qish kerak;
17. Asosiy tanqidiy adabiyot namunasi;
18. Bizning davrda yozuvchining ijodiga berilgan baho.

Ko'rgazmalar aniq kishiga ta'sir qiladigan, taassurot qoldiradigan bo'lishi kerak. Bu juda ma'suliyatli ish. Tayyor bo'lgach, ochiq deb e'lon qilinadi.

Adabiy ekskursiya, tashkil etishdan oldin, o'qituvshi asosiy maqsadni belgilab oladi. Mas.: 6-9 sinflarda biror yozuvchi tarjimai holini o'tgandan keyin, shu bobni mustahkamlash ushuncha muzeyga ekskursiya uyushtirishi mumkin. Kuzatish maqsadga ma'lum darajada pedagogik proses bilan ham bog'lanadi

To'garak mashg'ulotlarini adabiy ta'lim klasteri asosida interfaol usullardan foydalangan holda tashkil etish ta'lim sifati va samaradorligiga ijobiy ta'sir qiladi. O'quvchining to'garak mashg'ulotlari davomida erkin fikrlay olish, ijodkorlik mahoratini bemalol namoyon etishi va tanqidiy fikrlashi uchun sharoit yaratilishi kerak.

Adabiyot to'garaklarini tashkil etishda o'quvchining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish diqqat markazida bo'lmog'i darkor. To'garak mashg'ulotlari nomi ham aynan shu maqsaddan kelib chiqib tanlanmog'i ayni muddao. Masalan, "Yosh ijodkorlar", "Javondagi javohir", "Yosh adabiyotshunoslar" kabi to'garaklar bunga yaqqol misoldir.

"Yosh ijodkorlar" to'garagi asnosida ularning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishimiz mumkin bo'lsa, "Yosh adabiyotshunoslar" to'garagi yordamida adabiyot nazariyasini o'quvchilarga o'qitishimiz mumkin. "Javondagi javohir" to'garak mashg'ulotining asosiy maqsadini esa o'quvchilarning asarni tahlil qila olish va tanqidiy jihatdan fikr bildirish olish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratish samaralidir.

Pedagogika fanlari nomzodi T.Niyozmetovanning fikricha, adabiyot darslarida o'quvchilar quyidagi yo'nalishlarda mustaqil topshiriqlar ustida ish olib borishi mumkin:

1. O'quvchilar kirish mashg'ulotlarida o'qituvchi tashkil etgan suhbatda faol qatnashadilar, o'rganilgan asar mavzusiga oid ilgari o'qigan kitoblari, korgan filimlari, eshitgan voqea-hodisalar va epizodlarni xotirlab, o'qituvchining savollariga og'zaki yoki yozma javob tayyorlaydilar.

2. Badiiy asarni uyda ovoz chiqarib o'qishda, ko'proq esa ichida o'qish jarayonida ini izchil tartibda esda saqlab qolishga matn mazmunini izchil tartibda esda saqlab qolishga intiladilar, tushunmagan so'zlari va iboralarini belgilab qo'yadilar. Agar ilgari malaka hosil qilgan bo'lsa, o'qituvchining ifodali o'qishidan o'rnatib olib, matnni o'qishdagi asosiy ohangni, intonasiyani, pauza qilishga doir o'rinlarni aniqlab, ifodali va yoddan o'qishga tayyorlanadilar.

3. O'qigan matnlarini qismlarga ajratadilar, reja tuzadilar, qism uchun ixcham sarlavhalar topadilar.

4. Matn mazmunini qayta hikoyalashga tayyorlanadilar, qisqartirib, tanlab badiiy hikoyalash bo'yicha mashq qiladilar.

5. Asarni tahlil qilish uchun o'qituvchining oldindan berilgan savollariga matndan misollar tanlab, asar personajlariga og'zaki yoki yozma tavsifnoma tayyorlaydilar, kichik hajmli ma'ruza matnlari tuzadilar.

6. Matnning badiiy tahlili uchun materiallar tayyorlaydilar. Badiiy til vositalarini kuzatadilar, ularni o'qituvchi ko'rsatgan namunada daftarlariga yozadilar.

7. Takrorlash mashg'ulotlaridagi yakunlovchi suhbatga tayyorlanadilar. Yozma nazorat ishlariga tayyorgarlik ko'radilar. Bu vazifalarning hammasi o'qituvchining topshirig'iga asosan bajariladi."

Ko'rinadiki, T.Niyozmetovanning tavsiyalari asosan o'qituvchilarning savol-topshiriqlari asosida mustaqil ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan. Lekin mazkur azkur savol savol-topshiriqlarning topshiriqlarni hammasidan ham ta'lim Jarayonida bir xil tarzda foydalanish mumkin emas va buning imkoniyati ham yo'q. [5]

Sinfdan tashqari o'qishni uyushtirishda o'qituvchi tashabbuskor bo'lmog'i, yangi yaratilgan o'ziga xos va badiiy yuksak asarlarni o'quvchilarga tavsiya etishdan cho'chimasligi darkor. Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar o'quvchilarni erkin mulohazaga chorlaydi, ijodkorlikka undaydi, kundalik voqelikda tug'ilgan hayotiy savollarga javob topishga o'rgatadi.[6]

To'garak mashg'ulotlari davomida samaradorlikka erishish uchun, eng avvalo to'garak mashg'uloti ishlanmasiga e'tibor qaratish lozim. Shuningdek, uni ta'lim klasteri asosida innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida tuzish maqsadga muvofiqdir. Bunda o'qituvchi oldiga qo'ygan har bir maqsadga o'quvchilarning tushunishi uchun topshiriqlar soddaligi va tushunarlilikiga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki adabiy to'garaklar o'quvchilarning adabiyotga qiziqishini oshirish, ularda ijodkorlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Bu faoliyat nafaqat ta'lim jarayonini boyitadi, balki o'quvchilarning ma'naviy olamini kengaytiradi, milliy madaniyat va qadriyatlarga bo'lgan hurmatni mustahkamlaydi. Shu bois o'qituvchilar adabiy to'garaklarni tashkil etishda ijodiy yondashuv va innovatsion usullardan foydalanishlari zarur. To'garaklar nafaqat adabiyot darslariga, balki o'quvchilarning kelajakdagi shaxsiy rivojlanishiga ham ulkan hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. usanboyeva Q., Niyozmetova R.. Adabiyot o'qitish metodikasi. Birinchi kitob. T.: "Innovatsion Ziy" 2012 H
2. afo Matchon. Bolalar adabiyotidan o'quv qo'llanma. Chirchiq. 2021. S
3. usurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: ped.fan.dokt. ... dis-yasi. – T.: TDPI, 1993. – 364 b. M
4. .Matchonov va boshq. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi darslik. T.: "Ishonchli hamkor", 2021. S
5. U.N.Xodjamqulov, Sh.I.Botirova. Adabiyot nazariyasini o'qitish metodikasi. – T.: "BOOK TRADE 2022") nashriyoti. 2022.www.arxiv.uz (

AKADEMIK LITSEYLARDA SIFAT SO‘Z TURKUMINI O‘QITISHNING SAMARALI USULLARI

(AN‘ANAVIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR)

Jo‘rayeva Mohigul Baxtiyor qizi, Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
mohiguljurayeva95@gmail.com

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada sifat so‘z turkumini o‘qitishda an‘anaviy va zamonaviy yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida an‘anaviy yondashuvlarning grammatik qoidalarni o‘rgatish va nazariy bilimlarni mustahkamlashga qaratilgani, zamonaviy metodlarning esa interfaol ta‘lim vositalari, axborot texnologiyalari va o‘yin elementlari orqali o‘quvchilarning faol ishtirokini ta‘minlashi aniqlanadi. Eksperimental tadqiqotlar natijasida zamonaviy yondashuvlarning o‘quvchilarning sifat so‘z turkumini o‘zlashtirish darajasiga ijobiy ta‘siri kuzatildi. Xulosa sifatida, an‘anaviy va zamonaviy metodlarning uyg‘un holda qo‘llanishi ta‘lim samaradorligini oshirishda muhim omil ekani ta‘kidlanadi.

Kalit so‘zlar: sifat so‘z turkumi, an‘anaviy yondashuv, zamonaviy ta‘lim metodlari, interfaol o‘qitish, pedagogik innovatsiyalar

EFFECTIVE METHODS OF TEACHING THE QUALITATIVE WORD CATEGORY IN ACADEMIC LYCEUMS (TRADITIONAL AND MODERN APPROACHES)

*Mohigul Baxtiyorovna Jo‘rayeva, PhD student (basic doctoral candidate), Bukhara State
Pedagogical Institute*

mohiguljurayeva95@gmail.com

Annotation. this article analyzes the effectiveness of traditional and modern approaches in teaching the qualitative word category. During the study, it is determined that traditional approaches are aimed at teaching grammatical rules and strengthening theoretical knowledge, while modern methods provide active student participation through interactive educational tools, information technology and game elements. Experimental studies have shown the positive effect of modern approaches on the level of student mastery of the qualitative word category. As a conclusion, it is noted that the harmonious use of traditional and modern methods is an important factor in improving the effectiveness of Education.

Keywords: quality Word category, traditional approach, modern educational methods, interactive teaching, pedagogical innovation.

ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ОБУЧЕНИЯ КАЧЕСТВЕННОМУ СЛОВАРЮ В АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЯХ (ТРАДИЦИОННЫЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ПОДХОДЫ)

*Жураева Мохигул Бахтиёровна, соискатель степени доктора философии (PhD),
Бухарский государственный педагогический институт*

mohiguljurayeva95@gmail.com

Аннотация. В данной статье анализируется эффективность традиционных и современных подходов к обучению качественному словарю. В ходе исследования установлено, что традиционные подходы направлены на обучение грамматическим правилам и закрепление теоретических знаний, в то время как современные методы обеспечивают активное участие учащихся посредством интерактивных средств обучения, информационных технологий и игровых элементов. В результате экспериментальных исследований было отмечено положительное влияние современных подходов на уровень усвоения учащимися качественного словаря. В заключение подчеркивается, что гармоничное использование традиционных и современных методов является важным фактором повышения эффективности обучения.

Ключевые слова: категория прилагательного, традиционный подход, современные методы обучения, интерактивное обучение, педагогические инновации.

Kirish. Tilimizning qay darajada boy va rang-barangligi fikrimizni bayon etishda so‘zlarni qanchalik ko‘p va turlicha qo‘llashimiz bilan bog‘liq holat hisoblanadi. Har bir millatning til sohasidagi izlanishlari alohida e‘tirofga loyiq bo‘lib, shu qatorda bizning ona tilimiz –O‘zbek tili

ham buyuk e'tirofqa loyiq tillar qatoriga kiradi. Buning asosiy sababchisi barchamiz bilgan buyuk mutafakkir olim hazrat Alisher Navoiy bobomizdir. Biz o'z tilimizning boy holatini ya'ni serqirraligini saqlab qolish maqsadida jadal rivojlanib borayotgan bugungi zamon yoshlariga uqtirishimiz va o'z tiliga bo'lgan hurmat hissini singdirishimiz lozim deb o'ylayman. XXI asr zamonaviy texnologiyalar asri deb aytilishi bejizga emas albatta. Shunday zamonda biz pedagoglar ham o'z ilmiy faoliyatimiz davomida o'sib kelayotgan yosh avlodga yangi zamonaviy metodlar orqali ta'lim berish va sohamiz doirasida aniq va muhim ma'lumotlarni o'quvchilar bilan almashishga harakat qilmoqdamiz. Men ham o'z ilmiy ishimning obyektini hisoblangan akademik litsey o'quvchilarining bilim olishi uchun kerakli mavzularda izlanishlar olib bormoqdaman. Ushbu maqolada sifat so'z turkumini o'qitishda an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar taqqoslanadi hamda samarali ta'lim metodlari ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi. Morfologiyaning bo'limining mustaqil so'z turkumlaridan biri hisoblangan sifat so'z turkumini o'qitish tilshunoslik va pedagogika sohalarida dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Til tuzilishini mukammal tushunish va grammatik kompetensiyani oshirish uchun sifatlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari morfologiya tilshunoslikning asosiy bo'limlaridan biri bo'lib, u so'zlarning shakllari, yasalishi va grammatik xususiyatlarini o'rganadi. Sifat so'z turkumi esa tilning mazmuniy va grammatik tuzilishini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy yondashuvlar asosan grammatik qoidalarini yodlatish va nazariy bilimlarni singdirishga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlar interfaollik, texnologiyalardan foydalanish va amaliy mashg'ulotlarga asoslangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot sifat so'z turkumini o'qitishda turli metodlarni taqqoslash va ularning samaradorligini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda eksperimental va nazariy tahlil metodlaridan foydalanildi. Eksperimental metod orqali ta'lim jarayonida turli yondashuvlarning samaradorligi sinovdan o'tkazildi. Nazariy tahlilda esa ilgari o'tkazilgan ilmiy izlanishlar tahlil qilindi.

Quyida sifat so'z turkumini o'qitishda zamonaviy va an'anaviy usulda dars tashkil qilish metodlarini ko'rsatib o'tamiz.

Sifat so'z turkumini o'qitishda an'anaviy yondashuvlar An'anaviy yondashuvlar asosan grammatik qoidalarga va ta'riflarga tayanadi. Bunday metodlar quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

Nazariy tushuntirish: Sifatning belgilari, leksik-grammatik turlari va tuzilishi tushuntiriladi. Masalan: "Predmetning belgisini bildirib, qanday? qanaqa? qaysi? so'roqlaridan biriga javob bo'lgan so'zlar sifat deyiladi. Sifat harakatning belgisini ham bildirishi mumkin: yaxshi gapirdi, qattiq ta'sirlandi kabi. Harakat belgisini ba'zi sifatlarga bildiradi. Lekin sifatlarning asosiy xususiyati predmet belgisini bildirishdir".

Sifatlarning morfologik xususiyatlari:

- 1) belgining darajasini ko'rsatadi: sho'x-sho'xroq, eng sho'x.
- 2) otlashadi: Kattalarni hurmat qiling.
- 3) ravish o'rnida keladi: Sattor chiroyli yozadi.
- 4) sifat bog'lanib kelgan ot turli so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni olib o'zgarishi mumkin, lekin sifat o'zgarmaydi: ko'k qalam, ko'k qalamni, ko'k qalamda kabi.

Sifatlarning sintaktik xususiyatlari:

- 1) asosan aniqlovchi va kesim vazifasini bajaradi: Yoqimli shamol esa boshladi. Tabiat go'zal. Sifat harakat belgisini bildirganda, hol vazifasida bo'ladi: Azimov sovuq, xira ko'kimtir osmonga g'amgin, xayolchan qaradi.

- 2) sifat aniqlovchi bo'lib kelganda, aniqlab kelayotgan so'z bilan moslashmaydi.

Qoidalarga asoslangan yondashuv: Masalan: Narsa-buyumlar, voqea-hodisalarga xos bo'lgan belgi- xususiyatlarni ifodalovchi, gapda sifatlovchi-aniqlovchi va kesim vazifasida keluvchi mustaqil so'z turkumi sifat hisoblanadi. Sifatlar barqaror yoki turg'un belgini ifodalash ma'no xususiyati bilan boshqa ma'noviy turkumlardan ajralib turadi. Turg'un belgi deganda belgining harakatsizligi, barqarorligi, holatning qanday bo'lsa, shunday aks ettirilishi tushuniladi. Turg'un belgi shu jihati bilan o'zgaruvchan (dinamik) belgidan farq qiladi. Sifatlar o'z navbatida aslviy sifatlar va nisbiy sifatlarga ajratiladi.

Predmetlardagi bir xil belgining ortiq kamligi jihatidan farqlanishi sifat darajasi deyiladi. Sifatlarning quyidagi darajalari bor: oddiy daraja, orttirma daraja, qiyosiy daraja, ozaytirma daraja.

Matn va gaplar ustida ishlash: O‘quvchilarga sifat qatnashgan gap va matnlar berilib, ularni tahlil qilish mashqlari bajariladi.

Topshiriq. “Qobusnoma”dan olingan ushbu parchadagi sifatlarni aniqlang, leksik, morfologik, sintaktik xususiyatlarini belgilang. “*So‘zning ikki tomoni bordir: biri go‘zal tomoni, ikkinchisi xunuk tomonidir. Xalq orasida gapiradigan so‘zing go‘zal bo‘lsin, bu so‘zni xalq qabul qilsin*”. Uchinchidan, har bir fikrni ifodalashda tinglovchi qalbiga to‘g‘ri yo‘l topa bilish, shaklga e‘tibor berish kerakligini, to‘rtinchidan, har bir so‘z to‘g‘ri va asosli bo‘lmog‘i lozimligi, beshinchidan, nutq ilmiy asosga ega, ta‘sirchan bo‘lishi lozimligini aytadi. Ulug‘ donishmand yozadi: “*Bilmagan ilmdan gapirmagil... Bilmagan ilm-ma‘rifatni bilaman deb da‘vo qilsang, hech narsa hosil bo‘lmaydi va behuda zahmat chekasan*”.

Tarbiyaviy va adabiy materiallardan foydalanish: She‘r, hikoya va maqollar asosida sifatlarning ishlatilishini tushuntirish. Masalan: she‘riy parchadan sifatlarni toping. Ularning qanday belgilarni ifodalayotganini aniqlang.

Oh sukunat portlar saharda,
Kun nurida yonib, yaraqlab
Chopib kirar sovuq shaharga
Yalangoyoq yashil daraxtlar. (Shavkat Rahmon)

Topshiriq. Quyida berilgan hikmatlar tarkibidagi sifatlarni belgilang, asliy, nisbiy turlarga bo‘ling.

Og‘izga kelganni demoq nodonning ishi,
Oldiga kelganni yemoq hayvonning ishi. (A.Navoiy)
So‘z ichra mudom aql yashirindir,
So‘z chimildig‘-u aql kelindir. (N.Xisrav)
Qisqa so‘zlik, qara, ne yaxshi holdir,
Sergaplik bo‘lsa-chi, dilga maloldir. (X.Dehlaviy)
So‘z bilan ifodalangan har qanday fikr ta‘sir ko‘lami tugamaydigan kuchdir. (L.N.Tolstoy)
O‘tkir til to‘xtovsiz intilish davomida yanayam charxlanadigan birdandir keskir quroldir. (U. Irvinch)
So‘z sehridan kuchliroq sehr yo‘q. (A.Frans)
Iboralar – fikrlar ustiga kiydirilgan o‘ziga xos libosga o‘xshaydi. (I.Engel)
Kimki, andishasiz so‘zlasi javob, So‘zi e‘tiborsiz, chekar iztirob. (S.Sheroziy)
Yuqori darajadagi nutq, yuqori nutq madaniyati – bu o‘z fikrini til vositalari orqali to‘g‘ri, aniq va ta‘sirchan qilib ifodalay bilish qobiliyatidir. (S.I.Ojegov)

Mashq va diktantlar: Yozma va og‘zaki mashqlar orqali sifatlarning o‘zlashtirilishi mustahkamlanadi.

An‘anaviy yondashuvning afzalligi shundaki, u o‘quvchilarga sifatlarning nazariy asoslarini puxta o‘zlashtirish imkonini beradi. Biroq, u dars jarayonida sust faollik va zerikish keltirib chiqarishi mumkin.

2. Sifat so‘z turkumini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar Zamonaviy yondashuvlar o‘quvchilarning dars jarayonida faol ishtirokini ta‘minlashga qaratilgan. Quyida samarali usullar keltirilgan:

• **Interfaol metodlar:** Aqliy hujum, klaster, baliq skeleti kabi texnikalar orqali o‘quvchilarning tahliliy fikrlash qobiliyati rivojlantiriladi. Quyida “Klaster” metodi orqali tub va yasama sifatlarning haqida ma‘lumotni o‘quvchiga tushunarli, oddiy va samarali usul bilan yetkazib berishimiz mumkin.



Ushbu “Venn diagrammasi” metodi orqali o‘quvchiga sifatning darajalari haqidagi umumiy ma’lumotni berishimiz mumkin. Bundan tashqari bunday interaktiv metodlardan foydalanish dars jarayonini qiziqarli qilibgina qolmay, undagi samaradorlikni ham oshirishga xizmat qiladi.



- **O‘yin texnologiyalari:** "Kim tezroq?", "Ortib qolgan so‘z", "Sirli konvert" kabi o‘yinlar orqali o‘quvchilar darsga qiziqtiriladi.
- **Konstruktiv yondashuv:** O‘quvchilarga mustaqil izlanish va xulosa chiqarish imkonini beradigan metodlar qo‘llaniladi.
- **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish:** pedagogning sifatning semantik jihatdan turlarini o‘rgatishda prezentatsiyalar, interfaol taxtalar va onlayn testlardan foydalanib darsni tashkil qilishi ta’lim samaradorligini oshiribgina qolmay, darsning yanada qiziqarli tarzda tashkil etilishiga hamda video roliklardagi jonli ko‘rish o‘quvchida eslab qolish va xotirlashi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.
- **Matn va kontekst asosida o‘qitish:** O‘quvchilar sifatlarini real hayotiy matnlar orqali tushunishadi.
- **Differensial yondashuv:** O‘quvchilarning bilim darajasiga qarab individual topshiriqlar beriladi.
- **STEAM yondashuvi:** Sifatlarini kimyo, fizika, tasviriy san’at kabi fanlar bilan bog‘lab o‘rgatish.

3. An’anaviy va zamonaviy yondashuvlarning solishtirish An’anaviy yondashuv grammatik qoidalar asosida o‘quvchilarni nazariy bilim bilan ta’minlasa, zamonaviy usullar o‘quvchilarning faol ishtirokini oshirib, o‘zlashtirish samaradorligini kuchaytiradi. Zamonaviy yondashuvlar an’anaviy metodlarni to‘ldirib, dars jarayonini yanada jonlantiradi.

Natijalar va muhokama An’anaviy yondashuvlar grammatik qoidalarini mustahkamlashga qaratilgan bo‘lsa-da, ularning o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatiga ta’siri cheklangan. Masalan, o‘quvchilarga sifatning darajalari haqida qoidalar yodlatilsa ham, ularni amalda qo‘llashda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Zamonaviy yondashuvlar esa talabalar faolligini oshirish, kreativ tafakkurni rivojlantirish va sifat so‘z turkumining kontekstual qo‘llanilishini yaxshilashga xizmat qiladi. Masalan, sifat darajalarini o‘rganishda vizual materiallardan, masalan, rasmlar va videolar yordamida misollar ko‘rsatish samaradorlikni oshiradi. Shuningdek, interfaol mashg‘ulotlar, mnemonik usullar va texnologik vositalardan foydalanish natijasida o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi ortadi va materialni mustahkamlash osonlashadi. Eksperiment natijalari

shuni ko'rsatdiki, talabalar zamonaviy metodlardan foydalanganda, sifat so'z turkumini aniqlash va to'g'ri ishlatish bo'yicha natijalari an'anaviy usullarga qaraganda yuqori bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, sifat so'z turkumini o'qitishda an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar o'ziga xos afzalliklarga ega bo'lsa-da, zamonaviy yondashuvlarning samaradorligi yuqori ekani kuzatildi. Xususan, interfaol mashg'ulotlar va texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish imkonini beradi.

Sifat so'z turkumini samarali o'qitish uchun an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarning uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodlar orqali sifat so'z turkumi yanada qiziqarli va tushunarli bo'lishi mumkin. O'quv jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu metodlarni yanada kengroq o'rganish va ularni ta'lim tizimiga integratsiya qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedova G. "O'zbek tilshunosligi: Grammatik tadqiqotlar". – Toshkent, 2021.
2. To'rayev A. "O'zbek tilining morfologik asoslari". – Samarqand, 2019.
3. Xo'jayev B. "Ona tili va adabiyot o'qitish metodikasi". – Toshkent, 2020.
4. O'zbek tili grammatikasi [2 jildli]. 1-jild. – Toshkent, 1975.
5. Akmirzayeva Y. X. Mustaqil so'z turkumlarining o'ziga xos xususiyatlari. – "Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya" nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya, 2023-yil. – 27-28 bet.
6. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1qism. – Toshkent, 1980.

O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARINING KELAJAKDAGI KASBLAR QIYOFASINI SHAKLLANTIRISH

Xolmatova Kamola Tuyg'unovna, Buxoro davlat pedagogika instituti, tyutori
kamolaxolmatova92@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o'quvchilarning kasb tanlashda alohida e'tibor berishi kerak bo'lgan omillar, shu jumladan, shaxsiy qiziqishlar, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar hamda zamonaviy taraqqiyot tendensiyalari tahlil qilinadi. O'quvchilarga kasblarning xilma-xilligi, ularning ijtimoiy ahamiyati va kelajakda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar haqida ma'lumot berish orqali ushbu jarayonda faol ishtirok etishlariga yordam berish mo'ljallangan. Shuningdek, o'qituvchilar va ota-onalarning o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashidagi roli, shunday qilib, ularning kasb tanlash jarayonida to'g'ri yo'lni tanlashiga yordam beruvchi zaruriy fikrlar keltiriladi. Tadqiqot natijalari o'quvchilarni kasb tanlashda o'z qiziqishlari va ehtiyojlariga muvofiq ravishda yo'naltirishda qo'llanilishi mumkin. U shuningdek, o'rta maktabda kasbga yo'naltirish faoliyatini samarali tashkil etish uchun asos bo'lishi ko'zda tutilmoqda.

Kalit so'zlar: kasb tanlash, motivatsiya, omillar, qaror, texnikum, egallash, vazifalar, resurs, kasb, daraja, shakl, metod, texnologiya, texnika, zamon, qobiliyat.

ФОРМИРОВАНИЕ ОБРАЗА БУДУЩИХ ПРОФЕССИЙ У УЧАЩИХСЯ СРЕДНИХ ШКОЛ

Холматова Камола Туйгуновна, Тьютор Бухарского государственного педагогического
института
kamolaxolmatova92@gmail.com

Аннотация: В статье анализируются факторы, на которые студентам следует обращать особое внимание при выборе карьеры, в том числе личные интересы, социальные и экономические условия, а также современные тенденции развития. Цель проекта — помочь студентам активно участвовать в этом процессе, предоставляя им информацию о многообразии профессий, их социальной значимости и возможностях, которые могут появиться в будущем. В нем также подчеркивается роль учителей и родителей в поддержке учащихся, что дает им важную информацию, помогающую выбрать правильный путь в выборе карьеры. Результаты исследования могут быть использованы в качестве руководства для студентов при выборе карьеры с учетом их интересов и потребностей. Он также призван послужить основой для эффективной организации профориентационной работы в средней школе.

Ключевые слова: выбор карьеры, мотивация, факторы, решение, техникум, приобретение, задачи, ресурс, профессия, уровень, форма, метод, технология, методика, время, способность.

SHAPING THE IMAGE OF FUTURE PROFESSIONS AMONG SECONDARY SCHOOL STUDENTS

Kholmatova Kamola Tuygunovna, Tutor at Bukhara State Pedagogical Institute
kamolaxolmatova92@gmail.com

Abstract: The article analyzes the factors that students should pay special attention to when choosing a career, including personal interests, social and economic conditions, and modern development trends. It is intended to help students actively participate in this process by providing information about the diversity of professions, their social significance, and the opportunities that may exist in the future. It also discusses the role of teachers and parents in supporting students, thus providing necessary ideas to help them choose the right path in the process of choosing a career. The results of the study can be used to guide students in choosing a career in accordance with their interests and needs. It is also intended to serve as a basis for the effective organization of career guidance activities in secondary schools.

Keywords: career choice, motivation, factors, decision, technical school, acquisition, tasks, resource, profession, level, form, method, technology, technique, time, ability.

Kirish. Hozirgi zamon o'rta maktab o'quvchilarining kelajakdagi kasblarini tanlash va ularga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish, o'qituvchilar va ota-onalar uchun muhim vazifalardan biridir. Bugungi kunda texnologiyalar, iqtisodiyot va jamiyatdagi o'zgarishlar har bir yosh avlodning

kelajagini keskin belgilab berayotgan bir palatada, o'quvchilarning kasb tanlash jarayoni murakkab va ko'p qirralidir. O'rta maktabda ta'lim olayotgan o'quvchilar uchun kasb tanlash nafaqat o'z qobiliyatlarini anglash, balki shaxsiy qiziqish va ijtimoiy ehtiyojlarga javob beruvchi yo'nalishni belgilash jarayonidir. Ushbu maqolada o'rta maktab o'quvchilarining kelajakdagi kasblar qiyofasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan faktorlarga, metodlarga va strategiyalarga to'xtalib o'tamiz. Kelajakda muvaffaqiyatli kasb egalariga aylanishlari uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonini muhokama qilamiz.

Zamonaviy jamiyatda kasb tanlash har bir yosh avlod uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o'rta maktab davrida o'quvchilarda kelajak kasblari va mehnat faoliyatiga tayyorlanish borasida to'g'ri yo'nalish berish muhim. Bugungi maqolada yoshlarning kasbiy kelajagini shakllantirishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihatlar, samarali usullar va zamonaviy kasblar haqida so'z yuritamiz.

Bugungi kunda iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy o'zgarishlar juda tez sur'atlarda rivojlanayotganligi sababli, kasb tanlash jarayoni yanada murakkablashmoqda. O'quvchilarning oldida turli xil kasblar va mutaxassisliklar, shuningdek, ushbu sohalaridagi talab va takliflar o'rtasidagi muvozanatni topish zarurati mavjud. Shu bilan birga, zamon bilan hamnafas bo'lish va o'zgarishlarga moslashish qobiliyati kadrlar tayyorlash jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Ish beruvchilar hozirgi kunda yuqori malakali, innovatsion fikrga ega, jamoada ishlay oladigan mutaxassislarga ehtiyoj sezmoqda. Bunga qarab, o'quvchilarni kasb tanlashda ularga yo'l-yo'riq ko'rsatish va to'g'ri ma'lumotlar bilan ta'minlash zarurati yanada kuchayadi.

Tadqiqot obyekti; — o'rta maktab o'quvchilari va ularning kelajakdagi kasblar qiyofasini shakllantirish jarayoni. Bu jarayon ichida o'quvchilarning qiziqishlari, malakalari, shaxsiy xususiyatlari va zamon talablariga binoan kasb tanlashga oid yuzaga keladigan omillar hamda metodologiyalar, pedagogik yondashuvlar va o'quv dasturlari mavjud. Shu bilan birga, obykti sifatida o'quvchilar bilan bir qatorda ularning oilalari, o'qituvchilari, o'quv muassasalari va ish beruvchilar ham hisobga olinadi. Bularning barchasi kelajakdagi kasb tanlash jarayonida bir-birini to'ldiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi faktorlardir.

Qo'llanilgan metodlar; Muzokaralar va muhokamalar metodlari - O'quvchilar o'rtasida kasb tanlashga oid muhokamalar o'tkazish, fikr almashish va bahslar tashkil etish. Kasbga yo'naltirish seminar va treninglar metodlari - O'quvchilarga turli kasblar haqida bilim berish maqsadida seminar va treninglar o'tkazish. Testlar va anketalar - O'quvchilarning qiziqishlari va kuchli tomonlarini aniqlash uchun psixologik testlar va anketalar o'tkazish. Bu metodlar orqali o'rta maktab o'quvchilarining kelajakdagi kasblar qiyofasini shakllantirish jarayoni yanada samarali bo'ladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili;

1. O'quvchilarning qiziqishlari: O'quvchilar orasida eng ko'p qiziqish yaratuvchi kasblar IT, tibbiyot, va san'at sohalaridir. Tahlil qilinganda Bu sohalarining bugungi kunda yuqori talabga ega bo'lishi, o'quvchilarning kelajakda o'zlarini ko'rishni istashlariga sababdir.

2. Kasblarni tanlash uchun tayyorgarlik darajasi. O'quvchilarning 60%idan ko'pi kasb tanlashda yetarlicha ma'lumotga ega emasligini bildirishgan. Bu holat kasbga yo'naltirish jarayonining samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatadi, bunaqa seminarlar va ma'lumotlar o'rganishga talab kuchayadi.

3. Oila va muhitning ta'siri. O'quvchilarning 75% i oila va atrofdagi muhitdan kelib chiqib kasb tanlashni afzal ko'rishni aniqlandi. Oila va jamiyatning kasb tanlashda o'rni katta, shuning uchun otalar va o'qituvchilarni ham jalb etish muhim.

4. Fikrlash va kritika qobiliyati. O'quvchilar o'rtasida tahliliy fikrlash qobiliyati past darajada bo'lishi aniqlangan. Fikr bildirish va tahlil qilish qobiliyatini oshirish uchun muhokama va loyiha ishlarini ko'proq jalb etish zarur.

Olingan natijalar o'rta maktab o'quvchilarining kelajakdagi kasblar qiyofasini shakllantirishda mavjud bo'lgan imkoniyatlar va muammolarni aniqlashga yordam beradi. Ta'lim jarayonida yo'l qo'yilishi lozim bo'lgan takliflar, o'quvchilarning kasbga orientatsiyasini yanada samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'quvchilar kasb tanlash jarayonida birinchi navbatda, o'z qiziqishlari va qobiliyatlarini o'rganib, baholashlari kerak. Shuningdek, mehnat bozoridagi ehtiyojlar, zamonaviy kasblarga bo'lgan talab darajasi va texnologik o'zgarishlar ham hisobga olinishi zarur. Mehnat bozoridagi ehtiyojlar va zamonaviy kasblar. Bugungi kunda mehnat bozori doimiy o'zgarib bormoqda. Bunga sabab bo'layotgan asosiy omillardan biri – yangi texnologiyalarning rivojlanishi va global iqtisodiy

jarayonlarning ta'siri. Mehnat bozoridagi ehtiyojlar va zamonaviy kasblarga bo'lgan talab darajasi doimo yangilanib turadi, bu esa ishchilardan yangi ko'nikmalar va qobiliyatlarni talab qiladi. Zamonaviy kasblarga bo'lgan talab jahonda mehnat bozoridagi talab va taklif ko'p jihatdan iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik o'zgarishlarga bog'liq. Hozirgi kunda quyidagi sohalarda kasblarga bo'lgan talab oshmoqda:

1. Ma'lumot texnologiyalari: Dasturchilar, ma'lumot analizchilari va kibersozlar sohasida talab yuqori. Har qanday biznesda raqamli texnologiyalarni qo'llash katta ahamiyatga ega.

2. Sog'liqni saqlash: Tibbiyot sohasida ham kasb tanlash imkoniyatlari kengaymoqda. Shifokorlar, hamshira va reabilitatsiya mutaxassislari kabi kasblarga ehtiyoj oshmoqda.

3. Muhandislik va texnologiya: Muhandislik sohasida, ayniqsa muhandislar, arxitektorlar va energetika mutaxassislari uchun talab yuqori. Barqaror energiya manbalari va yangi qurilish texnologiyalari bu sohadagi ehtiyojlarni ko'paytirmoqda.

4. Yashil va ekoloji kasblar: Atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish maqsadida, yashil iqtisodiyot sohasida ham yangi kasblar paydo bo'lmoqda. Ekologlar va yashil texnologiyalar bo'yicha mutaxassislarning zaruriyatni oshirmoqda.

Texnologik o'zgarishlar mehnat bozorida yangi kasblarning paydo bo'lishiga va eski kasblarning yo'qolishiga olib kelmoqda. Masalan, automatizatsiya va sun'iy intellekt (AI) ko'plab ishlab chiqarish va xizmat sohalarida ish o'rinlarini qisqartirib, yangi, innovatsion kasblarga yo'l ochmoqda. Odamlar o'rnini bosadigan mashinalar yaratish natijasida ba'zi kasblar saqlanib qolsa ham, yangi qobiliyatlar va ko'nikmalarga ega ishchilarni talab qiladi.

Quyidagi omillar alohida ahamiyatga ega:

- Shaxsiy qiziqishlar va hobbilar
- Jamiyat ehtiyoji va zamonaviy talab
- Texnika va texnologiyalarga qiziqish
- Bozor talabidagi kasblar haqida ma'lumot

Kelajak kasblarining o'sib borayotgan yo'nalishlari: Bugungi kunda IT, robototexnika, sun'iy intellekt, dizayn, xizmat ko'rsatish sohalari kabi kasblar yuqori sur'atlarda rivojlanmoqda. Shu bois, o'quvchilarni erta yoshdan zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish, dasturlash, kreativ fikrlash va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish ayni muddaodir.

Kasbiy ko'nikma va qiyofani shakllantirish usullari:

- Kasbiy yo'naltirish darslari orqali turli soha va kasblar haqida tushunchalar berish
- Motivatsion uchrashuvlarda o'z sohasida muvaffaqiyatga erishgan shaxslar bilan uchrashuvlar tashkil etish

- Amaliy mashg'ulotlar va ijodiy loyihalar, stajirovkalar orqali shaxsiy tajribani oshirish

- Onlayn kurslar va platformalardan foydalanish

- Guruh bo'lib ishlash orqali team building va liderlik sifatlarini rivojlantirish

Kasb tanlash jarayoni ko'plab omillarga bog'liq. Yoshlar o'z qobiliyatlari, qiziqishlari va talantlariga asoslanib, kelajakdagi kasbini tanlashi zarur. Bu jarayonda oilaning, do'stlarning va murabbiylarning fikrlari ham muhim rol o'ynaydi. Har bir kasb o'zining murakkabligi va talablari bilan farqlanadi. Shuning uchun, har bir yosh avlod vakili o'zini qiziqtirgan sohani chuqur o'rganishi lozim.

Kasbga bo'lgan munosabat: Bugungi kunda kasbga bo'lgan munosabatlar o'zgarib bormoqda. Internet orqali ma'lumot olish, masofaviy ta'lim va yangi texnologiyalar yoshlarni turli kasblarni o'rganishga imkoniyat yaratmoqda. Shuningdek, yangi kasblar paydo bo'lmoqda, bu esa yosh avlodning tanlov imkoniyatlarini kengaytiradi.

Hozirgi kunda muhim kasblar: Hozirgi zamon talablariga javob beradigan kasblar IT sohasida, biologiya va tibbiyot, yashil energiya va hukumat xizmatlarida kiradi. Ushbu kasblar nafaqat moliyaviy jihatdan, balki ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Yoshlar ushbu sohalarda o'z imkoniyatlarini sinab ko'rishlari va rivojlanishlari mumkin.

Yoshlar uchun tavsiyalar

1. Qiziqishlarni aniqlash: O'z qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash, to'g'ri kasb tanlash uchun birinchi qadamdir.

2. Ta'lim va o'qish: O'qishga bo'lgan intilish va zarur malakalarga ega bo'lish kasb tanlash jarayonida muhim hisoblanadi.

3. Amaliyot: Turli xil amaliyotlarda ishtirok etish, tajriba orttirish va real ish muhitini tushunish imkonini beradi.

4. Muloqot: O'z kasbi orqali muvaffaqiyat qozongan insonlar bilan suhbatlashish, to'g'ri yo'lni tanlashda yordam beradi.

Xulosa

Zamonaviy jamiyatda kasb tanlash jarayoni yoshlar uchun juda muhimdir. To'g'ri kasb tanlash, nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat uchun, balki jamiyat rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Yosh avlod o'z qobiliyatlarini to'g'ri baholashi va kelajakda olib boriladigan faoliyatini to'g'ri rejalashtirishi zarur. O'rta maktab bosqichida o'quvchilarning kasbiy qiyofasini shakllantirish, ularda kelajak kasblariga qiziqish uyg'otish beqiyos ahamiyatga ega. Bu yo'lda nafaqat o'qituvchilar, balki ota-onalar va jamiyat ishtiroki ham juda muhim. Yoshlarni kasbiy orientatsiya qilish orqali ular o'z imkoniyatlarini to'liq ochib, kelajagini to'g'ri yo'nalishda qurishlariga yordam beramiz. Mehnat bozoridagi ehtiyojlar va zamonaviy kasblarga bo'lgan talab darajasi doimiy o'zgarishda. Biznes va sanoat sohalaridagi texnologik yangiliklar, shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar, yangi kasblarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Kelajakda, ishchilar zamonaviy ko'nikmalarga ega bo'lishlari va tez o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishlari zarur bo'ladi. Bunga tayyorlanish va zamonaviy ehtiyojlarni qondirish uchun bilim va malakalarni rivojlantirish muhimdir. Shu bilan birga, zamon bilan hamnafas bo'lish va o'zgarishlarga moslashish qobiliyati kadrlar tayyorlash jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Ish beruvchilar hozirgi kunda yuqori malakali, innovatsion fikrga ega, jamoada ishlay oladigan mutaxassislarga ehtiyoj sezmoqda. Bunga qarab, o'quvchilarni kasb tanlashda ularga yo'l-yo'riq ko'rsatish va to'g'ri ma'lumotlar bilan ta'minlash zarurati yanada kuchayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Исакова м. т. эмпирическое исследование взаимосвязи отношения личности к здоровью с индивидуально-динамическими характеристиками //п 86 психология управления персоналом и экосистема международный научный журнал № 1(100), часть 1 «научный фокус» май, 2023 342 наставничества в усло-виях изменения технологического уклада. вторая международная научно. – 2021. – с. 544.

2. Исакова, м. т. "эмпирическое исследование взаимосвязи отношения личности к здоровью с индивидуально-динамическими характеристиками." п 86 психология управления персоналом и экосистема наставничества в усло-виях изменения технологического уклада. вторая международная научно (2021): 544.

3. Исакова, м. т. (2021). эмпирическое исследование взаимосвязи отношения личности к здоровью с индивидуально-динамическими характеристиками. п 86 психология управления персоналом и экосистема наставничества в усло-виях изменения технологического уклада. вторая международная научно, 544.

4. Xolmurotov x.s, Xusainova z.m, Duschanov n.s, Abdullayev r.a, &Yangibayeva o.s qizi . (2022). ta'lim jarayonida innovatsiya texnologiya . fan va ta'lim,3 (1), 491-495. <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/2350>

5. Xolmurotov x.s, Qurbanova x.d, Madaminova f.m, Madaminov b.r, Jumaniyozova s.b, &Saidova l.b(2021). ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash . fan va ta'lim , 2 (12), 551-556. <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/2207>

6. Safasheva, Xolmurotov x. s. (2021). ta'lim-tarbiya faoliyatda gumanitar yo'l qo'yilgan narsalarni qo'llash hodisalari. fan va ta'lim, 2 (5), 641-648. <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/1435>

7. Холмуротов ф. mintaqada aholi turmush faravonligini oshirishda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtiruvchi subyektlar ro'lini baholash //иждимой-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/actual problems of humanities and social sciences. - 2023. - т. 3. - №. 7. - с. 83-91.

8. Saribaevich, k. f. issues of having optimal ratio of subjects in ensuring sustainable agricultural development. інтеграція освіти, науки та бізнесу в сучасному середовищі: літні диспути: тези доп. iii міжнародної науково-практичної інтернет-конференції, 11-12 серпня 2021 р.- дніпро, україна, 2021.-477 с., 113.

9. Saribaevich, k. f. issues of having optimal ratio of subjects in ensuring sustainable agricultural development. інтеграція освіти, науки та бізнесу в сучасному середовищі: літні диспути: тези доп. iii міжнародної науково-практичної інтернет-конференції, 11-12 серпня 2021 р.- дніпро,

україна, 2021.-477 с., 113.

10. Холмуротов, ф. (2023). оценка роли субъектов, производящих сельскохозяйственную продукцию, в повышении благосостояния населения региона. ижтимоийгуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / актуальные проблемы социальногуманитарных наук / actual problems of humanities and social sciences., 3(7), 83- 91. <https://doi.org/10.47390/scp1342v3i7y2023n12>

11. Холмуротов, ф. (2023). mintaqada aholi turmush faravonligini oshirishda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtiruvchi subyektlar ro'lini baholash. ижтимоий- "science and education" scientific journal / www.openscience.uz march 2025/ volume 6 issue 3 issn 2181-0842 / impact factor 4.526 272 гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/актуальные проблемы социальногуманитарных наук/actual problems of humanities and social sciences., 3(7), 83- 91.

12. Internet manbalar

www.ziyonet.uz

www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari.

www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi rasmiy sayti.

TEKNOLOGIK TA'LIM YO'NALISHIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Qaxorov Sobir Xudoyberdiyevich, Buxoro davlat pedagogika instituti "Texnologik ta'lim"
kafedrası o'qituvchisi

sobirqaxorov1224@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnologik ta'lim yo'nalishida multimedia vositalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Multimedia vositalarining o'quv jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi usullar va ularning amaliyotdagi qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: multimedia, texnologik ta'lim, didaktika, o'quv jarayoni, ta'lim texnologiyalari, interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalari

Дидактические возможности использования мультимедийных средств в направлении технологического образования

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Каххоров Сабир Худойбердиевич, Преподаватель кафедры «Технологическое обучение»
Бухарского государственного педагогического института

sobirqaxorov1224@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматриваются дидактические возможности использования мультимедийных средств в направлении технологического образования. Освещается роль мультимедийных средств в эффективной организации учебного процесса, развитии самостоятельного мышления учащихся и формировании практических навыков. Особое внимание уделяется методам повышения качества образования с помощью современных технологий и их применению на практике.

Ключевые слова: мультимедиа, технологическое образование, дидактика, учебный процесс, образовательные технологии, интерактивные методы, информационно-коммуникационные средства

Didactic Possibilities of Using Multimedia Tools in the Field of Technological Education

DIDACTIC OPPORTUNITIES OF USING MULTIMEDIA TOOLS IN TECHNOLOGICAL EDUCATION

Qahhorov Sobir Khudoyberdiyevich, Lecturer at the Department of Technological Education,
Bukhara State Pedagogical Institute

sobirqaxorov1224@gmail.com

Annotation: This article analyzes the didactic possibilities of using multimedia tools in the field of technological education. It highlights the role of multimedia in effectively organizing the learning process, developing students' independent thinking, and forming practical skills. Special attention is given to methods that enhance the quality of education through modern technologies and their practical application.

Keywords: multimedia, technological education, didactics, learning process, educational technologies, interactive methods, information and communication tools

Kirish. Multimedia va gipermedia texnologiyalari kuchli taqsimlangan ta'lim resurslarini birlashtiradi, ular shakllanishi va namoyon bo'lishi uchun muhitni ta'minlaydi. Birinchi navbatda axborot va aloqani o'z ichiga oladi. Multimedia va telekommunikatsiya texnologiyalari tizimda prinsipial jihatdan yangi uslubiy yondashuvlarni ochad.

Multimedia asosidagi interaktiv texnologiyalar qishloq maktabining "viloyatchilik" muammosini ham internet aloqasi asosida, ham interfaol CD-kurslar va maktablarda sun'iy yo'ldosh Internetdan foydalanish orqali hal qiladi.

Multimedia-zamonaviy texnik va dasturiy vositalardan foydalangan holda interaktiv dasturiy ta'minot nazorati ostida vizual va audio effektlarning o'zaro ta'siri, ular matn, ovoz, grafik, fotosuratlar, videolarni bitta raqamli tasvirda birlashtiradi.

Gipermedia-bu multimedia ob'yektlari o'rtasida harakatlanish uchun gipermatnli havolalar bilan bog'langan kompyuter fayllari.

- unda interaktiv veb-elementlarni, masalan, testlar yoki ish kitobini joylashtirish imkoniyatini beradi;
- giperhavolalarning ko'pligi tufayli materialning o'tishining chiziqli bo'lmazligiga imkon beradi;
- multimedida qo'shimcha adabiyotlarga giperhavolalar o'rnatadi elektron kutubxonalar yoki ta'lim saytlari.
- multimedia sizga og'zaki va vizual-sensorli ma'lumotlarni birlashtirishga imkon beradi, bu o'quvchilarning motivatsiyasiga, o'rganish uchun haqiqiy muhitni yaratishga yordam beradi.
- multimedia texnologiyalaridan foydalangan holda sinfda darslarni tashkil etish har qanday talaba uchun mavjud bo'lgan juda oddiy vositalarni qo'llash orqali vaqtni tejash, shu bilan o'quv materialini taqdim etishni faollashtirish imkonini beradi.
- multimedia kompyuter texnologiyalari o'qituvchiga o'rganilayotgan materialni chuqurroq va ongli ravishda o'zlashtirishga hissa qo'shadigan turli xil vositalarni tezda birlashtirish, dars vaqtini tejash va uni ma'lumot bilan to'ldirish imkoniyatini beradi.

Shunday qilib, multimedia texnologiyalaridan foydalangan holda maxsus proyektor yordamida darslarni tashkil etish o'rganilayotgan dasturiy ta'minotning imkoniyatlarini vizual tarzda namoyish qilish va vaqtni tejash imkonini beradi, bu orqali o'quv materialini taqdim etishni faollashtiradi. Shu bilan birga, multimedia materiallarini tayyorlash va darsni tashkil etishda qo'shimcha talablar mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Zamonaviy ta'lim jarayonida multimedia vositalarining o'zni tobora ortib bormoqda. Jumayeva D.I. (2024) o'z tadqiqotida multimedia vositalarining o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Muallifning fikricha, vizual va audio materiallar orqali bilimni taqdim etish o'quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga yordam beradi. Muzaffarova G.I. (2022) esa texnologiya ta'lim praktikumi fanida multimedia vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganib, ayniqsa amaliy mashg'ulotlarda ushbu vositalarning o'quvchilar faolligini oshirishdagi rolini ta'kidlaydi. Uning tahlilicha, interaktiv dasturlar va simulyatsiyalar orqali real hayotga yaqin sharoitlar yaratilib, o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalari rivojlanadi.

Aliqulov Sh.F. (2024) o'z maqolasida multimedia texnologiyalarini qo'llashda yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilib, ularni bartaraf etish uchun metodik yondashuv zarurligini ilgari suradi. U multimedia vositalaridan noto'g'ri yoki haddan ortiq foydalanish o'quvchining diqqatini chalg'itishi mumkinligini ham eslatadi.

Sayfullayeva Sh.Z. (2024) ta'lim jarayonida multimedia texnologiyalarining samaradorligini oshirishda o'qituvchining roli muhimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, multimedia vositalarini o'quv maqsadlariga mos tarzda tanlash va ulardan metodik asoslangan holda foydalanish didaktik natijalarga erishishning muhim omilidir. Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, multimedia vositalari texnologik ta'limda nafaqat o'quv motivatsiyasini oshirishga, balki nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Biroq bu vositalardan samarali foydalanish uchun o'qituvchi tomonidan puxta rejalashtirilgan, metodik asoslangan yondashuv zarur.

Axborotli multimedia texnologiyalarining kiritilishi o'quv jarayonini texnologik va samaraliroq qiladi. Kompyuter bir-biriga o'xshamaydigan darslarni o'tkazish imkonini beradi. Doimiy yangilik hissi o'rganishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Demak, multimedidan darsda interaktivlik, axborotni strukturalashtirish va vizuallashtirish orqali foydalanishda o'quvchining motivatsiyasi kuchayadi, uning bilish faoliyati ham ongli, ham ong osti darajasida faollashadi. Barcha axborot kanallari ichida vizual eng kuchli hisoblanadi, shuning uchun multimediali ta'limda undan foydalanish ancha rivojlangan. Biroq, bu boshqa ommaviy axborot vositalarining ahamiyati va ahamiyatini inkor etmaydi. Masalan, materialni o'zlashtirish samaradorligi musiqiy hamrohlikni optimal tanlash yordamida har bir multimedia darsligi uchun o'zining ritmik dominantini yaratishni sezilarli darajada oshiradi. Multimedia darsliklarida klaviatura va sichqonchaning o'ylangan o'zaro ta'siri boshqa axborot vositalari bilan birgalikda ushbu ta'lim texnologiyasiga yana bir afzallik beradi. Bu qo'lda mashqlar xotirani sezilarli darajada rivojlantirishiga asoslanadi. Ilgari kontur xaritalari gimnaziyalarda-qo'lni "to'ldirish" va yaxshi eslab qolish uchun chizilganligi bejiz emas. Agar kelajakda biz foydalanishni normallashtirishni oshirishga intilsak (tasodifiy tugmachalarni bosishni kamaytirish uchun), u holda lahzalar bilan bog'liq. sichqoncha va klaviaturani rasmiylashtirish osonroq bo'ladi. Bu erda muhandislik psixologiyasi va ergonomikasi bo'yicha tadqiqotlarga tayanish kerak.

Natijalar. Multimedia texnologiyalaridan foydalanish tajribasi shuni ko'rsatadiki:

- o'quvchilarning mehnatga va ularning faolligiga qiziqishini keskin oshiradi;

- algoritmik fikrlash uslubi, optimal qarorlar qabul qilish, o'zgaruvchan harakat qilish qobiliyati shakllanadi;

- o'qituvchi muntazam ishlarning massasidan ozod qilinadi, olingan natijalar asosida ijodiy faoliyat uchun imkoniyat ta'minlanadi.

O'quv multimedia taqdimotlarini tayyorlashda, bir tomondan, o'quv kurslarini yaratishning umumiy didaktik tamoyillarini, ekrandan va bosma asosda ma'lumotni qabul qilishning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqadigan talablarni hisobga olish kerak (chunki har qanday matnni printer yordamida qog'ozga chop etish mumkin), ergonomik talablar, ikkinchisi esa telekommunikatsiya tarmog'ining dasturiy vositalari va zamonaviy axborot texnologiyalari taqdim etayotgan imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanishdan iborat. Tabiiyki, didaktik va kognitiv maqsad va vazifalardan boshlash kerak, chunki axborot texnologiyalari vositalari didaktik vazifalarni amalga oshirish vositasidir.

Boshqacha qilib aytganda, multimediali taqdimotlarning samaradorligi foydalanilayotgan materiallar (o'quv kurslari) sifatiga va bu jarayonda ishtirok etayotgan o'qituvchilarning mahoratiga bog'liq. Shuning uchun multimedia taqdimotlarini pedagogik, mazmunli tashkil etish (taqdimotni loyihalash bosqichida ham, undan foydalanish jarayonida ham) ustuvor vazifa hisoblanadi. Multimedia taqdimotlaridan foydalangan holda zamonaviy darsni qurish kerak bo'lgan kontseptual pedagogik qoidalarining ahamiyati shundan kelib chiqadi.

Dars jarayonida multimedia taqdimotlarini yaratishga qo'yiladigan talablar

Multimedia taqdimotlarini yaratishda quyidagi talablarni hisobga olish kerak:

- **Motivatsiya.** Motivatsiya o'rganishning zaruriy komponenti bo'lib, u butun dars jarayonida saqlanishi kerak. Talabalar oldiga qo'yilgan aniq belgilangan maqsad katta ahamiyatga ega. Agar qo'yilgan topshiriqlar darajasi talabaning tayyorgarlik darajasiga mos kelmasa, motivatsiya tezda pasayadi.

- **Ta'lim maqsadini belgilash.** Talaba kompyuterda ishlashning boshidanoq undan nima talab qilinishini bilishi kerak. O'quv maqsadlari dars jarayonida aniq va aniq shakllantirilishi kerak.

- **O'quv materialini idrok etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.** O'quv materialini idrok etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish uchun darslik to'plamiga kiritilgan yoki o'qituvchining o'zi tomonidan tayyorlangan yordamchi materiallar (talaba uchun qo'llanmalar) foydali bo'lishi mumkin.

- **O'quv materialini taqdim etish.** Materialni taqdim etish strategiyasi hal qilinayotgan o'quv vazifalariga qarab belgilanadi displey ekraniga etkazib beriladigan ramkalarining dizayni. O'qishning ma'lum tamoyillaridan foydalanish kerak.

- **Baho.** Kompyuter bilan ishlash jarayonida talabalar o'quv materialini qanday angellarini bilishlari kerak. Eng muhimi, "talaba-o'qituvchi-talaba" aloqalarini tashkil etishdir. Ushbu maqsadlar uchun maktab o'quvchilarining ishini loyihalarda yoki "hamkorlikda o'rganish", muhokamalarda tashkil etish tavsiya etiladi.

Multimedia taqdimotlaridan foydalanish usullari

Darsda multimediali taqdimotdan (hatto uning individual slayddan) foydalanish shakllari va joyi, albatta, ushbu darsning mazmuniga, o'qituvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga bog'liq. Shunga qaramay, amaliyot bizga bunday imtiyozlardan foydalanishning ba'zi umumiy, eng samarali usullarini aniqlash imkonini beradi:

1. **Yangi materialni o'rganishda.** Turli xil vizual vositalar bilan tasvirlash imkonini beradi. Ilova, ayniqsa, jarayonning rivojlanish dinamikasini ko'rsatish zarur bo'lgan hollarda foydalidir.

2. **Yangi mavzuni mahkamlashda**

3. **Bilimlarni sinab ko'rish uchun.** Kompyuter testi-bu o'z-o'zini tekshirish va o'zini o'zi anglash, u o'rganish uchun yaxshi rag'batdir, bu faollik va o'zini namoyon qilish usulidir. O'qituvchi uchun bu bilim sifatini nazorat qilish vositasi, baholarni to'plashning dasturlashtirilgan usuli.

4. **Darslar uchun qo'shimcha material sifatida bilimlarni chuqurlashtirish.**

5. **Frontal mustaqil ishlarni tekshirishda.** Natijalarni og'zaki vizual nazorat qilish bilan bir qatorda ta'minlaydi.

6. **Ta'lim muammolarini hal qilishda.** Chizmani bajarish, yechim rejasini tuzish va ushbu reja bo'yicha mustaqil ishning oraliq va yakuniy natijalarini nazorat qilishda yordam beradi.

7. **Hissiy bo'shatish vositasi.** Imtihonlar oldidan blokli darslar yoki uzoq davom etgan maslahatlashuvlar paytida tajribalar yoki multfilmning video ekran saqlovchilarini yoqish kerak,

bunda talabalar charchoqlarini yo‘qotadilar, ular qiziqish uyg‘otadi, javob izlaydilar, savollar bilan o‘qituvchiga murojaat qiladilar va yangi energiya bilan to‘ldiriladi. Multimedia-dasturlar videoga o‘xshaydi, lekin harakat jarayonida aralashish va dialog o‘tkazish qobiliyatiga ega.

8. Tarqatma didaktik materiallar, kodogrammlar va kartalar tayyorlash uchun vosita sifatida. O‘qituvchi qo‘lidagi shaxsiy kompyuter, skaner va printerdan tashqari, o‘qituvchining mini-matbaa uyidir.

O‘quv faoliyatida kompyuterdan foydalanish uchta shaklda mumkin:

1. simulyator sifatida mashina;
2. o‘qituvchi uchun ma’lum funktsiyalarni bajaradigan repetitor sifatidagi mashina va mashina odamdan yaxshiroq bajara oladigan mashina;
3. muayyan muhitni va undagi mutaxassislarning harakatlarini taqlid qiluvchi qurilma.

Multimediani ta’limda qo‘llashning asosiy afzalliklari.

Talab darajasida to‘g‘ri ishlab chiqilgan multimedia materiallari matnli axborotga qaraganda birmuncha ilg‘or usul bo‘lib, o‘quvchilarda aniq va samarali mental model (tasavvur) shakllanishiga yordam beradi. O‘tkazilgan kompleks tadqiqot natijalariga ko‘ra (Shephard-Shepard) to‘g‘ri ishlab chiqilgan multimedia materiallarining afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Muqobil istiqbollar
2. Faol ishtirok
3. Tezkor ta’lim olish
4. Bilimlarni xotirada saqlash va qo‘llay olish
5. Muammolarni yechish va qaror qabul qilish ko‘nikamalari
6. Tizimli ravishda tushuna boorish
7. Yuqori darajadagi tafakkur
8. Mustaqillik va e’tiborlilik
9. Axborotlar ketma-ketligi va tezligini (temp) boshqarish
10. Qo‘llab-quvvatlash axborotlaridan foydalanish imkoniyatlari

Matn va videoning onlayn usulidagi trening jarayonida birga ishlatilishi. Multimedia materiallarining potensial afzalliklari haqida Meyer (Mayer) ham aytib o‘tgan. Tinglovchiga video va audio axborotlarni qabul qilish imkoniyatini yaratgan holda, alohida olingan ushbu imkoniyatlarning har biridan ham ko‘ra multimedaning ma’lum ustunligi mavjud. Ushbu ikkita axborotni qabul qilish kanallarining bir-biridan keskin farq qilishiga qaramasdan, ularning multimediadagi kombinatsiyasi juda ham muvaffaqiyatli chiqqan, chunki bunda ikkala tizimning ham afzalliklaridan samarali foydalaniladi. Matn va grafika o‘rtasidagi aloqalar mavzuni chuqurroq tushunishga va mental model (tasavvur)ning yaxshiroq shakllanishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

Pedagogika fani tajribalari va amaliyotining shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modeliga diqqati ko‘p jihatdan ilmiy qarashlari markazida insonga urg‘u beriluvchi falsafiy qarashlar taraqqiyoti bilan bog‘langan. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim shunday ta’limki, u:

- Ta’lim oluvchiga yo‘naltirilgan va unga ta’lim jarayonining eng asosiy qadriyati sifatida e’tibor qaratilgan;

- Ta’lim oluvchining shaxsiy sifatlarini namoyon qilishga va shakllantirishga, tafakkurini rivojlantirishga, uning ijodkor, faol va tashabbuskor shaxs sifatida yetilishiga, o‘rganishga bo‘lgan va ma’naviy ehtiyojlarini qoniqtirishga; ularning zehni, kommunikativ va ijtimoiy qobiliyatlarini, o‘zini o‘zi kamol toptirish va o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan sharoitlarni yaratishga ko‘maklashadi;

- yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashuvchanlik, yangi ixtisos olishga va bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga qobiliyatli mutaxassislarga bo‘lgan jamiyat ehtiyojlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Multimedia vositalarini ta’limda qo‘llash quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

- ta’limning gumanizatsiyalashuvini ta’minlash;

- o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish;

- ta’lim oluvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish (o‘zlashtirganlik, bilimga chanqoqlik, mustaqil ta’lim olish, o‘zini o‘zi tarbiyalash, o‘zini o‘zi kamol toptirishga qaratilgan qobiliyatlilik, ijodiy qobiliyatlari, olgan bilimlarini amaliyotga qo‘llay olishi, o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi, mehnatga bo‘lgan munosabati);

- ta’lim oluvchining kommunikativ va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

- kompyuter vositalari va axborot elektron ta’lim resurslari yordamida har bir shaxsning alohida

(individual) ta'lim olishi hisobiga ochiq va masofaviy ta'limni individuallashtirish va differensiyalash imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi;

- ta'lim oluvchiga faol bilim oluvchi sub'yekt sifatida qarash, uning qadr- qimmatini tan olish;
- ta'lim oluvchining shaxsiy tajribasi va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- mustaqil o'quv faoliyatini olib borish, bunda ta'lim oluvchi mustaqil o'qib va rivojlanib boradi;
- ta'lim oluvchilarda, o'zlarining kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun hozirgi tez o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashuviga yordam beradigan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish.

Multimedia vositalari yordamida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish jarayoni zamonaviy, ko'ptarmoqli, predmetga yo'naltirilgan multimediali o'quv vositalarini ishlab chiqishni va foydalanishni talab etadi.

Ular tarkibiga keng ma'lumotlar bazasi, ta'lim yo'nalishi bo'yicha bilimlar bazasi, sun'iy intellekt tizimlari, ekspert-o'rgatuvchi tizimlar, o'rganilayotgan jarayon va hodisalarning matematik modelini yaratish imkoniyati bo'lgan laboratoriya amaliyotlari kiradi.

Ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning manfaatdorligini (motivatsiyasini) oshirishga ko'maklashish imkoniyatlariga ko'ra, shuningdek, har xil turdagi multimediali o'quv axborotlarining uyg'unlashuvi, interfaollik, moslashuvchanlik sifatlariga ko'ra multimedia foydali va mahsuldor ta'lim texnologiyasi hisoblanadi.

Interfaollikning ta'minlanishi axborotlarni taqdim etishning boshqa vositalari bilan taqqoslaganda raqamli multimedianeing muhim yutuqlaridan hisoblanadi. Interfaollik ta'lim oluvchining ehtiyojlariga mos ravishda tegishli axborotlarni taqdim etishni nazarda tutadi. Interfaollik ma'lum bir darajada axborotlarni taqdim etishni boshqarish imkonini beradi: ta'lim oluvchilar dasturda belgilangan sozlovlarni individual tarzda o'zgartirishi, natijalarini o'rganishi, foydalanuvchining muayyan xohishi haqidagi dastur so'roviga javob berishi, materiallarni taqdim etish tezligini hamda takrorlashlar sonini belgilashi mumkin. Lekin multimediadani foydalanishda bir qator jihatlarni e'tiborga olish muhim. Multimediyada taqdim etilayotgan o'quv materiallari tushunish uchun qulay bo'lishi, zamonaviy axborotlar va qulay vositalar orqali taqdim etilishi talab qilinadi.

Multimedia texnologiyalarining barcha imkoniyatlarini to'liq ochib berish va ulardan samarali foydalanish uchun ta'lim oluvchilarga salohiyatli (kompetentli) o'qituvchining ko'magi zarur bo'ladi.

Darsliklardan foydalanilgandagi singari, multimedia vositalarini qo'llashda ham ta'lim strategiyasi ta'lim jarayonida o'qituvchi nafaqat axborotlarni taqdim etish, balki ta'lim oluvchilarga ko'maklashish, qo'llab-quvvatlash va jarayonni boshqarib borish bilan shug'ullangandagina mazmunan boyitilishi mumkin. Odatda, chiroyli tasvirlar yoki animatsiyalar bilan boyitilgan taqdimotlar oddiy ko'rinishdagi matnlarga qaraganda ancha jozibali chiqadi va ular taqdim etilayotgan materiallarni to'ldirgan holda zaruriy emotsional darajani ta'minlab turishi mumkin.

Multimedia vositalari har xil ta'lim yo'nalishlari (stillari) uyg'unligida qo'llanilishi va ta'lim olish hamda bilimlarni qabul qilishning turli ruhiy va yoshga doir xususiyatlariga ega bo'lgan shaxslar tomonidan foydalanilishi mumkin: ayrim ta'lim oluvchilar bevosita o'qish orqali, ba'zilar esa eshitib idrok etish, boshqalari esa (videofilmlarni) ko'rish orqali ta'lim olishni va bilimlarni o'zlashtirishni xush ko'radilar. Interfaol multimedia texnologiyalari akademik ehtiyojga ega bo'lgan ta'lim oluvchiga no'anaviy qulaylik tug'diradi.

Xususan, eshitish sezgisida defekti bor ta'lim oluvchilarda fonologik malakalar va o'qish malakalari o'sishiga, shuningdek, ularning axborotlarni vizual o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. Nutqi va jismoniy imkoniyati cheklanganlarda esa vositalardan ularning individual ehtiyojlaridan kelib chiqib foydalanishga imkon beradi. Multimedia vositalari ta'lim berishning samarali va istiqbolli quroli (instrumentlari) bo'lib, u o'qituvchiga an'anaviy ma'lumotlar manbaidan ko'ra keng ko'lamdagi ma'lumotlar massivini taqdim etish; ko'rgazmali va uyg'unlashgan holda nafaqat matn, grafiklar, sxemalar, balki ovoz, animatsiyalar, video va boshqalardan foydalanish; axborot turlarini ta'lim oluvchilarning qabul qilish (idrok etish) darajasi va mantiqiy o'rganishiga mos ravishda ketma-ketlikda tanlab olish imkoniyatini yaratadi.

Munozara.

Multimedia vositalarini ta'limda qo'llashning asosiy muammolari va kamchiliklari.

Ta'limda multimedia vositalaridan foydalanishning umumiy bo'lgan birmuncha salbiy taraflari ham mavjud. Ular jumlasiga diqqatning bo'linishi, materiallarni yaratishdagi murakkabliklar, vaqtning ko'proq talab etilishi, dasturiy ta'minot va texnika vositalarini sozlash va foydalanishda vujudga

keladigan muammolar, axborotlarni kompyuter ekranidan o'qish jarayonidagi qiyinchiliklar va boshqa jihatlar kiradi. Diqqatning bo'linishi. Axborotlarni taqdim etishning murakkab usullaridan foydalanish aksariyat hollarda har xil nomutanosibliklar tufayli ta'lim oluvchilar diqqatini o'rganilayotgan asosiy mavzudan chalg'itishi mumkin. Multimedia vositalarida taqdim etilayotgan katta hajmdagi ma'lumotlar, turli havola (ssылka) va shu kabilar dars jarayonida o'quvchi diqqatini bo'lishi mumkin. O'quv materiallarini yaratishdagi murakkabliklar.

Multimedia vositalarining audio, video, grafik va boshqa elementlarini yaratish an'anaviy matn ko'rinishidagi materiallarni yaratishdan ancha murakkab. Multimediali materiallarni mustaqil ravishda yaratish singari multimediadagi ta'lim oluvchi sifatida foydalanish ham birmuncha ko'proq vaqt sarflanishini talab etadi. Ayniqsa, multimediali ta'lim vositalarini yaratish uchun ko'p vaqt va diqqat kerak bo'ladi. Dasturiy ta'minot va texnika vositalarini sozlash va foydalanishda vujudga keladigan muammolar. Multimediali ta'lim vositalaridan samarali foydalanishni ta'minlash uchun dasturiy ta'minot va texnika vositalari talab darajasida sozlangan bo'lishi zurur. Bunda multimediali ta'lim materiallarini taqdim etish jarayoni matnlarni tahrirlash va aks ettirishning oddiy vositalariga qaraganda yanada yuqori sifat va keng imkoniyatlar talab etadi. Axborotlarni kompyuter ekranidan o'qish jarayonidagi qiyinchiliklar. Kompyuter ekranidan axborotlarni o'qish qog'ozga chop etilgan axborotlarni o'qishga qaraganda noqulayroq. To'liq o'qib chiqishni talab etadigan katta hajmdagi matnli axborotlarni, shuningdek, gazeta, kitob va jurnallarni qog'ozda chop etilgan variantda o'qish birmuncha qulay. Aksariyat hollarda multimedia vositalarida zarur axborotlarni topish va uni qog'ozga chop etib olish uchun ma'lumotlarni qidirish quroli taqdim etiladi.

Bugungi kunda multimedia texnologiyalari axborotlashtirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Dasturiy-metodik ta'minlash, moddiy-texnik bazasini takomillashtirish, shuningdek, professor-o'qituvchilarning malakasini majburiy oshirish ta'limga zamonaviy axborot texnologiyalarini muvaffaqiyatli tatbiq etish istiqbolini ko'rmoqda.

Xulosa. Texnologik ta'lim yo'nalishida multimedia vositalaridan foydalanish, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning faoliyatini jonlantirish va ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Multimedia vositalari, audiovizual materiallar, interaktiv platformalar va virtual laboratoriyalar kabi imkoniyatlar yordamida ta'limni yanada jozibador va qiziqarli qilish mumkin. Bu vositalar o'quvchilarning bilish faoliyatini rag'batlantiradi, ko'proq vizual va eshitish sezgilariga asoslangan o'rgatish metodlarini qo'llash imkonini beradi. Shuningdek, multimedia vositalari o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashish va ta'limni shaxsiylashtirishda ham katta yordam beradi. Bunday yondashuvlar ta'lim jarayonining sifatini oshiradi va o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini yuqorilashishga xizmat qiladi.

Kelajakda multimedia vositalarining imkoniyatlarini to'liq amalga oshirish uchun pedagogik kadrlarning malakasini oshirish, yangi texnologiyalarga oid bilimlarni chuqurlashtirish va o'quv materiallarini interaktiv va ko'pformatli tarzda ishlab chiqish zarur. Shunday qilib, multimedia vositalari ta'limda samarali vosita sifatida foydalanishga muhim hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gulyamov, R. X. (2020). Multimedia vositalari va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi.
2. Sattorov, N. A. (2019). Interaktiv ta'lim metodlari va multimedia texnologiyalarini qo'llash. Tashkent: O'zbek akademik nashriyoti.
3. Sharipov, D. A. (2021). Pedagogik texnologiyalar: Multimedia va innovatsiyalar. Tashkent: Fan va texnologiya.
4. Mukhamedova, F. B. (2022). Didaktik texnologiyalar: Multimedia vositalari yordamida o'qitish. Tashkent: Ta'lim va innovatsiyalar.
5. Salimova, Z. K. (2023). Multimedia va interaktiv metodlar bilan ta'limning sifatini oshirish. Tashkent: Sharq nashriyoti.
6. Karimova, N. T. (2021). Interaktiv ta'limda multimedia vositalaridan samarali foydalanish. O'zbekiston ilmiy ta'lim jurnali, 4(1), 28-35.

**INKLUZIV MAKTAB O'QUVCHILARINING TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA
IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISHNING SHAKL, METOD VA USULLARI**

Ergasheva Rayhon Sobir qizi, Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti

regasheva005@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada inkluziv maktab o'quvchilarining hissiy va aqliy rivojlanishida tasviriy va amaliy san'atning ahamiyati va ushbu fanlarni o'qitishning maxsus metodikalariga oid adabiyotlar tahlil qilingan. Tasviriy san'at bilan shug'ullanish, bolalarning nafaqat tuyish sezgilarini rivojlantirishi balki, o'z qo'li bilan yaratilgan narsalarga nisbatan quvonch hissini yuzaga keltiradi. Inkluziv maktab o'quvchilarining tasviriy san'atga bo'lgan qobiliyatini shakllantirish, ularning jamiyat hayotiga moslashishida tasviriy san'atning o'rni va ahamiyati o'rganilgan. Maqolada inkluziv ta'lim sharoitida tahsil olayotgan o'quvchilar bilan dars faoliyatini yanada samarali tashkil qilishning yangi metod va usullari taklif qilingan. Shuningdek maqolada tasviriy san'at faqat fan sifatida emas, balki alohida ta'limga ehtiyojli bo'lgan bolalarning ijtimoiy munosabatlarini mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, alohida ta'limga ehtiyojli bolalar, inkluziv ta'lim, ijtimoiy munosabatlar, kognitiv moslashuvchanlik, noan'anaviy terapiya usuli, hissiyotlar g'ildiragi.

**ФОРМЫ, МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ
РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ ИНКЛЮЗИВНОЙ
ШКОЛЫ НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА**

*Эргашева Райхон Собир кизи, магистрант Бухарского государственного
педагогического института*

regasheva005@gmail.com

Аннотация: В данной статье проанализирована литература, касающаяся значения изобразительного и прикладного искусства в эмоционально-психическом развитии учащихся инклюзивной школы и специальных методик преподавания этих дисциплин. Занимаясь изобразительным искусством, дети не только развивают свои сенсорные ощущения, но и вызывают чувство радости по отношению к предметам, созданным своими руками. Проанализированы роль и значение изобразительного искусства в формировании у учащихся инклюзивной школы способности к изобразительному искусству, их адаптации к жизни общества. В статье представлены методы и приемы эффективной организации курсовой деятельности с учащимися, обучающимися в условиях инклюзивного образования. Также в статье изобразительное искусство представлено не только как наука, но и как важный фактор в укреплении социальных отношений детей с ограниченными возможностями здоровья.

Ключевые слова: изобразительное искусство, дети с особыми образовательными потребностями, инклюзивное образование, социальные отношения, когнитивная гибкость, нетрадиционный метод терапии, колесо эмоций.

**FORM, METHOD AND METHODS OF IMPROVING THE METHODOLOGY FOR
THE DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES OF STUDENTS OF AN INCLUSIVE
SCHOOL IN THE LESSONS OF FINE ARTS**

Ergasheva Rayhon Sobir qizi, Master's student at Bukhara State Pedagogical Institute

regasheva005@gmail.com

Annotation: This article analyzed the importance of fine and Applied Art in the emotional and mental development of students of an inclusive school and literature on special methodologies for teaching these subjects. The practice of visual arts creates a sense of joy for children not only to develop feelings of appetite, but also to do things that are made by their own hands. The role and importance of Fine Art in the formation of the ability of students of an inclusive school to the Visual Arts, their adaptation to the life of society were analyzed. The article provides methods and methods for the effective organization of lesson activities with students studying in an inclusive education setting. Also in the article, Fine Arts is manifested not only as a science, but also as an important factor in strengthening the social relationships of disadvantaged children.

Keywords: Visual Arts, children with special educational needs, inclusive education, social

relationships, cognitive flexibility, unconventional therapy method, wheel of emotions.

Kirish. Hozirgi davrda mamlakatimizda, shu jumladan xalq maorifi tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar o'qituvchilar, barcha pedagoglar oldiga o'quvchining bilimlarni yuksak darajada o'zlashtirishi; o'quvchilar mustaqil tafakkurini, ular aktivligini rivojlantirish; ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash; ularning tafakkur, muloqot, o'qish, mehnat qilishga bo'lgan qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi murakkab va mas'uliyatli vazifalarni qo'yimoqda.[1]

Respublikamizda inkluziv ta'limni takomillashtirish masalasi hukumatimizning ko'plab hujjatlarida, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqlarida, ma'ruza va chiqishlarida, farmon va qarorlarida o'zining munosib aksini topgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 13-oktyabrda PQ-4860- son «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori inkluziv ta'limning mamlakatimizda yanada mustahkam o'rin egallashiga debocha vazifasini o'taydi.

Shuningdek, respublikamizda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar va o'smirlar ta'limi, ularning nuqson turlari va uning darajalarini inobatga olgan holda maxsus ta'limning yo'nalishlari (aqli zaif, ruhiy rivojlanishi sustlashgan, nutqida, ko'rishida va eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar) bo'yicha korreksion ta'lim tashkil etilgan. Xalqaro miqyosda ta'lim isloxotini demokratiyalashtirish va diskriminatsiyaga qarshi kurashish natijasida jamiyatning dunyoqarashi o'zgarib, har xil toifadagi kishilar orasida yangicha yondashuv, o'zaro hurmat, ijobiy munosabat shakllandi. Maxsus ta'lim sohasini rivojlanishini qayta ko'rib chiqish siyosati amalga oshirila boshlandi. Ko'pchilik mamlakatlar "Segregatsiya" ta'limidan voz kechib imkoniyati cheklangan bolalarni integratsiya jamiyatiga mansub bo'lgan integratsion ta'limni tadbiriq qilishni lozim topdi. Keyinchalik inkluziv ta'limga o'tila boshlandi. Bu o'rinda L.S.Vigotskiyning fikricha: "Maxsus maktablarimizning afzallik jihatlari bilan bir qatorda ayrim kamchiliklari bilan ham ajralib turadi, u o'z tarbiyachisini tor doiradagi maktab jamoasi bilan chegaralab: kar, ko'r yoki aqli zaif bolaning asosiy e'tiborini o'zida mavjud bo'lgan kamchiligiga qaratib barcha sharoitni shu nuqsoniga moslashtirib qo'yadi. Bularning barchasi bolaning haqiqiy hayotga kirib kelishiga to'sqinlik qiladi. Maxsus maktab bolani chegaralangan dunyodan chiqarish o'rniga odatda shunday ko'nikmalarni rivojlantiradiki, oqibatda uning separatizmligi kuchayib u o'z dunyosiga yanada chuqurroq sho'ng'ib ketadi". Sog'lom bolani alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bola bilan uyg'unlashtirilishi maxsus ta'limni keng doirada qayta ko'rishning boshlang'ich nuqtasi bo'lib xizmat qilishi kerak. O'zbekistonda inkluziv ta'limning dolzarbligi shundaki alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning yengil darajalilarini ham maxsus maktablarda ta'lim olib kelayotganligidir. Vaholangki ular umumta'lim maktablarida sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim tarbiya olsalar jamiyatga tezroq integratsiyalashib keta oladilar. Shuni ta'kidlash joizki, inkluziv ta'lim sharoitida bola sog'lom tengdoshlari orasida bo'lib oiladan ajralmagan holda ta'lim-tarbiya olishga muvassar bo'ladi.[2]

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. "Tasviriy san'at va qo'l mehnatiga o'qitish maxsus metodikasi" o'quv qo'llanmasida "Nuqsonli bolalar asosiy bilimlarini aynan sezgilar orqali oladilar. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalar, asosan ko'ruv analizatorlari orqali bilimlarga ega bo'ladilar. Ko'rish sezgisi bu toifa bolalarda bilim egallashning shaxs sifatida shakllanishlarida muhim o'rin egallaydi. Tasviriy faoliyat jarayonida teri-taktil, tuyish sezgilar kar va ko'r bolalar uchun bilim olishlarida alohida ahamiyat kasb etadi" deb yozilgan.[3]

Atoqli rus pedagogi K.D.Ushinskiy aqli zaif o'quvchilarni o'qitishda shunday talab qo'ygan. Mavxum- abstract so'zlarni, ya'ni tushunchalarni, tanish so'zlarga tayangan xolda bevosita ta'lim berish zarurdir. Bolaning tafakkurini rivojlantirish uchun avvalombor, kuzatish qobiliyatini shakllantirish lozim. "Chizilayotgan narsaning shaklini, bo'yog'ini, rangini, ovozi, sezish, his qilish orqali fikrlash" didaktikaning asosiy talabidir. Aqli zaif bolalarni bilish faoliyati qo'pol ravishda buzilganligi kuzatiladi. Bundan tashqari idroki, hissiyoti, tasavvurining o'ziga xos kamchiliklari kuzatiladi. Aqli zaif bolalarni to'g'ri rivojlantirishga yo'naltirish fanlarni deferensial idrok etishi, yordamchi maktab oldiga qo'yilgan muhim vazifadir. Ko'rgazmali qurollar, predmetlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish bolalarni sensor tarbiyasini tarbiyalaydi. Aqli zaif bolalarni o'qitish jarayonida o'ziga xos xususiyatlarini, kamchiliklarni bartaraf etishi mumkin.[3]

Asosiy qism. San'at bu odamlarga nutq orqali gapirmasdan his-tuyg'ularini ifoda etishga yordam beradigan universal til hisoblanadi. San'at ayniqsa, alohida ta'limga ehtiyojli bolalar uchun foydali bo'lishi mumkin, bu ko'pincha samarali natijalarini ko'rsatadigan noan'anaviy terapiya usuli sifatida taklif qilinadi.

Tasviriy san'at bu shaxslarga o'zini namoyon qilishga yordam beradigan rasm chizish, va haykaltaroshlik kabi ijodiy jarayonlarni o'z ichiga olgan terapevtik amaliyot sifatida ham bugungi kunda o'zini namoyon qilib kelmoqda. Bu shuningdek, alohida ta'limga ehtiyojli bo'lgan bolalarga sezilarli darajada ta'sir qiladi va ularga o'z qo'llari bilan narsa yaratishda quvonch his qilishlariga imkon beradi. Shuningdek inkluziv ta'lim sharoitida ijtimoiy muhitga moslasha olmagan, autizm belgilari bo'lgan, o'z tengqurlari bilan muloqotga kirishmaydigan o'quvchilarning jamiyatda o'z o'rinlarini topishlari hamda ularning ruhiy psixologik holatlarini o'rganish va tahlil qilishda ushbu faoliyat turi muhim samara berishi mumkin.

Tasviriy san'at orqali alohida ta'limga ehtiyojli bolalar bilan faoliyat olib borish jarayonida tasviriy san'at va psixologiya fanlarini o'zaro uzviy bog'langan holda jarayonda qo'llanishi san'at terapiya usuli deyish mumkin. San'at terapiya usuli ijtimoiy munosabatlarga kirishishda qiynalayotgan bolarning ruhiy holatini aniqlash ularni tushunishga harakat qilish va shu orqali ma'lum bir ma'noda shu usul orqali ularni davolash tushuniladi.

San'at-terapiya usulining samaradorligi:

-Bu bolalarga mustaqillik tuyg'usini va ijodiy xususiyatlarini xis-tuyg'ularini ifoda etishga hamda nazorat qilishni ta'minlash orqali kuch beradi.

-Yuklatilgan motor ko'nikmalarining ahamiyati:

Qo'lda mo'yqalam, rangli qalam, marker yoki qaychi bo'ladimi, tasviriy san'at alohida ta'limga ehtiyojli bolalarga o'z ko'nikmalarini jumladan, qo'l-ko'zni muvofiqlashtirishni oshirishga yordam beradi. Bu ularning umumiy jismoniy rivojlanishiga va vositalar bilan ishlash mahoratini oshirishga hissa qo'shish bilan birga, ularning yutuqlari bilan faxrlanish tuyg'usini ham kuchaytiradi.

-Stress va bezovtalanish darajasini pasaytiradi

Rasm chizish yoki badiiy qurish va yasash kabi faoliyat kortizol va stress gormonlari darajasini samarali ravishda kamaytiradigan meditatsion holatni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu ifoda shakli, ayniqsa, his-tuyg'ularini ifoda etishda qiynalayotgan odamlar uchun foydalidir. Bundan tashqari, san'at kognitiv moslashuvchanlikni va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi, bu tashvish va stressni samarali boshqarish uchun juda muhimdir.

-Sezish faoliyati tartibli bo'lishi

Ko'pgina maxsus ehtiyojli bolalarda sensorli ishlov berish muammolari mavjud. Tasviriy san'at turli xil hissiy tajribalarni o'z ichiga olishi mumkin, masalan, loyli qoliplash hissi yoki yorqin ranglarning vizual rag'batlantirilishi. Ushbu hissiy faoliyatlar bolalarga o'zlarining his-tuyg'ularini tartibga solishga va tinchlantiruvchi ta'sirga erishishga yordam beradi, bu esa atrof-muhitni boshqarishni osonlashtiradi.

-Ijtimoiy malakalar va munosabatlar mustahkamlanganligi

Ko'pgina an'anaviy terapiya usullaridan farqli o'laroq, tasviriy san'at davolash yo'li sifatida guruhda o'tkazilishi mumkin. Bu hamkorlik va ijtimoiy ko'nikmalarni (masalan, navbatma-navbat va odob-axloqni qo'llash) rag'batlantiradi, jamiyat va tegishli tuyg'ularni rivojlantiradi va odamlarga boshqalar bilan munosabatlarini yaxshilashga yordam beradi.

O'z-o'ziga hurmat va ishonchni o'rta

Biror narsa yaratishga qodir bo'lish har kimga muvaffaqiyat hissini berishi mumkin. Maxsus ehtiyojga ega bo'lgan bolalar uchun biror narsa yaratish va o'z ishining natijalarini ko'rish, ularning o'ziga bo'lgan hurmati va ishonchini sezilarli darajada oshirishi mumkin, bu ularga ijobiy o'zini o'zi imidjini rivojlantirishga yordam beradi va ularni yanada murakkabroq harakatlarga undaydi.

Zarur harakat va amallarni o'zlashtirilishi (ayniqsa umumiy va mayda harakatlar) – eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning umumiy rivojlanishidagi muhim vosita bo'lib, u hayotda kerak bo'ladigan ongliklik, ziyraklik hamda yaratuvchanlik kabi sifatlarini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchilarning kuzatishlaricha bola qanchalik qo'l bilan nozik harakat qilsa, ayniqsa barmoqlar bilan, uning nutqi va tafakkuri shuncha tez va yaxshi rivojlanar ekan. Ma'lumki tasviriy faoliyat kinestetik sezish va barmoqlarning nozik harakati ko'ruv harakat koordinatsiyasi mexanizmi bilan uzviy bog'liq.


Tasviriy faoliyat mashg'uloti bolada chizish, bo'yash, kesilgan qog'oz parchalari, gazlamalardan applikatsiyalar, tayoqchalar va sim bo'laklari hamda boshqa materiallar yordamida keng va turli obrazlarni amalga oshirishga imkon yaratadi. Bunda qo'lning mayda muskullarining aniq harakati muntazam mashq asosida rivojlanib boradi. Shu bilan birga tasviriy faoliyat mashg'uloti

bolalardan intizomlilik va tashkilotchilikni, jarayonni va uni bajarish ketma-ketligini mahorat bilan rejalashtirishni talab etadi.

Inkluziv ta'lim sharoitida o'quvchilar bilan pedagogik faoliyat olib borish jarayonida ma'lum metodlarni qo'llash orqali ularning nafaqat psixologik holatini balki tasviriy san'atga oid bilimlarini ham mustahkamlash mumkin. Ushbu metodlardan biri bu "Hissiyotlar g'ildiragi" metodi hisoblanadi.

"Hissiyotlar g'ildiragi" metodi 2016-yilda Avstraliya universitetlarida olib borilgan tadqiqotlar natijasida paydo bo'lgan. Tadqiqotning maqsadi autizm bilan yashovchi ikki bola hayoti va ularning tasviriy san'atga bo'lgan qobiliyatini rivojlantirish usullari haqida chuqur hikoya qilish bo'lgan. Ushbu tadqiqotda san'at yaratish jarayoni haqidagi fikr-mulohazalar, tashxis darajasidan qat'i nazar, autizmli odamlarga mos ravishda san'at yaratish jarayonlarini osongina diversifikatsiya qilish mumkin degan fikrni qo'llab-quvvatladi. Bu shuni anglatadiki, autizmli bolalar uchun muloqot qilishda qiyinchiliklar bilan bog'liq xulq-atvor muammolarini kamaytirish uchun maktablarda ijtimoiy ishchilar, san'at terapevtlari yoki maktab psixologlari tomonidan san'at yaratish dasturini kiritish mumkin.

Kerakli bo'lgan jihozlar: soat shaklidagi ma'lum bir maket, maxsus har xil holatdagi his tuyg'ularini o'zida mujassamlashtirgan stiker shaklidagi rasmlar, qalam, akvarel, qog'oz.



1-rasm



2-rasm



3-rasm

Ushbu metodni amalga oshirishda o'qituvchi yoki bolaning ota onasi tomonidan maxsus savollar berish bilan amalga oshiriladi. Ushbu savollar autizm bilan yashayotgan bolaning ruhiy holatidan kelib chiqqan holda u bilan muloqotga kirishish maqsadida amalga oshiriladi. Ushbu savollar quyidagicha bo'lishi mumkin.

Savollar ro'yhati:

1. O'zingni qanday his qilyapsan? (1-rasm)
2. Seni nima bezovta qilyapti? (2-rasm)
3. Sen nimadan hafasan? (3-rasm)

Bola nimadandir qo'rqayotgani ma'lum, ammo uning aynan nimadan havotirga tushayotganini bilish maqsadida, qo'shimcha shovqin yoki yorug'lik va hatto tabiat hodisalari ham sabab bo'lishi mumkin, va shu hodisalar rasmini ko'rsatish orqali, unga maketimizni tutqazishimiz va u soat strelkasini qaysi hissiy holatga o'girsan uning ichida nimalar kechayotganini aniqlashimiz mumkin. Ma'lumki, autizm bilan yashayotgan bolalar boshqalar bilan muloqotni uzib qo'yadilar va bu holat bugungi kunda nafaqat yosh bolalar orasida va hattoki kattalar orasida ham uchramoqda. Ushbu metodning olib borish jarayoni biroz murakkab bo'lishiga qaramasdan, autizm bilan yashayotgan bolalarning ichki hissiy holatini aniq ravshan qilib yoritishda asqotadi.

Xulosa. Tasviriy san'at fani nafaqat dars sifatida balki, noodatiy terapiya ya'ni davolash usuli sifatida ham o'zini namoyon etmoqda. Tasviriy faoliyat bolaning aql idrokini tafakkurini kengaytirishi bilan bir qatorda alohida ta'limga ehtiyojli bolalarning hissiy va ruhiy rivojlanishida katta omillardan biri hisoblanadi. Xususan u bolalarda qo'l motorikalarining nozik harakatlarini yuklagan holda, qo'l-ko'z faoliyati hamda nutqini ham o'stirishga sababchi bo'ladi. Maqolada inkluziv maktab o'quvchilarining tasviriy san'atga bo'lgan qobiliyatini rivojlantirish va autizm bilan yashovchi bolalarning jamiyatga moslashuvchanligini rag'batlantirishga qaratilgan samarali metod va usullar keng muhokama qilingan. Maqolada tasviriy san'atning noodatiy davolash usuli sifatida ayniqsa, alohida ta'limga ehtiyojli bo'lgan bolalarda ijtimoiy, kognitiv moslashuvchanlik, hissiy va ruhiy holatini yaxshilanishi, o'z-o'ziga bo'lgan ishonchni ortishi, bolalardagi stressni kamaytirishiga oid tomonlari keng yoritilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya" darslik. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti TOSHKENT - 2018
2. L.R.Gaynutdinovanning umumiy tahriri ostida "Alohida ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni psixologik qo'llabquvvatlash usullari Toshkent 2022-yil nomli metodik tavsiya Toshkent 2022.
3. N.Y.Yusupova, M.U.Hamidova, N.Q.Abidova, M.Y.Pardayeva "Tasviriy san'at va qo'l mehnatiga o'qitish maxsus metodikasi" o'quv qo'llanma "Fan va texnologiya nashriyoti Toshkent-2018
4. Adizova T.M. Psixokorreksiya. – T.2005.

5. D.S.Qaxarova "Inklyuziv ta'lim texnologiyasi" o'quv va metodik qo'llanma 2014-yil.
6. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova "Inkluziv ta'lim nazariya va metodika". Chirchiq 2022
7. I.M.Solovev "Normal va anomal bolalarda bilish faoliyatining psixologiyasi"
8. Raxmanova.V.S "Korreksion pedagogika va logopediya" Toshkent «IQTISOD-MOLIYA»

2007

DUAL TA'LIM SHAKLI – NAZARIYA VA AMALIYOT BIRLIGI SIFATIDA
Quliyeva Shahnoza Halimovna, Buxoro davlat pedagogika instituti, Aniq va tabiiy fanlar
fakulteti, "Texnologik ta'lim" kafedrası mudiri

guliyevashahnoza@buxdpi.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlashda dual ta'lim shakli asosida mashg'ulotlarni tashkil etish masalalari bayon etilgan. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida mutaxassislar tayyorlash sifatiga alohida e'tibor berilmoqda, talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashda dual ta'lim shakli asosida amaliy mashg'ulotlarni korxona yoki tashkilotlarda olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur maqolada dual ta'lim shaklida nazariya va amaliyot birligi mazmuni berilgan.

Kalit so'zlar: dual ta'lim, dual, ta'lim tizimi, ta'lim turlari, ta'lim shakllari, amaliy mashg'ulotlar, kasb egasi.

ДУАЛЬНОЕ ОБУЧЕНИЕ КАК ЕДИНСТВО ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ

Кулиева Шахноза Халимовна, Бухарский государственный педагогический институт
Факультет естественных и точных наук, Заведующая кафедрой «Технологическое обучение»

guliyevashahnoza@buxdpi.uz

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы организации обучения на основе дуальной формы обучения в высших учебных заведениях. Сегодня особое внимание уделяется качеству подготовки специалистов в системе высшего образования, а для закрепления теоретических знаний студентов целесообразно проведение производственной практики на предприятиях или в организациях на основе дуального формата обучения. В статье представлено содержание единства теории и практики в форме дуального образования.

Ключевые слова: дуальное образование, дуальная, система образования, виды образования, формы обучения, практическое обучение, профессиональное.

DUAL EDUCATION AS THE UNITY OF THEORY AND PRACTICE

Quliyeva Shahnoza Halimovna Bukhara State Pedagogical Institute Faculty of Natural and Exact
Sciences Head of the Department of Technological Education

guliyevashahnoza@buxdpi.uz

Annotation: The article examines the issues of organizing training based on the dual form of training in higher education institutions. Today, special attention is paid to the quality of training specialists in the higher education system, and to consolidate the theoretical knowledge of students, it is advisable to conduct industrial practice at enterprises or organizations based on the dual format of training. The article presents the content of the unity of theory and practice in the form of dual education.

Key words: dual education, dual, education system, types of education, forms of training, practical training, professional.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining "Ta'lim tizimi, turlari va shakllari" deb nomlangan 2-bobidagi 17-moddada "Dual ta'lim" shakli kiritilgan "Dual ta'lim ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, ko'nikma va malakalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi".

Dual ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16-yanvar 2025-yildagi 14-sonli "Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida:

- dual ta'lim shakli joriy etiladigan oliy ta'lim tashkilotlarini tizimida oliy ta'lim tashkilotlari bo'lgan vazirlik va idoralar bilan kelishgan holda, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan belgilash;

- dual ta'limning nazariy va amaliy qismi muddatlarini hamkor korxona va tashkilotlar bilan kelishilgan holda, oliy ta'lim tashkiloti tomonidan belgilash;

- ta'lim jarayonining nazariy qismidagi talabalar ishtirokini oliy ta'lim tashkilotida tegishli professor-o'qituvchi, ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qismidagi ishtirokini esa korxonadan birlashtirilgan amaliyot rahbari (ustoz) tomonidan muvofiqlashtirib borish;

- oliy ta'limda "Kasb egasi" dual ta'lim tizimini tashkil etish tartibini belgilash masalalari

keltirilgan.

An'anaviy ta'lim shaklida talaba oliy ta'lim muassasasida nazariy bilimlarni ko'proq egallab, amaliyot qismini juda kam vaqtlarda korxona va tashkilotlarda o'taydi.

Shuning uchun, rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimi o'rganilib, zamonaviy texnologiyalar va dastgohlarda o'qish bilan bir vaqtda korxona, tashkilotlarda ish faoliyatini olib borish imkoniyatini beruvchi dual ta'lim shakli O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritildi.

"Dual" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, biror narsaning ikki qismga taalluqliligi, ikkita narsani ifodalovchi, ikki qismdan iborat, degan ma'nolarni bildiradi.

Dual ta'lim – talabalarga ta'limni o'z yo'nalishiga mos tashkilotda mehnat qilish bilan birga olib borish imkoniyatini beruvchi tizimdir.

An'anaviy ta'lim shaklida talabalar oliy ta'lim muassasasida nazariy bilimlarni ko'proq egallab, amaliyot qismini korxona va tashkilotlarda nisbatan kamroq soatlarda o'taydi.

Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda talabalar nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashda ishlab chiqarish korxonalarida dual ta'lim shakli sifatida mashg'ulotlarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayniqsa ishlab chiqarish korxonalarida aksariyat xorijiy hamkorlar faoliyat olib bormoqdalar. Shuning uchun rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimi o'rganilib, o'qish bilan bir vaqtda zamonaviy texnologiya va dastgohlarda korxona, tashkilotlarda ishlash imkonini beruvchi dual ta'lim shakli O'zbekiston ta'lim tizimiga kirib kelmoqda.

Dual ta'lim – talabalarga o'quv jarayonida ta'lim olish bilan birga o'z yo'nalishiga mos tashkilotda mehnat qilish, malaka oshirish imkoniyatini beruvchi tizim. Bunda talabalar haftaning to'rt kunida institutda nazariy bilimlarni, qolgan uch kunida korxona va tashkilotlarda haqiqiy ish jarayonlarida amaliy kasbiy kompetensiyalarni egallaydi. Dual ta'lim — talabaga oliy o'quv yurtida ta'lim olish bilan birga o'z yo'nalishiga mos tashkilotda mehnat qilish, malaka oshirish imkoniyatini beruvchi tizim. Dual ta'lim shaklida talabalar haftaning uch kunida institutda nazariy bilimlarni, qolgan uch kunida korxona va tashkilotlarda haqiqiy ish jarayonlarida amaliy ko'nikmalarni egallaydi. Dual ta'lim shaklida tahsil olayotgan talaba korxona va tashkilotlarda ishga qabul qilinganda korxona tomonidan malakali ustoz birlashtiriladi va amaliyotchiga oylik maosh to'lanadi.

Bugungi kunda ushbu tizim Germaniya, Avstriya, Shveysariya va Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni yanada rivojlantirishda juda katta o'rin tutmoqda. Biz aynan Germaniya tajribasi asosida dual ta'limni yo'lga qo'yishni rejalashtirganmiz. Sababi, u mazkur tizimni eng samarali yo'lga qo'ygan davlatlardan biri. Bu mamlakat o'zining ta'lim tizimiga dual ta'limni 1960-yillarning o'rtalaridan qo'llay boshlagan.

Germaniya tajribasi asosida bugungi kunda ko'pgina oliy ta'lim muassasalarida talabalar dual ta'lim shaklida o'qimoqda.

Bu tizim Germaniyada o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlashda yo'lga qo'yilgan bo'lsa, O'zbekistonda nafaqat o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlashda, balki oliy ta'lim tizimida ham qo'llanmoqda.

Mazkur ishlarni jadallashtirish, dual ta'limga ko'proq tadbirkorlarni jalb qilish, ularni rag'batlantirish tizimini joriy qilish, ishsiz ayollar va yoshlarni ish bilan ta'minlash orqali kambag'allikni qisqartirish maqsadida Prezidentimizning "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik sub'yektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Farmon bilan "20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis" dasturini amalga oshirish to'g'risidagi taklifga rozilik berildi. Bu dasturda tadbirkorlik sub'yektlari "hamkorlik shartnomasi" asosida ixtiyoriy ravishda ishtirok etishi, unda ishtirok etgan tadbirkorlarga tabaqalashtirilgan imtiyoz va preferensiyalar berilishi nazarda tutildi. Shuningdek, Savdo-sanoat palatasi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining oliy ta'lim tizimida "Kasb egasi" dual ta'lim tizimini tajriba tariqasida ishga tushirishi ko'zda tutildi. 2024/2025 o'quv yilidan boshlab dual ta'lim tizimi Buxoro davlat pedagogika institutida 3–4 kurs talabalari uchun joriy qilinishi belgilandi.

Me'yoriy-huquqiy hujjatning eng asosiy jihatlaridan biri Savdo-sanoat palatasi tomonidan ishlab chiqarish korxonalarining qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talabi shakllantiriladi va u talabalarga yetkaziladi. Talabalar tanlangan ish o'rinlari bo'yicha elektron yo'llanma tegishli korxonaga yetkaziladi. Bunda yo'llanma asosida ta'lim jarayonini bevosita korxonalarda o'tagan talabalar uchun korxona tomonidan ish haqi hisoblanadi va Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan har oy uchun mazkur ish haqining 2 million so'mgacha bo'lgan qismi qoplab beriladi.

Bu tizimning afzalligi 3–4 kurs talabalari korxonada o'rnatilgan eng zamonaviy dastgohlarda ishlashni o'rganishdan tashqari mehnat jamoasi bilan yaqindan tanishishi, dual ta'lim bo'yicha olgan

bilimini namoyon qilgan, o'zini yaxshi tomondan ko'rsata olgan bitiruvchilar korxonaga ishga qabul qilinishda katta imtiyozga ega bo'lishi, ishga qabul qilinganda mehnat faoliyatiga juda yengil kirishib ketishi mumkinligida yaqqol ko'rinmoqda.

Bir necha yil oldin davlatimiz rahbari soha xodimlari oldiga mamlakatimizda yetishtirilgan xomashyoni jahon bozoriga tayyor mahsulot sifatida olib chiqish, buning uchun sohani klaster tizimiga o'tkazish, shu orqali hududlarda aholini ish bilan ta'minlash vazifasini qo'ygan edi.

Hozir yurtimizda soha bo'yicha ishlayotgan korxonalar soni 7 mingdan oshdi. Bunga, albatta, kichik tadbirkorlik, o'rta biznes va yirik korxonalar kiradi. Asosiy maqsad Germaniya tajribasi asosida institutda ishbilarmon tadbirkorlar, ilg'or ishlab chiqaruvchilar bilan birgalikda zamonaviy yetuk mutaxassislarni dual ta'lim shaklida tayyorlashdan iborat. Bu yerda albatta Savdo-sanoat palatasi koordinator vazifasini bajaradi.

Qilinayotgan ishlar tahlili, dastlabki xulosalarga ko'ra, bu tizim uch taraflama, ya'ni institut, korxona va talabaga manfaatli bo'lib, soha korxonalariga zamonaviy malakali mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda Buxoro davlat pedagogika institutida ham O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16-yanvar 2025-yildagi 14-sonli "Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga binoan dual ta'lim shakli asosida "Texnologik ta'lim" yo'nalishida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa talabalarining fanlar kesimida amaliy mashg'ulotlar bo'yicha kasbiy kompetensiyalarga hamda ish bilan ta'minlanganlik ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Shu bilan birga "Texnologik ta'lim" yo'nalishining me'yoriy hujjatlarida keltirilganidek, o'quv rejasida 1-kurslar 2 haftalik ishlab chiqarish amaliyotlarini korxonalarda tashkil etilishi keltirilgan.

Hozirgi kunda "Texnologik ta'lim" yo'nalishining 1-kurs talabarlari "SRA TEX GROUP 2022" MCHJ ishlab chiqarish korxonasida amaliyot o'tamoqda. Bunda talabalar texnologik ta'limda didaktik tizim, mehnat operatsiyasi, texnologik jarayon, ishlab chiqarish tizimi, operatsion kompleks tizim to'g'risidagi kompetensiyalarga ega bo'lib, kasbiy – pedagogik faoliyatini to'g'ri rejalashtirishni samalarali tashkil etadi. Shu bilan bir vaqtda oliy ta'lim muassasalarida o'zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashda ko'nikma va malakalari ham shakllantiriladi hamda ish o'rnini bilan ta'minlanganlikka erishiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida dual ta'lim shaklini joriy etishdan ko'zlangan maqsad iqtisodiyotning barcha sohalarida malakali va zamonaviy kasbiy ko'nikmalarga ega kadrlarni tayyorlash hamda yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallashga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratishdan iborat.

Ayniqsa, yoshlar ta'lim olish bilan birga haqiqiy ish joyida o'z kasbiy ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Yuqorida ta'kidlanganimizdek, mamlakatimizda dual ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha bir qancha ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda hamda ta'lim uzluksizligini ta'minlashda katta ahamiyat berilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.**
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16-yanvar 2025-yildagi 14-sonli "Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
3. Растегаева Д.А., Филимонюк Л.А. Основы реализации системы дуального обучения в профессиональной подготовке студентов организаций высшего образования. Мир науки, культуры, образования. 2017; 6 (67): 110 –112.
4. Харитоновна Н.Д. Дуальная Система образования в высшей школе: эффективность внедрения. Электронный научно-методический журнал Омского ГАУ. 2017; 3: 15.
5. Wang, X., & Kitan, M. V. (2025). Assessing the German Dual Education System: A Basis of Enhancing the Training Model of Shaanxi Polytechnic Institute. *Journal of Education and Educational Research*, 12(2), 54-60.
6. Quliyeva Sh.H. "Ўқув жараёнига инновацион таълим технологияларнинг қўллаш мазмуни" Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. Участника XX международной научно-практические исследования. М.: 2019. – С.126-130.
7. Кулиева Ш. Х. "Методологические основы системного подхода при подготовке учителей" The Way of Science. № 5 (39), 2017. - С.66-67

8. D.O. Kamolova, B.B. Hamidov “TEXNOLOGIK TALIM FANINI OQITISHDA PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARNING AHAMIYATI” Вестник магистратуры, 62-67
9. Ruzieva D. CLASSIFICATION OF SOFTWARE EDUCATIONAL TOOLS FOR USE IN THE EDUCATIONAL SYSTEM //International Conference On Higher Education Teaching. – 2023. – T. 1. – №. 10. – C. 41-45.
10. Ruzieva D. PRINCIPLES OF USING MODERN TEACHING METHODS IN THE ENVIRONMENT OF INNOVATIVE EDUCATION INSTITUTIONS IN IMPROVING THE PROFESSIONAL SKILLS OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATION //International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 768-772.
11. 3. <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai>
12. 4. https://en.wikipedia.org/wiki/Education_in_Germany.

**ART-TERAPEYA YORDAMIDA “SHASHMAQOM”NING MUSHKULOT QISMINI
O‘RGATISH JARAYONIDA TALABALARNING ESTETIK MADANIYATINI
SHAKILLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN TEXNOLOGIYA**

Yarashev Jo‘rabek To‘rayevich, Buxoro davlat pedagogika institute, professor, pedagogika fanlari
boyicha falsafa doktori

Yarashev1982y@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada musiqiy art-terapiya yondashuvi orqali “Shashmaqom”ning Mushkulot bo‘limini o‘rgatish orqali talabalarning estetik madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiya ishlab chiqildi. Ushbu texnologiya talabalarning musiqiy idroki, emotsional sezgirligi va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan. Maqolada Mushkulot bo‘limining murakkab ritmik va melodik tuzilmalari talabalarda chuqur emotsional holatlarni uyg‘otishi aniqlanib, bu holatlarni aniqlash uchun tinglash kabi art-terapevtik faoliyatlar qo‘llanildi. Bu faoliyatlar talabalarning estetik idroki va ijodiy tafakkurini rivojlantiradi.

Tayanch so‘zlar: Art-terapiya, estetika, madaniyat, maqom, tafakkur, mushkulot, texnologiya, ritm, melodiya, “Shashmaqom”, idrok.

**АРТ-ТЕРАПИЯ ПОМОГАЕТ ФОРМИРОВАТЬ ЭСТЕТИЧЕСКУЮ КУЛЬТУРУ
СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ СЛОЖНОЙ ЧАСТИ «ШАШМАҚОМ»**

Ярашев Журабек Торайевич, Бухарский государственный педагогический институт, Профессор,
доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

Yarashev1982y@gmail.com

Аннотация: В данной статье разрабатывается педагогическая технология, направленная на формирование эстетической культуры учащихся посредством обучения разделу Мушкулот «Шашмақом» посредством музыкально-арт-терапевтического подхода. Данная технология направлена на развитие музыкального восприятия, эмоциональной чувствительности и творческого мышления учащихся. В статье раскрывается, что сложные ритмико-мелодические структуры раздела Мушкулот вызывают у учащихся глубокие эмоциональные состояния, для выявления которых используются такие арт-терапевтические мероприятия, как аудирование. Эти мероприятия развивают эстетическое восприятие и творческое мышление учащихся.

Ключевые слова: Арт-терапия, эстетика, культура, статус, мысль, трудность, технология, ритм, мелодия, «Шашмақом», восприятие.

**TECHNOLOGY FOR FORMING STUDENTS' AESTHETIC CULTURE IN THE PROCESS OF
TEACHING THE COMPLEX PART OF “SHASHMAQOM” WITH THE HELP OF ART
THERAPY**

Yarashev Jo‘rabek To‘rayevich, Bukhara State Pedagogical Institute, Professor, Doctor of Philosophy
in Pedagogical Sciences (PhD)

Yarashev1982y@gmail.com

Abstract: This article develops a pedagogical technology aimed at forming the aesthetic culture of students by teaching the Mushkulot section of “Shashmaqom” through a musical art therapy approach. This technology is aimed at developing students' musical perception, emotional sensitivity and creative thinking. The article reveals that the complex rhythmic and melodic structures of the Mushkulot section evoke deep emotional states in students, and art therapeutic activities such as listening are used to identify these states. These activities develop students' aesthetic perception and creative thinking.

Keywords: Art therapy, aesthetics, culture, status, thought, difficulty, technology, rhythm, melody, “Shashmaqom”, perception.

Kirish: Maqom - xalqimiz vujudidan sizib chiqqan ohang. Shu bois, u asrlar osha yashab kelmoqda. Afsuski, keyingi yillarda bu qutlug‘ va shohir san‘at turiga e‘tibor susaygandek edi. Lekin, Prezidentimizning milliy maqom san‘atini rivojlantirish to‘g‘risidagi qarori ayni muddao bo‘ldi. Davlatimiz rahbari O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvida ta‘kidlaganidek, biz xalqimizning noyob merosi bo‘lgan maqom san‘atini nafaqat yurtimizda, balki butun dunyo bo‘ylab keng


targ'ib qilish, kerak bo'lsa, xalqaro miqyosda maqom tanlovlarini tashkil etish ustida ishlashimiz kerak, deya takidlashlari va aynan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan milliy merosimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, uni yoshlarga bezavol yetkazish borasidagi ezgu sa'y-harakatlar milliy maqom san'ati rivojiga ko'rsatilayotgan g'oyat ulkan e'tibor va g'amxo'rlikdan yorqin ifodasini topmoqda. 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida"gi qarorlari esa san'atimiz tarixidagi unutilmas voqea bo'ldi. Mazkur hujjat o'zbek maqom san'atini chuqur o'rganib, o'ziga xos ijro maktablari va an'analarini yangi bosqichda ravnaq toptirish, uning "oltin fondi"ni yaratish va boyitish, xalqaro nufuzini oshirish va keng targ'ib qilishda g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi. Milliy maqom san'at irivoji yo'lida ko'rsatilayotgan cheksiz e'tibor barcha ijodkorlarga ilhom, ijod zavqini bag'ishlamoqda⁷.

Maqom – arabcha so'zdan olingan bo'lib, "o'rin, joy, istiqomatgoh" ma'nolarini anglatadi⁸. Tarixiy manbaalarda aytilishicha "Maqom" atamasining kelib chiqishi Ibrohim Alayhissalomga borib taqaladi. Ul zot o'g'li Ismoil Alayhissalom bilan qurgan Baytullohning yonida qoldirgan oyoq izlariga "Maqom" nomi berilgan va "Maqomi Ibrohim" deb aytilgan. Musiqa istilohida esa, barmoq bosib, tovush hosil qilinadigan parda, kuy va ashulalar boshlanadigan parda (hozirgi tonika ma'nosida), ular harakat qiladigan pardalardan iborat tovushqatorlar (ladlar) ifodasi sifatida ta'riflanib kelingan⁹.

Tadqiqot ob'yekti: "Musiqlik art-terapiya" musiqaning inson ruhiy salomatligiga ta'sirini tadqiq etuvchi asosiy yo'nalishdir. Bu terapiya turi insonning ichki dunyosini musiqiy asarlar orqali kashf qilish va uni davolashga qaratilgan. O'zbek va tojik xalqining boy musiqiy madaniy merosiga kiruvchi milliy musiqa bo'lmish "**Shashmaqom**" esa ana shunday musiqiy davolash uslublaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy ta'limda talabalarning estetik madaniyatini shakllantirish masalasi murakkab, ko'p qirrali hamda individual yondashuvni talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonni samarali amalga oshirishda milliy musiqiy meros – xususan, "Shashmaqom"ning Mushkulot qismi asarlarini art-terapiya vositasida o'rgatish texnologiyasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Qo'llaniladigan metodlar: Mazkur texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra, musiqiy, psixologik va estetik omillar uyg'unligiga asoslangan bo'lib, talabani ichki kechinmalari va ijodiy ifoda orqali estetik idrokini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Ayniqsa, Mushkulot qismida mujassam bo'lgan ohangdorlik, falsafiy chuqurlik va ritmik murakkabliklar talabani musiqiy tafakkurini chuqurlashtirish bilan birga, uning badiiy dunyoqarashini boyitadi.



Musiqlik art-terapiya talabalarning ichki dunyosini boyitish, ularni ruhiy barqarorlikka erishishiga yordam berish, estetik idrok va musiqiy tafakkurni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa,

⁷ Talaboyev A. MAQOM SAN'ATI. MAQOM SAN'ATINI O'RGANISHDA VA UNI YOSH IJROCHILARGA O'RGATISHDA ETIBOR QARATILISHI LOZIM BO'LGAN JIHATLAR // "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - Volume 2 Issue 4 / December 2021. 150-bet

⁸ Rajabov I. Maqomlar. T.: San'at nashriyoti, 2006. 63- bet

⁹ Xalilova Layloxon Odiljon qizi. O'N IKKI MAQOMNING ILMIY TARIXI VA ISLOM DINI BILAN BOG'LIQLIK JIHATLARI. INTERNATIONAL CONFERENCE ON TEACHING, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES" 2023/1. 94-bet

“Shashmaqom”ning **Mushkulot** qismi o‘zining murakkab tuzilishi, ohangdorligi va chuqur falsafiy mazmuni bilan nafaqat musiqiy, balki ma’naviy-estetik tarbiyani shakllantirishda katta salohiyatga ega.

Mazkur texnologiya quyidagi pedagogik yondashuvlarga asoslanadi:

Texnologiyaning maqsadi talabalarining estetik madaniyatini “Shashmaqom”ning Mushkulot qismi asosida musiqiy art-terapiya metodlari bilan shakllantirish. Mavkur texnologiyaning asosiy vazifasi esa:

- mushkulot asarlarini art-terapiya yondashuvi asosida tahlil qilish;
- musiqa orqali estetik kechinmalarni idrok qilishni o‘rgatish;
- talabalarda musiqiy tafakkur va estetik sezgirlikni shakllantirish;
- maqom orqali psixologik holatni barqarorlashtirishga erishishdan iborat.

Olingan natijalar va ularning tahlili: Art-terapeya yordamida “Shashmaqom”ning Mushkulot qismini o‘rgatish jarayonida talabalarining estetik madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan texnologiya diagnostik, **tayyorlov, art-terapevtik integratsiya hamda refleksiya va tahlil bosqichlaridan iborat.**

1. Diagnostik bosqich.

Talabalarining musiqiy estetik qiziqishlari, musiqiy didi va psixologik holati aniqlanadi. Talabalar bilan olib boriladigan so‘rovnomalar, suhbatlar, testlar yordamida dastlabki holat aniqlanadi.

2. Tayyorlov bosqichi.

Talabalarga “Maqom asoslari” fanida “Shashmaqom” va Mushkulot qismi haqida nazariy bilimlar beriladi. Bunda talabalar Mushkulot asarlarining mazmuni, ohanglari, ruhiy ta’siri bilan tanishtiriladi.

3. Art-terapevtik integratsiya bosqichi.

“Shashmaqom”ning Mushkulot qismidagi “Tasnifi Buzruk”, “Muxammasi Nasrullovi” kabi asarlaridan qismlar tinglanadi va his-tuyg‘ular tahlili o‘tkaziladi. Talabalar maqomni tiglash yoki uni jonli ijro etish bilan birga tasviriy san’at, drama yoki yozma izohlar orqali individual his-tuyg‘ular ifodalanadi. Guruhli muhokamalar orqali estetik baho va tafakkur rivojlantiriladi.

4. Refleksiya va tahlil bosqichi.

Talabalar maqomdan olgan ta’sirlarini yozma va og‘zaki tarzda ifodalaydi. Estetik fikrlash darajasi, musiqiy tajriba, ruhiy barqarorlik o‘zgarishlari tahlil qilinadi.

Mazkur texnologiya asosida o‘quv jarayonini tashkil etish quyidagi natijalarga olib keladi. Bunda talabalarda estetik did, musiqiy idrok va badiiy tafakkur rivojlanadi. “Shashmaqom”ning Mushkulot asarlarining ichki falsafasini anglash orqali ma’naviy boyish yuz beradi. Art-terapiya orqali talabalarda ruhiy barqarorlik, o‘z-o‘zini anglash va ifoda etish ko‘nikmalari shakllanadi. Musiqa vositasida talabalarda milliy merosga nisbatan chuqur hurmat shakllanadi.

Ilmiy yangiligi: Talabalarining estetik madaniyati holatini suhbat orqali aniqlash — ularning go‘zallikni idrok etish, san’atga bo‘lgan munosabati, estetik qadriyatlar va idealga nisbatan qarashlarini chuqur tahlil qilish imkonini beruvchi samarali metod hisoblanadi. Bu jarayon quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi:

1. Suhbatga tayyorgarlik.

Maqsadni aniqlash: Estetik madaniyatning qaysi jihatlarini o‘rganish (masalan, estetik bilimlar, tuyg‘ular, did, ideal) rejalashtirilganini belgilash.

Savollarni ishlab chiqish: Talabalarining estetik qarashlari, san’atga munosabati, go‘zallikni idrok etish qobiliyatiga oid ochiq va muammoli savollar tayyorlash. new.jdpu.uz

Suhbat shaklini tanlash: Yakka yoki guruhli suhbat, rasmiy yoki norasmiy muhitda o‘tkazilishi mumkin.

2. Suhbatni o‘tkazish.

Ijobiy muhit yaratish: Talabalar o‘z fikrlarini erkin ifoda etishlari uchun qulay va samimiy muhit ta’minlash.

Faol tinglash: Talabalarining javoblarini diqqat bilan tinglab, ularning fikrlarini chuqurroq tushunishga harakat qilish.

Qo‘shimcha savollar berish: Zarurat tug‘ilganda, mavzuni chuqurlashtirish yoki aniqlik kiritish uchun qo‘shimcha savollar bilan suhbatni davom ettirish.

3. Natijalarni tahlil qilish.

Javoblarni tahlil qilish: Talabalarining javoblari asosida ularning estetik madaniyat darajasi, go‘zallikni idrok etish qobiliyati, san’atga bo‘lgan munosabati kabi jihatlarini baholash.

Xulosalar chiqarish: Olingan ma’lumotlar asosida estetik tarbiya jarayonini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Suhbat metodi orqali talabalarining estetik madaniyatini aniqlash, ularning individual qarashlari va

his-tuyg'ularini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, estetik tarbiya jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini yaratadi.

Tanishtiruv suhbatlari — bu talabalarning estetik qarashlari, san'atga bo'lgan munosabati va go'zallikni idrok etish darajasini aniqlashga qaratilgan muloqot shaklidir.

Mushkulot bo'limining murakkabligi, uning ritmik va melodik tuzilmalari, talabalarning diqqatini jamlash, musiqiy tafakkurini rivojlantirish va estetik his-tuyg'ularini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Bu jarayon art-terapiya metodlari bilan uyg'unlashganda, talabalarning ichki dunyosini ochib berish va ularning estetik madaniyatini baholash imkonini beradi.

"Shashmaqom"ning Mushkulot bo'limini tinglash orqali talabalarda art-terapevtik ta'sirni bosqichma-bosqich amalga oshirish estetik madaniyatni rivojlantirishning samarali usullaridan biridir.

Talabalarga Mushkulot bo'limining audio yoki video yozuvlari tinglatiladi. Bu bosqichda ularning diqqatini quyidagilarga qaratish muhim:

- ritmik va melodik tuzilmalar;
- ijrodagi emotsional ifoda;
- cholg'ularning o'zaro uyg'unligi.

Bu jarayon talabalarning musiqiy idrokini va estetik sezgirligini oshiradi.

"Shashmaqom"ning **Tasnif, Tarje, Gardun, Muxammas** va **Saqil** kuylarini tinglash yoki ijro etish orqali talabalar estetik madaniyatini takomillashtirishda art-terapiya yondashuvi samarali usul hisoblanadi. Bu jarayon talabalarning ichki ruhiy holatini uyg'otish, milliy musiqiy merosga bo'lgan qiziqishni oshirish va estetik idrokini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Har bir maqom bo'limi o'ziga xos emotsional va estetik yuklamaga ega:

- **Tasnif:** Tantanali va ko'tarinki ohanglari bilan ruhiy yuksalishni ta'minlaydi.
- **Tarje:** Tafakkur va ichki mulohazalarni uyg'otadi.
- **Gardun:** Ruhiy barqarorlik va muvozanat hissini mustahkamlaydi.
- **Muxammas:** Ijodiy tafakkur va emotsional ifodani rag'batlantiradi.
- **Saqil:** Yengillik va ruhiy erkinlik hissini uyg'otadi.

Bu kuylarni tinglash yoki ijro etish talabalarning ichki holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda ularning estetik sezgirligini oshiradi.

"Shashmaqom"ning Mushkulot bo'limini art-terapiya yondashuvi orqali o'rgatish, talabalarning estetik madaniyatini shakllantirishda innovatsion va samarali pedagogik texnologiya hisoblanadi. Bu uslub talabalarning ruhiy-emotsional holatini yaxshilash, ijodiy tafakkurini rivojlantirish va milliy musiqiy merosga bo'lgan hurmatini oshirishga xizmat qiladi.

Mushkulot bo'limining murakkab ritmik va melodik tuzilmalari talabalarda chuqur emotsional holatlarni uyg'otadi. **Mashg'ulotlarni guruhli shaklda o'tkazish orqali** talabalarning o'zaro fikr almashishiga va jamoaviylikni rivojlantirishga yordam beradi. Har bir talabaga individual yondashish, ularning shaxsiy hissiyotlarini hisobga olish muhim. Mushkulot bo'limini o'rgatishda musiqa va san'atni uyg'unlashtirish, talabalarning estetik madaniyatini chuqurlashtiradi.

"Shashmaqom"ning Mushkulot bo'limi — bu o'zbek mumtoz musiqa san'atining eng murakkab va chuqur hissiy qatlamlarini aks ettiruvchi asar bo'lib, uning tinglanishi yoki ijro etilishi talabalarda turli his-tuyg'ularni uyg'otadi. Art-terapiya yondashuvi orqali bu his-tuyg'ularni ifodalash va estetik tahlil qilish, talabalarning estetik madaniyatini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Mushkulot bo'limining tinglanishi yoki ijro etilishi talabalarda musiqaning murakkab va og'ir ohanglari talabalarda ichki muammolarni, tashvishlarni his qilishga yordam beradi. Musiqaning ba'zi qismlari talabalarda kelajakdagi yaxshiliklarga bo'lgan umidni uyg'otadi. Musiqaning ba'zi ohanglari talabalarda ichki tinchlik va muvozanatni his qilishga yordam beradi.



1

Tayyorlov bosqichi.

Suhbat orqali talabalarning estetik madaniyati holatini aniqlash.



2

Tanishtiruv bosqichi.

Talabalarga art-terapiya va “Shashmaqom” haqida tushuncha berish.



3

“Shashmaqom”ni tinglash orqali talabalarda art-terapevtik ta’sir bosqichi.

“Mushkulot” bo‘limining ma’naviy-madaniy va musiqiy ta’siri bilan tanishtirish. Tinglash va nazariy tahlil qilish.



4

Ijodiy ijoda bosqichi.

Tasnif, Tarje, Gardun, Muxammas va Saqil kuylarini ijro etish yoki tinglashda ichki holatga ta’siri. (Dam olish, fikrlash, his qilish)



5

Tahlil va muloqot bosqichi.

Tinglangan yoki ijro etilgan maqomlarga asoslanib talabalarning o‘z ijodiy fikrlarini ifoda etilishi.



6

Refleksiya va boholash bosqichi.

Talabalarning his-tuyg‘ularini baham ko‘rishi. Estetik tahlil va tushunchalarni shakllantirish.

“Shashmaqom”ning Mushkulot bo‘limi art-terapevtik ta’siri orqali talabalar estetik madaniyatini takomillashtirish bosqichi

Quyida musiqiy art-terapiya yordamida talabalarning estetik madaniyatini takomillashtirishda “Shashmaqom”ning Mushkulot qismi asosida amal qilinishi lozim bo‘lgan **umumiy pedagogik qoidalar** jadvali keltirilgan. Jadval talabalarning estetik dunyoqarashini rivojlantirish, musiqiy ta’sirchanlikni oshirish va terapevtik yondashuv asosida ongli musiqiy idrokni shakllantirishga yo‘naltirilgan:

Talabalarning estetik madaniyatini takomillashtirishga oid umumiy qoidalar (Mushkulot asosida)

№	Qoida nomi	Mazmuni	Amalga oshirish shakli (misollar)
1	Estetik idrokni yo‘naltirish	Mushkulot ohanglarini tahlil qilish orqali go‘zallikni anglata olish.	Darsda kuy tahlili, hissiy taassurotlarni yozish.

2	Musiqiy ongni faollashtirish	Har bir maqom yoʻnalishini anglash orqali musiqiy tafakkurni rivojlantirish.	Qiyosiy tahlillar, Mushkulotda ifodalangan tuygʻularni izohlash.
3	Tashqi va ichki tinglash madaniyatini shakllantirish	Naqorat va ohangga estetik jihatdan yondashish koʻnikmalarini hosil qilish.	Jim tinglash, ohangda mavjud dramatik oʻzgarishlarga eʼtibor.
4	Terapevtik holatlarni yaratish	Mushkulotdagi ruhiy holatlar orqali emotsional yengillik keltirish.	Yopiq koʻz bilan tinglash, his-tuygʻularni ifodalash mashqlari.
5	Kontekstual tushunishni rivojlantirish	Mushkulotdagi tarixiy va madaniy manbalarni oʻrganish orqali estetik qadriyatlarni tushunish.	Tarixiy kontekstga oid topshiriqlar, maqom kelib chiqish tarixi.
6	Shaxsiy musiqiy tajribani boyitish	Talabani oʻz his-tuygʻularini Mushkulot vositasida ifodalashga imkon yaratish.	Reflektiv yozuvlar, audio kundaliklar.
7	Estetik qadriyatlarga hurmat uygʻotish	Shashmaqom anʼanalari orqali milliy madaniyatga ijobiy munosabatni shakllantirish.	Maqom ijrochiligi bilan tanishtirish, ustoz-shogird usulida ish.

Xulosa: “Shashmaqom”ning Mushkulot boʻlimini art-terapiya yondashuvi orqali oʻrgatish, talabalarning estetik madaniyatini rivojlantirishda samarali pedagogik texnologiya hisoblanadi. Bu yondashuv talabalarning ruhiy-emotsional holatini yaxshilash, ijodiy tafakkurini rivojlantirish va milliy musiqiy merosga boʻlgan hurmatini oshirishga xizmat qiladi.

Mushkulot boʻlimining murakkab ritmik va melodik tuzilmalari talabalarda chuqur emotsional holatlarni uygʻotadi. Bu holatlarni aniqlash uchun tinglash, suhbatlar, rasm chizish, sheʼr yozish va harakat bilan ifoda kabi art-terapevtik faoliyatlar qoʻllaniladi. Bu faoliyatlar talabalarning estetik idroki va ijodiy tafakkurini rivojlantiradi.

Mashgʻulotlarni guruhli shaklda oʻtkazish, har bir talabaga individual yondashish va musiqa bilan sanʼatni uygʻunlashtirish orqali talabalarning estetik madaniyatini chuqurlashtirish mumkin. Ushbu texnologiya talabalarning estetik madaniyatini shakllantirishda samarali vosita boʻlib, ularni milliy musiqiy merosga boʻlgan hurmatini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Rajabov I. Maqomlar. T.: Sanʼat nashriyoti, 2006. 63- bet
2. Talaboyev A. MAQOM SANʼATI. MAQOM SANʼATINI OʻRGANISHDA VA UNI YOSH IJROCHILARGA OʻRGATISHDA ETIBOR QARATILISHI LOZIM BOʻLGAN JIHATLAR // "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - Volume 2 Issue 4 / December 2021. 150-bet
3. Xalilova Layloxon Odiljon qizi. OʻN IKKI MAQOMNING ILMIY TARIXI VA ISLOM DINI BILAN BOGʻLIQLIK JIHATLARI. INTERNATIONAL CONFERENCE ON TEACHING, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES” 2023/1. 94-bet

**МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ STEAM-ПОДХОДА В ОБУЧЕНИИ ДЛЯ
РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ**
Надирханова Нилуфар Алишеровна, Преподаватель кафедры музыки и изобразительного
искусства, Бухарского государственного педагогического института

nadirxanova.nilufar@mail.ru

Аннотация. В данной статье рассматривается методика использования подхода STEAM-образования для развития творческой компетентности учащихся. Исследование основано на анализе современных педагогических технологий и их влияния на креативные способности. Результаты показывают эффективность интегрированного подхода в формировании творческого мышления и практических навыков учащихся.

Ключевые слова: STEAM-образование, креативная компетентность, интегрированный подход, инновационная методика, творческое мышление, учащийся, педагогическая технология, развитие, компетентность, образовательный процесс

**METHODOLOGY FOR USING THE STEAM TEACHING APPROACH TO DEVELOP
STUDENTS' CREATIVE COMPETENCE**

Nilufar Alisherovna Nadirxanova, Lecturer at the Department of Music and Fine Arts
Bukhara State Pedagogical Institute

nadirxanova.nilufar@mail.ru

Annotation. This article examines the methodology of using the STEAM education approach to develop students' creative competence. The research is based on analysis of modern pedagogical technologies and their impact on creative abilities. The results demonstrate the effectiveness of an integrated approach in forming creative thinking and practical skills among students.

Key words: STEAM education, creative competence, integrated approach, innovative methodology, creative thinking, student, pedagogical technology, development, competence, educational process

**O'QUVCHILARNING KREATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA "STEAM
O'QITISH YONDASHUVIDAN FOYDALANISH METODIKASI"**

Nadirxanova Nilufar Alisherovna, Buxoro davlat pedagogika instituti Musiqa va tasviriy san'at kafedrası
o'qituvchisi

nadirxanova.nilufar@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishda STEAM ta'lim yondashuvidan foydalanish metodikasi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning kreativ qobiliyatlarga ta'sirini tahlil qilishga asoslangan. Natijalar o'quvchilarda kreativ fikrlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda integratsiyalashgan yondashuvning samaradorligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: STEAM ta'limi, kreativ kompetensiya, integratsiyalashgan yondashuv, innovatsion metodika, ijodiy fikrlash, o'quvchi, pedagogik texnologiya, rivojlantirish, kompetensiya, ta'lim jarayoni

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimining oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lgan o'quvchilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish muammosi ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda katta e'tibor bilan o'rganilmoqda. Fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani birlashtiruvchi STEAM yondashuvi o'quvchilarda innovatsion fikrlashni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu yondashuv an'anaviy ta'lim tizimidagi ajratilganlik muammosini hal qilib, turli fanlar o'rtasidagi uzviy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladi.

Kreativ kompetensiya deganda shaxsning yangicha g'oyalar yaratish, noan'anaviy yondashuvlar topish, muammolarga ijodiy yechim berish va turli vaziyatlarda moslanuvchanlik namoyon etish qobiliyati tushuniladi. Bu kompetensiya zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashda hal qiluvchi omil bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. O'quvchilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun an'anaviy usullarning cheklanganligini hisobga olgan holda, STEAM ta'limi kabi innovatsion yondashuvlarga murojaat qilish zaruriyati paydo bo'lmoqda.

Tadqiqot obyekti. Tadqiqot obyekti sifatida STEAM ta'lim yondashuvining o'quvchilarning kreativ kompetensiyasiga ta'siri, bu jarayondagi pedagogik mexanizmlar va ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari belgilandi. Tadqiqot davomida o'quvchilarda kreativ fikrlashning shakllanish jarayoni, STEAM metodikalarining ijodiy potentsialni rivojlantirishdagi roli va fanlararo integratsiyaning ta'limiy natijalar sifatiga ta'siri chuqur o'rganildi. Shuningdek, pedagog va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sirda STEAM yondashuvining ta'lim muhitini shakllantirish bo'yicha imkoniyatlari ham tadqiqot doirasiga kiritildi.

Tadqiqot fokusi o'quvchilarning kreativ kompetensiyasining turli jihatlarini o'z ichiga olgan bo'lib, ijodiy fikrlash, muammolarni noan'anaviy yechish, loyihaviy faoliyat yuritish, hamkorlikda ishlash va kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish kabi yo'nalishlarni qamrab oldi. STEAM yondashuvining ushbu komponentlarning

har biriga qanday ta'sir ko'rsatishi va ularni qanday shakllantirishga yordam berishi ham tadqiqotning asosiy masalalaridan birini tashkil etdi.

Qo'llanilgan metodlar. Tadqiqot jarayonida kompleks yondashuv asosida turli metodlar qo'llanilib, STEAM ta'limi va kreativ kompetensiya o'rtasidagi bog'liqlikni har tomonlama tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Nazariy tahlil metodi yordamida STEAM ta'limi va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-pedagogik adabiyotlar o'rganildi, xorijiy va mahalliy tajribalar tahlil qilindi. Bu bosqichda STEAM yondashuvining nazariy asoslari aniqlandi va kreativ kompetensiya rivojlanishiga ta'sirini tushuntiruvchi nazariy model ishlab chiqildi.

Empirik tadqiqot metodlari sifatida pedagogik eksperiment o'tkazildi, bu jarayonda eksperimental va nazorat guruhlarida STEAM metodikalari va an'anaviy yondashuvlar qo'llanib, natijalari mos ravishda taqqoslandi. Kuzatish va monitoring usullari orqali o'quvchilarning dars davridagi faolligi, ijodiy topshiriqlarni bajarishga bo'lgan munosabati va STEAM loyihalaridagi ishtirok darajasi baholandi. So'rov va intervyu metodlari yordamida pedagog va o'quvchilardan STEAM ta'limining samaradorligi, qiyinchiliklari va imkoniyatlari haqida fikrlar to'plandi.

Matematik-statistik metodlar olingan ma'lumotlarni ishonchli tahlil qilish uchun qo'llanildi, natijalar orasidagi korrelyatsion bog'lanishlar aniqlandi va statistik ahamiyatlilik darajasi hisoblab chiqildi. Pedagogik loyihalash metodi orqali STEAM tamoyillariga asoslangan integratsiyalashgan darslar ishlab chiqildi, kreativ vazifalar yaratildi va baholash instrumentlari tayyorlandi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot natijalari STEAM ta'lim yondashuvining kreativ kompetensiyani rivojlantirishdagi kuchli ta'sirini ko'rsatdi. Eksperiment guruhi o'quvchilarida kreativ fikrlash ko'rsatkichlari dastlabki holatga nisbatan sezilarli darajada yaxshilandi. Torrance kreativlik testining natijalari eksperimental guruhda nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori qo'rsatkichlar ko'rsatdi. O'quvchilar yangicha g'oyalar yaratish, masalalarni turli tomondan yondashish va noan'anaviy yechimlar topish qobiliyatida katta o'sish namoyish etdilar.

STEAM loyihalarida o'quvchilarga amaliy ko'nikmalarni egallash imkoniyatini berdi. Muhandislik loyihalarini amalga oshirish, dasturlash asoslarini o'rganish, uch o'lchovli modellash va robototexnika sohasida ishlashda o'quvchilar sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdilar. Bu jarayon o'quvchilarda nazariy bilimlarni amaliy qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirdi va ular o'rtasidagi aloqadorlikni mustahkamladi.

Jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasi STEAM loyihalarida alohida ahamiyat kasb etdi. Guruh ishlarida ishtirok etgan o'quvchilar kommunikatsiya qobiliyatlari, boshqalarning fikr-mulohazalarini tinglash va hurmat qilish, o'z g'oyalarini aniq ifoda etish va prezentatsiya qilish ko'nikmalarida sezilarli yaxshilanishlar ko'rsatdilar. Bu natijalar o'quvchilarda nafaqat individual, balki ijtimoiy kreativlik darajasining ham oshganini ko'rsatadi.

O'quv motivatsiyasi STEAM darslariga qiziqish orqali kuchaydi. O'quvchilar matematika, fan fanlariga va texnik yo'nalishlarga nisbatan ijobiy munosabat namoyon etdilar. Ular mustaqil ravishda murakkabroq masalalarni yechishga harakat qildilar, xatolarga konstruktiv yondashdilar va yangi bilimlar olishga intilish namoyish etdilar. Bu holat o'quvchilarda uzluksiz ta'lim olish va o'z-o'zini rivojlantirish motivatsiyasini shakllantirdi.

Ilmiy yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi bir necha jihatda namoyon bo'ldi. Birinchi navbatda, STEAM yondashuvini o'quvchilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun tizimli yondashuv sifatida tahlil qilish va mahalliy ta'lim sharoitiga moslashtirilgan kompleks metodika ishlab chiqish amalga oshirildi. Bu metodika o'zbek ta'lim tizimining xususiyatlari, madaniy kontekst va mavjud resurslarni hisobga olgan holda tuzildi.

Didaktik jihatdan fanlararo aloqalar asosida integratsiyalashgan ta'lim tarkibiy qismlarini yaratish va ularning samaradorligini baholash mezonlarini belgilash amalga oshirildi. Bu jarayonda STEAM yondashuvining har bir komponenti o'rtasidagi o'zaro bog'lanish mexanizmlari tahlil qilindi va o'quvchilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishda ularning roli aniqlashtirildi.

Texnologik nuqtai nazardan zamonaviy raqamli vositalar va dasturiy ta'minotlarni STEAM loyihalarida qo'llash bo'yicha original metodika yaratildi. Bu metodika o'quvchilarning turli yosh guruhlariga mos bo'lgan loyihalar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda zamonaviy texnologiyalardan optimal foydalanish yo'llarini o'z ichiga oladi.

Psixologik jihatdan o'quvchilarning kreativ faoliyati va ularning motivatsion omillari o'rtasidagi bog'liqlik qonuniyatlari aniqlandi. STEAM muhitida o'quvchilarning ijodiy potentsiallari qanday shakllangani va turli omillarning bunga qanday ta'sir ko'rsatgani to'g'risida yangi tushunchalar shakllantirildi.

Pedagogik jihatdan STEAM yondashuvni o'zbek ta'lim tizimiga joriy etishning amaliy mexanizmlari va uni an'anaviy ta'lim bilan uyg'un tarzda birlashtirishning usullari ishlab chiqildi. Bu metodika pedagog kadrlarni tayyorlash, o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish va ta'lim muhitini modernizatsiya qilish bo'yicha takliflarni ham o'z ichiga oladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari STEAM ta'lim yondashuvining o'quvchilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishda yuqori samaradorlik ko'rsatganini tasdiqladi. Bu yondashuv o'quvchilarda nafaqat bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga, balki ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga ham katta hissa qo'shadi. STEAM metodikasining qo'llanilishi o'quvchilarning fanlararo bilimlarni sintez qilish, muammolarga kompleks yondashuv va interdisiplinar loyihalarda ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

O'quvchilarning o'quv motivatsiyasi va predmetlarga bo'lgan qiziqish darajasining oshishi STEAM yondashuvining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Bu metodika o'quvchilarda nafaqat akademik bilimlar, balki hayotiy ko'nikmalar hamda zamonaviy kasblar uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi. Pedagogik eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, STEAM yondashuvi an'anaviy ta'lim metodlari bilan birgalikda qo'llanilganda yanada yuqori natijalarga erishish mumkin.

O'zbekiston ta'lim tizimida STEAM yondashuvini keng miqyosda joriy etish uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, texnik jihozlar bilan ta'minlash va o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish zarur. Bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mamlakatimizning ilmiy-texnik salohiyatini kuchaytirish va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash imkoniyatini yaratadi. STEAM ta'limining rivojlanishi kelajakda O'zbekiston yoshlarining global mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kelajakda tadqiqotni davom ettirish orqali STEAM metodikasini turli yoshdagi o'quvchilar uchun moslashtirilgan versiyalarini ishlab chiqish, uni boshqa ta'lim sohalariga kengaytirish va uzoq muddatli ta'sirini o'rganish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Shuningdek, STEAM ta'limining mahalliy sharoitlarga adaptatsiyasi va uni amalga oshirishda duch keladigan muammolarni yechish bo'yicha yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayev, A. (2023). Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ularning amaliy qo'llanilishi. "Ta'lim" nashri, Toshkent.
2. Breiner, J. M., Harkness, S. S., Johnson, C. C., & Koehler, C. M. (2012). What is STEAM? A discussion of the literature. *School Science and Mathematics*, 112(6), 310-318.
3. Conradt, C., & Bogner, F. X. (2018). From STEM to STEAM: How to monitor creativity. *Creativity Research Journal*, 30(3), 233-240.
4. Ismatov, K. (2022). O'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi. *Milliy ta'lim*, 3(45), 12-18.
5. Karimov, N. B. (2021). STEAM ta'limning O'zbekistondagi holati va istiqbollari. *Pedagogik mahorat*, 4, 156-162.
6. Land, M. H. (2013). Full STEAM ahead: The benefits of integrating the arts into STEM. *Procedia Computer Science*, 20, pp. 547-552.
7. Nazarov, D. M. (2023). Kreativ kompetensiyani baholash mezinlari va ko'rsatkichlari. *Ta'lim va taraqqiyot*, 7(2), 23-30.
8. Perignat, E., & Katz-Buonincontro, J. (2019). STEAM in practice and research: An integrative literature review. *Thinking Skills and Creativity*, 31, 31-43.
9. Rustamov, B. A. (2022). Fanlararo aloqalar va o'quvchi kreativligi. *O'qituvchi*, 8, 42-47.
10. Toshpulatova, S. (2021). Ta'limda kreativlik va innovatsion yondashuvlar. "Ma'rifat" jurnali, 5, 67-73.
11. Yakman, G. (2008). STEAM education: An overview of creating a model of integrative education. *Pupils' Attitudes Towards Technology (PATT-19) Conference: Research on Technology, Innovation, Design & Engineering Teaching*, Salt Lake City, Utah.
12. Yusupov, F. K. (2023). XXI asrda ta'lim paradigmasining o'zgarishi. *Tilshunoslik va adabiyotshunoslik*, 12(3), 134-141.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ETNOPEDAGOGIKA NAMUNALARINI O'RGATISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Abdullayeva Feruza Nurillaevna, Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti

abdullayevaferuza@buxdpi.uz

Bekmurodova Asalkhon Bahodir qizi, Buxoro davlat pedagogika instituti I kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu ishda boshlang'ich sinflarda etnopedagogika namunalarini o'rgatishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish masalasi o'qish fani misolida tatqiq qilindi.

Kalit so'zlar: Ta'lim texnologiyalari, etnopedagogika, o'qish fani, maqol, matal.

ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ПРИМЕРОВ ЭТНОПЕДАГОГИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Абдуллаева Феруза Нуриллаевна, Доцент Бухарского государственного педагогического института

abdullayevaferuza@buxdpi.uz

Бекмуродова Асалхон Баходир кызы, Магистрант I курса Бухарского государственного педагогического института

Аннотация: В данной работе исследован вопрос использования образовательных технологий при обучении этнопедагогическим моделям в начальных классах на примере чтения.

Ключевые слова: Образовательные технологии, этнопедагогический, чтение, пословица, идиома.

THE IMPORTANCE OF USING EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING EXAMPLES OF ETHNOPEDAGOGY IN PRIMARY SCHOOL

Abdullaeva Feruza Nurillaevna, Associate Professor at Bukhara State Pedagogical Institute

abdullayevaferuza@buxdpi.uz

Bekmurodova Asalkhon Bahodir qizi, 1st-year Master's Student at Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract: In this work, the issue of using educational technologies in teaching ethnopedagogical models in primary grades was investigated using the example of reading.

Keywords: Educational technologies, ethnopedagogical, reading, proverb, idiom.

Bugungi kunda ta'lim tizimida ta'lim texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonini samarali tashkil etishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'qitish jarayonining sifatini yaxshilash va o'quvchilarning ongida chuqur iz qoldirish uchun innovatsion metodlar va texnologiyalardan foydalanish juda muhimdir. Etnopedagogika, ya'ni milliy pedagogika qadriyatlarini o'rganish va ulardan ta'lim jarayonida samarali foydalanish alohida o'rin egallaydi. Ta'lim texnologiyalari yordamida etnopedagogika namunalarini taqdim etish, o'quvchilarning darslarga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Animatsiyalar, video va boshqa materiallar yordamida milliy madaniyatni o'rganish jarayonini qiziqarli va jonli qilib o'tkazish mumkin. Ayniqsa, ta'lim texnologiyalari boshqa sohalaridagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz boyib boradi va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'satishning yangi imkoniyatlarini yaratib beradi.

Hozirgi kunda o'qitish, ta'lim jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan texnik vositalar, kompyuter, masofaviy o'qitishdan foydalanish, deb ta'kidlanadi. Hozirda ta'lim texnologiyasi yordamchi vosita bo'lib qolmay balki, o'quv jarayonining rivojlanishida katta rol o'ynab, uning tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini o'zgartiradigan yangi sistema deb tushunilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchi va o'quvchining pedagogik tafakkuriga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ta'lim texnologiyalar bilan bog'liq eng asosiy negizi – bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan samarali natijaga hamkorlikka erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, etnopedagogika namunalarini ta'lim texnologiyalarida qo'llay olsa, o'quv jarayonida o'quvchi mustaqil fikrlay olsa, ijodiy ishlay olsa, izlansa, tahlil eta olsa, o'zi xulosa qila olsa, o'ziga, guruhga, guruh esa unga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ta'lim jarayonida samarali natijaga erishgan hisoblanadi.

Etnopedagogika namunalari asosida ta'lim texnologiyalardan foydalangan holda har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonida o'qitish texnologiyasi – bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga

yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. O'tgan asrning 70-yillaridan boshlab pedagogik adabiyotlarda ta'lim texnologiyasi tushunchasining mohiyati ancha keng talqin etila boshlandi. Yaponiya olimi T.Sakomoto tomonidan "O'qitish texnologiyasi – bu o'qitishning maqbulligini ta'minlovchi yo'l- yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar sohasi" deb izohlanadi. Rus olimi N.F.Talizina fikri bo'yicha: "Ta'lim texnologiya – belgilangan o'quv maqsadlariga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat" deb tushuntiriladi. I.Ya.Lernerning fikricha, Pedagogik texnologiya – o'quvchilar harakatlarida aks etgan o'qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan va aniqlanadigan maqsadni ifodalashni taqozo etadi. Ko'rinib turibdiki, ta'lim texnologiyasi belgilangan maqsad va mazmun asosida o'quv jarayonini loyihalash sifatida tashkil etilgan. O'tgan asrning 70-yillaridan boshlab pedagogik adabiyotlarda ta'lim texnologiyasi tushunchasining mohiyati ancha keng talqin etila boshlandi.

Yaponiya olimi T.Sakomoto tomonidan "O'qitish texnologiyasi – bu o'qitishning maqbulligini ta'minlovchi yo'l- yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar sohasi" deb izohlanadi. Rus olimi N.F.Talizina fikri bo'yicha: "Pedagogik texnologiya – belgilangan o'quv maqsadlariga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat" deb tushuntiriladi. I.Ya.Lernerning fikricha, Pedagogik texnologiya – o'quvchilar harakatlarida aks etgan o'qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan va aniqlanadigan maqsadni ifodalashni taqozo etadi. Ko'rinib turibdiki, ta'lim texnologiyasi belgilangan maqsad va mazmun asosida o'quv jarayonini loyihalash sifatida tashkil etilgan.

Ikkinchi sinflar misolida qaraydigan bo'lsak o'quvchilarda milliy va etnik madaniyat an'analar, qadriyatlariga bo'lgan muhabbat ruhini tarbiyalashda etnopedagogika namunalarini o'qish fanini o'qitish jarayoniga integratsiya qilish o'zini samarali natijasini beradi. Ikkinchi sinf o'qish fani dasturi kiritilgan "Vatanimiz ajdodlari" kabi tarixiy mavzularni o'qitishda etnopedagogik metodlardan foydalanish, ularning milliy ruhini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning boy tarixiy merosi va ajdodlarimizning erishgan yutuqlarini o'quvchilarga o'rgatish, nafaqat ularning bilimni oshiradi, balki vatanparvarlik tuyg'ularini ham o'zida mujassamlashtiradi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, ayniqsa 2-sinfda, o'quvchilarga mavzuni qiziqarli va esda qolarli tarzda taqdim etish imkonini yaratib beradi. "Vatanimiz ajdodlari" mavzusi o'quvchilarga o'z tarixini, madaniyatini va ajdodlarining yuksak fazilatlarini bilib olishlari uchun ajoyib imkoniyat yaratib beradi. Bu mavzu orqali o'quvchilarga milliy qadriyatlar, urf-odatlar, va ajdodlarimizning muhim tarixiy roli haqida ta'kidlab o'tiladi. Etnopedagogika nuqtai nazaridan, bu mavzu o'quvchilarga o'z milliy kimligini anglashda turtki bo'ladi va ularni vatanga hurmat bilan munosabatda bo'lishga undaydi. "Vatanimiz ajdodlari" mavzusini o'qish jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish, o'quvchilarga mavzuni vizual tarzda tushuntirish imkonini beradi. Masalan, o'quvchilarga ajdodlarimizning ulug'vor tarixiy shaxslari Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'beklar haqida qisqa video lavhalar yoki animatsiyalar ko'rsatish mumkin. Bu materiallar o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi va mavzuga bo'lgan e'tiborlarini oshiradi. Darsda Amir Temurning hayoti va ish faoliyati, Alisher Navoiyning o'zbek tili yaralishidagi o'rnini, Mirzo Ulug'bekning astronomiya sohasidagi erishgan yuruqlari haqidagi animatsiyalarni ko'rsatish orqali kutilgan natijaga erishish mumkin. O'quvchilar ko'rsatilgan animatsion lavhalar orqali vatanga muhabbat, milliy madaniyatimizga va tarixiy shaxslarga hurmat paydo bo'lishiga erishish mumkin.

Boshlang'ich ta'limda etnopedagogika na'munalarini o'qitishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish pedagogik jarayonni yangilash, samarali qilish, millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi, uning boy tarixi uchun muhim vositadir. Multimedia, interaktiv texnologiyalar va onlayn resurslar orqali o'quvchilarga milliy madaniyatni o'rgatish nafaqat bilimlarni chuqurlashtirish, balki yosh avlodni o'z xalqining qadriyatlariga sodiq, madaniyatni hurmat qiluvchi fuqarolar qilib tarbiyalash imkonini beradi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar yordamida etnopedagogikaning na'munalarini o'rgatishda o'quvchilarning qiziqishini oshirish, ijodiy fikr yuritish va mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishga ham katta yordam berib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. - Toshkent-2021.
2. Hakimov J.O. "Ta'limda axborot texnologiyalari" 2016 yil.
3. Daminov.O.O. Kasbiy pedagogika 2018 yil.
4. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Bayoz, 2022. – 304 b.
5. Abdullayeva F. Ta'lim tizimi sifatini oshirishda pisa va timss kabi xalqaro tadqiqotlarning roli

//центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.

6. Nurillayevna A. F. Teaching Scientific Popular Articles in Mother Nili and Reading Literacy Courses //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 47-50.

7. Abdullayeva F. Methodological possibilities of organization of primary school technology lessons with pedagogical technologies //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

8. Nurullayevna, A. F. (2022). Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ilmiy ommabop maqolalarni o'rgatish. barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(4), 406-409.

9. Курбанова, Ш. Н., Абдуллаева, Ф., & Очилова, Г. О. (2021). Педагогическая технология—целостная система образовательного процесса. новые педагогические исследования: сборник статей IV, 20.

10. Qurbonova S. N., Abdullayeva F. Tarbiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1030-1035.

11. Абдуллаева, Ф. Н. (2022). Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ilmiy-ommabop maqolalarni o'rgatishning metodik imkoniyatlari: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.034> Abdullayeva Feruza Nurilloevna Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 243-246.

12. Abdullayeva Feruza, N. (2022). Start Methodological Options for Teaching Scientific and Popular Articles in First Grade Mother Tongue and Reading Literacy Classes. International Journal of Trend in Scientific Research and Development, 6(6), 1433-1436.

13. Nurilloevna, A. F. (2022). General Structure of Teaching Courses of Popular Scientific and Artistic Articles on the Theme of the Seasons of the Year. Web of Scholars: Multidimensional Research Journal, 1(6), 1-5

14. Nurillayevna, A. F. (2023). Use of new pedagogical technologies in mother language and reading literacy lessons. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(5), 5-9.

15. Nurillayevna, A. F., & Muhammadjonovna, S. E. (2023). Ona Tili Va O'qish Savodxonligi Darslarida Matn Ustida Ishlashda Pirls Topshiriqlaridan Foydalanish. Academic Integrity and Lifelong Learning (France), 215-219.

16. Nurillayevna, A. F., & G'anijonovna, Q. M. (2023). Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects (Spain), 181-184.

17. Abdullayeva, F. (2023). Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ilmiy ommabop maqolalarni o'rgatish. центр научных публикаций (buxdu. uz), 28(28).

18. Nurillayevna, A. F. (2023). Methodological Basis of Development of Science-Related Competences In Teaching Works of Art in Primary Classes Based On Synergic Approach. International Journal of Formal Education, 2(10), 61-66.

MEDIA MADANIYATI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR. IJTIMOIIY MEDIA SHAKLLARI

*Muxtorova Gulchiroy Obidjon qizi, Buxora davlat pedagogika instituti
Pedagogika ta'lim yo'nalishi
1-kurs talabasi*

gulchiroymuxtorova555@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada media madaniyati bu kommunikatsiya shakllari va usullarining majmuasi ekanligi, bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar media madaniyatining asosiy qismiga aylangani, sun'iy intellekt imkoniyatlari orqali biznes jarayonlarining tezligini oshirish, mijozlarga qo'shimcha xizmatlar taqdim etish va samaradorlikni kuchaytirish mumkin ekanligi haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: media, madaniyat, media madaniyati, sun'iy intellekt, innovatsiya, innovatsion texnologiyalar, faktorlar, axborot.

МЕДИАКУЛЬТУРА И ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ. ФОРМЫ СОЦИАЛЬНЫХ МЕДИА

Мухторова Гулчирой Обиджоновна, студентка 1 курса Бухарского государственного педагогического института, направление «Педагогика».

gulchiroymuxtorova555@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматривается медиа-культура как совокупность форм и методов коммуникации. Отмечается, что в настоящее время интернет и социальные сети стали основными составляющими медиа-культуры. Также подчеркивается, что с помощью возможностей искусственного интеллекта можно повысить скорость бизнес-процессов, предоставить дополнительные услуги клиентам и повысить эффективность.

Ключевые слова: медиа, культура, медиа-культура, искусственный интеллект, инновации, инновационные технологии, факторы, информация.

MEDIA CULTURE AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES: FORMS OF SOCIAL MEDIA

Gulchiroy Muxtorova, daughter of Obidjon, a first-year student at Bukhara State Pedagogical Institute, majoring in Pedagogy.

gulchiroymuxtorova555@gmail.com

Annotation: This article discusses media culture as a set of communication forms and methods. It highlights that today, the Internet and social networks have become the main components of media culture. It also emphasizes that the capabilities of artificial intelligence can be used to accelerate business processes, offer additional services to customers, and increase efficiency¹⁰

Keywords: media, culture, media culture, artificial intelligence, innovation, innovative technologies, factors, information.

Media madaniyati bu kommunikatsiya shakllari va usullarining majmuasidir. U video, audio, matn va grafikadan iborat bo'lgan turli xil media platformalar orqali tarqatilgan ma'lumotlar bilan bog'liqdir. Media madaniyatining asosiy elementi bu jamiyatdagi odamlarning media vositalari bilan munosabatidir. Innovatsion texnologiyalar esa yangi g'oyalar, jarayonlar yoki mahsulotlarning yaratilishi va qo'llanilishini anglatadi, bu orqali inson faoliyati samaradorligi ortadi va yangi yechimlar taklif etiladi. Ushbu ikki tushuncha bir-biri bilan bog'liq bo'lib, har biri boshqalarini ta'sir qiladi. Media madaniyati zamonaviy texnologiyalar bilan yangilanmoqda va rivojlanmoqda. Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar media madaniyatining asosiy qismiga aylangan. Odamlar o'z fikrlarini, tajribalarini va ma'lumotlarini keng ommaga taqdim etish imkoniyatini qo'lga kiritdilar. Innovatsion texnologiyalar esa bu jarayonni yanada samarali va tezkor amalga oshirish imkonini beradi. Masalan, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (big data) tahlili orqali media kontentini ishlab chiqish jarayoni tezlashadi va optimallashtiriladi. Media madaniyati va innovatsion texnologiyalar o'rtasidagi muvozanat juda muhimdir. Innovatsion texnologiyalar media mazmunini qayta ko'rib chiqish va yangi formatlarda taqdim etishga yordam beradi. Masalan, virtual reallik va kengaytirilgan reallik kabi texnologiyalar yordamida odamlar tajribalari boshqacha ko'rinishda o'zgaradi. Bularning barchasi madaniyatimiz va kommunikatsiya

¹⁰ . Axmedov N.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: TDPU, 2010.

usullarimizga yangi bir qadam qo'shadi. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali yaratilgan yangi media platformalar har bir insonning fikrlash va muomala usullarini o'zgartirishga qodir.

Ijtimoiy media hozirgi kunda odamlarning kommunikatsiyasi va axborot almashinuvi uchun muhim platforma hisoblanadi. Ijtimoiy media platformalarining xilma-xilligi va ularning mamlakatlar, madaniyatlar va sohalar bo'yicha ta'siri nihoyatda kuchli. Dunyodagi eng ommabop ijtimoiy media platformalariga Facebook, Instagram, Twitter, TikTok va LinkedIn kabi platformalar kiradi. Har bir platformaning o'ziga xos funksiyalari va auditoriyalari mavjud bo'lib, o'zaro kommunikatsiya va axborot uchun turli imkoniyatlarni taqdim etadi. Facebook platformasi dunyo bo'yicha eng ko'p foydalanuvchiga ega bo'lgan ijtimoiy tarmoqdir. Bu platforma orqali foydalanuvchilar o'z fikrlarini, rasmlarini va videolarini baham ko'rish imkoniyatiga ega. Shuningdek, Facebook turli xil guruhlar va sahifalar uchun joy bo'lib xizmat qiladi, bu esa yanada kengroq auditoriyaga yetib borishni ta'minlaydi. Instagram esa asosan vizual kontentga asoslangan platforma bo'lib, foydalanuvchilarga fotosuratlar va videolarni bo'lishish, shuningdek, ushbu mazmunni seriyali tarzda taqdim etish imkoniyatini beradi. Twitter va TikTok boshqa ijtimoiy platformalardir, ularning har biri o'z auditoriyasiga mos ravishda maxsus bir kanal sifatida xizmat qiladi. Twitter, qisqa va tezkor xabarlar bilan muloqot qilish imkoniyatini taqdim etsa, TikTok ko'proq qiziqarli va qisqa videolarni yaratish va baham ko'rishga qaratilgan. LinkedIn esa professionallar uchun mo'ljallangan platforma bo'lib, ish qidirish va professional tarmoq yaratish imkoniyatlarini taqdim etadi. Ijtimoiy media platformalarining roli kun sayin o'sib bormoqda va ularning hayotimizdagi ahamiyati sezilarli darajada oshmoqdadir. Ular nafaqat shaxsiy kommunikatsiya uchun, balki biznes va marketing strategiyalarining asosiy vositalaridan biriga aylangan. Ijtimoiy media orqali tashkilotlar va brendlar o'z mijosi bilan bevosita aloqada bo'lish va o'z mahsulot va xizmatlarini targ'ib qilish imkoniyatiga ega. Shuningdek, platformalar ijtimoiy o'zgarishlar va jamiyat muammolari haqida ovoz chiqarish uchun ham vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, ijtimoiy media turlari va ularning roli har bir inson va jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Media madaniyati mamlakatimiz va butun dunyo miqyosida doimiy ravishda o'zgarib bormoqda. Unga ta'sir etuvchi omillar orasida texnologik rivojlanish, ijtimoiy o'zgarishlar va globalizatsiya kabi keng qamrovli jarayonlar mavjud. Bugungi kunda media madaniyatining o'zgarishi nafaqat kontent yaratishda, balki odamlar bilan uning munosabatida ham o'z ifodasini topmoqda. Dastlab, media madaniyatida texnologiyalarning roli muhim ahamiyatga ega. Internetning tarqalishi va raqamli kommunikatsiyalar bilan bog'liq yangiliklar media usullarini tubdan o'zgartirdi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlar orqali odamlar tez va oson ma'lumot almashish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Ushbu jarayon media iste'molchilarning faol ishtirokchiga aylanishiga olib keldi. Bugungi kunda, har bir inson o'zini media tinglovchisi sifatida emas, balki yaratuvchisi sifatida ham ko'ra boshladi. Bundan tashqari, ijtimoiy o'zgarishlar va madaniyatning birlashuvi media madaniyatiga yangi yo'nalishlar kiritmoqda. O'zbekistondagi yoshlar orasida an'anaviy qadriyatlarni saqlash bilan bir qatorda zamonaviy media trendlariga e'tibor qaratish yo'nalishi kuchaymoqda. Ushbu holat, media mazmunini yanada xilma-xil qiladi va yangi uslublar sharoitida jadal rivojlanishni ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiyalar zamonaviy jamiyatni o'zgartirayotgan muhim omillardandir. Bu texnologiyalar nafaqat iqtisodiy sektorlarni rivojlantiradi, balki inson hayotining barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu bobda innovatsion texnologiyalarning yangiliklari va qo'llanishlari haqida batafsil ma'lumot beriladi. Yangi innovatsion texnologiyalar sohasida muhim o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Masalan, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (big data) va bulutli hisoblash (cloud computing) kabi texnologiyalar hayotimizga kirib kelmoqda. Sun'iy intellekt imkoniyatlari orqali biznes jarayonlarining tezligini oshirish, mijozlarga qo'shimcha xizmatlar taqdim etish va samaradorlikni kuchaytirish mumkin. Katta ma'lumotlar esa turli sohalarida ma'lumotlarni tahlil qilish va ulardan strategik qarorlar qabul qilishda qo'llaniladi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar sog'liqni saqlash, ta'lim, transport va energetika kabi sohalarida ham keng qo'llanilmoqda. Masalan, telemeditsina xizmatlari virtual uchrashuv orqali bemorlarni masofadan turib muolajalar olishiga imkon yaratadi. Ta'limda esa onlayn ta'lim platformalari va interaktiv texnologiyalar o'quv jarayonini kengaytiradi va uning sifatini oshiradi. Bunga qarshi, innovatsion texnologiyalarni joriy etishda ayrim to'siqlar ham mavjud. Ular xavfsizlik masalalari, ma'lumotlarni himoya qilish va insonlarning ish joylaridagi o'zgarishlarga tayyorligi kabi faktorlardir. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi inson hayotini qulaylashtirib, kelajakda hayotimizni yanada osonlashtirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy media zamonaviy kommunikatsiya vositasi sifatida ahamiyatini oshirib bormoqda. Muhitda axborot tarqatish usuli sifatida ijtimoiy media kanallari har kimga ochiq va keng tarqalgan

imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Ijtimoiy media platformalari, masalan, Facebook, Instagram va Twitter foydalanuvchilarga o'z fikrlarini, tajribalarini va bilimlarini baham ko'rish imkonini beradi. Shuningdek, bu platformalar orqali axborot juda tez tarqaladi. Ijtimoiy mediyaning kuchli ta'siri juda ko'p jihatlardan ko'rinadi. U, avvalo, yangiliklarni tarqatishning tezligini ta'minlaydi. Mahalliy va global muammolar to'g'risidagi axborotlar bir necha daqiqalar ichida butun dunyo bo'ylab tarqalishi mumkin. Bunday tezkor axborot almashinuvi ijtimoiy fikrni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ikkinchidan, ijtimoiy media adabiy va tarixiy kontekstga ega bo'lgan muammolarni jamoatchilikka yetkazish imkonini beradi. Nihoyat, ijtimoiy media marketing sohasida samarali vosita sifatida ham foydalaniladi. Brend kompaniyalari o'z mahsulotlarini va xizmatlarini targ'ib qilishda ijtimoiy mediadan foydalanadilar. Ijtimoiy media marketingining muvaffaqiyati, asosan, maqsadli auditoriya bilan muloqotni yaxshilashga bog'liq. Ijtimoiy media orqali olingan axborotlar faqat xabardor bo'lish bilan cheklanmaydi, balki ular faol munosabat olib borishga ham imkoniyat yaratadi. Muammolarni muhokama qilishda, munozaralar o'tkazishda va yangi g'oyalar yaratishda ijtimoiy media platformalari samarali bo'ladi. Ijtimoiy media axborot tarqatish jarayonini ob'ektiv va dinamik saqlab qolish uchun zarur vositalarni yaratmoqda. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy media va axborot tarqatish o'rtasidagi bog'liqlik zamonaviy kommunikatsiyaning asosiy tamoyillaridan biridir. Uning ta'siri va yondashuvlari jamoatchilik fikrini shakllantirishda, axborot almashinishda va ijtimoiy o'zgarishlarni keltirib chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy media jahon bo'yicha odamlar o'rtasidagi aloqalarni tubdan o'zgartirdi. Bugungi kunda, ijtimoiy tarmoqlar, xususan Facebook, Instagram, Twitter va TikTok kabi platformalar, shaxslar va guruhlar o'rtasida yangi muloqot turlarini yaratmoqda. Ijtimoiy media odamlarni global miqyosda bog'ladi, bu esa odamlar o'rtasidagi aloqalarni yanada kengaytiradi va kuchaytiradi. Biroq, bu o'zgarishlar ijtimoiy tuzilmalarda ham muhim ta'sirlar qoldirib, yangi ijtimoiy normalarni shakllantirmoqda.

Ijtimoiy media orqali odamlar bir-birlarini tez va oson topa oladi. Ushbu aloqalar ko'pincha yuzmayuz muloqotlarga xos bo'lgan hissiyot va ular orqali olingan tajribalar bilan ta'minlangan bo'lmaydi. Odamlar o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini va hayotiy tajribalari bilan bo'lishishga imkon topishadi va bu jarayon ijtimoiy tarmoq doirasida jisman bog'lanishga hissa qo'shadi.¹¹ Shuningdek, yangi avlod uchun ijtimoiy media do'stlik va aloqalarni o'rnatishning asosiy vositasi bo'lmoqda. Bunday platformalarda bevosita o'rnatilgan muloqot ko'plab ijtimoiy ko'ngil ochish va shaxsiy tajribalarga yangi tafovutlarni keltirib chiqaradi. Biroq, ijtimoiy media insonlar o'rtasidagi aloqalarda ba'zi salbiy ta'sirlarni ham keltirib chiqaradi. Odamlar o'zini tashvish va depressiya holatida his qilishlari mumkin, chunki ijtimoiy media ko'pincha mukammal hayotlarni namoyish etadi. Bu ijtimoiy taqqoslashlarga olib keladi va odamlarni o'zlarini qoniqtirmasliklariga olib keladi. Ijtimoiy media orqali yengil muloqotlar qiyin vaziyatlarni yengillashtirishda yordam bermaydi, aksincha, ayrim hollarda aloqa qiyinlashishiga sabab bo'ladi. Natijada, ijtimoiy media insonlar bilan aloqalarimizni o'zgartirib, yangi ijtimoiy me'yorlar va shakllarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu jarayonlar ijtimoiy o'zgarishlarni bir qancha darajalarda namoyish etadi, shuningdek, odamlarning his-tuyg'ulari va umuman ijtimoiy tizimlarida yangi yondashuvlar shakllanishiga olib keladi. Kelajakda ijtimoiy medianing rivojlanishi va ta'siri bu aloqalarning qanday davom etishi va tezligi bir qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Media madaniyati zamonaviy jamiyatning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Biroq, media madaniyatida bir qator muammolar va xavflar mavjud bo'lib, ular jamiyatga ta'sir etmoqda. Birinchi navbatda, ma'lumotlarning to'liq va haqiqatga mos bo'lishi muhimdir. Ko'plab media-platformalarda noto'g'ri ma'lumotlar tarqalmoqda, bu esa odamlarning fikrini o'zgartirishi va noto'g'ri qarorlar qabul qilishiga olib kelishi mumkin. Bunday hodisalar fake news yoki yolg'on xabarlar sifatida tanilgan holda, jamiyatda noaniqliklar va ishonch muammolarini keltirib chiqaradi. Ikkinchi muammo - media madaniyatidagi axborotning haddan tashqari ko'pligi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va internet orqali tarqatilayotgan kontent xuddi suyuqlik kabi to'plangan. Bu esa odamlarning haqiqiy va ahamiyatli ma'lumotni ajratib olishini qiyinlashtiradi. Odamlar ko'pincha vaqtlarini unchalik muhim bo'lmagan kontentga sarflab, haqiqiy yangiliklarni o'tkazib yuborishadi. Bu holat individual va ijtimoiy jihatdan xatarli natijalarga olib kelishi mumkin.

Uchinchi muammo - media madaniyatida xavfsizlik masalalari mavjud. Onlayn platformalarda shaxsiy ma'lumotlarning qanday xavfsizligi va mas'uliyati haqida gapirilmaydi. Odamlar onlayn kiyimlarini kiyishda ehtiyotkor bo'lishlari kerak, chunki insoniy axborotlarning o'g'irlanishi, kiberhujumlar va boshqa xavflar orqasida turadi. Bu holatlar insonlarning shaxsiy hayoti va yaxlitligi

¹¹ 4. Jumaniyozova M. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. — Toshkent: "Fan va texnologiya", 2015.

uchun tahdidlarga olib keladi.¹²

Media madaniyati va innovatsion texnologiyalar bugungi kunda jamiyatda muhim o'rin egallamoqda. Asrimizning barcha sohalarida tezkor rivojlanishlar va zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi, media madaniyatini yangilanishiga yo'l ochmoqda. Internet va raqamli texnologiyalar, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar mahalliy va global axborot almashuvini tezlashtirib, turli davlatlar va madaniyatlar o'rtasida o'zaro ta'sir yuksalmoqda. Bu jarayonlarning davomida media madaniyatining yangi qiyofalari shakllanmoqda, unda globalizm va lokalizm bir-biriga to'qnash kelmoqda.

Bugungi kunda media madaniyati zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida rivojlanmoqda. Bunga sun'iy intellekt, big data, virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari kiradi. Ushbu texnologiyalar o'z navbatida, axborot tarqatish jarayonini, kontent yaratish va iste'mol qilish usullarini keskin o'zgartirmoqda. Sun'iy intellekt yordamida foydalanuvchilarga moslashtirilgan kontentlarni taqdim etish, odamlar uchun yanada qiziqarli va foydali tizimlarni yaratish imkonini beradi. Masalan, o'zining taqdim etadigan maqolalari yoki yangiliklarini moslashtiruvchi platformalar ko'paymoqda. Yana bir muhim aspekt, media madaniyatining etikasi va axloqiy tamoyillari masalasi. Innovatsion texnologiyalarning kengayishi bilan axborot xavfsizligi, manipulyatsiya va dezinformatsiya masalalari yuzaga kelmoqda. Bu esa media tashkilotlari va jurnalistlardan axborotning ishonchliligini ta'minlash va foydalanuvchilarni kerakli axborot bilan ta'minlashni talab qiladi. Ular uchun ma'lumotlarni har tomonlama tahlil qilish, muhokama qilish va keng jamoatchilikka haqqoniy tarzda yetkazish muhimdir.

Xulosa: Ijtimoiy media shakllari hozirgi kunda jamiyatda o'z o'rnini mustahkamladi. Ular axborot almashish, fikr bildirish va muloqotda bo'lish imkoniyatlarini kengaytirdi. Yangiliklar va ma'lumotlarni tezkor yetkazib berish orqali jamiyatni yanada birlashtiradi va global muammolar haqida ongli ravishda ma'lumot olishga yordam beradi. Innovatsion texnologiyalar ijtimoiy media platformalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Mobil ilovalar, sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatlari o'zbekistonliklar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu tariqa, xalq manfaati yo'lida ijtimoiy media va innovatsion texnologiyalarning roli juda katta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedov N.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: TDPU, 2010.
2. G'ofurov K. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar. — Toshkent: TDPU, 2019.¹³
3. Hasanboyeva O. Bolalar psixologiyasi. — Toshkent: "O'zbekiston", 2008.
4. Jumanioyova M. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. — Toshkent: "Fan va texnologiya", 2015.
5. Xodjayev N.X. Umumiy pedagogika. — Toshkent: "Fan va texnologiya", 2012.¹⁴
6. www.pedagog.uz — Pedagogik ma'lumotlar portali.

¹² Axmedov N.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: TDPU, 2010.

¹³

G'ofurov K. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar. — Toshkent: TDPU, 2019.

O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BADIY ASARLARNI O'QITISH METODIKASI

Abdullayeva Feruza Nurillayevna, Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti

Orcid: <https://orcid.org/0009-0001-2629-9077>

*Iskandarova Shahribonu Bahri qizi, Buxoro davlat pedagogika institute I bosqich
magistranti*

Annotatsiya. Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darsligida berilgan badiiy asarlarni o'rgatishda o'quvchilar lug'atini rivojlantirish, nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, grammatik jihatdan to'g'rilikni shakllantirish ravon nutqni tuzish usullarini o'zlashtirish, axloqiy xususiyatlarni tarbiyalashi lozim. Mazkur maqolada shu haqda so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar. Badiiy asar, hikoya, matn, tinglash, so'zlash, tahlil qilish, qiyoslash, didaktik vosita, ta'lim samaradorligi, kreativlik, obrazli harakat, interfaol metod, kreativ topshirig'i.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ НА УРОКАХ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ

*Абдуллаева Феруза Нуриллаевна, Доцент бухарского государственного
педагогического института*

<https://orcid.org/0009-0001-2629-9077>

*Искандарова Шахрибону дочь Бахри, Магистрант 1 ступени Бухарского
государственного педагогического института*

Аннотация. При обучении произведениям искусства, приведенным в учебнике по грамотности чтения для начальной школы, необходимо развивать словарный запас учащихся, воспитывать звуковую культуру речи, формировать грамматическую правильность, владеть приемами составления беглой речи, воспитывать нравственные качества. Об этом мы поговорим в этой статье.

Ключевые слова. Произведение, рассказ, текст, аудирование, говорение, анализ, сравнение, дидактический инструмент, образовательная эффективность, творчество, образное движение, интерактивный метод, творческое задание.

METHODOLOGY OF TEACHING LITERARY WORKS IN READING LITERACY LESSONS

Abdullayeva Feruza Nurillayevna, Docent at Bukhara State Pedagogical Institut

<https://orcid.org/0009-0001-2629-9077>

*Iskandarova Shahribonu is the daughter of Bahri, Bukhara State Pedagogical Institute 1st stage
graduate student*

Annotation. Pri obuchenii proizvedeniyam iskusstva, privedennym v uchebnike po gramotnosti chteniya dlya nachalnoy shkoly, neobhodimo razvivat svarvanniy zapas uchaschixsya, vospityvat sound culture rechi, formirovat grammaticheskuyu correctness, vladet priemami sostavleniya begloy rechi rechi, vospityvat naravstvvennye kachestva. Ob etom my conversation v etoy state.

Keywords. Artwork, story, text, listening, speaking, analysis, comparison, didactic tool, educational effectiveness, creativity, figurative movement, interactive method, creative task.

KIRISH. Dunyoda ijtimoiy taraqqiyotning jadallashuvi, axborot tizimining globallashuvi, internet tizimi, tezkor axborot olish va uzatish zaruriyatining yuzaga kelishi keng miqyosda interfaol ta'lim muhitini yaratish, o'quvchilarda nutqiy kompetentlik, ravon nutq malakasini tarkib toptirish, ijodiy tafakkur faoliyatini maqsadli yo'naltirish va boshqarish texnologiyalarini yaratish, mazkur yo'nalishlarda tadqiqot ishlari olib borilishi dolzarblik kasb etmoqda.

Har qanday jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy barqarorligi o'sha jamiyat fuqarolarining ma'naviy-axloqiy, intellektual va kasbiy salohiyati darajasiga bog'liq. O'zbekiston taraqqiyotining ma'naviy-axloqiy va kasbiy asoslari to'g'risida fikr yuritib, istiqlol sharoitida yoshlarning bilim asoslarini puxta egallashlari bilan birga mustaqil fikrga ega bo'lgan, g'oyaviy, mafkuraviy jihatdan chiniqqan, kasbiy mahoratini mustaqil vatanimizning ravnaqi yo'lida fidokorona safarbar eta oladigan ruhda tarbiyalash lozimligi dolzarb vazifalardan biridir [1;28]. Shunday ekan, ma'naviy-axloqiy va kasbiy jihatdan to'laqonli shakllangan shaxsda o'z vatani, millati, egallagan kasb-kori bilan faxrlanish tuyg'usi

bo'ladi.

Zamonaviy boshlang'ich ta'limning o'zi nimadan iborat bo'lishi kerak? Bola 1-4-sinflarda qanday bilimga ega bo'lishi lozim? Bolalarimizga qachondan boshlab, qanday qilib, qanday usulda va uslubda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni o'rgatishimiz, chuqur anglatishimiz kerak?" degan savollar boshlang'ich ta'lim oldida asosiy masala bo'lib kelmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda maktabda ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim tizimida o'z ko'lami va ahamiyati jihatidan nihoyatda katta bo'lgan o'zgarishlarni amalga oshirdi va oshirmoqda.

Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni intellektual salohiyatga ega, yuksak ma'naviyatli, umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida tarbiyalashda o'quv lug'atlariga ehtiyoj seziladi.

Bolaning tafakkuri, ijodiyligi, tanqidiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim tizimida boshlang'ich sinfni tugatayotgan har bir o'quvchi shaxsiga bir qancha zamonaviy, shu jumladan, uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi nuqtayi nazaridan yangi talablarni qo'yadi. Binobarin, o'qitishning maqsadlari, vazifalari, mazmuni, uslublari va usullarini qayta ko'rib chiqqan holda ishlab chiqilgan yangi milliy dasturning qabul qilinishi bu boradagi ishlarning samarasini oshirishda asosiy dasturulamali bo'lib, o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, aqliy va ijodiy salohiyatining yanada yuqori bo'lishida xizmat qiladi.

METODLAR. Maktab ona tili va o'qish savodxonligi kursining maqsadi o'quvchilarga ularning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda nutq o'stirish, bilimlar tizimini shakllantirishdan iboratdir. Bu bilimlar sistemasi ma'lum usullar (metodika) orqali o'quvchilarga yetkaziladi.

"Metodika" grekcha so'z bo'lib, "metod" degani "yo'l" demakdir.

Ona tili metodikasi pedagogika fanlari sistemasiga kiruvchi pedagogika fanining tarmog'i bo'lib, jamiyat tomonidan qo'yilgan o'qitish maqsadlariga muvofiq, ona tilini o'qitish qonuniyatlarini ona tili rivojining ma'lum bosqichida tatbiq qiladi. Maktab oldiga hozirgi zamon talabalari va ta'lim maqsadlarning qo'yilishi ona tili o'qitish mazmunining tubdan o'zgarishiga olib keldi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili va o'qish savodxonligidan samarali ta'lim berilishi uchun o'qituvchi boshlang'ich sinflar uchun o'qitish metodlarini mukammal egallab, chuqur o'zlashtirib olmog'i zarur.

Boshlang'ich sinf 1-sinf o'qish savodxonligi darsligining 2-bo'limi "Qoyilman qish ishiga, Zavq beradi kishiga" deb nomlangan. 12-dars mavzusi "Qishda bo'lgan voqealar". Ushbu mavzu darslikning (Novda edutainment. Toshkent-2024 qayta ishlangan 2-nashr) 28,29,30-sahifalarini o'z ichiga oladi. O'quvchilar bu mavzuda hikoya, qiziqarli topshiriqlar, topishmoqlar, jumboqli maqol kabilar bilan tanishadilar.

Mavzu Yayra Sa'dullayevaning "Izza – bir qoshiq jizza" hikoyasi bilan boshlanadi. Hikoya bosh qahramon Irisvoy tilidan bayon etilgan. Uning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Azizvoy sinfdosh do'sti Irisvoyni bir emas ikki marotaba chalib, qorga yiqitadi, bolalar kulishadi. Endi o'rnidan turib qor bilan ta'zirini bermoqchi bo'lganda o'qituvchisi kelib qoladi. Irisvoy izza bo'lgani uchun Azizvoydan alaminini olishni xohlab rejalar tuza boshlaydi. Sumkasiga qor solib qo'yimoqchi bo'ladi, lekin fikridan qaytadi: "Yo'q, bo'lmaydi. Kitob maktabniki-ku, ivib ketadi. Yaxshisi....Urre, topdim!" Hikoyaning 1-qismi shunday yakunlanadi.

Ushbu hikoyadan so'ng "Savollarga javob bering" topshirig'i 5 ta savol berilgan: "Hikoyada bosh qahramonlarning ismlarini toping", "Azizvoyning qilgan ishi to'g'rimi? Fikringizni izohlang" kabi. Ushbu savollarga qo'shimcha tarzda o'qituvchi kitobda bo'lmagan "Irisvoy sumkaga qor solib qo'yganda to'g'ri bo'larmidi? Siz ham shunday qilarmidingiz?" kabi savollar berib borsa ham bo'ladi.

So'ng ushbu hikoyada o'quvchilarga tushunish murakkab bo'lgan so'zlar ustida lug'at ishi bajarilishi kerak. Shuning uchun ham darslikning 30-sahifasi boshida "chalib yubordi", "izza bo'lish", "bosh qahramon" kabi birikmalar ma'nosi ochiqqlangan.

Topishmoq berilgan: Oppoqqina dasturxon, Yer yuzini qoplagan. (javobi-qor)

Ariqdan oyna oldim. (javobi-muz)

Topshiriq: Maqolning ko'zgudagi aksini o'qing.

Ko'zgudagi aksi: Quyosh havoni isitadi, Do'st-qalbni.

Uyga vazifa sifatida qishki o'yinlar mavzusida og'zaki hikoya tuzib kelish topshirig'i berilgan.

13-dars: Qishda bo'lgan voqealar (2-qism)

Ushbu mavzu darslikning 31,32,33-sahifalarini o'z ichiga oladi. Dars "Izza-bir qoshiq jizza"

hikoyasining davomi bilan boshlangan.

Hikoyaning davomi: Irisvoy ertasi kuni maktab ketayotganda o'zi bilan yelim oladi. Azizvoy oyna tomonga o'tirganligi va sherigi partaning u tomoniga o'tmasligini bilib ancha-muncha yelim quyadi. Oxirgi paytlarda Azizvoy qo'ng'iroq chalinishiga zo'rg'a yetib kelayotganligini aytadi. Bugun kelmasa-chi? Uning joyiga boshqa bola o'tirsa-ya? deb xavotirlanadi. Shu payt qadam tovushlari eshitiladi. Irisvoy esa xayol sura ketadi: Hozir Azizvoy keladi, o'tiradi. Matematika ustoz: "G'oziyev – doskaga!" deydilar, u esa turolmaydi. Hamma kuladi. Men ham mazza qilib kulaman-ey kulaman... hikoya shu joyda yakunlanadi.

Shu o'rinda o'qituvchi hikoyani davom ettirish topshirig'ini berish orqali, o'quvchilarda o'qilgan matn asosida fikrlash va muloqot kompetensiyalarini shakllantirishi, Azizvoy va Irisvoyning qilgan ishlarini tahlil qilish orqali esa tanqidiy va ijodiy fikrlash, matnga asoslanib mustaqil xulosa chiqarish va yangi g'oyalar yaratish qobiliyatlarini rivojlantirishi mumkinligini aytib o'tishim kerak.

Hikoyadan so'ng "hovliqmoq" so'zi izohli lug'at sifatida berilgan. Undan so'ng esa hikoya asosida "Azizvoy qayerda o'tirardi?", Irisvoy yelimdan nima maqsadda foydalanmoqchi bo'ldi? , kabi 6 ta savol berilgan.

Topshiriq: "Qor" so'zidagi bitta harfni o'zgartirib, yangi so'z hosil qiling.

Birinchi harfni o'zgartirib: qor-tor...

Unlini o'zgartirib: qor-qir...

Uchinchi harfni o'zgartirib : qor – qop...

Hikoya asosida mantiqiy topshiriq berilgan.

Uyga vazifa sifatida esa hikoya mazmunini so'zlab bering topshirig'i berilgan.

Shundagina o'quvchilar muhim hayotiy yutuq va muammolar, o'tiladigan mavzularning amaliyotga tatbiqi bo'yicha o'z fikriga ega bo'ladi, o'z nuqtai nazarini asoslab bera oladi.

Tahlillarimiz darsliklarda asosan tayyor matn ustida ishlashga e'tibor qaratilayotgani, tayanch so'zlar va nutqiy qurilmalar vositasida o'quvchilarda bog'lanishli nutq ko'nikmalarini hosil qilish, o'z fikrini turli vaziyatlarda mustaqil ifodalash, nutqida sintaktik-sinonimik vositalardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan mashq va topshiriqlar kam berilganini, o'quvchilarni so'zlardan – so'z birikmalari – so'z birikmalaridan – gaplar – gaplardan bog'lanishli matn yaratishga olib chiqadigan mashq va topshiriqlar tizimi shakllantirilmaganligini, demak, o'quvchilarni bog'lanishli nutqqa o'rgatish ko'nikma-malakalari shakllantirish talab darajasida emasligini ko'rsatmoqda.

Ushbu bobda amaldagi darsliklarda asosan quyidagi topshiriqlarni ko'plab uchratish mumkinligi aytib o'tilgan:

- nuqtalar o'rniga qo'shimchalardan mosini qo'yib ko'chirish;
- matnni o'qish, ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosini izohlash;
- nuqtalar o'rniga qavs ichida berilgan so'zlardan mosini qo'yib yozish;
- matnni o'qish va berilgan topshiriqlarni bajarish;
- savollarga javob yozib chiqish va shu asosda kichik hikoya tuzish;
- rasm asosida kichik hikoya tuzish;
- berilgan tayanch so'zlardan foydalanib matn tuzish;
- maqollarni o'qish va ma'nosini aytib berish;
- berilgan matn mazmuni asosida hikoya tuzish;
- matn mazmunini o'z taassurotlari asosida qayta so'zlash kabi.

Ushbu mashq va topshiriqlar orasida bevosita bog'lanishli monologik nutqqa olib chiqishga yo'naltirib tizimlashtirilmagan. Bog'lanishli matn tuzish yo'llari ko'rsatilmagan holda o'quvchining o'zidan bog'lanishli matn tuzish so'ralganini ko'rish mumkin.

NATIJALAR. "O'qish savodxonligi darslarida badiiy asarlarni o'qitish metodikasi" bo'yicha o'rganilgan metod va usullarning samaradorligi tahlil qilinadi. O'rganish natijalari quyidagi jihatlar asosida yakuniy xulosaga kelindi. O'quvchilarning qiziqishi va ishtiroki – badiiy asarlarni o'qitish jarayonida interfaol usullar qo'llanganda, o'quvchilar matn mazmunini chuqurroq anglaydi, fikr bildiradi va mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tanlangan metodlarning samaradorligi – darslarda qo'llangan usullarning samaradorligi o'quvchilarning savodxonlik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, muhokama, rolli o'yinlar va klaster metodlari o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini oshirishga yordam berdi. Nutq va yozuv ko'nikmalarining rivojlanishi – badiiy matnlarni o'qish orqali o'quvchilarning lug'at boyligi kengayib, nutq madaniyati va ifodali fikrlash qobiliyatlari rivojlandi. Shu bilan birga, o'quvchilarning yozma nutqi aniq va mantiqiy bo'lishiga erishildi. Nazorat natijalari – o'quvchilarning savodxonlik darajasi

test va baholash natijalari orqali tahlil qilindi. O'qib tushunish darajasi oshgani, matnni qayta hikoya qilish va asosiy g'oyani aniqlash bo'yicha ko'nikmalar yaxshilangani kuzatildi. O'qish savodxonligi darslarida badiiy asarlarni samarali o'qitish uchun o'qituvchilarga interfaol metodlardan keng foydalanish, o'quvchilarni matn ustida mustaqil ishlashga undash va baholash tizimini takomillashtirish tavsiya etiladi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan –kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy talimda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik va yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi [4;65].

O'quvchining o'quv materialini o'zlashtirishi murakkab jarayon bo'lib, til hodisalarini kuzata olish, izlanish, qiyoslash, umumiylik va alohidalikni aniqlash, farqlarni topish, tasnif etish, hukm chiqarish, qo'llash bilan bog'liq. Bu bog'liqlik, ayniqsa, o'quvchilar bilan tayyor matnlar ustida ishlash jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi hamda lingvistik bilimlarini boyitish bilan birga quyidagi nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi:

kuzatish – berilgan matn asosida o'rganilgan til hodisalarini tahlil qilish;

izlanish – o'ylash, xotirada tiklash, so'rash, lug'at, qomus, internet manbalaridan foydalanish asosida bilimlarni boyitish;

narsa-hodisa mohiyatini qismlar sharhi orqali yoritish – har bir hodisani alohida-alohida sharhlay olish;

qiyoslash – matndagi hodisalarni o'zaro taqqoslay bilish;

umumiylikni aniqlash – matndagi hodisalarning o'xshash va umumiy tomonlarini aniqlash;

farqlarni topish – hodisalarning bir-biridan farqli tomonlarini ajrata bilish;

tasnif etish – matndagi hodisalarni o'xshashlik va farqlari asosida guruhlariga ajratish;

hukm chiqarish – hodisalar tizimi haqida umumlashma hukm, xulosa, qoida chiqara olish;

alohidalikni aniqlash – o'rganilgan hodisalarning yondosh voqelik bilan munosabatlarini aniqlash;

qo'llash – hodisalarni mustaqil ravishda yozma va og'zaki ko'rinishda sharhlab, ijodiy matn tuza olish.

O'quvchilarda bu jihatlarni shakllantirishda ijodiy bayonning o'rni va ahamiyatini ta'kidlash zarur. Negaki, bayonning bu turida o'quvchi matnga tasvir usullarini qo'shib yoki lisoniy hamda imloviy topshiriqlar kiritgan yoxud o'qituvchi boshlab bergan hikoyani davom ettirgan holda bayon yozishi mumkin. Jarayon o'quvchini matn ustida ishlashga yo'naltiradi.

Ona tili darslarida, matnni kengaytirish jarayoniga oid topshiriqlar o'quvchilarning matn ustida ishlash, tahrir va tahlil imkoniyatlarini oshiradi. O'quvchining matn ustida ishlash faoliyatida fikrni izchillikda bayon etish, kengaytirish, matn tili va uslubini muvofiqlashtirish orqali amalga oshirilsa, o'quvchi ongida nutqiy kompetensiya shakllanadi hamda bu singari kognitiv va psixolingvistik topshiriqlar so'z qo'llash mahorati, vaziyatni boshqara bilishi, ma'naviyati va axloqiy qarashlarini aniqlash va to'g'ri rivojlantirishga xizmat qilishi tahlil qilingan.

MUNOZARA. Bugungi kunda ta'limda "Aqliy hujum", "Fikrlar hujumi", "Tarmoqlar" metodi, "Sinkveyn", "BBB", "Beshinchisi ortiqcha", "6x6x6", "Bahs-munozara", "Rolli o'yin", "FSMU", "Kichik guruhlarda ishlash", "Yumaloqlangan qor", "Zigzag", "Oxirgi so'zni men aytay" kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda.

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqlarning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak.

Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi.

Dars mashg'ulotlarini tashkil qilishda samarali interaktiv metodlardan foydalanish, fanlararo integratsiyani amalga oshirish, lingvistik BKMLarni kommunikativ topshiriqlarni bajarish jarayonida qo'llash bilan bog'liq kamchiliklar kuzatilgan. Muammoning turi, kelib chiqish sabablarini batafsil o'rganish maqsadida o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazilgan [6;4].

So'rovnoma natijalari bugungi kun ona tili ta'limida asosiy e'tibor grammatik BKMLarni egallashga

qaratilganligini, “Matn va lug‘atlar ustida ishlash” mashg‘ulotlari darsliklardan o‘rin egallagan bo‘lsa-da, matn ustida ishlash bilan bog‘liq muammolar mavjudligini aniqlashtirgan. O‘tkazilgan dastlabki nazorat ishlari muammoni yechish yo‘llarini ishlab chiqishga oydinlik kiritilgan.

XULOSA. O‘zbek tili darslarida matn ustida ishlashda o‘qib va tinglab tushunish malakalarini takomillashtirishga doir grammatik topshiriqlar o‘quvchilarni bog‘lanishli matn yaratishga yo‘naltirilmaganligi, sintaktik-sinonimik vositalardan foydalanishni o‘rgatishga qaratilgan mashq va topshiriqlarning kam berilganligini aniqladik. Matn ustida ishlashda o‘qib va tinglab tushunish malakalarini qamrab oladigan matn oldi, matn mazmunini to‘ldirish, matnni kengaytirish, ixchamlashga qaratilgan matn ustida ishlash, matn tahriri va xatolar ustida ishlashga yo‘naltiriladigan o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish bevosita grammatik topshiriqlarning qanday qo‘yilishiga bog‘liq ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qish savodxonligi ta’limida badiiy asar ustida ishlashda o‘qib va tinglab tushunish malakalarini rivojlantirish avval tayyor matnlar bilan tanishtirish va kichik matnlar tuzdirish orqali o‘quvchilarda matn yaratish ko‘nikmalarini takomillashtiradi. Badiiy asar ustida ishlashda o‘qib va tinglab tushunish o‘quvchilarni matn turlari va uning ifoda vositalari bilan tanishtirish, matnning tuzilmaviy-tarkibiy qismlari haqida nazariy ma’lumotlar berish, matn mazmunini to‘ldirish, kengaytirish, matnni qayta ishlash, matnning shakli, uslubini o‘zgartirish, matnda mavjud mantiqiy va uslubiy nuqsonlarni aniqlash jarayonlarida “Reyder”, “Esse”, “Fikrlar savati”, “SMS-xabarnoma” kabi interfaol metodlardan foydalanib ko‘rildi.

Ma’lumki, ta’limda ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarni tatbiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo‘llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g‘oyamizning poydevoridir. - Toshkent-2021.
2. Hakimov J.O. “Ta’limda axborot texnologiyalari” 2016 yil.
3. Daminov.O.O. Kasbiy pedagogika 2018 yil.
4. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Bayoz, 2022. – 304 b.
5. Abdullayeva F. Ta’lim tizimi sifatini oshirishda pisa va timss kabi xalqaro tadqiqotlarning roli //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
6. Nurillayevna A. F. Teaching Scientific Popular Articles in Mother Nili and Reading Literacy Courses //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 47-50.
7. Abdullayeva F. Methodological possibilities of organization of primary school technology lessons with pedagogical technologies //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
8. Nurullayevna, A. F. (2022). Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida ilmiy ommabop maqolalarni o‘rgatish. *barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 2(4), 406-409.
9. Курбанова, III. Н., Абдуллаева, Ф., & Очилова, Г. О. (2021). Педагогическая технология—целостная система образовательного процесса. *новые педагогические исследования: сборник статей IV*, 20.
10. Qurbonova S. N., Abdullayeva F. Tarbiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1030-1035.
11. Абдуллаева, Ф. Н. (2022). Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida ilmiy-ommabop maqolalarni o‘rgatishning metodik imkoniyatlari: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.034> Abdullayeva Feruza Nurilloevna Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 243-246.
12. Abdullayeva Feruza, N. (2022). Start Methodological Options for Teaching Scientific and Popular Articles in First Grade Mother Tongue and Reading Literacy Classes. *International Journal of Trend in Scientific Research and Development*, 6(6), 1433-1436.
13. Nurilloevna, A. F. (2022). General Structure of Teaching Courses of Popular Scientific and

- Artistic Articles on the Theme of the Seasons of the Year. Web of Scholars: Multidimensional Research Journal, 1(6), 1-5
14. Nurillayevna, A. F. (2023). Use of new pedagogical technologies in mother language and reading literacy lessons. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 5-9.
 15. Nurillayevna, A. F., & Muhammadjonovna, S. E. (2023). Ona Tili Va
 16. O'qish Savodxonligi Darslarida Matn Ustida Ishlashda Pirls Topshiriqlaridan Foydalanish. *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)*, 215-219.
 17. Nurillayevna, A. F., & G'anijonovna, Q. M. (2023). Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish. *Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects (Spain)*, 181-184.
 18. Abdullayeva, F. (2023). Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ilmiy ommabop maqolalarni o'rgatish. *центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 28(28).
 19. Nurillayevna, A. F. (2023). Methodological Basis of Development of Science-Related Competences In Teaching Works of Art in Primary Classes Based On Synergic Approach. *International Journal of Formal Education*, 2(10), 61-66.

TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHNING AYRIM MASALALARI

Jumayev Ruzokul Xolikulovich, Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti

jumayevruzokul@buxdpi.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari tahlil qilinadi. Mustaqil ta'limning zamonaviy yondashuvlari, uning ta'lim sifatiga ta'siri, shuningdek, talabalarning o'zini o'zi rivojlantirish va bilim olishdagi faolligini oshirishdagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, talaba faoliyati, ta'lim sifati, zamonaviy yondashuvlar, o'zini o'zi rivojlantirish, metodik yondashuvlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik hamkorlik, ta'lim jarayoni, ta'limni takomillashtirish.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Джумаев Рузокул Халикулович, доцент Бухарского государственного педагогического института

jumayevruzokul@buxdpi.uz

Аннотация. В данной статье анализируются сущность, цели и задачи организации самостоятельного обучения студентов. Освещаются современные подходы к самостоятельному обучению, его влияние на качество образования, а также роль в повышении активности студентов в процессе саморазвития и самостоятельного освоения знаний.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, студенческая активность, качество образования, современные подходы, саморазвитие, методические подходы, информационно-коммуникационные технологии, педагогическое сотрудничество, образовательный процесс, совершенствование образования.

SOME ISSUES OF ORGANIZING STUDENTS' INDEPENDENT LEARNING

Jumayev Ruzokul Kholikulovich, Associate Professor at Bukhara State Pedagogical Institute

jumayevruzokul@buxdpi.uz

Annotation. This article analyzes the essence, goals, and objectives of organizing students' independent learning. It highlights modern approaches to independent learning, its impact on the quality of education, as well as its role in increasing students' activity in the process of self-development and independent knowledge acquisition.

Keywords: independent learning, student activity, quality of education, modern approaches, self-development, methodological approaches, information and communication technologies, pedagogical cooperation, educational process, improvement of education.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasining "Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan 3-bobining "Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish" deb nomlangan 1-§ ning "Mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv uslubiy materiallarni keng joriy etish" masalalarida ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olishlari, mustaqil ishlash malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetensiyalarini, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Oliy ta'lim tizimida talabalarining mustaqil ishi — bu bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayonining ajralmas va muhim tarkibiy qismidir. Bu jarayon talaba shaxsining rivojlanishiga, uning ijodiy va tanqidiy fikrlashiga, mas'uliyat hissi, tashabbuskorlik va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Talabaning mustaqil ishi — bu o'qituvchining bevosita rahbarligi yoki uning yo'riqlari asosida, talaba tomonidan o'z kuchi bilan bajariladigan faoliyatdir. Ushbu faoliyat turiga: mavzuni mustaqil o'rganish, amaliy mashqlar bajarish, ilmiy izlanishlar olib borish, referat, kurs va bitiruv ishlari yozish, o'z-o'zini tekshirish va baholash kabilarni kiritish mumkin.

Talabalarining mustaqil muammolari bo'yicha olib borilgan ko'plab pedagogik tadqiqotlarga qaramay, ushbu didaktik jarayonning mohiyati va mazmuniga yagona yondashuv hozirgacha mavjud emas. Mustaqil ishga berilgan ta'riflar turlicha bo'lib, bu holat mazkur pedagogik hodisaning mazmunini turlicha tushunishga asoslanadi. O'quv jarayonidagi alohida ahamiyatiga ko'ra, mustaqil ish har tomonlama tadqiq etilgan, turli pedagogik maktablar tomonidan har xil talqin qilingan va taqdim etilgan.

A. Disterveg ta'kidlaganidek: "...rivojlanish va ta'lim hech qachon insonga tayyor holda berilmaydi. Kimki bunga erishmoqchi bo'lsa, o'z faoliyati, o'z kuchi, o'z intilishi bilan unga erishmog'i lozim"[5]. Y.A. Komenskiy o'z asarlarida pedagoglarni shunday bir uslubni izlab topishga chaqirgan ediki, bunda o'qituvchilar kamroq o'qitsin, ammo talabalar ko'proq o'rganishsin. Ushbu fikrni davom ettirar ekan, K.D. Ushinskiy pedagoglarga ta'lim jarayonini shunday tashkil etishni qat'iy tavsiya qilgan ediki, bunda talabalar imkon qadar mustaqil ravishda o'rganishi, o'qituvchi esa bu mustaqil faoliyatni boshqarib unga zaruriy materiallarni taqdim etsin. U bu yerda o'qishga bo'lgan qiziqishga alohida ahamiyat bergan: "Tarbiyachi hech qachon esdan chiqarmasligi kerakki, hech

qanday qiziqishsiz va faqat majburlash bilan olib borilgan o'qish... o'quvchining o'qishga bo'lgan ishtiyoqini pasaytiradi, bu ishtiyoqsiz esa u uzoqqa bora olmaydi"[9].

Oliy ta'limda o'qituvchining roli, talabalarning mustaqil ishlarini bajarishlarida ularni to'g'ri yo'naltirish va metodik ko'rsatmalar berishdan iborat. O'qituvchilar, o'quv jarayonining tashkilotchilari sifatida, talabalar uchun zarur bilim va resurslarni taqdim etish, ularni o'z-o'zini baholash va samarali o'rganish metodlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Turli ilmiy maktablar va yo'nalishlar vakillari tomonidan mustaqil ishning mohiyati va mazmuniga nisbatan bildirilgan turlicha yondashuvlarni qayd etar ekanmiz, ulardan eng muhimlariga alohida to'xtalib o'tishni lozim topdik. Masalan, ta'lim jarayonini boshqarish sohasidagi taniqli pedagog va mutaxassislardan biri R.M. Mikelson mustaqil ishni quyidagicha talqin etadi: "Talabalar topshiriqlarni hech qanday yordam olmasdan, ammo o'qituvchining nazorati ostida bajaradilar; agar qiyinchilik yuzaga kelsa, o'qituvchi jamoaviy mashqlarga o'tishi mumkin"[7].

Taniqli pedagog, I.E. Davronov talabalarning mustaqil ishini ularning mustaqil fikrlashi, mustaqil va jismoniy harakatlari bilan birgalikda bog'lash sifatida ko'radi. U talabalarning mustaqil ishini "o'qituvchining to'g'ridan-to'g'ri ishtirokisiz, ammo uning topshirig'i bilan, maxsus belgilangan vaqt davomida bajariladigan ish" sifatida baholaydi. Bunda "belgilangan maqsadga erishishga intilib, o'z kuchini sarflab, o'z fikr yoki jismoniy harakatlari natijasini bir shaklda ifodalash" zarurligini ta'kidlaydi. Aytish joizki, mustaqil ishni bajarishning majburiy sharti — talabaning o'qish maqsadini anglashidir. Mustaqil o'quv mehnati muammolari bo'yicha mashhur tadqiqotchi V.B. Bondarevskiy mustaqil ishni "ilmiy fikrlashni shakllantiruvchi, aqliy faoliyatning individual uslubini rivojlantiruvchi, o'z-o'zini ta'lim olishga ehtiyojni oshiruvchi ish" deb ta'riflaydi [3].

V.I. Graf, I.I. Ilyasov, V.Ya. Lyudis mustaqil ishni pedagogik sharoitlarni tashqi tashkil etish tizimi sifatida ta'riflaydilar: "Mustaqil ish didaktik o'qitish shakli sifatida... o'quv faoliyatini boshqarishni ta'minlaydigan pedagogik sharoitlarni tashkil etish tizimidir, bu o'qituvchi ishtirokisiz va uning to'g'ridan-to'g'ri yordamisiz amalga oshiriladi... o'qituvchining yordam berishi maxsus tashkil etilgan ta'lim tizimi orqali bilvosita yo'l bilan amalga oshiriladi. Bu mustaqil ishning didaktik mohiyati va uning auditoriya ishining shakllaridan farqi, o'qituvchining to'g'ridan-to'g'ri ishtiroki va yordamidan farqli o'laroq." Ushbu ta'rif mustaqil ishni tashkil etish o'qituvchi faoliyatining bir jihati ekanligini inkor etmaydi, ammo bizning fikrimizcha, bu ta'rif mustaqil ishning barcha tomonlarini aks ettirmaydi va uning sub'yekti bo'lgan talabani to'liq e'tibordan chetda qoldiradi [4].

V.Ya. Makashov mustaqil ishning mazmunini o'qish vazifalarini bajarishda o'quvchilar tomonidan bajariladigan mustaqil faoliyat jarayoni sifatida belgilaydi va unda uchta bosqichni ajratadi: tayyorgarlik bosqichi, vazifani bajarish jarayoni va bajarilgan vazifani tahlil qilish. Ushbu olimning ilmiy izlanishlari harbiy akademiyalar kursantlarining mustaqil ishini takomillashtirish yo'llarini o'rganishga bag'ishlangan. U o'z ishlari davomida mustaqil ish uchun topshiriqlarni ishlab chiqish va qo'llashda tizimli yondashuvni asoslashga, shuningdek, kursantlarning rejalashtirilgan mustaqil tayyorgarlik soatlarida pedagogik rahbarlik muammosini o'rganishga katta e'tibor bergan [6].

Yuqorida keltirilgan mulohazalarning tahliliga asoslanib, shuni ta'kidlash mumkinki, har qanday mustaqil topshiriq, avvalo, talabaning bilim olishga bo'lgan ehtiyojini shakllantirishga zarur shart-sharoitlarni yaratishi, bilimlarni o'zlashtirish jarayonini tezlashtirishi, hamda uni o'z harakat yo'lini — bilmaslikdan bilimga intilish jarayonini anglashga undashi lozim.

Mustaqil ishning boshlang'ich vazifasi o'zida ta'limning yakuniy maqsadining bir qismini mujassam etgan bo'lishi kerak. Bu elementning barcha turdagi mustaqil topshiriqlarda mavjud bo'lishi, talabaning mustaqil faoliyati jarayonida takroriy va ijodiy bilish harakatlarining uzviy uyg'unligini ta'minlovchi zaruriy sharoitlarni yaratadi. Natijada, talabalarning o'quv faoliyatidagi motivatsion sohasini tashqi rag'batlantirishdan ichki, chuqur motivatsiyaga — ya'ni bilish jarayonining o'zidan qoniqish olishga asoslangan ichki ehtiyojga o'tish uchun zarur sharoitlar shakllanadi. Natijada, mustaqil ish bajarish jarayonida o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar hamda orttirilgan bilish tajribasi amaliy ahamiyatga ega, moslashuvchan va faol xarakter kasb etadi. Bu esa o'z navbatida, o'quvchilarning intellektual faoliyatini optimallashtirishga olib keladi [8]. Mustaqil ish talabaning shaxsi uchun muhim bo'lgan xususiyat — ya'ni mustaqil ish bajarishni shakllantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. U bilim olish faoliyatini tashkil etish shakli sifatida talaba faolligini, mustaqil fikrlashini, ijodkorligini, qat'iyatligi va tashabbuskorligini namoyon etishini talab qiladi.

Talabalarning mustaqil ishi turli bosqichlarda har xil shaklda namoyon bo'ladi. Bu jarayon oddiy takrorlash va taqliddan boshlab ijodkorlikka qadar bo'lgan yo'lni o'z ichiga oladi. Mustaqil ishni bajarishda dastlab motivatsiya paydo bo'ladi, so'ng rivojlanadi va bajarilayotgan topshiriqlar murakkablashgani sayin yanada chuqurlashadi. Talabada mustaqil ish bajarishning tashqi belgilari quyidagilarda namoyon bo'ladi: o'z o'quv faoliyatini rejalashtirish, mustaqil o'rganish uchun o'quv adabiyotlari va metodik qo'llanmalarni tanlash, topshiriqlarni bajarish hamda texnik vositalar bilan ishlashda bevosita yordam va batafsil yo'riqnomasiz harakat qilish, o'yinlar va jismoniy tayyorgarlik jarayonida kasbiy vazifalarni mustaqil bajarish.

Pedagoglarning yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalariga tayanib, shuni aytish mumkinki, mustaqil ish va mustaqil topshiriq bajarish ko'nikmasini shakllantirish o'zaro chambarchas bog'liq. Bir tomondan, mustaqil ish talabalarda mustaqil topshiriq bajarish ko'nikmasini shakllantirishning majburiy sharti hisoblanadi, boshqa tomondan esa uning natijalari to'g'ridan-to'g'ri talabaning mustaqilligi bilan belgilanadi. Mustaqil ishning sifati,

o'qish natijalari talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish jarayonidagi bilish faolligi o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud. Talabani turli fanlar bo'yicha mustaqil ishining samaradorligi, avvalo, uning shaxsiy sifati, intizomi, motivatsion yo'nalishlari, psixologik xususiyatlari, masalan, xotira, diqqat, iroda kuchi va boshqa omillarga bog'liq. Biroq, samarali mustaqil ishning asosiy shartlaridan biri — talabada mustaqil ta'limni bajarish ko'nikmalari va malakalarining shakllangan va rivojlangan bo'lishidir. Talaba mustaqil ishining mutaxassis tayyorlashdagi roli qancha yuqori bo'lsa, u o'quv jarayonining butun pedagogik tizimida shuncha muhim o'rinni egallashi kerak.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, shuni aytish mumkinki, talabalar mustaqil ishining mohiyati o'qituvchining tashkiliy va boshqaruv aspektlaridagi roli sifatida turli mualliflar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Tadqiqotchilar mustaqil ishning har qanday tuzilmaviy qismlarini asosiy deb hisoblaydilar, shu sababli uning belgilari haqida turli xil ta'riflar keltiradilar, biri muhim deb hisoblanganini ajratib ko'rsatib, boshqasini esa e'tibordan chetda qoldiradilar. Nuqtai nazarlarni umumlashtirgan holda, o'quv muassasalarida talabalar mustaqil ishining asosiy belgilarni quyidagicha keltirilishi mumkin:

Tashqi belgilar. Ular o'quv, bilish yoki amaliy topshiriqning mavjudligini o'z ichiga oladi, bu topshiriq o'quv yoki boshqa kompleks muammoga namoyon bo'ladi va uning yechimi talabani shaxs sifatida rivojlantirishga yordam beradi. Topshiriq talaba uchun mustaqil aqliy va amaliy ishini bajarishga undashi, ruhiy va jismoniy kuchlarni sarflashni talab qilishi, shuningdek, talabani o'z ishlarini rejalashtirishi, ish joyini tayyorlashi, topshiriqlarni batafsil yo'riqnomalarsiz va o'qituvchining bevosita yordamisiz bajarishi kerak. Shu bilan birga, o'qituvchining roli faqat tashkiliy va ular bilan bog'liq bo'lgan boshqaruv ta'sirlarini tashkil etish orqali ko'rinadi.

Ichki belgilar. Ular talabalar tomonidan o'quv-bilish va amaliy topshiriqlarni yechishda mustaqillik va ijodiy faollikning namoyon bo'lishida ifodalanadi, bu jarayon talabalarni topshiriqni namunaga asoslanib takrorlashdan boshlab, qisman izlanish yoli ijodiy tadqiqot ishlarigacha bo'lgan barcha mustaqillik darajalaridan o'tishga olib keladi. Shu bilan birga, talabalar tomonidan bajarilgan mustaqil ish sifat jihatdan o'zgarib, taraqqiy etadi. U talabalarning o'z ishlarini nazorat qilish, tahlil qilish, tuzatish va bajarilgan mustaqil ishlarning natijalarini yaxshilash jarayonini o'z ichiga oladi.

Demak, talabalar mustaqil ishiga bo'lgan ilmiy-pedagogik qarashlarni o'rganish, shuni ta'kidlashga imkon beradi: oliy ta'lim muassasalaridagi talabalar mustaqil ishi — bu o'quv faoliyatining barcha turlari va mustaqil tayyorgarlik davrida amalga oshiriladigan murakkab, uzluksiz ijodiy jarayon bo'lib, uning maqsadi o'rganilgan bilim, ko'nikma va malakalarni nazariy va amaliy faoliyatda anglash, chuqur o'rganish, yodlash va keyinchalik tiklashdan iborat. Bu jarayon talabalarning professional o'zini rivojlantirishga bo'lgan shaxsiy intilishlari asosida, samarali mustaqil ish usullarini egallashlari, o'qituvchilar va kafedra a'zolari tomonidan maqsadli pedagogik rahbarlik, shuningdek, zamonaviy perxonalizatsiyalashgan o'quv mehnati vositalari bilan mustaqil ishning optimal moddiy-texnik ta'minoti orqali amalga oshiriladi.

Mustaqil ish, butun pedagogik jarayonning bir qismi sifatida, o'zining ikkiyuzlamali sifatida namoyon bo'ladi, uning tashqi shakli o'quv topshirig'i, ichki (mazmuni) esa bilish yoki boshqa o'quv vazifasi va uni yechishda talabalar tomonidan bajariladigan mustaqil faoliyatdir. Bu yerda, o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi o'zaro bog'liq faoliyatni aks ettiruvchi "mazmun" va "shakl" kabi falsafiy kategoriya o'rtasidagi dialektik birlikni ko'rish mumkin. O'qituvchi nuqtai nazaridan, mustaqil ish - bu nafaqat o'qitish metodi, balki o'qitish vositasi va o'zaro bog'liq faoliyat shaklidir. Talabalar nuqtai nazaridan esa, mustaqil ish - bu o'qish metodi, ya'ni talabalar tomonidan bajariladigan bilish faoliyatining usuli, o'quv-bilish faoliyatining shakli va o'zi o'quv-bilish faoliyatidir. Oliy ta'lim muassasalaridagi talabalar mustaqil ishi - bu barcha ularning fikriy va amaliy faoliyati bo'lib, o'quvchilarga o'qish va amaliy vazifalarni mustaqil bajara olish uchun tayyorlash maqsadida amalga oshiriladi. Bu jarayon talabalar o'z bilimi, mustaqilligi va faoliyatini ko'rsatgan holda, o'quv jarayonining barcha shakllarida davom etadi.

Xulosa. Oliy o'quv yurtlarida mustaqil ish, talabani o'qish jarayonidagi faolligini oshiradi va uning bilimlarini chuqurlashtirishga, o'z bilimini yanada mustahkamlashga yordam beradi. Mustaqil ish, shuningdek, talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi va kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlanishlariga yordam beradi. O'qituvchi mustaqil ishini tashkil etishda talabalarni yo'naltiruvchi va yordam beruvchi rolini o'ynaydi, bu esa mustaqil ishning samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 08-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni// www.lex.uz

2. Davronov I.E. Pedagogik kompetentlik. Darslik. – Buxoro, 2020. – 110 b.

3. Бондаревский В.Б. Воспитание интереса к знаниям и потребности к самообразованию. - М.: Просвещение, 1985. - С. 27.

4. Граф В.И., Ильясов И., Ляудис В.Я. Основы самоорганизации учебной деятельности и самостоятельной работы студентов. - М.: Высшая школа, 1981. - С. 34.

5. Дистервег А. Избранные педагогические сочинения. - М.: Педагогика, 1936. - С. 113.

6. Макашов В.Я. Совершенствование самостоятельной работы курсантов высших командных училищ:

Дне. ...канд. пед. наук. - М., 1985.

7.Микельсон Р.М. О самостоятельной работе учащихся. - М.: Учнедгиз, 1963. - С. 28.

8.Оргшшзация самостоятельной работы студентов в условиях интенсификации обучения / Под ред А.М. Вайгеля. - Киев: Лыбидь, 1993. - С. 56 -58

9.Ушинский К.Д. Собрание сочинений. Материалы к 3-ему т. Педагогические антропологии". - М.: АПН РСФСР, 1950. - Т. 10. - С. 420.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MEHNAT TARBIYASI VA KASB HUNAR TURLARI.

Xaydarova Malika Djamshitovna, Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti

xaydarovamalika@buxdpi.uz

Annotatsiya: Maqolada kasb hunar turlari, [samarali jihatlari](#), o'quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: treningni individuallashtirish, ijodiy rolli o'yinlar, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlar.

ТРУДОВОЕ ВОСПИТАНИЕ И ВИДЫ ПРОФЕССИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Хайдарова Малика Джамишитовна, доцент Бухарского государственного педагогического института

xaydarovamalika@buxdpi.uz

Аннотация: В статье рассматриваются виды профессий, их эффективные аспекты, развитие предметных компетенций студентов.

Ключевые слова: индивидуализация обучения, творческие ролевые игры, методы развития критического мышления.

LABOR EDUCATION AND TYPES OF PROFESSIONS IN PRIMARY EDUCATION

Khaydarova Malika Djamshitovna, Associate Professor at Bukhara State Pedagogical Institute

xaydarovamalika@buxdpi.uz

Abstract: The article discusses the types of professions, their effective aspects, and the development of students' subject-related competencies.

Keywords: individualization of training, creative role-playing games, methods for developing critical thinking.

Mehnat tarbiyasi o'quvchilarga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Mehnat tarbiyasini shunday tashkil etish kerakki, inson mehnat jarayoni va uning natijasidan qanoatlanishini tarkib toptirishga ko'maklashsin. Mehnat tarbiyasining pirovard maqsadi shaxs xarakterining asosiy xislati sifatida uning mehnatga bo'lgan ehtiyojini shakllantirishdir.

Maktab ta'limining hozirgi bosqichida o'quvchilarni mehnatga tayyorlash, o'sib kelayotgan avlodning ta'lim va tarbiyasidagi eng zarur vazifalardan biri hisoblanadi, chunki mehnat har qanday rivojlanish va taraqqiyot jarayonining asosidir.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni mehnatga tayyorlash ularning qiziqishlari, moyilliklari va imkoniyatlariga asoslangan qo'l mehnati hisoblanadi.

Qo'l mehnati jarayonida bolalar asosan ishlab chiqarish texnologiya chiqindilari qog'oz, karton, sim, yog'och, gazmol va boshqalar bilan: tabiiy va sun'iy xom-ashyolar maxsus loy, yog'och va plastmassalar, plastilin, yelim va boshqalar bilan keng iste'mol mollari va xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, tayyorlash uchun mahalliy xom-ashyolar bilan elektr, radiotexnika to'plamlari va hokazolar bilan ishlashga o'rganadilar.

Mazkur vazifalar tizimida o'quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlash ularning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash orqali amalga oshiriladi.

Bolani mehnatga psixologik tayyorlash – unda mehnatga nisbatan uning yoshiga mos keluvchi ongli vaq ijobiy (musbatlar) munosabatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko'nikmalarini egallashga qiziqishlarni shakllantirishdan iboratdir.

Mehnat eng muhim iroda va ahloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Mehnat ta'limida mehnatga psixologik tayyorgarlik, mehnat faoliyatining to'g'ri motivlaritarbiyalanadi, shaxsning har bir ongli mehnatkash uchun zarur bo'lgan sifatlari shakllanadi.

Kasb - (Lotincha: professio — rasmiy ko'rsatilgan mashg'ulot, ixtisoslik) — maxsus nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar majmuyiga ega tajribali shaxsning mehnat faoliyati turi hisoblanadi. Kasb - kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg'ulot turi.

Hunar - o'zbek tiliga tojik tilidagi shakli olingan; asli “layoqat”, “san'at” ma'nolarini anglatadi; keyinchalik “kasb” ma'nosini ham anglata boshlagan. Dunyoda 10000 dan ortiq kasb va mutaxassisliklar

mavjud. Ushbu kasblarning birini qobiliyatlarimizga, dunyoqarashimizga eng asosiysi qiziqish va moyilliklarimizga qarab tanlashimiz kerak.

Kasblarning tiplari. Mehnat predmetiga qarab barcha kasblar beshta tipga bo'linadi.

1. «Odam — tabiat». Bu yerda mehnatning asosiy, yetakchi predmeti jonli tabiatdir. Bu tipga, masalan, quyidagi kasblar kiradi: urug'shunos, meva-sabzavotshunos, davlat urug'chilik inspeksiyasining laboranti, chorvador-usta, ximik-bakteriologik analiz laboranti, zootexnik, agronom.

Texnika (techne – mahorat, san'at) – moddiy boylik olish hamda odamlar va jamiyatning ehtiyojlarini qondirish maqsadida inson atrofidagi tabiatga ta'sir qilishga imkon beradigan vositalar va ko'nikmalar majmuyi.

2. «Odam-texnika». Bunday kasblar tipida mehnatning asosiy yetakchi predmeti texnika ob'yektlari (mashinalar, mexanizmlar va boshqa shunga o'xshashlar), materiallar, energiya turlaridan iborat bo'ladi. Jonsiz tabiat ob'yektlari (Yer osti boyliklari, tuproq, suv, o'rmon va qishloq xo'jaligi mahsulotlari) ham ko'p jihatdan shularga o'xshagan bo'ladi.

3. «Odam-odam». Bu yerda asosiy mehnat predmeti odamlardir. Mazkur mehnat sohasida mayllar, qiziqishlar qay darajada ekanini aniqlashda o'quv predmetlaridan tashqari, siz shaxsan o'zingiz jamoa bo'lib o'tkaziladigan tadbirlarni tashkil etishda ishtirok etib orttirgan tajribangiz ham yordam beradi. Mazkur tipga kiradigan quyidagi kasblarni ajratib ko'rsatish mumkin: - Radioelektron apparatlar va asboblarni montajchisi elektr va radiotexnika sohasida chuqur bilimga ega bo'lmog'i kerak.

4. «Odam-belgilar tizimi». Kasblarning bu tipida shartli belgilar, raqamlar, kodlar, tabiiy yoki sun'iy tillar asosiy yetakchi mehnat predmeti hisoblanadi. Hozirgi zamon kishisi belgilar va belgi tizimlari dunyosida matnlar, chizmalar, sxemalar, kartalar, jadvallar, formulalar, yo'l belgilari ichida yashaydi. Binobarin, ularning hammasini biladigan tegishli mutaxassislar ham zarur.

«Odam-belgilar tizimi» tipidagi kasblar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

hujjatlarni (ona tilida yoki chet tilida) rasmiylashtirish, ish yuritish, matnlar va ularning qayta yozilishi, qayta kodlashtirilishi bilan bog'liq bo'lgan kasblar: tarjimon, sekretar-mashinistka, telegrafchi, texnik redaktor va boshqalar;

5. «Odam badiiy obraz». Kasblarning bu tipida badiiy obrazlar, ularning tuzilish usullari yetakchi mehnat predmeti hisoblanadi. Bu yerda quyidagi kasblarni ajratib ko'rsatish mumkin:

tasviriy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan kasblar: badiiy mebellar ishlab chiqarish bo'yicha duradgor, toshga oyib gul soluvchi, yoritish elektrotexnigi (teatrda), poyabzal konstruktore-modeleri, dizayner-rassom va boshqalar;

Kasblarning turkumlari. Mehnatning maqsadi odam faoliyati mazmunining muhim xarakteristikasi hisoblanadi. Mehnatning maqsadlari xilma-xil bo'lishiga qaramasdan, ularni uchta katta gruppaga: bilish, o'zgartirish, o'ylab topish guruhlariga bo'lish mumkin. Mehnatning maqsadiga qarab kasblarni uch turkumga ajratib ko'rsatish mumkin.

1. Gnostik kasblar (G). Bu kasblarning nomi lotincha «gnosis»—bilim, bilish degan ma'noni anglatuvchi so'zdan olingan. Agar siz aqliy mehnat (ya'ni bilib olish, gnostik mehnat) bilan faqat ish stolida, xonada shug'ullanish mumkin deb o'zingizga odat bo'lib qolgan tarzda o'ylaydigan bo'lsangiz, u holda bunday fikrdan voz kechishga to'g'ri keladi.

2. O'zgartiruvchi kasblar (P). Juda ko'p kasblar mehnat predmetlarini o'zgartirish bilan bog'liq bo'ladi.

Odamning o'zgartiruvchi faoliyati faqat buyumlarga qaratilib qolmay, shu bilan birga energiya turlariga, axborotlarga, jarayonlarga, ijtimoiy hayotning tuzilishiga qaratilgan bo'lishi ham mumkin.

3. Tadqiqotchilik kasblari (I). Mazkur turkumning nomi izoh berishni talab qiladi. Bu nomga qarab, mazkur kasb qidiruv ishlari bilan (masalan, geologik qidiruv ishlari bilan) yoki ilmiy tadqiqotlar bilan, albatta, bog'liq kasb bo'lsa kerak, deb o'ylamaslik kerak.

Mazkur turkumdagi kasbda qilinadigan mehnatning maqsadi-qandaydir bir noma'lum narsani, buning ustiga ko'pincha cheklangan bir vaqt sharoitida qidirishdan iborat bo'ladi.

Kasblarning bo'limlari va guruhlari

Kasblarning bo'limlari. Mehnat vositalariga qarab kasblar bo'limlarga bo'linadi.

1. Qo'l mehnatidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan kasblar (Q). Mazkur kasbda ishlovchi kishilar qo'l mehnatidan va mexanizatsiyalashtirilgan mehnat qurollaridan foydalanadilar.

2. Qo'lda boshqariladigan mashinalardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan kasblar (M). Boshqacha qilib aytganda, ularni ham mashinada, ham qo'lda ish bajariladigan kasblar deyish mumkin — tokar, frezerchi, kran mashinisti, keng profildagi traktorchi-mashinist, elektrovoz mashinisti va boshqalar ana

shunday ham qo'l mehnati, ham mashinadan foydalaniladigan kasblar qatoriga kiradi.

3. Avtomatlashtirilgan va avtomatik sistemalardan, apparatlardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan kasblar (A). Avtomatlashtirish darajasiga qarab ishlayotgan kishining zimmasiga har xil vazifa tushishi mumkin.

4. Funksional vositalar, mehnat qurollari ko'proq talab qilinadigan kasblar (F). Bu yerda odam xulq-atvoridagi funksional vositalar va uning nutqidagi ana shunday vositalar, ya'ni imo-ishoralar, tovushlar, so'zlar, jumalarning talaffuz qilinishi, ma'no tashuvchi va emotsional intonatsiyalar, pauzalar, yuz mimikasi mehnat quroli rolini bajaradi.

Mehnat malakalari madaniyati u yoki bu mehnat jarayonida belgilangan tartibga va harakatlarni izchilligiga rioya qilish kerakligini muntazam tushuntirib borish bilan birga bo'ladigan ko'p marta mashq qilishlar natijasida tarkib topadi, o'quvchilarda ana shular takomillashib boradi.

Odam organizmi ham funksional vosita rolini bajarishi mumkin (balet artisti; sport pedagog-murabbiyi, ashulachi, sirk akrobati).

Mana shu kasblarni egallagan kishilar uchun o'z xotirasida juda ko'p qoidalarni, ma'lumotlarni saqlab qolish qobiliyati, o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini boshqarish qobiliyati xarakterli bo'ladi.

Kasb guruhlari. Nihoyat, piramidaning oxiridan oldingi qavati — mehnat sharoitlari bo'yicha kasblar klassifikatsiyasiga to'xtalib o'tamiz. Kasblar to'rtta guruhga bo'linadi:

1. Odatdagi («maishiy») mikroiklim sharoitidagi mehnat (Mt). Hisobchi, iqtisodchi, chizmach, o'qituvchi va boshqalarni mana shu kasb gruppasiga kiritish mumkin.

2. Harorat, namlik keskin o'zgarib turuvchi ochiq havoda ishlash bilan bog'liq bo'lgan mehnat (O). Quyidagi kasblar bunga misol bo'la oladi: quruvchi, o't o'chiruvchi, sug'oruvchi va boshqalar.

3. Odatdan tashqari mehnat: yer ostida, suv ostida, balandlikda, havoda, qaynoq tsexlarda, sog'liq uchun muqarrar zararli ta'siri bo'lgan tsexlarda ishlash (G'). Bunday kasbga misollar: uchuvchi, shaxtyor, g'avvos va hokazo.

4. Odamlarning sog'ligi, hayoti uchun, katta-katta jamoat boyliklari, moddiy ne'matlar uchun oshirilgan ma'naviy mas'uliyat bilan bog'liq bo'lgan mehnat (M). O'qituvchi, shifokor, militsiya noziri, texnika xavfsizligi muxandisi va boshqa kasblarni mana shu mehnat guruhiga kiritish mumkin.

Kasb tanlash formulasi. Piramidaning to'rtta-qavati to'ldirilgan Beshinchisi hozircha bo'sh qoldirilgan. Bu yerga siz o'zingiz tanlagan kasbning bir necha harfdan iborat bo'lgan formulasi shartli belgisini yozib qoyishingiz kerak. Bu harflar siz yoqtirgan kasbning tipiga, turkumiga, bo'limiga, guruhiga muvofiq keladi.

Bunday sharoitda o'z kasbini sevgan, qilayotgan ishidan zavqlana olgan oddiy poyafzal ta'mirlovchisi bugungi kunda milliardlab foyda ko'rish mumkin bo'lgan ilg'or tashkilotda yetuk mutaxassis sifatida ishlovchi, ammo o'z kasbini yomon ko'radigan, qilayotgan ishidan zavq topa olmaydigan kishidan ancha ko'proq foyda ko'rish mumkin. Ishoning, kasb – bu faqat pul topish usuli emas, balki hayotingizning katta qismini mazmunli o'tkazish vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mukhamadovna, T. M., Djamshitovna, K. M., & Narzullayevna, Q. S. (2021). Art as a significant factor of forming world outlook of students. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.

2. Djamshitovna, X. M. (2021). Pedagogical Opportunities for Implementing an Individual Approach to the Primary Educational Process. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 192-195.

3. Djamshitovna, X. M. (2021). The Didactic Potential of Modern Information Technologies in Achieving the Professional Competence of the Future Teacher. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 201-204.

4. Djamshitovna, X. M. (2021). Pedagogical Opportunities for Implementing an Individual Approach to the Initial Educational Process. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 12, 252-255.

5. Haydarova, M., & Yuldashev, B. (2022). БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИГА ИНДИВИДУАЛ ЁНДАШУВНИ ТАДБИҚ ЭТИШ УСУЛЛАРИ. *Физико-технологического образования*, 1(1).

6. Хайдарова, М. Д., & Юлдашев, Б. Н. (2022). ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ТРУДОВОМ ОБУЧЕНИИ ШКОЛЬНИКОВ. *БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ*, 2(4), 387-390.
7. Haydarova, M., & Yuldashev, B. (2021). БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ИННОВАТИВ ЁНДОШУВ. *Физико-технологического образование*, (2).
8. Haydarova, M. (2019). MODEL AND PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS CONDUCIVE TO THE FORMATION OF MANAGERIAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(11), 90-93.
9. Haydarova, M., & Qodirova, M. (2021). ТЕХНОЛОГИЯ ДАРСЛАРИДА БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ТАБИИЙ МАТЕРИАЛЛАР БИЛАН ИШЛАШГА ЎРГАТИШ. *Физико-технологического образование*, (2).
10. Haydarova, M. (2017). Impact of globalisation on economic growth and investment attractiveness of regions. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, (4), 149-158.
11. Хайдарова, М. Д. (2013). Роль интеграции в школьном образовании. *Педагогика и современность*, (4), 33-36.
12. Хайдарова, М. Д., Юлдашев, Б. Н., & Узбекистан, Б. (2019). Информационные технологии в трудовом обучении школьников. *teacher Namangan region, Norin district school*, 40, 542.
13. Хайдарова, М. Д. (2020). Способы реализации индивидуального подхода к начальному образованию. *European research*, 6, 64.
14. Хайдарова, М. Д. (2020). Единство трудового и эстетического воспитания школьников. *Вестник науки и образования*, (23-2 (101)), 63-65.
15. Хайдарова, М. Д. (2021). ОСОБЕННОСТИ ВЕДЕНИЯ БИЗНЕСА В ИНДУСТРИИ КРАСОТЫ. In *Формирование и реализация стратегии устойчивого экономического развития Российской Федерации* (pp. 349-352).
16. Хайдарова, М. Д. (2021). ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ ГОСТИНИЧНОГО СЕРВИСА НА ПРИМЕРЕ Г. МИРНЫЙ. In *Формирование и реализация стратегии устойчивого экономического развития Российской Федерации* (pp. 346-349).

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA MATN YARATISH VA MATN USTIDA ISHLASHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI

Abdullayeva Feruza Nurillaevna, Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti
abdullayevaferuza@buxdpi.uz

Hamroqulova Shahnoz Hamza qizi, Buxoro davlat pedagogika instituti I kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada matn ustida ishlash va tahlil qilish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlashga yo'naltirish, yozma nutqni rivojlantirish haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: ijodiy fikrlash, matn, tasviriy matn, muhokama matni, matn yaratish, matn ustida ishlash.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ СОЗДАНИЯ ТЕКСТА И РАБОТЫ С ТЕКСТОМ НА УРОКАХ ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Абдуллаева Феруза Нуриллаевна, доцент Бухарского государственного педагогического института

abdullayevaferuza@buxdpi.uz

Хамрокулова Шахноз Хамза кизи, магистрант 1 курса Бухарского государственного педагогического института

Аннотация. В статье рассматривается развитие творческого мышления и письменной речи учащихся начальной школы через работу над текстом и его анализ.

Ключевые слова: творческое мышление, текст, описательный текст, текст-обсуждение, создание текста, работа над текстом.

DIDACTIC PRINCIPLES OF TEXT CREATION AND TEXT WORK IN PRIMARY SCHOOL READING LESSONS

Abdullaeva Feruza Nurillaevna, Associate Professor at Bukhara State Pedagogical Institute

abdullayevaferuza@buxdpi.uz

Khamroqulova Shahnoz Hamza qizi, 1st-year Master's Student at Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract. This article discusses the development of creative thinking and written speech of primary school students through work on and analysis of the text.

Keywords: creative thinking, text, descriptive text, discussion text, text creation, work on the text.

Boshlang'ich sinfda matn ustida ishlashga o'quvchilarni jalb qilish o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiluvchi pedagogik jarayon sanaladi. Har qanday pedagogik jarayon kabi boshlang'ich sinflarda matn ustida ishlashda ham muayyan psixologik, pedagogik, metodik talablar inobatga olinishi zarur. Shundagina boshlang'ich sinf o'quvchilari matn bilan ishlash orqali muayyan bilimlarni o'zlashtirish, ravon va ongli o'qish ko'nikma va malakalariga ega bo'ladi, nutq boyiydi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Natijada o'quv dasturida ko'zda tutilgan talablar bajariladi. «O'qish kitobi» darsliklarida berilgan matnlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq ko'nikmalarini shakllantirishda vosita hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarni matn mazmunini to'g'ri tushunish, ongli va ifodali o'qiy olish, matnda berilgan axborotni idrok qilish, matnda ifodalangan voqelikka nisbatan munosabat bildirishga tayyorlashdir. Shunga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchisi metodik tayyorgarlikni darsning maqsadi, o'rganilayotgan materialning mazmuni, o'quvchilarning mavjud bilim, ko'nikma, malakalari darajasiga ko'ra amalga oshiradi. O'quvchilarni asar matnini o'qishga tayyorlashda, birinchi navbatda, ularni matn mavzusi, tili, g'oyaviy mazmuni va badiiy-estetik qiymati bilan tanishtirish, matn mazmunidan tegishli xulosa chiqarishga e'tibor qaratiladi. O'qish faoliyati ham nutqning alohida ko'rinishi hisoblanadi. O'quvchining o'z fikrini qanchalik mazmunli, aniq va to'g'ri ifodalay olishi uning o'quv-bilish faolligi darajasini, ko'nikma va malakalarini aniqlashga imkon beradi. O'qish darslarida matnni idrok qilish va mazmun-mohiyatini o'zlashtirish yuzasidan qo'yilgan savol va topshiriqlar o'quvchilarni o'ylashga majbur qilishi, javob berishda muallif qo'llagan iboralardan, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishga qaratilishi, nutqda ko'proq o'zi uchun yangi so'z va iboralarni ishlatishga undashi lozim. Matnni o'qish ko'nikmasiga egalik, o'z navbatida, o'quvchi nutqini boyituvchi muhim omillardan biri sanaladi. O'qitishning mustaqil qismi bo'lgan har qanday dars ta'limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Har qanday darsning umumiy maqsadi "o'quvchilarga bilim berish va ular olgan bilimni amalda qo'llay oladigan darajaga yetkazishga erishish, har bir o'quvchida komil shaxsga xos

fazilatlarni shakllantirishdir. Boshlang'ich ta'limga oid "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari"da "O'qish" darslari oldiga qo'yiladigan didaktik talablar o'quvchilar e'tibori nimani o'rganish va nimani esda saqlab qolish kerak ekanligiga qaratilishidan boshlanadi. Matn ustida ishlash orqali o'quvchilarni ijodiy, mustaqil va mantiqiy mushohada yuritishga, matnni tahlil qilish va unga o'z munosabatini bildirib olishga o'rgatish o'qituvchidan katta mahorat talab etadi. 7-9 yoshdagi bolalarda "yozma nutq ham shakllana boshlaydi... Yozma nutqni egallashi asosida ularda turli matnlar haqida ma'lumotlar yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutq endigina shakllana boshlaganligi bois, bolalarda hali o'zi yozgan fikrlarni, so'z va harflarni nazorat etish ko'nikmasi yetarlicha rivojlanmagan bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Mustaqil ijodiy ishlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash, fikrini bayon etish uchun ma'lumot to'plash, muhim jihatlarini ajratib olish, uni ma'lum ketma-ketlikda amalga oshirish, reja tuzish ko'nikmasini hosil qiladi. Jumalarni to'g'ri tuzish, aynan shu mazmunga mos so'zlarni topish va ularni to'g'ri yozish, tinish belgilarini to'g'ri qo'yish, o'z holatlarini topa olish va to'g'rilash aqliy rivojlanishning ko'rsatkichlaridan hisoblanadi". Tarixiy mavzuga oid hikoyalarni o'qish oldidan o'qituvchi o'quvchilarning Vatan tarixi va uning shonli o'tmishidagi buyuk siymolar haqidagi bilimlarini aniqlaydi. She'riy matnlarni o'qishdan oldingi tayyorgarlik ishlari ancha murakkab. Lirik asarlarni yaxlit idrok etish vazifasi shoir ruhiyatiga hamohang kayfiyat yaratish, o'quvchilarning shoir bilan birga quvonish, hayratlanish, qayg'urish tuyg'usiga turtki berishdir. Bunda o'qituvchining kirish so'zi qisqa, maqsadga yo'naltirilgan hamda shoir dunyosiga kirishga ko'maklashadigan bo'lishi kerak. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'qituvchining kirish so'zi matnni o'qish oldidan tayyorgarlikning yetakchi bo'g'inlaridan biri bo'lib, ma'naviy-axloqiy tarbiya samaradorligi ko'p jihatdan uning to'g'ri uyushtirilishiga bog'liqdir. 2. Matnni o'qish va uni tahlil qilish. O'quvchilar matnni o'qish jarayonida uning g'oyaviy badiiy xususiyatlari, asarda aks etgan voqealar bilan tanishadilar. Bunda asarning janr xususiyatlaridan kelib chiqib, matnni ifodali, sharhlab va rollarga bo'lib o'qitish mumkin. Badiiy matnni o'qish muallif tasvirlagan manzaralarni aniq tasavvur etishga, asar qahramonlarining xatti-harakatlaridan tegishli xulosalar chiqarishga yordam beradi. "Tahlilning bosh maqsadi asarda aks etgan badiiy olam mohiyatini anglash, uning asl mazmunini to'g'ri va to'la idrok etishdan iborat". Tahlil o'quvchilarni ijodiy va mustaqil fikrlashga yo'llashning muhim omilidir. O'quvchilar tahlil jarayonida asarda tasvirlangan voqealarga o'z fikrlarini bildiradilar, notanish so'zlar ma'nosini bilib oladilar, matnning mazmun-mohiyatini to'liq anglab yetadilar. Biror asar matn ustida ishlashda ham bu talablarni unutmaslik lozim. O'quvchilarda ijodiy fikrlash va ijodiy matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishga oid tashkiliy-metodik ishlarni asosan o'tilgan darsni mustahkamlash jarayonida, shuningdek, uy vazifalari bajarishga yo'llanma berish davrida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Matnni qayta tasvirlash matn ustida ishlashda katta ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Qayta tasvirlashdan to'g'ri foydalanish esa asarda yozuvchi tasvirlayotgan hayotiy manzaralarni o'quvchilarning aniq tasavvur qilishlari uchun qulay sharoit yaratadi. Metodika fanida matnning ikki xil yo'l bilan qayta tasvirlanishi qayd qilinadi. Bular: a) so'z bilan tasvirlash; b) grafik tasvirlash. So'z bilan tasvirlash o'ziga xos murakkab ish turi bo'lib, bunda asarda tasvirlangan voqea, qahramon yoki manzarani so'z yordamida aniq qayta tiklash ko'zda tutiladi. Bunday tasvirlash o'quvchilar nutqini rivojlantirishning muhim vositalaridan biri sifatida so'zlarni to'g'ri tanlash va talaffuz qilishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

20. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. - Toshkent-2021.
21. Hakimov J.O. "Ta'limda axborot texnologiyalari" 2016 yil.
22. Daminov.O.O. Kasbiy pedagogika 2018 yil.
23. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. -T.: Bayoz, 2022. - 304 b.
24. Abdullayeva F. Ta'lim tizimi sifatini oshirishda pisa va timss kabi xalqaro tadqiqotlarning roli //центр научных публикаций (buxdu. uz). - 2021. - T. 3. - №. 3.
25. Nurillayevna A. F. Teaching Scientific Popular Articles in Mother Nili and Reading Literacy Courses //European journal of innovation in nonformal education. - 2022. - T. 2. - №. 3. - C. 47-50.
26. Abdullayeva F. Methodological possibilities of organization of primary school technology lessons

- with pedagogical technologies //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
27. Nurullayevna, A. F. (2022). Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ilmiy ommabop maqolalarni o'rgatish. *barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 2(4), 406-409.
28. Курбанова, Ш. Н., Абдуллаева, Ф., & Очилова, Г. О. (2021). Педагогическая технология – целостная система образовательного процесса. *новые педагогические исследования: сборник статей IV*, 20.
29. Qurbonova S. N., Abdullayeva F. Tarbiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1030-1035.
30. Абдуллаева, Ф. Н. (2022). Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ilmiy-ommabop maqolalarni o'rgatishning metodik imkoniyatlari: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.034> Abdullayeva Feruza Nurilloevna Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 243-246.
31. Abdullayeva Feruza, N. (2022). Start Methodological Options for Teaching Scientific and Popular Articles in First Grade Mother Tongue and Reading Literacy Classes. *International Journal of Trend in Scientific Research and Development*, 6(6), 1433-1436.
32. Nurilloevna, A. F. (2022). General Structure of Teaching Courses of Popular Scientific and Artistic Articles on the Theme of the Seasons of the Year. *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal*, 1(6), 1-5
33. Nurillayevna, A. F. (2023). Use of new pedagogical technologies in mother language and reading literacy lessons. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 5-9.
34. Nurillayevna, A. F., & Muhammadjonovna, S. E. (2023). Ona Tili Va O'qish Savodxonligi Darslarida Matn Ustida Ishlashda Pirls Topshiriqlaridan Foydalanish. *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)*, 215-219.
35. Nurillayevna, A. F., & G'anijonovna, Q. M. (2023). Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish. *Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects (Spain)*, 181-184.
36. Abdullayeva, F. (2023). Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ilmiy ommabop maqolalarni o'rgatish. *центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 28(28).
37. Nurillayevna, A. F. (2023). Methodological Basis of Development of Science-Related Competences In Teaching Works of Art in Primary Classes Based On Synergic Approach. *International Journal of Formal Education*, 2(10), 61-66.

TA'LIM JARAYONIDA GENDER TENGLIK VA FARQLARNI HISOBGA OLIISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI.

Tilavova Matlab Muhammadovna, Buxoro davlat pedagogika instituti boshlang'ich ta'lim
kafedrası dotsenti

tilavovamatlab@buxdpi.uz

Annotatsiya: maqolada ta'lim jarayonida ayniqsa boshlang'ich ta'limda gender tenglik va farqlarni hisobga olishning pedagogik va psixologik imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan. gender nazariyasi tarixiga oid ma'lumotlar yoritilgan. jins identifikatsiyasi shakllanish jarayonida shaxs ulg'ayishining dastlabki bosqichlari o'ta ahamiyatliligi va o'quvchining jinsiga tayangan holda unga ta'lim-tarbiya berish, ijtimoiy hayotga tayyorlash lozimligi tavsiya etilgan.

Tayanch tushunchalar: gender, feminizm, ta'lim jarayoni, jins, jinsiy rivojlanish, malaka, ko'nikma.

УЧИТЫВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА И РАЗЛИЧИЯ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ

Тилавова Матлаб Мухаммадовна, доцент кафедры начального образования
Бухарского государственного педагогического института

tilavovamatlab@buxdpi.uz

Аннотация. В статье рассматривается учитывание педагогических и психологических возможностей гендерного равенства и различия в процессе обучения. В материале раскрыты сведения об истории теории гендера. Рекомендуется особая важность первоначальных этапов процесса образования идентификации пола учащегося и опираясь на это, дать воспитательно-образовательное обучение, подготавливая его к современной жизни.

Опорные слова: гендер, феминизм, процесс обучения, пол, половое развитие, навыки, опыт.

TAKING INTO ACCOUNT THE PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF GENDER EQUALITY AND DIFFERENCE IN THE LEARNING PROCESS

Tilavova Matlab Muhammadovna, Associate Professor of the Department of Primary
Education at Bukhara State Pedagogical Institute

tilavovamatlab@buxdpi.uz

Abstract: The article examines taking into account the pedagogical and psychological possibilities of gender equality and difference in the learning process. The material reveals information about the history of gender theory. It is recommended that the initial stages of the process of education identify the student's gender be of particular importance and, based on this, provide educational training, preparing him for modern life.

Keywords: gender, feminism, learning process, sex, sexual development, skills, experience.

Gender nazariyasining vujudga kelishida bugungi kunda ijtimoiy-madaniy rivojlanishning muqobil nazariyasiga aylangan feminizm hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

XX asrning 70-yillarida Z.Freyd va T.Parsons g'oyalari bilan sug'orilgan an'anaviy ijtimoiy fandan qoniqmagan feminizm nazariyotchilari o'zlarining g'arbona madaniy, tarbiyaviy, nazariy-uslubiy yondashuvlarini ifodalay boshladilar. Feministik g'oyalarning madaniyat va ta'lim-tarbiyaning turli sohalariga kirib borishi nihoyatda jadal sur'atlar bilan davom etdi. 70-yillarning boshida hammani hayratga solgan bahs-munozaralar, genderga nisbatan yondashuvlar va qarashlar asta-sekinlik bilan jamiyat a'zolari ongiga singa boshladi. Amalda jinsiy chegaralashga qarshi kurash BMTning xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyasida (1979) ham e'lon qilingan.

Genderga oid qarashlarning g'arb mamlakatlarida keng yoyilishida Simone de Bovuar va Keyt Millett tadqiqotlari muhim o'rin tutdi. Simone de Bovuarning "Ikkinchi jins" (1949) kitobida ifodalangan g'oyalar zamonaviy gender nazariyasiga asos bo'lib xizmat qildi. Keyt Millett esa o'zining "Jinsiy siyosat" (1972) kitobini yaratishda de Bovuar qarashlariga tayandi. "Feminizm nazariyalari" umumlashtiruvchi-tahliliy maqolasida P.Elliot va N.Mendell genderning barcha asosiy yo'nalishlarini tarixiy va zamonaviy nuqtai nazardan ko'rib chiqqanlar. R.Xofning "Gender tadqiqotlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi" maqolasi gender nazariyasi va metodikasi shakllanishi xususida yaxlit tasavvur hosil qilishga ko'maklashsa, K.Uest va D.Zimmerman izlanishlari mahsuli bo'lgan "Genderning yaratilishi" deb nomlangan fundamental tadqiqotning YE.Zdravomislova tomonidan ingliz tilidan qilingan tarjimasi ijtimoiy shakllantirish nazariyasi bo'yicha birlamchi manba bilan tanishish imkoniyatini beradi.

J.Lorberning “Jins ijtimoiy kategoriya sifatida” maqolasi esa istiqbolda gender tadqiqotlar bilan mustaqil shug‘ullanish uchun zamin hozirlaydi.

Ta’lim tizimi jamiyatda nafaqat texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omili, balki ma’naviy va iqtisodiy rivojlanishning muhim strategik vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois mustaqil mamlakatimizda ta’lim sohasiga yil sayin katta e’tibor qaratilmoqda. Mazkur vazifa ta’lim tizimining barcha bosqichlari: maktabgacha ta’lim muassasalaridan tortib oliy ta’limning yuqori bosqichlarigacha bo‘lgan bo‘g‘inlar zimmasiga yuklatilgan. XXI asrning axborot asri deya e’tirof etilayotganligi bejiz emas. Negaki, jamiyat shaxsning bilimdonligi va tadbirkorligiga tayanib rivojlanadi hamda taraqqiy topadi. Gender farqlar va tenglik asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni esa jamiyat taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shib, o‘quvchi shaxsining madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik jihatdan barqaror rivojlanishi uchun zarur tarkibiy qism sifatida maydonga chiqadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, istiqbolda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish nafaqat o‘zlashtirish, balki o‘g‘il va qiz bolalarning har biriga xos bo‘lgan tushunish, bilimlarni amaliy qo‘llash va ijod ko‘nikmalarini aniqlash asosida ham amalga oshirilishi lozim.

Pedagogika fanlari doktori, professor, Mavlonova esa ko‘nikmaga quyidagicha ta’rif beradi: “Ko‘nikma — bu kishining bilim va elementlarni tajriba asosida egallagan, ma’lum harakatni ongli bajarishga bo‘lgan qobiliyatidir. Masalan, kartonni kesa bilish ko‘nikmasi, qaychini to‘g‘ri ushlay bilish, harakatni aniq muvofiqlashtirish, yo‘nalish, kuch va bosimning tengligini saqlash, qomatni muvofiq keluvchi tarzda tutish degan ma’noni anglatadi. Bu o‘rinda ustalik bilan harakat qilib, ma’lum ish shartlariga, masalan, ishning sur’ati va aniqligiga rioya qilish kerak. Aks holda ish qo‘pol chiqishi mumkin”

Elementar tajriba o‘quvchilarga faoliyatning ma’lum turi bo‘yicha tasavvur beradi. Bunday tasavvurlarni yaratishda o‘quvchilarning shaxsiy tajribalari ham, o‘zgalar tajribasining (so‘z, grafik tasvir orqali berilgan natural ko‘rsatish va shu kabilarning) ular tomonidan idrok etilishi ahamiyatlidir. Biroq shaxsiy tajriba yetakchi o‘rin egallaydi. Shu bilan birga barcha ko‘nikmalar malakaga aylanavermaydi. Faqat faoliyatning u yoki bu turini, uning ayrim harakatlarini bajarishning texnik tomonigina avtomatlashadi.

Malakalarni shakllantirish fandan olinadigan bilim va ma’lumotlarini qayta ishlash bo‘yicha hamma operatsiyalar tizimini, ma’lumotni aniqlash, uni harakatlar bilan taqqoslashni o‘rganishdir. Subyektiv maxsus faoliyat sifatida malakalarga mustaqil o‘qitish jarayoni mavjud emas, degan fikrni K. K. Platonov tanqid qilib, quyidagicha ta’kidlaydi: “Malakalarga albatta o‘qitish kerak, bundan kelib chiqadiki, kerakli metodika to‘g‘risida o‘ylash kerak. “Malaka” deb – odamning bilim va oddiy tajriba asosida egallagan muayyan harakatlarni ongli bajarish qobiliyati tushuniladi. Bilimlar bajarilayotgan harakatlarning nazariy asosidir. Bilimlar tufayli harakatlarning ayrim davrlari va ularning ketma-ketligi tushunarli bo‘ladi. Har qanday malakalarni egallash bilimlarga asoslangan aniq faoliyat, amaliyotni talab qiladi, ularsiz umuman malakalar bo‘lishi mumkin emas. Malakaning psixologik asosi deganda faoliyat maqsadi, sharoit va uni bajarish usullari orasidagi o‘zaro aloqadorlik tushuniladi. Bundan shu xulosa kelib chiqadiki, malaka bilimlarga tayanadi. Bilimsiz malaka yo‘q. XXI asrda uzluksiz ta’lim strategik ahamiyat kasb etib, shaxs va jamiyat hayotida asosiy mavqeni egallaydi. Shaxs faqatgina gender tenglik va o‘ziga xoslik hisobga olinib tashkil etilgan ta’lim jarayonida olingan bilim yordamida uzluksiz texnologik innovatsiyalarni o‘zlashtirishi mumkin. Bu esa nafaqat mehnat qurollarining mukammallashuvini, balki yangi bilimlarni egallash qobiliyati va kasbiy faoliyatni puxta o‘zlashtirishni talab qiladi.

Adabiyotlarda gender tushunchasining bir necha xil talqini mavjud. Jumladan, faylasuflar uni quyidagicha tavsiflaydilar: «Gender» inglizcha so‘z bo‘lib, jinsga mansublikning ijtimoiy jihatlarini ma’nosini anglatadi.... Bu tushuncha erkaklar va ayollar o‘rtasida nafaqat biologik farqni, balki jamiyatning jinsiy taqsimotida ijtimoiy va madaniy tavsiflarning butun majmuini hisobga oladi. Erkaklar va ayollarga tegishli ijtimoiy bog‘liqlik, xulq-atvor va kutilgan natijalarni ifodalaydi” Jamiyatshunoslar esa, gender tushunchasiga quyidagicha yondashadilar: «Gender» ijtimoiy, biologik holat bo‘lib, erkak va ayolning jinsiy munosabatlari majmuasi hisoblanadi” Ruhshunoslar ham gender tushunchasiga o‘ziga xos tarzda yondashganlar: “Psixikaning gender asoslari jins va u bilan bog‘liq ijtimoiy stereotiplar, shaxsning psixologik ko‘rinishidir”. Olimlar orasida bu xususiyatlarning qaysi biri tug‘ma, qaysi biri esa ta’lim va tarbiya jarayonida rivojlanganligi to‘g‘risida keskin munozaralar bormoqda. O‘g‘il va qiz bolalarning har bir xalq madaniyatida har xil tarbiyalanishi tufayli, ular maktabga kelgan davrdan boshlab jinslarning psixologik farqlari ma’lum bo‘ladi. Bu farqlar orasida psixologlar (A.YE.Taras, 2002) qizlar o‘g‘il bolalardan matematik va vizual qobiliyatlari bilan ustunroq deb ta’kidlashadi. O‘g‘il bolalarda qizlarga qaraganda o‘ziga ishonch hissi kuchliroqdir. Qiz bolalar bir xillikka asoslangan qiziqarsiz faoliyatni yengilroq qabul qilishadi. O‘zgaruvchan muhitga tez moslashishadi. O‘g‘il bolalar har bir

holatni umumiy tarzda baholashsa, qizlar yaxshilab tekshirib, o'rganib, keyin unga baho berishadi". Pedagogik ma'noda gender – o'g'il va qiz bolalarning murakkab ta'limiy sotsiomadaniy birligi bo'lib, ularning xatti-harakati, mentaliteti va emotsional xususiyatlari, o'quv faoliyatidagi o'zaro teng va farqli jihatlarini o'z ichiga oladi. Shu bois keyingi vaqtlarda gender muammosi, uni o'rganish metodlari pedagoglar e'tiborini ko'proq jalb etmoqda.

Ta'lim jarayonida gender yondashuv amal qilishining afzalligi shundaki, u o'quv sharoitida o'g'il va qiz bolalar manfaatlari hamda intellektual imkoniyatlarini hisobga olishga ko'maklashadi. Ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan pedagogik ta'sirlar o'g'il va qiz bolalarning xatti-harakatlari, dunyoqarashlarida ijobiy o'ziga xoslik paydo bo'lishiga yordam beradi. Ta'lim jarayonida gender xoslikni ta'minlamasdan turib, intellektual-ma'naviy jihatdan rivojlangan shaxsni shakllantirib bo'lmaydi. Bunday ta'lim tizimi o'g'il va qiz bolalarning manfaatlari ustuvorligi asosida tashkil etilishi kerak. Genderga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish zarurligini hisobga olgan holda o'quv jarayonini isloh qilish o'g'il va qiz bolalarning erkin, intellektual, ma'naviy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Gender yondashuvning pedagogikada qo'llanilishi, birinchidan, ijtimoiy muhitda samarali faoliyat ko'rsata oladigan, ikkinchidan, jamiyat talablariga mos keladigan ijodkor, tadbirkor, intellektual rivojlangan shaxsni kamol toptirishga ko'maklashadi.

Pedagogika fanida gender tenglik va farqlarni hisobga olish tamoyili ustuvor bo'lishi kerak. Bu ustuvorlikni ta'minlashning o'ziga xos jihatlari:

- o'quv materialini tanlashda o'g'il va qiz bolalar orasidagi o'ziga xoslikni farqlash;
- o'g'il va qiz bolalarning alohida o'ziga xos faoliyatini rivojlantirish;

Ta'lim jarayonida o'g'il va qiz bolalarga mehnat ta'limi berish va ularni kasbga yo'naltirishning barqaror pedagogik tizimini vujudga keltirishda o'quvchilarning gender jihatdan o'ziga xos bo'lgan shaxsiy sifatlarini qaror toptirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun ta'lim jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor berish zarur:

– o'g'il va qiz bolalar orasidagi farqlarni neytrallashtirish va interpretatsiyalashga qaratilgan o'quv harakatlarini tashkil etish;

- ularni gender o'xshashlikni namoyon qilish ruhida tarbiyalash;
- o'quv jarayonida o'g'il va qiz bolalarning alohida-alohida faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;

Ta'lim jarayonida gender ijtimoiylashtirishning muayyan asosi, mehnat taqsimoti va jamiyatda qabul qilingan madaniy meyorlar, ijtimoiy faoliyat turlari, ularning ijtimoiy mavqei orqali ifodalanadi. Ta'lim tizimida qabul qilingan gender meyorlar va mezonlar muayyan darajada o'quvchilarning biologik jinsiga qarab ularning ruhiy sifatleri, qobiliyatlari, faoliyat turlari, egallaydigan kasblarini belgilashga xizmat qiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilar, oila, maktab, atrof-muhitdagilar birgalikda o'quvchilar ongiga gender meyorlar, mezonlarni singdiradilar.

Kasbiy jihatdan o'z-o'zini kamol toptirish har bir yoshda o'quvchilarning ruhiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bunda aniq shakl va metodlardan foydalaniladi.

Ota-onalar tomonidan boshlangan o'g'il va qiz bolalarni ijtimoiy shakllantirish jarayonini, ularga xos bo'lgan faoliyat to'rini qaror toptirish maktabda, birinchi navbatda, mehnat darslarida davom ettiriladi. O'quvchilarua gender tenglik va farqlar asosida ta'lim-tarbiya berishda o'qituvchining shaxsiy namunasi, nutqi, xatti-harakatlari alohida ahamiyatga ega.

Maktablarda gender ta'limni rivojlantirish natijasida jinslarning teng huquq, bir xil mehnat qilish va majburiyatlari, o'g'il bola ham, qiz bola ham xohlagan yo'lini o'zi tanlash huquqiga egaligi o'quvchilar ongiga singdiriladi. O'quvchilarning ijtimoiy gender ta'limni tushunishi va unda ishtirok etishi uchun o'qituvchining gender pedagogikasiga oid bilimlari yetarli bo'lishi lozim. Shuningdek, o'qituvchida gender tarbiya va ta'lim texnologiyalari, bolalarni ijtimoiy genderlash shart-sharoitlari mujassam bo'lgan maxsus ilmiy dastur bo'lishi ham shart.

Pedagogikada yangi yo'nalishni ishlab chiqish natijasida, tabiiyki, yangi atama va tushunchalar paydo bo'ladi. Ta'limda gender o'lchov tushunchasi o'qituvchilarning ta'lim-tarbiya berish yo'lidagi intilishlari natijasida o'g'il va qiz bolalarning holati va rivojlanishi, o'zligini anglashi va kelajakda o'z oldiga qo'yan maqsad va vazifalari, qaysi jinsga mansub bo'lishidan qat'i nazar, jamiyatdagi mavqeini anglatadi. Ta'lim jarayonida gender yondashuvni qo'llash o'g'il va qiz bolalarni kelib chiqishidan qat'i nazar, ijtimoiy vazifalarini to'g'ri anglaydigan, jinslarning farqiga oid eski qarashlardan xoli o'ziga xos shaxs sifatida tarbiyalash va rivojlantirishga katta yordam beradi. O'z ma'nosi jihatidan gender ta'lim-tarbiyaga yaqin bo'lgan "jinsiy ta'lim-tarbiya", "jinsiy-ijtimoiy ta'lim-tarbiya" atamalari mazkur so'zning ma'nosini to'liq ifodalamaydi. Zero, bu atama mohiyati ancha keng va serqirradir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gender tadqiqoti asoslari kursi xrestomatiyasi: / rus tilidan qisqar. tarjima. Oliy o'quv yurtlari uchun. –Toshkent, O'zbekiston, 2003. – 411 b.
2. Mavlonova R., Goroxova O., Ogluzdina L. Mehnat ta'limi metodikasi: Oliy ped. hamda maxsus o'rta bilim yurt. uchun o'quv qo'll. –Toshkent, O'qituvchi, 1985. –248 b.
3. Pedagogika: Bolshaya sovremennaya ensiklopediya / Sost. YE. S. Rapatsevich – M.: Sovrem. slovo, 2005. – 720 s.
4. Уэст К., Зиммерман Д. Создание гендера. Пер. с англ. Е.Здравомысловой /Гендерные тетради. Вып.1.Спб., 1999 mhtml:file://F:/enter/
5. Усманова А. Гендерная проблематика в парадигме культурных исследований //Введение в гендерные исследования. Ч.1: Учебное пособие. –Харьков, Спб., 2001. – 447-449 с.
6. Хоф Р. Возникновение и развитие гендерных исследований //Пол, тендер, культура /Под ред. Э.Шоре и К.Хайдер. –М.: 1999. –23-53 с. www.lib.vsu.ru/project/golosary.phtml.
7. Тилавова М.М., Шаропова З.Т. Образование на основе гендерного равенства в начальной школе. ACADEMY научно-методический журнал №6(57).Июнь 2020. – 81 с.

INNOVATION DASTURLAR ASOSIDA DARS LOYIHASINI ISHLAB CHIQUISH METODIKASINING PAYDO BO'LISH AFZALLIKLARI

*Abdullaeva Shoxsanam Nurillayevna, Buxoro innovatsiyalar universiteti I bosqich
magistranti*

Orcid: <https://orcid.org/0009-0001-2629-9077>

Annotatsiya: maqolada innovatsion ta'lim dasturlari asosida dars loyihasini ishlab chiqish metodikasining paydo bo'lish sabablari va afzalliklari tahlil qilinadi. Ushbu metodikaning zamonaviy ta'limga ta'siri, o'quvchilarning faolligi va mustaqil fikrlashini rivojlantirishdagi o'rni ochib beriladi. Shuningdek, dars samaradorligini oshirishda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi interaktiv aloqaning kuchayishi muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: innovatsion dasturlar, dars loyihasi, metodika, ta'lim texnologiyalari, o'quvchi faolligi, interaktiv yondashuv, raqamli ta'lim, o'qitish samaradorligi, zamonaviy dars, pedagogik innovatsiya.

ПРЕИМУЩЕСТВА ВОЗНИКНОВЕНИЯ МЕТОДИКИ РАЗРАБОТКИ УЧЕБНОГО ПРОЕКТА НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОГРАММ

*Абдуллаева Шохсанам Нуриллаевна, магистрант 1-го курса Университета инноваций
Бухары*

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-2629-9077>

Аннотация: в статье анализируются причины появления и преимущества методики разработки плана урока на основе инновационных образовательных программ. Раскрывается влияние данной методики на современное образование, ее роль в развитии активности и самостоятельности мышления учащихся. Также важным фактором повышения эффективности урока считается усиление интерактивного общения учителя и ученика.

Ключевые слова: инновационные программы, план урока, методика, образовательные технологии, активность учащихся, интерактивный подход, цифровое образование, эффективность обучения, современный урок, педагогическая инновация.

ADVANTAGES OF THE EMERGENCE OF THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING A LESSON PROJECT BASED ON INNOVATIVE PROGRAMS

*Abdullaeva Shoxsanam Nurillayevna, 1st-year Master's Student, Bukhara University of
Innovations*

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-2629-9077>

Abstract: the article analyzes the reasons for the emergence and advantages of the methodology for developing a lesson plan based on innovative educational programs. The impact of this methodology on modern education, its role in developing students' activity and independent thinking are revealed. Also, the strengthening of interactive communication between the teacher and the student is considered an important factor in increasing the effectiveness of the lesson.

Keywords: innovative programs, lesson plan, methodology, educational technologies, student activity, interactive approach, digital education, teaching effectiveness, modern lesson, pedagogical innovation.

Zamonaviy ta'lim jarayoni tobora o'zgarib, innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashmoqda. An'anaviy yondashuvlar endi o'z samarasini yo'qotayotgan bir paytda, interaktiv metodlar va raqamli vositalarga asoslangan dars loyihalari o'qituvchining asosiy pedagogik quroliga aylanmoqda. Xususan, innovatsion dasturlar asosida dars loyihasini ishlab chiqish metodikasi – ta'lim sifatini oshirishda dolzarb vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda ta'lim sohasida islohotlar jarayonining jadallashuvi, raqamli texnologiyalar va zamonaviy axborot vositalarining jadal rivojlanishi o'qitish uslublarini yangilashni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, innovatsion dasturlar asosida dars loyihasini ishlab chiqish metodikasi ta'lim sifatini oshirishning muhim vositalaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Bu metodika nafaqat dars mazmunini boyitadi, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy tahlil qilish va amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Innovatsion dasturlar va ularning ta'limdagi o'rni

Innovatsion dasturlar — bu zamonaviy texnologiyalarga asoslangan, o'quv jarayonini interaktiv va samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi vositalar tizimidir. Ular orasida Google Classroom, Microsoft Teams, Kahoot, Padlet, Moodle, Canva, Quizizz kabi platformalar alohida o'rin tutadi. Bu dasturlar yordamida o'qituvchilar dars materiallarini vizual, interaktiv va differensial tarzda yetkazishi mumkin.

Dars loyihasini ishlab chiqish metodikasi

Innovatsion yondashuv asosida dars loyihasini ishlab chiqish o'ziga xos bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- Maqsadni aniq belgilash – darsdan ko'zlangan asosiy natijalarni belgilash;
- Interaktiv usullar tanlovi – guruhlarda ishlash, muammoli savollar, “fikrlar yog'dusi”, “klaster” va boshqalar;
- Texnologik vositalarni tanlash – zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish;
- Baholash mezonlarini ishlab chiqish – o'quvchilarni faol baholash, refleksiya usullaridan foydalanish.

Metodikaning paydo bo'lishi va afzalliklari

Innovatsion metodikaning paydo bo'lishi ta'lim tizimining moslashuvchan, raqamlashtirilgan va o'quvchiga yo'naltirilgan modelga o'tishi bilan bog'liq. Uning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Ta'lim samaradorligini oshiradi – darslar aniq maqsadga yo'naltiriladi va natija ko'rinadi;
- O'quvchining faol ishtirokini ta'minlaydi – faqat eshituvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida qatnashadi;
- Ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi – darslar ijodiy topshiriqlar bilan boyitiladi;
- Moslashuvchanlik – har bir o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqib individual yondashuv imkoniyati yaratiladi;
- O'qituvchining rolini transformatsiya qiladi – o'qituvchi bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi va fasilitator sifatida namoyon bo'ladi.

Turli davlatlar tajribasida, xususan, Finlyandiya, Janubiy Koreya va Singapurda, innovatsion dars loyihalari asosida ishlash orqali o'quvchilarning ko'nikmalari sezilarli darajada yaxshilangan. O'zbekiston ta'lim tizimida ham “Raqamli ta'lim” konsepsiyasi asosida ushbu metodika joriy qilinmoqda.

Innovatsion dasturlar asosida dars loyihasini ishlab chiqish metodikasi ta'limning sifatli, samarali va shaxsga yo'naltirilgan shaklini yaratishda muhim o'rin egallaydi. Ushbu metodikadan foydalanish o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshiradi, o'quvchilarning esa mustaqil fikrlash va real hayotga moslasha olish salohiyatini kengaytiradi. Shunday ekan, zamonaviy o'quv jarayonida bu yondashuvdan keng foydalanish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Innovatsion dasturlar, dars loyihasi, metodika, ta'lim texnologiyalari, o'quvchi faolligi, interaktiv yondashuv, raqamli ta'lim, o'qitish samaradorligi, zamonaviy dars, pedagogik innovatsiya.

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarni tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion dasturlar – zamonaviy ta'limning asosi hisoblanibgina qolmay, innovatsion dasturlar bu yangi texnologiyalar, pedagogik yondashuvlar, multimedaviy vositalar va raqamli platformalar orqali ta'lim berish tizimi bo'lib, u o'quv jarayonini samarali, interaktiv va o'ziga xos qiladi. Bunday dasturlar orqali o'qituvchi darsni qiziqarli, o'quvchini jalb qiladigan shaklda tashkil etishi mumkin.

Dars loyihasi metodikasining afzalliklari shundan iboratki, innovatsion yondashuv asosida ishlab chiqilgan dars loyihasi quyidagi afzalliklarga ega bo'lishi mumkin. Amaliy yondashuv nazariy bilimlar bilan birga amaliy mashg'ulotlarga katta e'tibor qaratiladi. Interaktivlik tamoyillari asosida darslar o'zaro muloqot, guruhli ish, muammo yechish kabi faol metodlar orqali olib boriladi. Integratsiyalashuv fanlararo bog'liqlik ta'minlanadi va darslar real

hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lanadi. Yaratilish bosqichma-bosqichligi dars loyihalari maqsad, kutilayotgan natija, baholash mezonlari, metod va vositalarni aniq belgilagan holda tuziladi. O‘qituvchi va o‘quvchi rolining o‘zgarishi bu metodikada innovatsion o‘qituvchi – bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi, muhokama yetakchisiga aylanadi. O‘quvchilar esa passiv bilim oluvchilardan faol ishtirokchilarga aylanib, o‘z bilimlarini mustaqil izlanish orqali boyitadilar.

Innovatsion dasturlar asosida dars loyihasini ishlab dars mavzusi:

“Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologiya asoslari”

Darsning maqsadi:

O‘quvchilarda atrof-muhitni asrashga oid bilimlarni shakllantirish;

Ekologik muammolar va ularning yechimlari haqida tushuncha berish;

Mustaqil izlanish va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Innovatsion dastur va texnologiyalar: onlayn ta’lim platformasi

Interaktiv taqdimot va multimediya materiallar

Dars usullari: muammoli o‘qitish, guruhlarda muhokama, amaliy topshiriqlar, video ko‘rsatmalar orqali mustaqil ishlash.

Darsning borishi:

Kirish , dars mavzusini tanishtirish, PowerPoint taqdimoti, qiziqtiruvchi savollar berish, video qisqa lavha;

Asosiy qism : Atrof-muhit muammolari haqida guruhlarda muhokama, onlayn forum, chat platformasi

Yakuniy qism: Test va baholash (Kahoot o‘yini), Elektron test vositalari, o‘quvchilarning fikr-mulohazalarini tinglash, ochiq savollar uchun vaqt.

Baholash mezonlari: Guruhdagi faol ishtirok, amaliy topshiriqlarni bajarish, test natijalari, mustaqil ish sifatining bahosi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak innovatsion dasturlar asosida ishlab chiqilgan dars loyihasi o‘quvchilarning ta’limga qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’lim jarayoni interaktiv va samarali bo‘ladi.

Innovatsion dasturlar asosida dars loyihasini ishlab chiqish metodikasi ta’limda sifat, samaradorlik va ijodkorlikni ta’minlashning muhim omilidir. Bu yondashuv o‘quv jarayoniga yangicha ruh, jonli muhit olib kirib, o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, o‘qituvchining esa kasbiy mahoratini yangi bosqichga olib chiqadi. Shunday ekan, har bir zamonaviy pedagog bu metodikani chuqur o‘rganib, o‘z amaliyotiga tatbiq etishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g‘oyamizning poydevoridir. -Toshkent-2021.

2. Hakimov J.O. “Ta’limda axborot texnologiyalari” 2016 yil.

3. Daminov.O.O. Kasbiy pedagogika 2018 yil.

4. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Bayoz, 2022. – 304 b.

5. Abdullayeva F. Ta’lim tizimi sifatini oshirishda pisa va timss kabi xalqaro tadqiqotlarning roli //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – T. 3. – №. 3.

6. Nurillayevna A. F. Teaching Scientific Popular Articles in Mother Nili and Reading Literacy Courses //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – T. 2. – №. 3. – C. 47-50.

7. Abdullayeva F. Methodological possibilities of organization of primary school technology lessons with pedagogical technologies //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – T. 8. – №. 8.

8. Nurullayevna, A. F. (2022). Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida ilmiy ommabop maqolalarni o‘rgatish. barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(4), 406-409.

9. Курбанова, III. H., Абдуллаева, Ф., & Очилова, Г. О. (2021). Педагогическая технология–целостная система образовательного процесса. новые педагогические исследования: сборник статей IV, 20.

10. Qurbonova S. N., Abdullayeva F. Tarbiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1030-1035.
11. Абдуллаева, Ф. Н. (2022). Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ilmiy-ommabop maqolalarni o'rgatishning metodik imkoniyatlari: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.034> Abdullayeva Feruza Nurilloevna Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 243-246.
12. Abdullayeva Feruza, N. (2022). Start Methodological Options for Teaching Scientific and Popular Articles in First Grade Mother Tongue and Reading Literacy Classes. International Journal of Trend in Scientific Research and Development, 6(6), 1433-1436.
13. Nurilloevna, A. F. (2022). General Structure of Teaching Courses of Popular Scientific and Artistic Articles on the Theme of the Seasons of the Year. Web of Scholars: Multidimensional Research Journal, 1(6), 1-5
14. Nurillayevna, A. F. (2023). Use of new pedagogical technologies in mother language and reading literacy lessons. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(5), 5-9.
15. Nurillayevna, A. F., & Muhammadjonovna, S. E. (2023). Ona Tili Va
16. O'qish Savodxonligi Darslarida Matn Ustida Ishlashda Pirls Topshiriqlaridan Foydalanish. Academic Integrity and Lifelong Learning (France), 215-219.
17. Nurillayevna, A. F., & G'anijonovna, Q. M. (2023). Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects (Spain), 181-184.
18. Abdullayeva, F. (2023). Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ilmiy ommabop maqolalarni o'rgatish. центр научных публикаций (buxdu. uz), 28(28).
19. Nurillayevna, A. F. (2023). Methodological Basis of Development of Science-Related Competences In Teaching Works of Art in Primary Classes Based On Synergic Approach. International Journal of Formal Education, 2(10), 61-66.

BOSHLANG'ICH SINIF DARSLIKLARIDAGI MATNLAR TAHLILI

(2-SINF DARSFIGI MISOLIDA)

Shodiyeva Mehribon Amin qizi, BuxDPI mustaqil izlanuvchisi

Email: mexribonshodiyeva8@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining lingvistik bilimlarini oshirishga qaratilgan topshiriqlar mazmuni hamda ularning ahamiyatli jihatlari haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan. Aytilgan ma'lumotlar 2-sinf ona tili darsligining III qismida berilgan mavzular asosida izohlangan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, darslik matnlari, matn tahlili, 2-sinf darsligi, ta'lim jarayoni, o'quv materiallari, til ko'nikmalari, o'qish ko'nikmalari, pedagogik metodika

АНАЛИЗ ТЕКСТОВ В УЧЕБНИКАХ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ (НА ПРИМЕРЕ УЧЕБНИКА ДЛЯ 2-ГО КЛАССА)

Шодиева Мехрибон Амин кызы, независимый исследователь Бухарского государственного педагогического института

Email: mexribonshodiyeva8@gmail.com

Аннотация: В данной статье представлено содержание заданий, направленных на совершенствование языковых знаний учащихся начальной школы, и их значимые аспекты. Представленная информация интерпретируется на основе тем, представленных в части III учебника родного языка для 2-го класса.

Ключевые слова: начальная школа, тексты учебника, анализ текста, учебник для 2-го класса, учебный процесс, учебный материал, языковые навыки, навыки чтения, педагогическая методика

ANALYSIS OF TEXTS IN PRIMARY SCHOOL TEXTBOOKS (BASED ON THE 2ND GRADE TEXTBOOK)

Shodiyeva Mehribon Amin qizi, Independent Researcher at Bukhara State Pedagogical Institute


Email: mexribonshodiyeva8@gmail.com

Abstract: This article presents the content of tasks aimed at improving the linguistic knowledge of primary school students and their significant aspects. The information provided is interpreted based on the topics presented in Part III of the 2nd grade native language textbook.


Keywords: primary school, textbook texts, text analysis, 2nd grade textbook, educational process, educational material, language skills, reading skills, pedagogical methodology

Bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va yosh avlodni har jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalashdir. Buning uchun yoshlarda mustaqil fikrlash, mantiqiy tafakkur va nutq madaniyati to'g'ri shakllangan bo'lishi lozim. Ona tili darslaridan ko'zlangan maqsad ham aynan shunday. boshlang'ich sinf darsliklaridagi mavzular nazariyadan ko'ra ko'proq amaliy tarzda

ishlashga qaratilgan bo‘lib, berilgan matnlar ham hayot bilan bog‘liq bo‘lgan mavzular asosida tuzilgan. O‘quvchilar mavzuni tushunish bilan birga yangi ma’lumotlarga ega bo‘lib boradilar. Jumladan, 2-sinf(II qism) ona tili darsligida berilgan matnlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, unda “Mening oilam”, “Bolalarning jajji huquqlari”, “O‘zbekistonning noyob tabiati”, “Jonli burchak”, “Ona tabiatni asraylik” va “Tabiiy boyliklarni tejaylik” kabi mavzularga oid matnlar berilgan. Ushbu mavzular orqali bir qancha tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan tushunchalar yoritilgan. Oilaning naqadar muqaddas dargoh ekanligi, qonunlarni bilishning ahamiyati, tabiatni asrab-avaylash, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish kerakligini bilib oladilar va hayot bilan bog‘liq ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. Ushbu darslikda tutuq belgisi, bo‘g‘in, yonmayon kelgan bir xil undoshlar, so‘z va uning ma’nolari kabi grammatik mavzular berilgan. Mavzular kesimida 27 ta matn berilgan bo‘lib, dialog yoki ma’lumotlar shaklida bayon qilingan. Bundan tashqari, rasm asosida gaplar tuzish, matn hosil qilish kabi topshiriqlar, imloviy xarakterdagi mashqlarni ko‘rishimiz mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini lingvistik tushunchalar bilan tanishtirish bevosita tilshunoslikning boshqa bo‘limlari bilan aloqadorlikda olib boriladi. Jumladan, 2-sinf III qism ona tili darsligida “Shahar, qishloq, ko‘cha va daryolarga qo‘yilgan nomlar imlosi” mavzusi berilgan bo‘lib, bunda bir vaqtning o‘zida o‘quvchi ham leksik, ham fonetik, ham orfografik va grammatik bilimlarni o‘zlashtirishi mumkin. Mavzuda berilgan mashqlarni bajarish jarayonida esa toponimlarga oid ma’lumotlarga ega bo‘lib boradilar. Dars jarayonida, ayniqsa, qadimiy yoki yo‘qolib borayotgan joy nomlari haqida qo‘shimcha ma’lumotlar berish ham o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘otadi. Mavzuga oid turli toponimik mazmundagi matnlarni shunchaki bosh harflarsiz va tinish belgilarisiz o‘quvchilarga tarqatish mumkin. “Mozaika” usulidan foydalangan holda yurtimizdagi go‘zal shaharlar yoki buyuk ajdodlarimiz haqidagi qiziqarli ma’lumotlarni turli qismlarga bo‘laklagan holda guruhlar kesimida vazifalar berish ham ancha samarali bo‘ladi. Bunda o‘quvchilar matndagi gaplarni mazmunan bog‘lash asosida yaxlit matnni hosil qiladi. “Men sevgan fan” mavzusida esa bugungi kundagi innovatsion yangiliklar, ilm-fan sohasidagi eng so‘nggi yutuqlardan xabardor bo‘lishlari mumkin. Ushbu mavzuda bir nechta so‘zlarni o‘zaro birlashtirish, turli yasovchi qo‘shimchalar qo‘shish orqali yangi so‘z yasash kabi tushunchalarga ega bo‘ladilar. Natijada o‘quvchilar lug‘atida qo‘shimcha so‘zlar, ya’ni neologizmlar paydo bo‘ladi. Birgina o‘zakdan ham turli ma’noga ega bo‘lgan bir qancha so‘zlarni hosil qilish orqali o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarining yana-da o‘sishiga erishish mumkin. Bu jarayonda yangi tushunchalar paydo bo‘ladi va o‘quvchilarning faol lug‘atiga kirib boradi. Masalan, quyidagi chizmaga e’tibor bersak, “gul” o‘zagidan hosil bo‘lgan bir nechta so‘zlarni ko‘rishimiz mumkin. So‘zga so‘z va turli yasovchi qo‘shimchalar qo‘shish natijasida hosil qilingan yangi so‘zlar ketma-ketligi o‘quvchilarda “so‘z yasalishi” bo‘limiga oid bilimlarni yana-da oshirish bilan birga dunyoqarashini boyitishga ham yordam beradi. Yozilgan so‘zlar ma’nosini lug‘at asosida tushuntirish va ular ishtirokida gaplar tuzdirish ham yaxshi samara beradi. Ushbu jarayonda o‘quvchilarda yangi so‘zlar ma’nosi, talaffuzi va imlosiga oid bilimlar shakllanadi.



Darslikda berilgan “Shaxs va narsa nomini bildirgan soʻzlar imlosi” mavzusida 5 daqiqali “esse” yozish topshirigʻini berish mumkin. Yaʼni oʻquvchilar oʻzlari yoqtirgan kasblari haqida qisqacha hikoya qilib berishadi. Topshiriqni baholashda tuzilgan gaplar mazmuni, soʻz birikmalari orasidagi bogʻlanishlar va imloga ahamiyat qaratish lozim. Bu mavzu orqali Kim? Nima? kabi soʻroqlarni toʻgʻri berish, birlik va koʻplik tushunchalariga oid bilimlarga ega boʻladilar. Mavzuga qoʻshimcha ravishda rasm asosida matn tuzish topshirigʻini berish mumkin. Yaʼni, berilgan rasmdan birlik va koʻplikda tasvirlangan narsa yoki shaxslarni topish va guruhlash asosida mavzuga oid bilimlar yana-da mustahkamlanadi. “Ism va familiya imlosini oʻrganamiz” mavzusida esa oʻquvchilarga oʻz ismlari maʼnosini izohlash hamda “zanjir” usulida aytilgan ismning oxirgi harfiga koʻra davom ettirish kabi topshiriqlarni berish mumkin: Anora, Akmal, Laylo, Olima, Anvar... kabi. Ushbu mavzu orqali oʻquvchilarda atoqli va turdosh otlarga oid dastlabki tasavvurlar ham hosil boʻladi. Masalan, Nodir – oʻgʻil bolalar ismi, nodir – qimmatbaho. Dono – qiz bolalar ismi, dono – aqlli. Oʻquvchilarni qiziqtirish maqsadida turli ertak, hikoya yoki multfilm qahramonlari nomlaridan ham foydalanish mumkin. Ularning qobiliyatlari, ijobiy yoki salbiy taraflari haqida maʼlumotlar soʻrash mumkin.



Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik bilimlarni yetarli darajada yetkazib berishda to'g'ri tanlangan amaliy topshiriqlar, interfaol metodlar muhim ahamiyatga ega. 2-sinf darsliklaridagi matnlar boshlang'ich ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, bolalarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ularning mazmuni, tili va ta'lim-tarbiya ahamiyati yosh o'quvchilarning rivojlanishiga mos keladi. Shu sababli, darslik matnlarini doimiy tahlil qilib borish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. - Toshkent-2021.
2. Hakimov J.O. "Ta'limda axborot texnologiyalari" 2016 yil.
3. Daminov.O.O. Kasbiy pedagogika 2018 yil.
4. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Bayoz, 2022. – 304 b.
5. Abdullayeva F. Ta'lim tizimi sifatini oshirishda pisa va timss kabi xalqaro tadqiqotlarning roli //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
6. Nurillayevna A. F. Teaching Scientific Popular Articles in Mother Nili and Reading Literacy Courses //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 47-50.
7. Abdullayeva F. Methodological possibilities of organization of primary school technology lessons with pedagogical technologies //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
8. Nurullayevna, A. F. (2022). Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ilmiy ommabop maqolalarni o'rgatish. barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(4), 406-409.
9. Курбанова, Ш. Н., Абдуллаева, Ф., & Очилова, Г. О. (2021). Педагогическая технология— целостная система образовательного процесса. новые педагогические исследования: сборник статей IV, 20.

10. Qurbonova S. N., Abdullayeva F. Tarbiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 6. – C. 1030-1035.
11. Абдуллаева, Ф. Н. (2022). Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ilmiy-ommabop maqolalarni o'rgatishning metodik imkoniyatlari: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.034> Abdullayeva Feruza Nurilloevna Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 243-246.
12. Abdullayeva Feruza, N. (2022). Start Methodological Options for Teaching Scientific and Popular Articles in First Grade Mother Tongue and Reading Literacy Classes. International Journal of Trend in Scientific Research and Development, 6(6), 1433-1436.
13. Nurilloevna, A. F. (2022). General Structure of Teaching Courses of Popular Scientific and Artistic Articles on the Theme of the Seasons of the Year. Web of Scholars: Multidimensional Research Journal, 1(6), 1-5
14. Nurillayevna, A. F. (2023). Use of new pedagogical technologies in mother language and reading literacy lessons. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(5), 5-9.
15. Nurillayevna, A. F., & Muhammadjonovna, S. E. (2023). Ona Tili Va
16. O'qish Savodxonligi Darslarida Matn Ustida Ishlashda Pirls Topshiriqlaridan Foydalanish. Academic Integrity and Lifelong Learning (France), 215-219.
17. Nurillayevna, A. F., & G'anijonovna, Q. M. (2023). Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects (Spain), 181-184.
18. Abdullayeva, F. (2023). Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ilmiy ommabop maqolalarni o'rgatish. центр научных публикаций (buxdu.uz), 28(28).
19. Nurillayevna, A. F. (2023). Methodological Basis of Development of Science-Related Competences In Teaching Works of Art in Primary Classes Based On Synergic Approach. International Journal of Formal Education, 2(10), 61-66.

BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA NOSTANDART MASALALARNI O'RGATISH METODIKASINI SHAKLLANTIRISH IJTIMOY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Abdullayeva Feruza Nurillayevna, Buxoro davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim kafedrasi dotsenti

abdullayevaferuza@buxdpi.uz

Xusanova Dilnoza Egam qizi, Osiyo xalqaro universiteti

1-bosqich magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika ta'limida nostandart masalalarni o'rgatish metodikasining ijtimoiy-pedagogik mohiyati, uning dolzarbligi, metodik asoslari hamda amaliyotda qo'llanilish holatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, nostandart masalalar orqali o'quvchilarda ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, matematika darsi, nostandart masalalar, metodika, ijodiy fikrlash, ijtimoiy-pedagogik muammo, innovatsion yondashuv.

DEVELOPING A METHODOLOGY FOR TEACHING NON-STANDARD PROBLEMS IN PRIMARY SCHOOL MATHEMATICS LESSONS AS A SOCIO-PEDAGOGICAL ISSUE

Abdullayeva Feruza Nurillayevna, Associate Professor, Department of Primary Education, Bukhara State Pedagogical Institute

Email: abdullayevaferuza@buxdpi.uz

Khusanova Dilnoza Egam qizi, 1st-year Master's Student, Asian International University

Annotation: In this article, elementary school mathematics education socio-pedagogical essence of the methodology of teaching non-standart issues, its relevance, methodological bases and cases of its application in practice are analyzed. Also, ways to develop students' creative thinking and independent decision-making skills in problematic situations are considered through non-standart problems.

Key words: primary education, mathematics lesson, non-standart problems, methodology, creative thinking, socio-pedagogical problem, innovative approach.

ФОРМИРОВАНИЕ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ НЕСТАНДАРТНЫМ ЗАДАЧАМ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ КАК СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Абдуллаева Феруза Нуриллаевна, доцент кафедры начального образования, Бухарский государственный педагогический институт

Email: abdullayevaferuza@buxdpi.uz

Хусанова Дильноза Эгам кызы, магистрант 1-го курса, Азиатский международный университет

Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarning faolligi, mustaqilligi va ijodiy fikrlash salohiyatini

oshirishni taqozo etadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf matematika darslarida nostandart masalalardan foydalanish nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki o'quvchilarning tafakkurini kengaytirish, hayotiy vaziyatlarda yechim topish ko'nikmalarini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy yondashuvni shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf matematika darslarida nostandart masalalarni o'rgatish metodikasini yaratish muhim ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida ko'rilmogda. Bu jarayon nafaqat fan bo'yicha bilimni chuqurlashtirish, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Nostandart masalalar- bu o'quvchilarni yangicha fikrlashga, kreativ yondashuvga undaydigan, oddiy algoritmik yechimga ega bo'lmagan masalalardir. Ular orqali o'quvchilarning fikr yuritish doirasi kengayadi, darsga qiziqishi oshadi, ko'p tomonlama yondashuv shakllanadi.

Maktablarda ko'p xollarda an'anaviy yondashuvdagi darslar olib boriladi. Bunday jarayonlardan uzoq vaqt foydalanish o'quvchilarning bir tekislikda bilim olishiga ya'ni standart doirada qolib ketishiga olib keladi. Shu sababli, nostandart masalalarni o'rgatish metodikasi ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida qaralmogda. Hayotda har qanday vaziyatda ham yechim topa oladigan, kreativ fikrlovchi shaxsni tarbiyalashning asosi esa, boshlang'ich sinflarning matematika darslarida nostandart masalalarni tushuntirib beruvchi metodikalardan foydalanishdir.

Ushbu masalalarni o'rgatishda quyidagi metodlar tavsiya etiladi:

- Ko'rgazmali audio vositalaridan foydalanish-bolaning diqqatini jalb qiladi;
- Muammoli ta'lim metodlari-o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;
- O'yinli metodlar-darsni qiziqarli qiladi;
- Blum taksonomiyasi asosida savollar tuzish-yuqori darajadagi tafakkurni shakllantiradi;
- Yozma va og'zaki tahlil metodi-o'quvchilarning mulohaza yuritish ko'nikmasini oshiradi;
- Noan'anaviy baholash tizimi-o'quvchilarni yanada faolikka chaqiradi.

Nostandart masalalardan muntazam foydalanish, o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi, ijodkorlikka undaydi, bilim olish darajasini yuqoriga ko'taradi. Bu jarayonlar o'qituvchidan nostandart masalalar bankini yaratishni, malaka oshirish kurslaridan turli metodikalarni o'rganib borishni yoki o'zi ishlab chiqishni, darslik bilan ishlaganda ham masalaga qo'shimcha savollar kiritishini, bir so'z bilan aytganda o'z ustida doim ishlab, rivojlanishni talab etadi.

Nostandart masalalar o'quvchilarni oddiy yechimlardan tashqariga chiqishga undaydi, ularning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Ammo boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun bunday masalalarni o'rgatish metodikasini shakllantirish va qo'llash murakkab vazifa bo'lib qolmogda. Bu esa o'z navbatida ta'lim jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababdan nostandart masalalarni o'rgatish metodikasini tizimli ravishda ishlab chiqish va takomillashtirish zarurati mavjud.

Nostandart masalalar – bu an'anaviy yechim usullaridan farq qiluvchi, o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini va ijodiy fikrlashini talab qiluvchi masalalardir. Ular matematikaning fundamental tushunchalarini chuqurroq o'rganishga va mustaqil fikrlashga yo'naltiradi.

Nostandart masalalarni o'rgatish boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash bilan birga, ularda hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror chiqarish, mantiqiy fikrlash muammoni har xil yo'l bilan hal etish salohiyatini rivojlantiradi. Shu sababli bu metodikani joriy etish ijtimoiy-pedagogik zaruratdir. Boshlang'ich sinf matematika darslarida nostandart masalalarni o'rgatish metodikasini shakllantirish – bu nafaqat ta'lim sifati, balki o'quvchilarning ijodiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish uchun muhim ijtimoiy-pedagogik muammo. Ushbu muammoni hal etishda o'qituvchilarning malakasini oshirish, ta'lim jarayonida yangi metodlarni joriy etish va jamiyatning pedagogik yondashuvlarni qo'llab-quvvatlashi katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. - Toshkent-2021.
2. Hakimov J.O. "Ta'limda axborot texnologiyalari" 2016 yil.
3. Daminov.O.O. Kasbiy pedagogika 2018 yil.
4. Xodjayeva N. Boshlang'ich sinflarda matematik tafakkurni rivojlantirish. –Toshkent:O'qituvchi, 2019.
5. Abdullayeva F. Ta'lim tizimi sifatini oshirishda pisa va timss kabi xalqaro tadqiqotlarning roli //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
6. Nurillayevna A. F. Teaching Scientific Popular Articles in Mother Nili and Reading Literacy Courses //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 47-50.
7. Abdullayeva F. Methodological possibilities of organization of primary school technology lessons with pedagogical technologies //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
8. Курбанова, Ш. Н., Абдуллаева, Ф., & Очилова, Г. О. (2021). Педагогическая технология—целостная система образовательного процесса. новые педагогические исследования: сборник статей IV, 20.
10. Abdullayeva Feruza, N. (2022). Start Methodological Options for Teaching Scientific and Popular Articles in First Grade Mother Tongue and Reading Literacy Classes. International Journal of Trend in Scientific Research and Development, 6(6), 1433-1436.
13. Nurilloevna, A. F. (2022). General Structure of Teaching Courses of Popular Scientific and Artistic Articles on the Theme of the Seasons of the Year. Web of Scholars: Multidimensional Research Journal, 1(6), 1-5
14. Nurillayevna, A. F. (2023). Use of new pedagogical technologies in mother language and reading literacy lessons. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(5), 5-9.
15. Nurillayevna, A. F. (2023). Methodological Basis of Development of Science-Related Competences In Teaching Works of Art in Primary Classes Based On Synergic Approach. International Journal of Formal Education, 2(10), 61-66.

MUSIQA VA TASVIRIY SAN'AT

MUSIQA VA RAQS ORQALI O'QUVCHILARNING SHAXSIY RIVOJLANISHI

Alayeva Zarnigor Maxmudovna, Buxoro davlat pedagogika instituti Musiqa va tasviriy san'at kafedrası o'qituvchisi

alayevazarnigor@buxdpi.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada ritmika va xoreografiya ta'limida zamonaviy yondashuvlarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Musiqa va raqs orqali o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, estetik didni shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonlariga urg'u beriladi. Maqolada pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlar va texnologiyalar yordamida o'quvchilarda musiqiy ritmni anglash, harakatlarni uyg'unlashtirish hamda ijodiy tafakkurni rivojlantirish yo'nalishlari yoritilgan. Ushbu tadqiqot zamonaviy ta'lim jarayonida raqs va musiqa vositasida shaxsiy rivojlanishga erishishning samarali usullarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, xoreografiya ta'limida yangi pedagogik strategiyalarni qo'llashning ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ritmika, xoreografiya, zamonaviy yondashuvlar, musiqa, raqs, shaxsiy rivojlanish, estetik did, ijodiy qobiliyat, pedagogik metodlar, innovatsion texnologiyalar.

ЛИЧНОСТНОЕ РАЗВИТИЕ ОБУЧАЮЩИХСЯ ЧЕРЕЗ МУЗЫКУ И ТАНЦА

Алаева Зарнигор Махмудовна, Бухарский государственный педагогический институт, преподаватель кафедры музыки и изобразительного искусства

alayevazarnigor@buxdpi.uz

Аннотация: В данной статье анализируется роль и значение современных подходов в ритмико-хореографическом образовании. Особое внимание уделяется личностному развитию студентов, формированию эстетического вкуса, развитию творческих способностей посредством музыки и танца. В статье описаны направления развития у учащихся понимания музыкального ритма, координации движений и творческого мышления с помощью педагогических подходов, инновационных методов и технологий. Данное исследование направлено на определение эффективных методов достижения развития личности посредством танца и музыки в современном образовательном процессе и показывает важность использования новых педагогических стратегий в хореографическом образовании.

Ключевые слова: ритмичность, хореография, современные подходы, музыка, танец, развитие личности, эстетический вкус, творческие способности, педагогические методы, инновационные технологии.

PERSONAL DEVELOPMENT OF STUDENTS THROUGH MUSIC AND DANCE

Alayeva Zarnigor Makhmudovna, Teacher, Department of Music and Fine Arts, Bukhara State Pedagogical Institute

alayevazarnigor@buxdpi.uz

Annotation: This article analyzes the role and importance of modern approaches in rhythmic and choreography education. Emphasis is placed on the processes of personal development of students through music and dance, the formation of aesthetic taste, and the development of creative abilities. The article highlights the areas of understanding musical rhythm, harmonizing movements, and developing creative thinking in students using pedagogical approaches, innovative methods, and technologies. This study is aimed at identifying effective methods for achieving personal development through dance and music in the modern educational process, and shows the importance of using new pedagogical strategies in choreography education.

Keywords: rhythmic, choreography, modern approaches, music, dance, personal development, aesthetic taste, creative abilities, pedagogical methods, innovative technologies.

Kirish. Hozirgi kunda yosh avlodning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, ularning ijodiy

qobiliyatlarini oshirish va milliy madaniy merosga bo'lgan hurmatini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan bir qator qarorlar va farmonlar bu borada muhim ahamiyatga ega. Jumladan, 2019-yil 26-martdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy tarbiyalash, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4245-sonli qarorida musiqa, xoreografiya va san'at yo'nalishlarini rivojlantirish, yoshlarning ma'naviy kamolotini yuksaltirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, 2018-yil 14-noyabrda "Musiqa va san'at ta'limi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror musiqiy ta'limni zamonaviy talablarga moslashtirishda muhim hujjatlardan biri hisoblanadi.

Mazkur qarorlar asosida o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashuvchi ta'lim dasturlari ishlab chiqilib, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda musiqa va raqsning o'rni alohida ta'kidlangan. Ayniqsa, ritmika va xoreografiya orqali o'quvchilarning nafaqat jismoniy, balki intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirish imkoniyatlari kengaymoqda. Ushbu ta'lim yo'nalishlari milliy va zamonaviy san'at elementlarini uyg'unlashtirgan holda, o'quvchilarning estetik didini shakllantirish, ularni musiqaga mehr qo'yishga undash hamda ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur maqola zamonaviy yondashuvlar asosida ritmika va xoreografiya ta'limining o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishidagi ahamiyatini, shuningdek, ta'lim jarayonida innovatsion usullarni qo'llashning samaradorligini tahlil qilishga qaratilgan.

Bugungi kunda ritmika va xoreografiya ta'limi yosh avlodni tarbiyalashda nafaqat san'at sohasidagi mahoratini oshirish, balki ularning jismoniy, intellektual va ma'naviy rivojlanishini ta'minlashning muhim vositasi sifatida qaralmoqda.

Musiqa va raqsning pedagogik imkoniyatlari keng bo'lib, ular o'quvchilarning estetik didini rivojlantirish, ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish va ijodiy qobiliyatlarini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Musiqa insonning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uning hissiy holatini boshqarishda muhim o'rin tutadi. Raqs esa tananing plastikasini rivojlantirish, muvofiqlikni ta'minlash va jismoniy faollikni oshirishga yordam beradi. Ayniqsa, xoreografiya mashg'ulotlari bolalarda koordinatsiya va ritmni his qilish qobiliyatini oshiradi. Shuningdek, musiqa va raqs orqali bolaning ijodiy tafakkuri rag'batlantiriladi, bu esa o'z navbatida uning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ibn Sino ham musiqaning hissiy ta'sir kuchini e'tirof etgan holda uni o'zining meditsina kitoblarida aks ettirgan hamda ruhiy kasalliklarni davolashda shifo dasturi sifatida tavsiya qilgan. "Tib qonuni" asarida bir o'rinda musiqaning ruhiy ta'sir kuchiga baho berib, gudakning tarbiyasidagi ahamiyatini shunday ta'riflaganlar: "Go'dakning tanasi chiniqishi uchun ikki narsa zarur: biri uni asta qimirlatib tebratish, ikkinchisi onasining qo'shig'i (allasi). Birinchisi tanasiga, ikkinchisi – ruhiga tegishlidir"¹⁸ degan.

Olingan natijalar: Vokal – xor malakalari yordamida o'quvchilar, qo'shiqni so'z ma'nosi va musiqa ohangini chuqur idrok etadilar va asarni mazmuni orqali hayotni o'rganadilar. Yuqorida bayon etilgan natijalarga erishish uchun quyidagi vokal – xor malakalarini shakllantirib borish va xor bo'lib kuylaganda bunga qattiq rioya qilish shart. Chunki aynan vokal – xor malakalari vositasi bilangina yoqimli va ohangdosh, sof xor jarangdorligiga erishish mumkin.

Musiqa mashg'ulotlari jarayonida qo'shiqlar tasnifi, ovoz sozlash mashqlari, taniqli xonandalarning repertuari, ovoz tarbiyasi, baland va past ovozda kuylash, mahalliy ijro uslublari, o'z ovozi cholg'uga moslashtirish, milliy qochirim va nolalarni ijro etish, ijroni boshqalar ijrosiga uyg'unlashtirish, jo'rovoqlikda kuylash kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilib, o'quvchilarning spetsifik bilimlarini oshirishga, musiqiy madaniyatini yanada rivojlantirishga katta e'tibor beriladi.

Ijroning chiroyli va tinglovchiga yetib borishida yuqorida aytib o'tilganlar bilan birga asarning mazmun mohiyatini chuqur anglab yetish ham muhimdir. Shunga ko'ra, har bir tanlab olingan asarni mazmuni chuqur tahlil etilishi muhimdir. Nafas olish o'rinlarini (frazalarini) aniqlash ham bulardan mustasno emas. Shunday ekan to'g'ri nafasdan foydalanish va o'z o'rnida nafas olish, ayniqsa so'z bo'g'inlarini bo'lmagan holda nafas olish maqsadga muvofiq.¹⁹

Ilmiy yangiligi: Musiqa darslaridagi qo'shiq kuylash faoliyatida o'quvchilarni yalpi qamrab oladi. Xor bo'lib kuylash murakkab psixologik-fiziologik jarayon hisoblanadi. Musiqa ta'limida xor bo'lib qo'shiq kuylash o'quvchilarda vokal kuylash malakalari ovoz hosil qilish, ansambl, soz, nafas, talaffuz kabi eng muhim amaliy ijrochilik sifatlarini shakllantirishda juda muhim vosita hisoblanadi.

Xulosa: Umumta'lim maktablarda musiqa darslarining asosiy vazifalaridan biri, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va ma'naviy tarbiya berish. Bunda o'qituvchi bolalarni ma'lum bir musiqa asari bilan tanishtirib, uni ifodali, "jonli" qilib ijro etib, o'quvchilar diqqat-e'tiborini asarga jalb etadi, ularning nutqini o'stirish, fikrlash qobiliyatini, dunyoqarashini kengaytiradi, emotsional his-tuyg'ularga ham faol ta'sir etadi. Musiqa darslarining mazmunida faqatgina o'zlashtirishi emas, balki o'quvchilar ongini voqelikka munosabatini rivojlantirish, estetik madaniyatini tarkib toptirish va boshqa ichki his-tuyg'ularini shakllantirish nazarda tutiladi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida O'zbekiston respublikasi Prezidentining qarori, 17.11.2017yildagi pq-3391-son
2. M. Mirabdullaev. Vokal va zamonaviy musiqa (O'quv – uslubiy qo'llanma) Namangan-2018 3-bet
3. G. Sharipova, G'. Najmetdinov, Z. Xodjayeva "Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari". (darslik). Andijon 2020y 28-bet
4. Qodirov R. G'. "Musiqa psixologiyasi" T: Musiqa. 2005- yil 7-b
5. Rajabov I " Maqomlar" T: San'at. 2006-yil 18-b
6. Saodat Muzafarova O'quvchilarda vokal ijrochiligi namunalari asosida musiqiy madaniyatni shakllantirish ("do mi sol" ko'rsatuvi misolida) "Oriental Art and Cultur" Scientific Methodical Journal /

¹⁶ G. Sharipova, G'. Najmetdinov, Z. Xodjayeva "Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari". (darslik). Andijon 2020y 28-bet

¹⁷ Qodirov R. G'. "Musiqa psixologiyasi" T: Musiqa. 2005- yil 7-b

¹⁸ Rajabov I " Maqomlar" T: San'at. 2006-yil 18-b

¹⁹ Saodat Muzafarova O'quvchilarda vokal ijrochiligi namunalari asosida musiqiy madaniyatni shakllantirish ("do mi sol" ko'rsatuvi misolida) "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / <https://oac.dsml-qf.uz> Volume 5 Issue 3 / June 2024

7. Равшан Наимович Рахимов. "Музыка как наука для формирования личности и основа организации музыкального образования и воспитания" *Science and Education*, vol. 3, no. 4, 2022, pp. 1588-1593.
8. Naimovich, Rakhimov Ravshan, and Abdullayeva Shahnozabonu Adizovna. "Culture the Role and Importance of the Kashgar Rhubarb Instrument in Music Lessons." *Czech Journal of Multidisciplinary Innovations* 16 (2023): 1-3.
9. Naimovich, Raximov Ravshan, and Akramova Maftunabonu Kurbonovna. "SHAXS TARBIYASIDA MUSIQANING AHAMIYATI." *Ustozlar uchun* 58.3 (2024): 61-65.
10. Naimovich, Raximov Ravshan. "MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA MILLIY CHOLG 'ULARDAN FOYDALANISH." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 4.3 (2024): 7-11.
11. Naimovich, R. R. "Methods of using interactive methods in preschool educational organizations, conducting music classes." *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching* 10 (2022): 29-32.
12. Rakhimov, Ravshan Naimovich. "Ways to Develop Music Perception Skills." *Innovative Science in Modern Research* (2023): 125-128.
13. Rakhimov, R. N. "THE IMPORTANCE OF FOLK SONGS IN YOUTH EDUCATION." *Web of Teachers: Inderscience Research* 2.2 (2024): 45-48.
14. Рахимов, Равшан Наимович. "РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ МУЗЫКИ В СОЗРЕВАНИИ ЛИЧНОСТИ." *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies*. Vol. 3. No. 2. 2024.
15. Rakhimov, R. N., and O. Sh Sharipov. "THE ROLE OF MUSIC ART IN THE FORMATION OF A HIGHLY SPIRITUAL PERSONALITY IN YOUTH." *International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices*. 2024.

TASVIRIY SAN'AT FANI O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGI VA SHAXSIY SIFATLARIGA QO'YILGAN TALABLAR

Ibadullayeva Shaxnoza Ilxamovna, Buxoro davlat pedagogika institutim, Musiqa va tasviriy san'at kafedrası dotsenti

shaxnozaibadullaeva23@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasviriy san'at fani o'qituvchisining boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Ayniqsa, bu fanning estetik tarbiya, badiiy didni rivojlantirish, mustaqil fikrlash va tasavvurni kengaytirishdagi ahamiyati ta'kidlangan. O'qituvchining metodik mahorati, didaktik yondashuvlari va interaktiv usullardan foydalanishi o'quvchilarning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularning ijodiy faoliyatini rag'batlantiradi. Ishda tasviriy san'at o'qituvchisining o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, dars jarayonini ijodiy tashkil etish muhimligi asoslangan.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, o'qituvchi, ijodiy qobiliyat, boshlang'ich ta'lim, badiiy tafakkur, estetik tarbiya, metodika, didaktik yondashuv, chizmachilik, tasavvur, kreativlik.

ТРЕБОВАНИЯ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ И ЛИЧНЫМ КАЧЕСТВАМ УЧИТЕЛЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

Ибадуллаева Шахноза Илхамовна, доцент кафедры музыки и изобразительного искусства Бухарского государственного педагогического института

shaxnozaibadullaeva23@gmail.com

Аннотация: В данной работе освещается роль учителя изобразительного искусства в формировании и развитии творческих способностей учащихся начальных классов. Особое внимание уделено значению этого предмета в эстетическом воспитании, развитии художественного вкуса, самостоятельного мышления и воображения. Методическое мастерство учителя, использование дидактического подхода и интерактивных методов способствует повышению интереса учеников к изобразительному искусству и стимулирует их творческую активность. В работе обоснована важность организации учебного процесса на творческой основе с учётом индивидуальных особенностей учеников.

Ключевые слова: Изобразительное искусство, учитель, творческие способности, начальное образование, художественное мышление, эстетическое воспитание, методика, дидактический подход, рисование, воображение, креативность.

REQUIREMENTS FOR THE PROFESSIONAL COMPETENCE AND PERSONAL QUALITIES OF A VISUAL ARTS TEACHER

Shakhnoza Ilkhamovna Ibadullaeva, Associate Professor of the Department of Music and Fine Arts, Bukhara State Pedagogical Institute

shaxnozaibadullaeva23@gmail.com

Annotation: This article highlights the role of the visual arts teacher in developing and nurturing the creative abilities of primary school students. Special emphasis is placed on the importance of this subject in fostering aesthetic education, artistic taste, independent thinking, and imagination. The teacher's methodological expertise, along with the use of didactic approaches and interactive methods, enhances students' interest in visual arts and stimulates their creative activity. The paper substantiates the significance of organizing the educational process on a creative basis, taking into account the individual characteristics of students.

Keywords: Visual arts, teacher, creative abilities, primary education, artistic thinking, aesthetic education, methodology, didactic approach, drawing, imagination, creativity.

Boshlang'ich ta'limning mustahkam bo'lishi kelgusida egallanishi kerak bo'lgan bilimlar uchun tayanchdir. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi bu vazifaga vijdonan yondashmog'i kerak. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi – bir olam. Uning o'ziga xosliklari mavjud. Ularning boshqa fan o'qituvchilaridan farqli tomoni ham shundaki, u har bir fan bo'yicha chuqur bilimga va keng dunyoqarashga ega bo'lishi kerak. u ma'naviy, menejerlik va mutaxassislik bilimlar bo'yicha katta layoqatga ega bo'lmo'g'i kerak.

Ma'naviy bilimlar bo'yicha demokratik jamiyat, ma'naviy qadriyat, davlat rivojlanishi, uning ustivor yo'nalishlari va undan ko'zlangan maqsadlarni, g'oyaviy – mafkuraviy, madaniy- manaviy

jarayonlarning globallashuv sjaroitida ta'lim – tarbiya tizimi oldidagi vazifalarni bilishi kerak.

Menejerlik jarayoni bo'yicha, sinfni va ota – onalar hamkorligini boshqara olishi, sinfda va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va boshqarish masalalari, o'qituvchiga xos bo'lgan kasbiy sifatlar va maxsus qobiliyatlarni maxsus o'zida rivojlantirish, ta'lim muassasasini ijtimoiy muhitini muvofiqlashtirish, sog'lom muhitni yaratishni bilishi kerak.

Mutaxassislik bilimlar bo'yicha boshlang'ich ta'limning davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlarini mukammal bilishi, zamonaviy o'qitish metodlarini, ta'lim islohotlari yo'lidagi yangiliklarni bilishi, boshlang'ich ta'lim fanlarining metodikasini chuqur anglamog'i kerak. Boshlang'ich ta'lim fanlarining mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarining uzviyligini va izchilligini ta'minlashni, zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalardan kasbiy faoliyatda foydalanishni, oz komplektli sinflarda bir paytning o'zida turli dasturlar bo'yicha dars berishning shakl va usullarini bilishi kerak.

M. Ochilov aytganidek, o'qituvchilik burchi aql bilan hissiyotning birligidan iborat. muallim o'z kasbiga nisbatan qo'yiladigan talablarning mohiyati va mazmunini bilsa, uning shaxs va jamiyat uchun o'zida qobiliyat borligini sezsa, pedagog uchun zarur fazilatlarini tarbiyalash yo'llarini belgilab olsa – shundagina unda kasbiy burch shakllana boshlaydi. Shundagina muallim belgilangan xatti harakatlarni o'z ixtiyori bilan amalga oshira boshlaydi. Demak unda burch hissi shakllangan deyish mumkin. O'qituvchining eng muhim burchlaridan biri o'z bilimlarini oshira borishdir”.

O'qituvchining pedagogik kompetentligi yo'nalishida qo'yilayotgan eng asosiy talablardan biri ona-yurtga muhabbat va sadoqat, vatan va vatanparvalik tuyg'ularini o'quvchilar qalbi va ongiga singdirish, o'quvchilarda mustaqil O'zbekiston ramzlarining mazmun va mohiyati, milliy an'analar, urf-odatlar, qadriyatlar va rasm rusumlar, mustaqillik, uning mazmun mohiyati, ahamiyati va zaruriyatiyo'nalishidagi tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish yo'nalishlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish bilan bog'liq funksiyalarni bajarish yo'nalishidagi tashkilotchilik, tadqiqotchilik va ijodkorlik qobiliyatlari hamda muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy sifatlarining shakllanganlik zaruriyailarini o'z ichiga oladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlar, davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlaridan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilariga yaratib berilayotgan shart-sharoitlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlariga moslashuvchan, o'zini-o'zi rivojlantiruvchi, keng dunyoqarashga, erkin va mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, o'tmish saboqlari va avlod-ajdodlarimizning bebaho boyligi hamda umumbashariy qadriyatlarga tayanadigan ma'naviy boy va iymon-e'tiqodli, Vatanga, ota onaga, aka-uka, opa-singil va yoru do'stlariga sodiq, muxtasar qilib aytganda, ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan, moslashuvchanlik va tezkorlikni ta'minlovchi takomillashgan ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish zaruriyatini belgilamoqda.

Ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish yo'nalishida qo'yilayotgan zamonaviy talablar o'qituvchilarda shakllantirish va rivojlantirishi zarur bo'lgan muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy sifatlarining quyidagi ko'rsatkichlarni nazarda tutadi:

- Vatanni sevish, ona yurtiga, ota-onasiga va yoru do'stlariga sadoqatli bo'lish va e'tiqod qilish;
- Mustaqil respublikamiz kostitutsiya va qonunlari, davlatimiz ramzlari, milliy urf-odatlar va umuminsoniy qidriyatlariga sodiqlik;
- Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va rivojlanishlar hamda ularning natijalariga qiziqish va e'tiborli bo'lish;
- Tinchlik, mustaqillik, erkinlik va bag'rikenglikning ahamiyati va zaruriyatini tushunib yetish;
- Tarixni bilish va vaziyatlarga ko'ra o'tmishni va bugungi kundagi taraqqiyotni obyektiv baholash;
- Mustaqillik davrida yashayotgan bugungi kunning qadriga yetish va faxrlanish, kelajakka ishonch bilan yashash va ijod qilish;
- Shaxslararo va tabiat bilan bo'lgan munosabatlarda faol va adolatli hamda muhabbatli bo'lish;
- O'zligini anglash, o'zini va boshqalarni hurmat qilish, o'zini o'zi boshqara olish va o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;
- Shaxsiy manfaatlarini umummilliy manfaatlar bilan uyg'un holda ko'ra olish;
- Xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish jarayonlarida faol ishtirok etish;
- Mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlarida faollik ko'rsatish;

- Milliy an'ana, urf odatlar va qadriyatlarimizni asrab avaylash, yosh avlod qalbi va ongiga, ona-yurtga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirishga intilish;
- Ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik kabi tamoyillarning mazmun-mohiyatini o'quvchi yoshlarga tushuntirishda prinsipiiallik;
- Tizimli fikrlash, keng dunyoqarash va refleksiv tafakkur ega bo'lish;
- Vatan va kelajak oldidagi burchni anglash;
- Tadqiqotchilik va tahliliy faoliyatga, ilg'or tajribalarni o'rganish, pedagogik mahoratni oshirish, mustaqil ta'lim olish va o'zini o'zi rivojlantirishga, innovatsion jarayonlarga va yangiliklarga moyillik;

Mazkur ko'rsatkichlarga asosan o'qituvchilarda shakllantirish va rivojlantirish zarur bo'lgan qobiliyatlar, shaxsiy sifatlar tushunchalar, bilim, ko'nikma va malakalarga ko'ra pedagogik kompetentlilikni baholash mezonlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ta'limga qarayotgan e'tibor barcha o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi hamda o'quv jarayonini zamon talablari darajasida, ilmiy asosda tashkil etishlari uchun zaruriy sharoitlarni yaratib borish bilan bir qatorda, ta'lim sohasiga yosh mutaxassislar kelib qo'shilishiga imkoniyat yaratmoqda, bu esa o'z navbatida o'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish yo'nalishlarida yanada yangi vazifalar qo'yadi.

O'qituvchining jamoaga ta'siri uning obro'si, bilimi dunyoqarashi, o'zi tanlagan kasbga qiziqishi va qobiliyati, o'z fanini puxta bilishi, o'quvchilar bilan munosabati, o'z ustida ishlashi, tashkilotchilik qobiliyati, peshqadamlik qilishi va tashabbuskorligi singari ko'rinishlarda bo'ladi.

Ta'lim muassasasida turli dunyoqarash va madaniyatga ega, fe'l-atvori, aqlu zakovati turlicha bo'lgan, ishga layoqati alohida namoyon bo'ladigan o'qituvchilar mehnat qiladi. Bu hol ularning mehnati va qunksional vazifasiga bo'lgan munosabatida ham ifodalanadi.

Ta'lim muassasasiga yangi kelgan yosh o'qituvchilar jamoadagi tajribali o'qituvchilarning faoliyati, ularning o'z funksional vazifasiga bo'lgan munosabatini va u yerdagi shart sharoitlarni to'la o'rganishgunga qadar turlicha tasavvurga ega bo'ladilar.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, ko'pgina yosh o'qituvchilar ancha vaqtgacha ta'lim muassasasidagi mavjud shart sharoitlarga psixologik jihatdan moslashishga qiynalmoqdalar, ayrim moslasha olmaganlari qobiliyatli bo'lishlariga qaramay pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishdan voz kechib, boshqa sohalarda faoliyat yuritmoqdalar.

Yosh o'qituvchilarning izlanishi, bilimi, o'z faniga bo'lgan qiziqishi tufayli pedagogik jamoa va o'quvchilar o'rtasida tez obro' topayotganidan xursand bo'lish hamda uni rag'batlantirish o'rniga uning yoshligini ro'kach qilib, turli xil arziyas sabablarni bahona qilib yig'ilishlarda uyaltirish, obro'sini tushirish uchun qilingan sa'y-harakatlar ta'lim muassasasidan bezib ketib qolishlariga sabab bo'ladi.

O'qituvchilik faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgandir. O'qituvchining barkamol insonni tarbiyalashi, unda milliy va umuminsoniy fazilatlarini tarkib toptirish vazifasi eng olijanob, yuksak va shu bilan birga eng murakkab vazifadir. Har bir bola o'z xulq-atvoriga, xarakteriga ega. Bolalarni tarbiyalashda ularning ana shu o'ziga xos xususiyatlarini xisobga olish, o'rganish bo'lajak o'qituvchidan pedagogik va psixologik bilimlarni puhta o'zlashtirishni talab qiladi. Bunda o'qituvchi odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning murakkabligiga mos keladigan maxsus usullardan foydalanadi. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlar uning ana shunday xususiyatlarini bilishlari lozim. O'qituvchining pedagogik xususiyatlari uning kasb odobnomasida ifodalanadi.



1-rasm. O'qituvchining pedagogik xususiyatlari

O'qituvchi shaxsining xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mafkuraviy sohada – ilmiy dunyoqarash va e'tiqod, ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatlarni chuqur tushunish, ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash, ijtimoiy faollik;
- kasbiy pedagogik sohada:

- bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik ishni sevish, psixologo-pedagogik tasavvur; tashkilotchilik qobiliyati, haqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik, qat'iylik va maqsadga intilish, vazminlik, o'zini tuta olish;

- bilish sohasida: - keng ilmiy saviya, ma'naviy ehtiyoj va qiziqish, yangilikni his qila bilish, pedagogik ma'lumotni oshirishga intilish.

O'qituvchining pedagogik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar :

bilim egallash sohasida: pedagogika fanlarining metodologik asoslarini, shaxsning rivojlanishi va shakllanish qonuniyatlarini bilish;

tarbiyaning mohiyati, maqsadi, vazifalari, shakl va metodlarini tushunish,

bolalar va o'smirlar psixologiyasi, ularning fiziologik rivojlanishlarining asosiy qonuniyatlarini bilish, o'quvchilar gigiyenik tarbiyasining nazariy, tabiiy-ilmiy asoslari va vositalarini bilish:

bolalar rivojlanishining psixik qonuniyatlarini, har xil yoshda shaxsning individual xususiyatlarini bilish.

Ko'nikma va malakalar hosil qilish sohasida:

pedagogik vaziyatni tahlil qilish;

pedagogik ta'sirlarni rejalashtirish va natijalarini mo'ljallay olish,

ijtimoiy-pedagogik hodisalarning amaldagi holatini, ularning paydo bo'lish va rivojlanish sababalarini, shart-sharoitlarini tahlil qila bilish va baholay olish;

o'quvchilarning tarbiyalanganlik va bilim darajasini aniqlash;

shaxs va jamoaning rivojlanishini belgilay olish;

ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarda uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va xatolarni kura bilish;

aniq pedagogik vazifalar va ularni hal qila olish;

o'quvchilarning sinfdagi va sinfdan tashqari faoliyatiga rahbarlik qilish sohasidagi ishlarni rejalashtirish;

o'quv- tarbiyaviy ishlarning nazariy asoslangan tashkiliy shakllari, metodlari va vositalarini tanlay olish;

rejalashtirilgan pedagogik ta'sirlarga o'quvchilarning javob harakatlarini oldindan chamalay bilish ko'nikmalari.

O'quv- tarbiya jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish sohasida:

o'quvchilarning tarbiyalanganlik va bilim darajasini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya maqsadiga muvofiq o'quv materialani tanlash, uni analiz va sintez qila olish ko'nikmasi;

ilmiy materiallarni qayta ishlab, o'quv materialaiga aylantira olish ko'nikmasi;

ma'lum didaktik vazifaga muvofiq o'quvchilar tajribasini hisobga olgan holda murakkab matnlarni va o'quv materialini o'zlashtira olish ko'nikmasi;

darsni ijodiy va asosli tashkil eta olish ko'nikmasi.

Bolalar faoliyati turlarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va harakatga keltirish sohasida:

Tarbiyaviy maqsadga muvofiq ayrim o'quvchilar va jamoa uchun vazifalar belgilash, quyilgan maqsad asosida ularning tushunchasini o'zgartira olish ko'nikmasi;

bolalarga ta'sir o'tkazish va ular faoliyatiga pedagogik rahbarlik qilishni rejalashtirish ko'nikmasi; ta'lim va tarbiya uslublarini pedagogik maqsadga muvofiq qullash ko'nikmasi;

o'quvchilar xulqi va faolligini boshqarish ko'nikmasi;

bolaning tashqi ko'rinishi va qiliqlaridan uning ruhiy holatidagi o'zgarishlarni aniqlash, ma'lum vaziyatda bolalar xulqining xususiyatlarini anglash va izohlash ko'nikmasi;

o'zini xayolan tarbiyalanuvchi o'rni qo'ya olish ko'nikmasi;


o'quvchilarni shaxs uchun va ijtimoiy qimmatli istiqbollarga qiziqtirish va jalb qilish ko'nikmasi;

umumiy vazifalarni bajarish uchun o'quvchilarni guruhlariga bo'lib, ularning o'zaro munosabatini hisobga olish ko'nikmasi va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan talablar hamda tadqiqotimiz jarayonidagi kuzatuvlarimiz natijasida biz tasviriylar san'at fani o'qituvchisining kasbiy mahoratidan kelib chiqib uning formulasini quyidagicha tasvirladik .

Tasviriylar san'at fani o'qituvchisining kasbiy mahorat formulasi

Bilim + Malaka + Fazilat + Natija = **kasbiy mahorat**



2-rasm. Tasviriy san'at fani o'qituvchisini kasbiy mahorat formulasi

Bo'lajak o'qituvchi quyidagi fazilatlarga ega bo'lishi kerak: insoniy g'oyaviylik, insoniy e'tiqodlilik, Vatanga sodiqlik, mehnatsevarlik, ijtimoiy burchni chuqur anglash, inson manfaati singari ulug'vor maqsad yo'lida mumtoz niyatlar, temir iroda bilan kurasha bilish, haqqoniylik, tamoyillilik, mehnatkash xalq bilan hamdam va hamkorlik, xalq manfaatini hamma narsadan ustun qo'yish, hayotda faol pozitsiyada turish, yangiliklarni sezish va ularni hayotga joriy etishda tashabbuskorlik ko'rsatish, axloqiy poklik va mehribonlik, oqilona talabchanlik, yuksak madaniy xulq, nafosat, til va dil birligi, fan asoslarini, jamiyat, tabiat va inson tafakkuri qonuniyatlarini chuqur bilish va amalda qo'llay olish, har sohada yosh avlodga o'rnak ko'rsata bilish.

Bugungi kunda zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri zamonava bilan hamnafas o'sib kelayotgan o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish sifatini yanada oshirish yo'llari va vositalarini ishlab chiqish hisoblanadi. Bu masalaga hukumatimiz tomonidan alohida e'tibor berilib, ta'lim tizimida tub

islohotlar amalga oshirilyapti. Ushbu jarayonlar pedagogik ta'lim tizimida yuqori bilimli kadrlar tayyorlash imkoniyatlarining kengayishiga, jamiyatni rivojlantirish negizida jahon ta'lim muhitiga mos va xos tarzda uzluksiz pedagogik ta'lim tizimini yaratishga olib keladi.


Xalqaro talablarga javob beruvchi, salohiyatli kadrlar tayyorlash, innovatsion texnologiyalar orqali ta'lim sifatini oshirish g'oyasi kun tartibiga asosiy masala sifatida ta'kidlash o'rinlidir. Ushbu mazmunga yosh avlodning nafaqat bilimi balki umuminsoniy madaniyatni, ijodiy potentsialini rivojlantirish, tasviriy san'at orqali milliy anana va qadriyatlarga, jamiyatga nisbatan munosabatlarni ham kiritish mumkin. Chunonchi, ta'limni rivojlantirishning zamonaviy bosqichida yuksak xulqatvorli va ma'naviyatli insonni tarbiyalash muhimdir. Shundan kelib chiqadiki, yosh avlodning ijodiy rivojlanishida tasviriy san'at o'qituvchilariga katta ma'suliyat yuklaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi Qarorida "San'atning barcha turlari vositasida ma'naviy-ahloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish" vazifasi belgilandi. Shu jihatdan pedagogik ta'lim jarayonida tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash nazariyasi muammolarini tadqiq etish, uning mezonlarini belgilash hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida takomillashtirish dolzarb bo'lib turibdi.

Mamlakatimiz o'zining boy badiiy merosi bilan jahon san'ati va madaniyati rivojiga katta hissa qo'shgan qadimiy sivilizatsiya o'chog'i sifatida milliy badiiy an'analarning o'ziga xosligini saqlab kelayotgani dunyoning yetakchi san'at mutaxassislari tomonidan e'tirof etilgan. Bugungi kunda zamonaviy o'zbek tasviriy san'atiga ko'plab yosh iste'dod egalari kirib kelayotgani, turli yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatayotgan ijodkorlar, xususan, rassom va haykaltaroshlar, xalq ustalari ijodida yangicha mazmun va shakl, jahon san'at maydonida munosib o'rin egallashga intilish tendensiyalari ko'zga tashlanayotganini ijobiy baholash lozim. Shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, hozirgi vaqtda tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar talab darajasida emasligi, sohaga doir normativ-huquqiy hamda moddiy-texnik bazaning mukammal emasligi, malakali kadrlar yetishmasligi bu boradagi ishlarning samarasiga salbiy ta'sir etmoqda. O'zbek tasviriy va amaliy san'ati hamda dizayn yo'nalishlarini yanada rivojlantirish, xalqimizning ushbu nafis san'atlarga bo'lgan estetik ehtiyojini qondirish, keng yo'nalishda faoliyat olib borayotgan mutaxassislarning ijodiy imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ularga shart-sharoit yaratish, badiiy salohiyatini oshirish, zamon talablariga mos badiiy ta'lim tizimini keng yo'lga qo'yish hamda O'zbekiston Badiiy akademiyasining faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish²⁰ bugungi kundagi eng muhim vazifalardan biri ekanligini har bir tasviriy san'at fani o'qituvchisi to'g'ri anglashi zarur.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha olib borilgan tajriba sinov natijalari tasviriy san'at fani o'qituvchisining o'z sohasida malakali pedagog bo'lishi bilan birga o'quvchilarga vizual ko'nikmalarga ega bo'lish, o'rganiladigan asarni ijodiy tahlil qilish va real baholashni o'rganishga yordam beradi. Demak, tadqiqotimiz asosida ushbu fan o'qituvchisi zimmasiga quyidagi mas'uliyatlar yuklatiladi.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 16.08.2017-yildagi "O'zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-3219-son



3-rasm. Tasviriy san'at fani o'qituvchisining ma'suliyatlari

Tasviriy san'at fani o'qituvchilari o'quvchilarning ijodiylikini va vizual qiyoslarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydilar. Ular talabalarga o'z fikrlarini vizual shaklda ifoda etish, san'at asarlarini tahlil qilish va talqin qilish qobiliyatini berushga yordam beradilar. Tasviriy san'at fani o'qituvchi o'zing ijodkorlik va motivatorlik, moslashuvchanlik, tashkilotchilik, tanqidiy mushohada yurituvchanlik, kollektivlik, kommunikativlik, yangilikka intiluvchanlik, yangi g'oyalar yaratuvchanligi, refleksivlik, liderlik kabi shaxsiy sifatlariga egaliklari orqali bir qator malakalarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishlari kerakligini tadqiqotimiz davomida o'rganib chiqdik.



4-rasm. Tasviriy san'at fani o'qituvchiga qo'yilgan malaka talablari

Tadqiqotlarimizning sifatli o'tkazilishi tasviriy san'at fani o'qituvchilarining mahoratiga bog'liq bo'lganligi jarayonda o'z aksini ko'rsatdi. Demak, dars jarayonida o'quvchilarga mavzuning mohiyatini anglash uchun yordam berish, har bir asarning g'oyaviy va badiiy tomonlarini tushuntirish, san'at asarlarini chizishni o'rgatish tasviriy san'at o'qituvchisidan yuksak darajadagi pedagogik slohiyat hamda ilmiy-metodik tayyorgarlikni talab qiladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarda san'at asarlariga nisbatan badiiy va go'zallikka bo'lgan munosabatni rivojlantirish, milliy va jahon san'at durdonalari va ularni yaratgan ijodkorlar bilan tanishtirish, nodir asarlarni badiiy tahlil etishga o'rgatishga xizmat qiladi. Bugungi kunda tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:

- kasbiy ta'lim pedagogikasi va tashxis texnologiyasi;
- O'qitishning didaktik vositalari;
- Ta'limning elektron vositalari.


Shunga ko'ra, tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligiga muvofiq quyidagi kasbga oid

faoliyat turlari farqlanadi:

Tajriba-sinov hamda so'rovnomalarga oid xulosalar natijasida tasviriy san'at fani o'qituvchisi fan dasturini o'zlashtirish natijasida kasbiy tayyorgarlikning asosiy turlari va maxsus tayyorgarligiga mos quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishi kerakligini asosladik .

Tasviriy san'at fani o'qituvchisiga qo'yilgan kompetentlik talablari

Tasviriy san'at fani o'qituvchilari talabalarning ijodiyligini va vizual qiyoslarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydilar. Ular talabalarga o'z fikrlarini vizual shaklda ifoda etish, san'at asarlarini tahlil qilish va talqin qilish qobiliyatini berushga yordam beradilar. Zamonaviy ta'limda tasviriy san'at fani o'qituvchilariga qo'yiladigan muhim talablarni ham belgilab oldik.



5-rasm. Umumiy o'rta ta'limda tasviriy san'at fani o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar

Tasviriy san'at fani bo'yicha o'quvchilarga qo'yiladigan talablar :

Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi. Borliqdagi va san'atdagi go'zalliklarni idrok etadi; mustaqil ishlashga ijodiy yondashib, kreativ fikrlaydi; yakka va jamoa bilan hamkorlikda ijodiy faoliyat yuritadi; ijodiy faoliyatini to'g'ri rejalashtirib, erishilgan natijasini tanqidiy baholaydi va o'z mehnatidan zavqlana oladi; konstruktiv fikrlaydi, g'oyalarini amaliyotga tadbqiq etadi; loyihalash va tadqiqotchilik ko'nikmalarini egallaydi.

O'z-ozini rivojlantirish va asrash kompetensiyasi. Kun tartibi, shaxsiy va jamoat gigiena qoidalariga rioya qiladi; kundalik hayotida o'z-o'zining xavfsizligini ta'minlaydi; mantiqiy fikrlashni rivojlantiradigan o'yinlar orqali intellektini rivojlantiradi; turli asbob-uskunalaridan foydalanishda xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablariga rioya qiladi.

Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi. Turli chizma, sxemalarni o'qiydi, tuzadi va kundalik hayotida qo'llaydi; amaliy ishlarni mantiqiy ketma-ketlikda to'g'ri bajaradi; muammoni yechimini topishda mavjud resurslardan samarali foydalanadi; faloyatini texnik va texnologik taraqqiyot o'zgarishlariga moslashtiradi; - amaliy ko'nikmalarini o'zi va jamiyatni barqaror rivojlantirishga safarbar qilish ko'nikmalarini tarkib toptirishni nazarda tutadi.

Tasviriy san'at fanining dasturiy-metodik ta'minotini ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar. Ushbu fanlardagi amaliy ahamiyatga ega mavzular o'quvchilarda bilim, amaliy ko'nikmalar va ijtimoiy - emotsional fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan holda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos tarzda rivojlantirib boriladi. An'anaviy yondashuvdan farqli ravishda o'quvchilarda zaruriy bilimlarni shakllantirish bilan birga, tayanch va fanlarga oid kompetensiyalar va shaxsiy fazilatlarni tarkib toptirishga erishish lozim. Tasviriy san'at fanining mashg'ulotlarni o'tkazish jarayonida o'qitishning ilg'or metodikalari, maktab, oila, ijtimoiy institutlar va madaniy muassasalarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatiga asoslangan holda tashkil etilishi lozim.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch

kompetensiyalarni shakllantirilishi belgilab berilgan. Jumladan, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda davlat tili, horijiy tillarni o'zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, amaliy mashg'ulotlarni o'zaro bajarishda, ijodiy loyiha ishlarini bajarish malakalarini shakllantirishda, yozma va og'zaki ravon bayon etish malakalarini shakllantirish, amaliy fanlarga oid atamalarni to'g'ri talafuz qilish, izohlab berish hamda erkin muloqot qilishga o'rgatish zarur.

ADABIYOTLAR:

1. 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekiston Respublikasini taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli farmoni.
2. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari.: Ped. fan. dok. ... diss. – T.: 2003. – 280 b.
3. Nazarov B. «Tasviriy san'at darslarini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlar». – Toshkent: Ta'lim, 2021.
4. Abdullayeva Z. «Bolalarda badiiy estetik ta'lim-tarbiyani shakllantirish». – Toshkent: San'at, 2020.
5. Karimov A. «Pedagogik mahorat va o'qituvchi shaxsiyati». – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2019.
6. Hamidov B. «Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi». – Toshkent: O'qituvchi, 2022.
7. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. – Toshkent: Adliya nashriyoti, 2021.
8. Shalifova G., Tursunova M. "Innovative Approaches in Teaching Fine Arts". – Journal of Pedagogical Research, Vol. 5, No. 2, 2023.

MUSIQA TINGLASHNI TASHKIL ETISH YO'LLARI VA FAOLIYAT TURLARI
Qo'shayev Ilhom Axtamovich, Buxoro davlat pedagogika instituti musiqa va tasviriy san'at kafedrası
o'qituvchisi

kushaev.1968@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada O'zbek xalq musiqasining mahalliy uslublari va ularni boshlang'ich sinflarda tinglash uchun tavsiyalash va ularni uslub so'zi yordamida avvalo birmuncha keng tarqalgan, aniqrog'i – yig'ma ma'noda jahon xalqlari musiqa san'atiga xos umumilliy yoki muayyan mintaqaviy xususiyatlar tabiati hamda doston, maqom, katta ashula, va ularning har bir qirrasini bir butunicha asrlar davomida insonlar ma'naviy ehtiyojlarini qondirib kelgan qadimiy sharqona san'at ekanligi haqidagi masalalar hamda ularni boshlang'ich sinflarda tinglash uchun tavsiyalar keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: maqom san'ati, doston san'ati, baxshi, shoir baxshi, xalfalar san'ati, jirov, doston noma (qo'shiq)lari, do'mbira, dutar, qo'biz, tor va boshqa jo'rnavor cholg'u asboblari, ochiq ovozda doston kuylash (xorazm an'analari), yopiq (bo'g'iz) ovozda kuylash (Qashqadaryo va Surxodaryo (an'analari), doston festivali, doston maktablari, doston san'ati pedagogikasi, dostonchilikda ustoz-shogird ta'limi an'analari, doston san'ati targ'iboti.

СПОСОБЫ И ВИДЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПО ОРГАНИЗАЦИИ ПРОСЛУШИВАНИЯ МУЗЫКИ

Кушаев Илхом Ахтамович, Бухарский государственный педагогический институт, преподаватель кафедры музыки и изобразительного искусства

kushaev.1968@gmail.com

Аннотация: В статье рассматриваются локальные стили узбекской народной музыки и рекомендации по их прослушиванию в начальных классах, и в первую очередь, используя слово стиль, характер национальных или специфических региональных особенностей, присущих музыкальному искусству народов мира, а также вопросы достана, макома, кацута ашула и каждого из их аспектов в целом, являющихся древним восточным искусством, на протяжении веков удовлетворяющим духовные потребности людей, и рекомендации по их прослушиванию в начальных классах.

Ключевые слова: искусство макома, искусство достана, бахши, поэт бахши, искусство халфаса, жиров, достан нома (песни), домбира, дутар, кобыз, тор и другие инструменты, музыкальные инструменты 'рнавоз, открытое пение достана (Хорезмские традиции), закрытые (Кашкадарьинская и Сурходарьинская (традиции), праздники дастана, школы дастана, педагогика искусства дастана, традиции обучения наставников и учеников эпическому творчеству, пропаганда искусства эпоса.

WAYS AND TYPES OF ACTIVITIES FOR ORGANIZING LISTENING TO MUSIC.

Kushayev Ilhom Akhtamovich, Teacher of the Department of Music and Fine Arts of the Bukhara State Pedagogical Institute

kushaev.1968@gmail.com

Annotation: The article discusses the local styles of Uzbek folk music and their recommendations for listening in primary grades, and first of all, using the word style, the nature of the national or specific regional features inherent in the musical art of the peoples of the world, as well as the issues of the dostan, maqom, katsuta ashula, and each of their aspects as a whole being an ancient oriental art that has satisfied the spiritual needs of people for centuries, and recommendations for listening to them in primary grades.

Keywords: art of maqom, art of dostan, bakhshi, poet bakhshi, art of khalfalar, jirov, dostan noma (songs), dombira, dutar, qobiz, tor and other stringed instruments, open-voice dostan singing (Khorezm traditions), closed-voice (Kashkadarya and Surkhodaryya (traditions), dostan festival, dostan schools, pedagogy of dostan art, traditions of teacher-student education in dostan writing, promotion of dostan art.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng madaniyat va san'at sohasida ulkan islohotlar amalga oshirilib, xalqimizning boy ma'naviy merosini tiklashga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi "Madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3404-son qarori xalq musiqasini rivojlantirish hamda milliy qadriyatlarni targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur qarorda milliy san'at va musiqiy merosni keng targ'ib qilish, yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash zarurligi qayd etilgan. Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy sohalarida tub ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Jamiyatimizda ro'y berayotgan ma'naviy tiklanish, yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash, milliy ma'naviy, madaniy merosimiz dardonalari bilan tanitirish jarayonlari yuksak darajadagi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni rag'batlantirish asosida qurilmoqda.

Musiqqa janrlari va ularning shakliy tuzilmalarini bilish uchun musiqaning ifodaviy vositalarini o'rganish zarur, bu asosan musiqqa asarini tinglash yoki ijro etish jarayonida undagi obrazlarni anglash tasavvur qilish va his etish orqali amalga oshiriladi. Har uchchala faoliyat turi ham musiqqa asarini tinglash va jamoa bo'lib kuylashga doir o'quv materiallarining pedagogik vazifalaridan kelib chiqishi lozim. Chunki, jamoa bo'lib qo'shiq aytish o'z xususiyatiga ko'ra aynan musiqqa tinglash jarayonida olingan taassurot va ko'nikma o'z navbatida amaliy faoliyat natijasida mustahkamlanadi. Shu sababli ham o'qituvchi o'quvchilardan qo'shiq aytish jarayonida musiqiy o'quv qobiliyatini faol rivojlantirib, borishi va ularning idrok malakalarini o'stirishga alohida e'tibor berishi talab etiladi. O'qituvchi birinchi sinfdan boshlab o'quvchilarni xor san'atiga doimiy qiziqtirib, uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatib borishi kerak. Jumladan "diqqat", "a'ftak", "ijroni boshlash", "ijroni tugatish" kabi zarur dirijyorlik qoidalariga e'tibor berishni talab qilishi kerak. Xorga qo'shiq aytish jarayoni bilan bog'liq holatlar, ya'ni qo'llarini tizzalariga erkin qo'yib, stul suyanchig'iga suyanmasdan bosh va g'aydani to'g'ri tutib o'tirishga ham amal qilib kuylashni o'quvchilarga doimo o'rgatish, o'qituvchining e'tiboridan chetga qolmasligi lozim.

Ikkinchi sinfda esa o'quvchilarning o'qituvchi ovozigacha jo'r ovoz bo'lib kuylash uslubi davom etadi. Ularni osoyishta va engil nafas olib, yumshoq jozibali va yoqimli ovoz malakalarini egallashda o'qituvchidan katta mahorat talab qilinadi. O'quvchilarning fiziologik yaxshi munosabati bilan ularning ovoz kuchi, diapazoni, tembri ham o'zgarib boradi va o'z navbatida vokal, xor mashqlarini ma'lum tizim asosida olib borishni taqozo etadi. Mashqlar ijrosi davomida o'quvchilar ovozini avaylab tarbiyalash bilan bir qatorda badiiy kuzatuvchanlikka alohida e'tibor berib, ijro jarayonida ikki ovozli tovushlarni sezib ajrata olish kabi malakalarni hosil qilish asosiy vazifalardan biri bo'lishi kerak. Ma'lumki tovush hosil qilish kuylashning asosiy vosita sidir. U maxsus mashqlar (a, u, yu, da, de, di, do, du kabi) va qo'shiqlar o'rganishda so'zlarni aniq ravon talaffuz etish yo'li bilan shakllanib boradi. Chunki talaffuz ashula aytishda katta ahamiyatga egadir. Bunda unli tovushlar cho'zib undoshlari qisqa, tez, aniq va ravon aytilishi kerak. Nutq talaffuzida vokal talaffuzining farqiga doimo e'tibor berish kerak. O'rganiladigan mashq va qo'shiqlarni tanishtirish jarayonida qo'shiqlarni tanishtirish, so'zlarni shoshilmay, dona-dona qilib urg'ulari bilan talaffuz qilish asosiy usullardan biridir. Bu esa vokal –xor mashq va qo'shiqlarini osonlik bilan o'rganib badiiy va ifodali ijro etishga zamin tayyorlaydi. Musiqiy faoliyat turlarining asosiylaridan biri xor va ansambli malakalari muhim rol o'ynaydi. Xorda ovozlarning intonatsion uyg'unligi, jo'rliqi, birligi, melodik (gorizontal) va garmonik (vertikal) bo'ladi.

Tadqiqot obyekti. Mazkur maqolaning tadqiqot obyekti sifatida musiqqa madaniyati darslarida xorda ijro etiladigan musiqaning o'rni va uning yosh avlodni tarbiyalashdagi ta'sirini o'rganish belgilangan. Xususan, xalq musiqasining ta'lim jarayonidagi pedagogik ahamiyati, uning milliy o'zlikni shakllantirishga qo'shgan hissa tadqiqot mavzusining asosiy yo'nalishlaridan biridir.

Mazkur tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanilgan:

Tahlil metodi – xor bo'lib ijro etiladigan maktab repertuari qo'shiqlarining pedagogik va ijtimoiy ahamiyatini o'rganish maqsadida ilmiy manbalar, qonun hujjatlari va qarorlar tahlil qilindi.

Taqoslash metodi – xor bo'lib ijro etiladigan maktab repertuari qo'shiqlarining turli ta'lim tizimlaridagi o'rni solishtirilib, ularning samaradorlik darajasi aniqlandi.

Tajriba-sinov metodi – musiqqa madaniyati darslarida xor bo'lib ijro etiladigan maktab repertuari qo'shiqlarini qo'llash natijalari amaliyotda sinovdan o'tkazildi.

Statistik metod – tadqiqot natijalarini umumlashtirishda va xulosalar chiqarishda statistik ma'lumotlar tahlil qilindi.

Ikkinchi sinfda qo'shiqlar, asosiy unisonda kuylanishi sababli melodik soz asoslari shakllanadi. O'quvchilar ovozini har bir qo'shiqning tonallik soziga tushurish bo'yicha berilgan ton jarangini ularga oldindan tasavvur etib, tiniq sozga erishmoq lozim. Ovozni sozga tushirishda o'qituvchining ton berish mahorati muhim rol o'ynaydi. Binobarin, cholg'u asboblari kamer tongan aniq sozlangan bo'lishi shart. Bunday omil o'quvchilar ovzini asrab tarbiyalash uchun muhimdir. O'quvchilarga ton berish, asosan o'qituvchining fortepiano jo'rliqidagi ovozi yoki ba'zi hollarda esa jo'rsiz ovozda ton berish orqali amalga oshiriladi. Xorda ovozlarning ritmik dinamik sur'at tembr (tovush, tusi) kabi musiqiy vositalarning intonatsiya uyg'unligi bu ansambl hisoblanadi. Soz malakasi esa ansambl ijrosini yaxshilashga asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Shu boisdan qo'shiqning badiiy ijro etilishi jarayonida ovozda soz tiniqligi va ansamblning uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, ritmansambli musiqqa asarining metrik hissalarini sezib kuylashga yordam beradi. O'qituvchining xorga qilgan dirijyorlik, ovozlardagi jo'rovozlik chapak va cholg'u asboblari cholib kuyga ritmik jo'r bo'lish marsh musiqasini tinglab qadam tashlab

raqm harakatlarini asosiy ritm ansambl hosil qilishda asosiy rol o'ynaydi. Xor ijrochilarini musiqa asarini ma'lum bir sur'atda kuylashga erishishadi. Sur'atda ansamblning o'rni beqiyos hisoblanadi.

Chnuki, sur'at musiqasining xarakterini o'rganishga ya'ni aniqlashga yordam beradi. Shuning uchun o'quvchilarga musiqaning muhim ifoda vositalaridan biri ham sur'at ekanligi haqida tushuncha berib, ijroda undan to'ri foydalanishga e'tibor berishni uqtirilib borilishi kerak. Ma'lumki, ikki ovozda kuylash xor san'atining asosiy xususiyatlaridan birdir. Bu o'quvchilar uchun bir oz qiyinchilik tug'diradi. Buning uchun qo'shiqning ritmik tuzilishini chapakda yoki og'zaki tarzda ijro etish mumkin. Bunda o'quvchilar avval qo'shiqning ritmik taktning metrik hissalarini chapakda chalib kuylaydilar. So'ng chapak doirachalari uchburchakli o'rama shaqildoqlarda chalib qo'shiq va cholg'u kuylariga jo'r bo'ladilar. Jumladan, o'qituvchi qo'shiqning kuyini chaladi. O'quvchilar esa unga bum-bak, bum-bak shaklidagi ritmik usul bilan og'zaki jo'r bo'ladilar.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Tadqiqot natijasida musiqa madaniyati darslarida – xor bo'lib ijro etiladigan maktab repertuari qo'shiqlarini kuylash hamda tinglash quyidagi ijobiy samara bergani aniqlandi:

Yoshlarning milliy o'zlikni anglash darajasi oshdi. Tadqiqot davomida o'tkazilgan so'rovlar shuni ko'rsatdiki, – xor bo'lib ijro etiladigan maktab repertuari qo'shiqlarini kuylash hamda ularni tinglashlari o'quvchilar milliy qadriyatlariga ko'proq hurmat bilan qaraydi va ularni targ'ib qilishga intiladi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, jamoa bo'lib bo'lib kuylash orqali tarbiyaviy jarayonlarning samaradorligi 25% ga oshgan.

Musiqiy bilim va ijrochilik ko'nikmalari shakllandi. Xor bo'lib kuylash, tinglash hamda amaliyotda o'rgangan o'quvchilar musiqa asboblarini chalish va qo'shiq aytishda sezilarli darajada yuqori natijalarga erishdi. Sinov darslari davomida xalq musiqasi elementlarini qo'llagan guruhdagi o'quvchilar 80% holatda yuqori ijrochilik mahoratini namoyish etgan.

Jamoaviy ishlash ko'nikmalari rivojlandi. Jamoa bo'lib kuylash hamda musiqa tinglash elementlarini darslarda qo'llash o'quvchilar orasida jamoaviy hamkorlikni rivojlantirgan. Ayniqsa, ansambl ijrochiligi orqali o'quvchilar bir-birlariga hurmat va ishonch bilan munosabatda bo'lishni o'rganishgan.

Estetik va badiiy did shakllandi. Xalq musiqasi orqali o'quvchilarda musiqiy asarlarni tahlil qilish va ularning estetik qiymatini anglash ko'nikmalari shakllangan.

Ma'lumki musiqa hayot va davr aksidir. Shuning uchun ham yangi dasturning bosh mezoni va bosh mavzui “musiqa va hayot”dir. Ammo musiqada hayotning badiiy aksini ko'ra bilish, undan g'oyaviy-estetik zavqlana bilish va ma'naviy boyib borish uchun “badiiy ta'lim” olmoq lozim.

Yuqorida bayon etganimizdek, teatr va boshqa jamoatchilik joylarida musiqa bilan doimo oshno bo'ladilar. Zero, bolalarning hafta davomida tinglaydigan musiqa qo'lam haftada bir soatlik darsdan bir necha baravar ko'p ekanligi o'z-o'zidan ma'lum. Ammo, ular tinglaydigan musiqa asarlarining hammasi ham bolalar yoshiga mos emasligi va ular musiqani badiiy-g'oyaviy, jihatdan hammavaqt ham maqsadga muvofiq idrok etolmasligini hisobga olishimiz lozim. Shuning uchun ham musiqa darslari bolalarning hayotiy musiqaviy faoliyatida boshqaruvchi va pedagogik maqsadga muvofiq yo'naltiruvchi, ayniqsa, badiiy ta'lim beruvchi vosita sifatida muhim rol o'ynaydi.

Musiqa tinglash badiiy ta'limning muhim vositalaridan biridir. U darsning barcha faoliyat turlarini bajarish jarayonida amalga oshadi. Demak, musiqa tinglash orqali bolalarda musiqani, uning obrazlari vositasida hayotni, borliqni anglash va bilish qobiliyati rivojlanib boradi. Bunda musiqa tili, ifoda vositalari, janr va shakllarini o'rganish muhimdirki, u musiqani badiiy-g'oyaviy jihatdan mantiqan to'g'ri idrok etishga va badiiy-estetik zavqlanishga imkon beradi. Bu darsning barcha musiqa faoliyatlari, ayniqsa, musiqa tinglash, xorda kuylash va nota yordamida kuylash jarayonida amalga oshib boradi.

Musiqa tinglash faoliyatidan xorda qo'shiq o'rganish va kuylash jarayonida ham keng foydalaniladi. Ayniqsa tajribali bolalar xor jamoalari ijro etgan magnit lentalarini eshittirish sinfdagi qo'shiq aytishning badiiy saviyasini ko'tarishga yordam beradi. Musiqaning barcha janrlarini ko'proq tinglab badiiy idrok etish orqali kishida musiqaviy-badiiy did va musiqa madaniyatini har tomonlama shakllantirish mumkin. Bunda, bolalarda onglikni rivojlantirish va u orqali musiqaning badiiy g'oyasini chuqur anglashga erishish zarur. Zero, dasturda kuylash va tinglash uchun tavsiya etilgan qo'shiq va musiqalar zamirida baxtli bolalik, insonparvarlik tarannum etiladi. Ularda jonajon maktabimizga, bepoyon Vatanimizga va qahramon xalqimizga muhabbat va sadoqat, mehnat va kasbga qiziqish, tabiatni sevishtirish va uni ardoqlab asrash, do'stlik, birodarlik, insonparvarlik, milliy hissiyot kabi yorqin g'oyalar va obrazli mazmunlar yotadi.

Qo'shiq aytishda bo'lganidek, bolalarni musiqa tinglash qoidalari (sinfda jimlik barqaror etish, boshqalarga xalaqit bermasdan musiqani diqqat-e'tibor bilan tinglash)ga ham o'rgatib borishi lozim. Bu ularga onglik va faollikni kuchaytiradi. Va musiqa madaniyatini tarkib toptirishda muhim rol o'ynaydi.

Har bir musiqa zamirida ma'lum voqealik, his-tuyg'u va fikrlar yotishi haqida o'quvchilarga, ularning hayotiy tajribalariga tayangan holda tushuncha berib borish lozim. Bu asta-sekin musiqviy taassurotlar va ma'lum tajribalar zamirida vujudga keladi. "Musiqani o'rganish jarayonida, - deb yozadi D.B.Kabalevskiy, - bolalar birinchi darsdanoq unda hayot aks ettirilganligi, u orqali hayotni o'rganishlarini osonlikcha his etadilar tushunadilar".

Qo'llanmadagi chorak temalarining asosiy maqsadi ham musiqani san'at darsi sifatida talqin etib, u orqali musiqa asarlarini badiiy-g'oyaviy jihatdan mukammal idrok etish va undagi hayot aksini anglab olishdan iboratdir.

Atoqli olim, professor N.Vetlugina 7 yoshli bolalarda musiqa idrokining rivojlanish shart-sharoitlarini quyidagicha belgilaydi.

Birinchi, bolalarni musiqa ifoda etiladigan his-tuyg'ular, fikr-g'oyalarni idrok etishga o'rgatish lozim. Bu esa ularda samimiylilik va go'zallikka nisbatan emotsional ta'sirchanlikni rivojlantiradi.

Ikkinchi, san'atni-hayotni real aks ettirish shakli sifatida tushunishga o'rgatish, musiqa obrazlarini hayt bilan taqqoslash va bog'lashga imkon beradi. Bu san'atni badiiy obraz orqali fahmlash va baholash uchun yordam beradi.

Uchinchi shart musiqa tilini o'rganishdan iboratdir. Musiqaning ifoda vositalari-kuy, ritm, dinamika, temp (ijro sur'ati) va nyanslar vositasida musiqaning jonli tilini bolalar asta-sekin tushunib boradilar va asarda tasvirlangan hayajonli yoki osoyishta bayonni, musiqaning o'xshash yoki kontrastli tuzilishini, undagi mavjud savol-javoblarni anglab idrok etadilar.

To'rtinchidan bolalarning musiqa idroki ko'nikmasi bir necha bosqich davomida tarkib topadi. Eng avvalo, musiqa asarini butunlikda idrok etish ko'nikmasi hosil bo'ladi. Asarni qayta-qayta tinglash jarayonida esa uning xarakterli alomatlari va ifodali hususiyatlari bolalar diqqatini jalb etadi. Shundan so'ng hosil bo'lgan musiqaviy tajribalar asosida asarni yana butunlikda tinglaganda u badiiy-g'oyaviy jihatdan ancha mukammal idrok etiladi.

Darsda tinglanadigan asar musiqaviy tuzulishi, badiiy-g'oyaviy mazmun jihatdan chorak temasidan kelib chiqish va asarning yangrash vaqti bir, bir yarim daqiqadan oshmasligi lozim. Tinglashda asarni quyidagi etaplarda o'rganish mumkin:

Asar tinglashga bolalar diqqatini jamlash va asar haqida o'qituvchining kirish so'zi.

O'qituvchi ijrosida yoki audio yozuvda asarni tinglash.

Asarni suhbat yo'li bilan musiqaviy va badiiy-g'oyaviy jihatdan oddiy tahlil qilish.

Asarni bir butunlikda qayta tinglash. So'ng asar haqida bolalarning umumiy taassurotlari yuzasidan yakuniy suhbat o'tkazish.

Mazkur ishlar jarayonida bolalarda musiqa haqida bilim va tushunchalar, malaka va ko'nikmalar hamda umumlashma badiiy taassurotlar va tajribalar hosil bo'lib boradi. Bunda dars jarayonida bajariladigan barcha musiqa faoliyatlari, ayniqsa, musiqa tinglash sabog'i natijalari chorak mavzuini yoritib borishga qaratilishi zarur. Jumladan, o'rganiladigan qo'shiq va kuylarga nisbatan bolalarda qiziqish va badiiy ishtiyoq uyg'otish bilan "biz yoqtirgan kuy va qo'shiqlar" (1 chorak) mavzui; kompozitor, ijrochi va tinglovchi haqida tushuncha berish bilan esa "musiqani kim yaratadi, kim ijro etadi va kimlar tinglaydi?"- mavzularining mohiyati tushuntirib boriladi. Shu bilan birga musiqaning tuzilishiga doir olinadigan bilimlar ham musiqa savodiga mavzularni o'zlashtirishga muhim hissa bo'lib qo'shiladi.

Tinglanadigan asarlardan parchalar kuylash (mashq-qo'shiqlar), chapak va o'yinchoq cholg'u asboblarda chalib, ularga ritmik jo'r bo'lish va musiqaga mos harakatlar bajarish jarayonida asarlardan olingan bilim va malakalar takomillashadi va mustahkamlanadi.

Dasturli asarlarni tinglashdan oldin bolalar diqqatini uning obrazli ifodasiga jalb etib, ularda mantiqiy obrazli fikrlash qobiliyatini rivojlantirish lozim. Masalan, R.Shumanning "Smeliy naezdnik" ("Jasur chavandoz") asarini tinglashdan oldin bolalarga chavandoz mingga otning chopishini kompozitor qanday ifodalashi mumkin, deb so'rash kifoya. Bolalar katta qiziqish bilan ot chopishini og'izda (imitatsiya) taqlid qilib beradilar. Asar tinglashda u kuy yangrashi bilan (yaxshisi, o'qituvchi ijrosida) imitatsiya ritmi asar ritmiga obrazli mos tushishini sezgan bolalarning quvonchi behad bo'ladi, albatta. Shuningdek, o'zbek xalq kuyi "Asp bo'laman" (ya'ni "ot bo'laman"), S. Abramovanning "Yomg'irjon" kabi pessalarini,

J.Najmiddinovning “Bolalar va g’ozlar” kabi qo’shiqlarini o’rganishda mazkur metoddan foydalanish yaxshi natija beradi.

Darsda musiqa savodxonligi faoliyatining o’rni.

Musiqa madaniyati darslarining mustaqillik davrida tuzilgan yangi dasturi, darsliklari va bularning yaratilishiga asos bo’lgan DTS bilan tanishar ekanmiz, darslarda musiqa savodxonligiga ajratilgan o’rinni aniqlaymiz. Musiqa ham fikrlashning tuyg’uli bir turi bo’lib, ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida insonga kuchli tarbiyaviy ta’sir ko’rsatadi. Shu sababdan musiqa asarlarini tinglash va kuylashga qiziqish paydo bo’ladi. Hamma bolalar maktabda o’qishlarini nazarda tutib, umumta’lim maktabining 1-7 sinflarida musiqa madaniyati darsi kiritilgan. Bu darslar jarayonida barcha musiqiy faoliyatlar bilan bir qatorda musiqa savodxonligi faoliyati ham kiritilgan. Ayrim kishilar, hatto ayrim o’qituvchilar bu faoliyatni o’zlashtirish qiyin, uning musiqachi mutaxassis bo’lmaydigan aksariyat o’quvchilarga keragi yo’q deb hisoblaydilar.

Bu xato fikr, albatta. Bola harflarni o’rganib olganidan keyingina o’zi mustaqil tarzda shu harflar vositasida kitobdan o’qiydi. Musiqa ham xuddi shunday, do, re, mi, fa, sol, la, si notalarini o’rganib olganidan keyin arim oddiy kuy yoki qo’shiqlarni notadan o’qib o’rganishi yoki kuylashi mumkin. Musiqaning elementar, eng zarur belgilarini o’rganmay turib, musiqa asarini o’rganish va kuylash yoki cholg’u asbobiga chalish mumkin emas.

Oddiydan murakkabga tamoyili asosida darsliklarda musiqa savodini o’rganish uchun materiallar berilgan. Bu materiallarni to’g’ri tasniflash asosida o’quvchilarga ma’lum ketma-ketlikda o’rgatilsa va bu belgilarni rasmiyatchilik uchun, darsning boshqa materiallaridan ajratib o’rgatilishi deyarli samara bermaydi. Shuning uchun bu nota materiallarini turli rasmlar va kuylash vositasida o’rgatish talab etiladi.

O’quv qurollarida materiallarning to’g’ri tasniflash asosida berilganligini ko’rish uchun, darsni tashkil qilishga berilgan ko’rsatmalar (DTS, dastur darslik va o’quv qo’llanmalar)ni kuzatib chiqamiz.

O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida” gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” talablari asosida ta’lim tizimida ro’y berayotgan o’zgarishlar umumiy o’rta ta’lim maktablaridagi boshqa o’quv fanlari qatori “Musiqa san’ati va madaniyati” fanining o’qitilishini ham tubdan yangilashni talab etmoqda.

“Musiqa san’ati va madaniyati” o’quv fani o’quvchilarning ma’naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g’urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o’stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. “Musiqa san’ati va madaniyati” o’quv fani umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’qitiladigan barcha o’quv fanlari jumladan, adabiyot, tasviriy san’at, jismoniy tarbiya mehnat va boshqa fanlar bilan bog’lanadi.

Barcha o’quv fanlari qatori musiqiy ta’limda ham davlat standartining joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to’laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo’shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o’z aksini topdi. Musiqa san’atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalash, ularning barkamol bo’lib etishlarida o’ziga xos va takrorlanmas manbaa bo’lib xizmat qiladi. Azaldan Sharq, jumladan, o’zbek musiqa ta’lim-tarbiyasi ustoz va shogird an’analari misolida takomillashib borgan.

Davlat ta’lim standartlari ommaviy xalq musiqa pedagogikasi, professional musiqa ijodkorlari, musiqa ijrochilari (sozanda, xonandalar), katta ashulachilar, maqomchilar, dostonchilar asarlarining elementar asoslari o’rgatishni me’yorlashtiradi.

Musiqa ta’limidan davlat ta’lim standartlari asosida yangi ta’lim mazmuni o’qituvchilarning musiqiy va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ularda ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirishni ta’minlaydi. Shu bois, musiqa madaniyati ta’limining mazmuni yosh avlodning milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga etkazishni nazarda tutadi. Bunda o’quvchilar musiqa san’atini butun nafosati bilan o’rganishlari, ommaviy musiqa faoliyatlari: musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo’lib qo’shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi. Shuningdek, o’quvchilar musiqiy iqtidorini rivojlantirish, musiqa san’atiga mehr va ishtiyoqni oshirish, musiqa san’atiga qiziquvchi o’quvchilarning iqtidorini rivojlantirish uchun zaruriy shart – sharoitlar yaratib berish, ularning badiiy

ehtiyotlarini qondirish musiqa ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifasini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda jahon xalqlarining nufuzli durdona asarlari bilan tanishtiriladi.

Ta'lim mazmunida hududiy vohalarning san'ati va madaniyati, u erdagi mahalliy xalq an'analari o'z ifodasini topmog'i lozim.

"Musiqa san'ati va madaniyati" o'quv fanining mazmuniga bo'lgan talablar nazariy va amaliy faoliyatlar majmuasidan tashkil topib, ular quyidagi mavzularni belgilaydi.

Boshlang'ich musiqa savodi, musiqiy asarlar ijodkorlari faoliyati, musiqa ijrochiligi, bastakorlar va kompozitorlar ijodini, o'zbek cholg'u asboblari bilishni, mashhur o'zbek xalq sozanda va xonandalar ijodiy faoliyati, musiqiy atama va iboralar, musiqa janrlari kabi mavzular asosida milliy musiqa madaniyatimizni o'zlashtirishni nazarda tutadi.

Bu mavzular dars jarayonida quyidagi o'quv faoliyatlarida nazariy va amaliy mashg'ulotlar vositasida bajariladi.

1. Musiqa tinglash
2. Jamoa bo'lib kuylash
3. Musiqa savodi.
4. Musiqa ijodkorligi.

Musiqa tinglash ta'lim mazmunining asosini tashkil etadi. Asarlarni kuylash, tinglash faoliyatlari vositasida o'rganish bilan bir qatorda ritmik cholg'uchilik, musiqali harakatlar, ijodkorlik faoliyatlari bilan har tomonlama o'rganish va o'zlashtirish, musiqiy tavsiflarni ifodalash imkoniyati yaratiladi. O'zbek xalq musiqasi, o'zbek bastakorlari va kompozitorlari musiqiy asarlaridan namunalar tinglanadi.

Jamoa bo'lib kuylash faoliyati o'quvchilarning musiqiy qobiliyati xamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovozi ijrosini boshqarishni, ustozlar ijrosini eshitib, kuzatishni hamda ular bilan bahamjihat jo'rnavezlik qilishga intiladi.

O'zbek xalq qo'shiqlari, o'zbek bastakorlari va kompozitorlari qo'shiqlari, jaxon va qardosh xalqlar kompozitorlari qo'shiqlaridan namunalar kuylaydilar.

Musiqa savodi barcha bilimlarni nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsdan qaysi faoliyat mashg'uloti (tinglash, ijro etish, musiqiy harakatlar) bo'lmasin, berilgan mavzudagi asar o'rganiladi va uning xususiyatlari (janri, shakli, tuzilishi, ijrochiligi) haqida yangi tushunchalar hosil bo'ladi. Shu bois, musiqa savodi faqatgina nota yozuvlarini o'rganishdan iborat bo'lmay, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim saviyasini tarkib toptiruvchi umumiy bilim, tushunchalar majmuasini (ijrochiligi, xalq va bastakorlik musiqasi, ularning farqlari nota savodi) tashkil etadi.

Musiqa savodida musiqiy atamalar, an'analar, templar (sur'at), alteratsiya belgilari, dinamik belgilar, musiqaning ifoda tili, oddiy musiqa shakllari va janrlari, major va minor ladi haqida tushuncha beradi.

Adabiyotlar tahlili. Maqola doirasida foydalanilgan adabiyotlar xalq musiqasining ahamiyatini, uning milliy ta'lim-tarbiya tizimidagi rolini chuqur yoritib bergan. Xususan, O'zbekiston xalq musiqasining tarixiy rivoji, uning pedagogik vazifalari va yoshlar tarbiyasidagi o'rni haqidagi ilmiy-tadqiqot ishlari o'rganildi: **Rasulov A. "O'zbekiston xalq musiqasi tarixi"** – Ushbu asarda xalq musiqasining kelib chiqishi, janr xususiyatlari va ijtimoiy hayotdagi o'rni batafsil tahlil qilingan. Rasulovning tadqiqoti asosida dars jarayonlarida xalq musiqasi elementlarini qo'llash orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish imkoniyati mavjudligi asoslanadi. **Karimova S. "Milliy tarbiya va musiqa"** – Muallif milliy musiqaning tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor qaratib, uning yoshlar ma'naviy kamolotidagi o'rnini ko'rsatgan. Karimovanning fikrlari darslar jarayonida xalq musiqasining pedagogik vosita sifatidagi ahamiyatini tasdiqlash uchun ishlatildi. **Saidov B. "O'zbekiston musiqa madaniyati: kecha va bugun"** – Ushbu manbada milliy musiqaning rivojlanish bosqichlari va uning zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimiga integratsiyasi tahlil qilingan. Mazkur ish musiqa madaniyati darslarida xalq musiqasini qo'llash usullarini ishlab chiqishda nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi 2018 yil 1 noyabrdagi PQ-3990-son qarori.

4. Akhtamovich K. I. the content of education aimed at methodological improvement of the study of traditional musical heritage Academia Globe: Inderscience Research 2022–T.3 №.01–C.13-15.

5. Кушаев И. А. Педагогико-методические условия изучения традиционного музыкального наследия в образовании // Science and Education. 2022. Т. 3. - № 1. - С. 893-898.

6. Кушаев.И.А. Ахтамов.И.И «Педагогические основы традиционной профессиональной музыки (на примере искусства дастана)» ACADEMY научно-методический журнал ноябр-2020Ст. 59-62,
- 7.Кушаев.И.А, Ахтамов.И.И «Проблемы индивидуальных музыкальных занятий в вузах Узбекистана» ACADEMY научно-методический журнал №3(66)2021
- 8.IA.Kushayev «Musical pedagogical fundamentals of doston art>> ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 2020/10/10. 1061-1067
- 9.Qo'shayevI.A. "Baxshichilik festivallarining musiqiy ta'limdagi o'rni" MYFALJIM XOM YZLIKSIЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ Илимий-методикалык журнал 2023 5/3 сан Нокис noyabr B.233-238.
- 10.Kushayev I.A."Роль эпоса в узбекском народном творчестве." MIASTO PRZYSZŁOŚCI KIELCE Volume 2, Issue 5, May 2024B 1311-1314.
- 11.Kushayev I.A."УЗБЕКСКИЕ НАЦИОНАЛЬНЫЕ МУЗЫКАЛЬНЫЕ ТРАДИЦИИ." INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY SCIENCE VOL-2. ISSUE-6 Iyun 2024 B.59-63.
12. Kushayev I.A."O'zbek xalq musiqa ijodining keyingi yillardagi taraqqiyot yo'llari." "YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI..Volume 2,Issue 5,May 2024B.184-187.
13. Kushayev I.A."O'RTA OSIYO XALQLARINING MUSIQA IJODI." "XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" 2-TOM, 5-SON RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI..Volume 2, Issue 5, May 2024B.498-503.
- 14.KushayevI.A."MILLIY SOZLARDA IJROCHILIK USLUBI HAQIDA" INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS Vol. 5 No. 1 (2024)B.584-590.
- 15.KushayevI.A."O'RTA ASRLARDA MUSIQA TARBIYASINI O'RGANISHNING PEDAGOGIC IMKONIYATLARI" INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS Vol. 5 No. 1 (2024)B.578-583.

QO'SHIMCHA TA'LIM TIZIMIDA TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Mamurova Dilfuza Islomovna, p.f.f.d (PhD), professor

mamurovadilfuza@buxdpi.uz

Mamatov Dilshod Kodirovich, p.f.f.d (PhD), professor, Buxoro davlat pedagogika instituti

mamatovdilshod@buxdpi.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada qo'shimcha ta'lim muassasalarida tasviriy san'at darslarini tashkil etish orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish omillari tahlil qilingan. Pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlar va individual yondashuvning ijodiy tafakkurni shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari san'at ta'limi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Qo'shimcha ta'lim tizimida tasviriy san'at darslarining o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tasviriy san'at mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning badiiy tafakkuri va individual ijodiy salohiyatini rivojlantirishning pedagogik, psixologik va texnologik omillari o'rganiladi. Zamonaviy yondashuvlar, innovatsion metodlar va motivatsiya usullari asosida samarali ta'lim jarayonini tashkil etish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. Ijodiy qobiliyat, qo'shimcha ta'lim, tasviriy san'at, motivatsiya, pedagogik yondashuv, innovatsion metodlar, texnologiyalar.

ДОПОЛНИТЕЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

Мамурова Дильфуза Исламовна, канд. пед. наук (PhD), профессор

mamurovadilfuza@buxdpi.uz

Маматов Дилшод Кадырович, канд. пед. наук (PhD), профессор Бухарский государственный педагогический институт

mamatovdilshod@buxdpi.uz

Аннотация. В данной статье анализируются факторы развития творческих способностей учащихся посредством организации занятий изобразительным искусством в учреждениях дополнительного образования. Подчеркивается значение педагогических подходов, инновационных методов и индивидуального подхода в формировании творческого мышления. Результаты исследования служат повышению эффективности художественного образования. Анализируются роль и значение занятий изобразительным искусством в развитии творческих способностей учащихся в системе дополнительного образования. Изучаются педагогические, психологические и технологические факторы развития художественного мышления и индивидуального творческого потенциала учащихся посредством занятий изобразительным искусством. Рассматриваются возможности организации эффективного образовательного процесса на основе современных подходов, инновационных методов и методов мотивации.

Ключевые слова. Творческие способности, дополнительное образование, изобразительное искусство, мотивация, педагогический подход, инновационные методы, технологии.

FACTORS OF DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE ABILITIES IN FINE ARTS LESSONS WITHIN THE SYSTEM OF ADDITIONAL EDUCATION

Mamurova Difuza Islomovna, PhD in Pedagogical Sciences, Professor

mamurovadilfuza@buxdpi.uz

Mamatov Dilshod Kodirovich, PhD in Pedagogical Sciences, Professor Bukhara State Pedagogical Institute

mamatovdilshod@buxdpi.uz

Annotation. This article analyzes the factors of developing students' creative abilities through the organization of fine arts classes in additional educational institutions. The importance of pedagogical approaches, innovative methods and an individual approach in the formation of creative thinking is highlighted. The results of the study serve to increase the effectiveness of art education. The role and importance of fine arts classes in the development of students' creative abilities in the additional education system are analyzed. The pedagogical, psychological and technological factors of developing students' artistic thinking and individual creative potential through fine arts classes are studied. The

possibilities of organizing an effective educational process based on modern approaches, innovative methods and motivation methods are considered.

Keywords. Creative abilities, additional education, fine arts, motivation, pedagogical approach, innovative methods, technologies.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi yosh avlodning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashni maqsad qilgan bo'lib, bunda san'at ta'limining, xususan tasviriy san'at darslarining ahamiyati beqiyosdir. Ayniqsa, qo'shimcha ta'lim tizimida tashkil etilayotgan tasviriy san'at darslari o'quvchilarning ijodiy fikrlash, badiiy did va estetik qarashlarini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Ushbu maqolada o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi omillar, jumladan, o'qituvchining pedagogik mahorati, zamonaviy metodlardan foydalanish, individual yondashuv va motivatsiyaning o'zini ilmiy jihatdan tahlil etiladi.

Bugungi kunda qo'shimcha ta'lim tizimi yoshlarning estetik didini shakllantirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda shaxsiy salohiyatini yuzaga chiqarish uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy jamiyatda innovatsion yondashuvlar asosida san'at ta'limini rivojlantirish talab etiladi. Tasviriy san'at darslari o'quvchilarning nafaqat tasviriy ifoda uslublarini o'rganishiga, balki ularning ijodiy tafakkurini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, ushbu darslar orqali bolalar estetik didini rivojlantirish, san'at asarlarini tahlil qilish va o'z ijodiy g'oyalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Maqolada tasviriy san'at darslarining ta'lim jarayonidagi o'zini, uning yosh avlodni estetik tarbiyalashdagi roli, shuningdek, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda qo'llaniladigan samarali usullar tahlil qilinadi.

Tadqiqot obyekti. Tadqiqot obyekti sifatida qo'shimcha ta'lim muassasalarida (bolalar musiqa va san'at maktablari, ixtisoslashtirilgan markazlar) o'tkaziladigan tasviriy san'at darslari tanlandi.

Qo'llanilgan metodlar. Tasviriy san'at qo'shimcha ta'lim tizimida nafaqat san'at asarlarini yaratish jarayoni, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muhitni kuzatish va uni badiiy ifodalash qobiliyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Mazkur darslar orqali o'quvchilar san'atning turli janr va yo'nalishlari bilan tanishish, shuningdek, o'z ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish imkoniga ega bo'ladilar. Shuningdek, tasviriy san'at darslari o'quvchilarda noan'anaviy fikrlash va muammolarni badiiy yondashuv orqali hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Maqola yozishda quyidagi ilmiy usullar qo'llanildi:

- **Tahlil va sintez** – mavjud ilmiy adabiyotlar asosida nazariy yondashuvlarni umumlashtirish;
- **Empirik kuzatuv** – san'at darslari jarayonini tahlil qilish orqali o'quvchilarning faolligi va ijodiy yondashuvini baholash;
- **Pedagogik tajriba** – real o'quv mashg'ulotlarida innovatsion metodlarni qo'llab, ularning samaradorligini aniqlash;
- **So'rovnomalar va suhbatlar** – o'quvchilar va pedagoglar bilan o'tkazilgan intervyular asosida ijtimoiy-psixologik omillarni o'rganish.

Tasviriy san'at darslarini to'g'ri tashkil qilish, albatta o'quvchining o'qitish metodikasining to'g'ri tanlanganligiga bog'liq. Bunda esa o'quvchilarning darsni o'zlashtirish darajasi ancha yuqori bo'ladi. Darslarda tabaqalashtirib o'qitish bu zamonaviy pedagogik texnologiyalarning eng samarali turlaridan biridir.

Ilmiy yangilik. Qo'shimcha ta'lim tizimidagi tasviriy san'at darslarining o'quvchi shaxsini rivojlantirishdagi roli ilk bor kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi. Shu bilan birga, o'quvchilarning estetik qarashlari va ijodiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiluvchi omillar aniqlandi va ularning pedagogik mexanizmlari ochib berildi. Ilgari chuqur o'rganilmagan ayrim innovatsion metodlar – raqamli texnologiyalar, erkin kompozitsion mashg'ulotlar, vizual testlar tahlil qilinib, ularning amaliy samaradorligi isbotlandi.

So'nggi olti olti yillikda mamlakatimizda tasviriy san'at sohasini rivojlantirish maqsadida yanada salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2020-yilda "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorida ham "Iqtidorli yosh professional san'at namoyondalarining bilim

va ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitishning zamonaviy shakl va uslublari, samarali pedagogik texnologiyalar, elektron axborot resurslaridan keng foydalangan holda ta'lim jarayonining yuqori darajada olib borilishini ta'minlash"masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Tasviriy san'at darslarini tabaqalashtirib o'qitish –zamonaviy pedagogik texnologiyalarning eng samarali turlaridan biri bo'lib, ushbu ta'limda o'quvchilar individual yoki guruhlariga ajratib o'qitilishi mumkin. Bu esa sinfdagi barcha o'quvchilarning bilim va malakalarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi va dars samaradorligini yanada oshiradi. Tasviriy san'at o'qitishda o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyaning interfaol usul va texnologiyalarini qo'llagan holda, tabaqalashtirib o'qitish texnologiyasi prinsiplardan foydalansa, darslar samaradorligini oshiribboradi. Bugungi kunda pedagogolmlar tomonidan tabaqalashtirilgan ta'limning ikki turi ishlab chiqilgan:

- 1.Darajali tabaqalashtirish;
- 2.Ixtisoslashtirilgan tabaqalashtirish.

Darajali tabaqalashtirish o'za navbatida ikki turga bo'linadi. Individual ta'lim.Bunda o'quvlarning qobiliyati va imkoniyatlariga qarab har bir o'quvchi bilan alohida-alohida ish olib boriladi. Guruhli ta'lim.Bunda o'quvchilarni qobiliyati va imkoniyatlariga qarab ularni ikki va undan ortiq guruhlariga ajratib o'qitiladi. Ixtisoslashtirilgan tabaqalashtirish esa u yoki bu fanni chuqur o'rgatish, o'zlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Bular qatoriga tasviriy san'atni chuqur o'rgatadigan to'garaklar kiradi.Ta'limning bu turlarida o'qituvchi sinfdagi barcha o'quvchilarning qobiliyatini, qiziqishini, imkoniyatini, layoqatini hisobga olib dars samaradorligini oshirishga harakat qilishi lozim. Bu esa sinfdagi barcha o'quvchilarning bilim va malakalarining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Tabaqallashtirilgan ta'lim haqida fikr yuritganda avvalo uni ijobiy va salbiy jihatlari haqida yetarli tasavvurga yegabo'lishlik nihoyatda muhimdir. Darajali tabaqallashtirib o'qitishning ijobiy jihatlari haqida to'xtalganda quyidagilarni qayd qilish lozim. Bunda:

- Sinfdagi barcha o'quvchilar dastur materiallarini o'zlashtirishga erishadilar.
- Sinfdagi barcha o'quvchilarning bilim va malakalari, ijodiy ishlarida o'sish kuzatiladi va u o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlari oshadi.
- Sinfdagi barcha o'quvchilarning faolligi oshadi.Chunki, past o'zlashtiruvchilar guruhidagi har bir o'quvchi yuqori o'zlashtiruvchilar guruhiga o'tishiga harakat qiladi. Yuqori o'zlashtiruvchilar guruhidagi o'quvchilar esa past o'zlashtiruvchilar guruhiga tushib qolmaslikka harakat qiladilar.
- O'quvchilarni qobiliyati va imkoniyatiga qarab bilimlar berilayotganligi sababli, ular tomonidan o'quv yuklamalarini o'zlashtirishda zo'riqish hollari ro'y bermaydi.
- Sinfdagi iqtidorli o'quvchilarning chuqur va atroflicha bilim olishga bo'lgan ehtiyojlari ham qondiriladi.
- Tabaqallashtirilgan ta'lim uni demokratiyalashtirish va insonparvarlashtirishga yordam beradi.

Lekin masalaning yana bir tomoni borki, tabaqaga ajratib o'qitish nafaolroq bo'lgan o'quvchilar faoliyatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Yuqori o'zlashtiruvchi o'quvchilar esa, o'zlariga ortiqcha baho berib, faol bo'lmagan o'quvchilarga nisbatan mensimaslik xislatlari kuzatilishi mumkin. Bu jarayonda o'qituvchining pedagogik mahorati muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham o'qituvchi masalaning bu jihatlari hisobgaolib, o'quvchilarga yuqori, quyi so'zlari o'rniga, birinchi, ikkinchi, uchinchi guruhlar deb qo'llashi maqsadga muvofiqdir. Tabaqalashtirib o'qitishning samarasi katta ekanligi bilan bir qatorda uning murakkab jihatlari ham mavjudligini alohida qayd qilish lozim. Uning murakkabligi o'qituvchining uch xil darajadagi dasturlar asosida mashg'ulot olib borishi bilan bog'liq. Buning uchun har bir guruh uchun tasviriy san'atdan alohida darsliklar, metodika, didaktik va tarqatma materiallar, texnika vositalari kerak bo'ladikim, ularsiz mashg'ulotlarni talab darajasida tashkil etib bo'lmaydi. Bu esa quyidagi yo'nalishlarda ifodalanadi:

- Tabaqalashtirilgan tasviriy san'at ta'limining ilmiy asoslarini puxta egallagan bo'lishlik;
- Mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik majmualar bilan qurollangan bo'lishlik;
- Mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan maxsus xona va moddiy texnikaviy bazaga ega bo'lishlik;

– O'qituvchi o'quv fanidan o'quvchilarning bilim va malakalari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi va boshqalar.

Zamonamizning atoqli pedagoglaridan biri professor R.Hasanov maktab tasviriy san'at o'qituvchisiga ta'rif berar ekan, quyidagilarni alohida ta'kidlaydi: "Mahoratli o'qituvchi bo'lish uchun yuksak odob namunasiga ega bo'lishi, har qanday og'ir sharoitda ham o'zini tuta bilishi, sabr-toqatli, sahovatli, muruvvatli, ijodkor, mehnatsevar, halol, pok, insofli, iymonli, o'rganuvchi va o'rgatuvchi kabi yuksak ma'nodagi hislatlarni o'zida mujassam etgan pedagog-rassom bo'lishi kerakligini bildiradi".

Darhaqiqat, hozirgi zamon maktablarining tasviriy san'at o'qituvchisi yuksak tasavvurga ega, tafakkurli, aqli, zakovatli, tarbiyali, o'z fanini a'lo darajada biladigan, ijodkor rassom, pedagogika, psixologiya fanlarini chuqur o'rgangan, tasviriy san'at metodikasi bilan yaxshi qurollangan, tasviriy san'at darslarining pedagogik texnologiyasini yaxshi egallagan tasviriy san'at o'qituvchisi bo'lishi lozim.

O'quvchilarni har jihatdan bilish uchun o'qituvchi tomonidan o'quvchilar orasida pedagogik va psixologik tashxis o'tkazishi zarur bo'ladi. Bu ish bevosita quyidagilar bilan bog'liq: o'quvchining umumiy qobiliyati, uning xarakteri, qaysi fanga qiziqishi, tasavvur, tafakkur va ijodiy fikrlash darajasi, faolligi va fantaziyasi, xotira vakuzatuvchanligi, diqqati, tashabbuskorligi, mustaqilligi, uyda mashg'ulotlar uchun bo'lgan shart-sharoitlari va boshqalar. Shuningdek, o'qituvchi o'quvchilarning qaysi sport turlariga qiziqishlari, qaysi san'at turlariga qiziqishi, hatto qaysi qush va hayvonlarga qiziqishini bilishi muhim. Chunki o'quvchilarning bunday narsalarga qiziqishlariga qarab, ularga samarali ta'sir ko'rsatish mumkin. Bu sifatlardan tashqari o'qituvchi, o'quvchilarning tasviriy san'atga doir xususiyatlarini ham bilishi lozim. Bu borada o'qituvchi har bir o'quvchining dars jarayonida bilim va malakalaridagi o'sishni bilib turishi kerak.

Tabaqalashtirilgan ta'limni amalga oshirishda, birinchidan, o'quvchilarga tasviriy san'atdan beriladigan bilim va malakalarning me'yori, topshiriqni bajarishga ketadigan vaqt, o'quvchilarning bu topshiriqqa bo'lgan layoqatini o'qituvchi tomonidan aniq tasavvur etilishi lozim. Ikkinchidan, ta'lim mazmunini bolalar ongiga singdirish uchun metodikani to'g'ri tanlash hamda bu metodikani amalga oshirishga xizmat qiladigan moddiy texnikaviy asosni yaratish muhimdir. Buning uchun o'qituvchi darsga chuqur va puxta tayyorgarlik ko'rgan bo'lishi lozim. Bundan tashqari o'qituvchi o'quvchilarning bilim va malakalaridagi o'zgarishlarni ham bilib turishi muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Qo'shimcha ta'lim tizimida tasviriy san'at darslarini samarali tashkil etish o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagogik yondashuvlar, motivatsiya, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va ijodiy muhit yaratish orqali o'quvchilarning san'atga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin.

Natijada, tasviriy san'at darslari nafaqat yosh avlodning badiiy-estetik dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi, balki ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Shuningdek, qo'shimcha ta'lim tizimidagi tasviriy san'at mashg'ulotlari orqali bolalarda mustaqil qaror qabul qilish, ijodiy yondashuv va san'at asarlarini baholash qobiliyatlari shakllanadi. Shu boisdan, tasviriy san'at ta'limini rivojlantirish kelajak avlodning badiiy tafakkurini yanada yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega.

XXI asr ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy etish asri desak maqsadga muvofiq bo'ladi. Bo'lajak mutaxassislarni har tomonlama zamon talabi darajasida tayyorlashga avvalo ularga aniq bilimlar berish, kasbga nisbatan ko'nikma va malakalarini shakllantirish lozim. Shundagina ular kelgusi faoliyatlaridan unumli foydalanishga erishishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son qarori.
2. Oripov B.N. Tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi. –Toshkent: Ilm ziyo, 2013. –B.25.

3. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'atni o'rgatish metodikasi. –Toshkent: Fan, 2004. – B.188.
4. Бермус А.Г. Проблемы и перспективы реализации компетентностного подхода в образовании. www.eidoc.ru. 2005, 09, 10.
5. Olimov S. S., Mamurova D. I. Directions For Improving Teaching Methods //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – С. 9671–9678-9671–9678.

**KELAJAKDAGI TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING BADIY
TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA RASM CHIZISH BO'YICHA MUSTAQIL
TA'LIMNING MUHIM OMILI SIFATIDA**

*Abdullayev Sayfulla Fayzullayevich, pedagogika fanlari doktori, Buxoro davlat institutining
musiqa va tasviriy san'at kafedrası professori, O'zbekiston Respublikasi*

abdullayevsayfulla@buxdpi.uz

*Qodirov Arif Mahmudovich, pedagogika fanlari nomzodi, Buxoro davlat institutining musiqa
va tasviriy san'at kafedrası dotsenti, O'zbekiston Respublikasi*

kadirovarif@buxdpi.uz

*Musinova Aziza Sodiqovna, Buxoro davlat institutining musiqa va tasviriy san'at kafedrası
o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi*

azizamusinova@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqola zamonaviy badiiy ta'limning dolzarb muammolaridan biri — bo'lajak rassom-pedagoglarning badiiy tafakkurini rivojlantirishda muhim omil sifatida rasm chizish bo'yicha mustaqil ta'lim olish masalasiga bag'ishlangan. Mualliflar professional ta'lim bilan bog'liq bo'lgan tafakkur turlarini, jumladan, rassom-pedagogning kasbiy faoliyati bilan bog'liq tafakkur turlarini ko'rib chiqishgan. Xususan, maxsus manbalarni tahlil qilish va umumlashtirishga yo'naltirilgan mavhum-nazariy tafakkur, holatni yaxlit ko'ra olishga asoslangan amaliy tafakkur, namunaga ko'ra muayyan usul yoki texnikalarni takrorlay oladigan reproduktiv tafakkur, ijodiy va mahsuldor tafakkur, ko'rgazmali-obrazli tafakkur, so'z-logik tafakkur, tahliliy va mantiqiy tafakkur, shuningdek, tezlik bilan kechadigan intuitiv tafakkurga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, badiiy tafakkur, pedagog-rassom, rasm, mavhum-nazariy tafakkur, amaliy tafakkur, reproduktiv tafakkur, mahsuldor, ijodiy tafakkur, ko'rgazmali-obrazli tafakkur, so'z-logik tafakkur, tahliliy tafakkur, intuitiv tafakkur.

**САМОСТОЯТЕЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ ПО РИСУНКУ КАК ВАЖНЕЙШИЙ
ФАКТОР РАЗВИТИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ-
ХУДОЖНИКОВ**

*Абдуллаев Сайфулла Файзуллаевич, доктор педагогических наук, профессор кафедры
музыки и изобразительного искусства Бухарского государственного института, Республика
Узбекистан*

abdullayevsayfulla@buxdpi.uz

*Кадиоров Ариф Махмудович, Кандидат педагогических наук, доцент кафедры музыки и
изобразительного искусства Бухарского государственного института, Республика Узбекистан*

kadirovarif@buxdpi.uz

*Муסיнова Азиза Садыковна, преподаватель кафедры музыки и изобразительного
искусства Бухарского государственного института, Республика Узбекистан*

azizamusinova@mail.ru

Аннотация: Данная статья посвящена актуальной проблеме современного художественного образования - самостоятельному образованию по рисунку как важнейшему фактору развития художественного мышления будущих педагогов-художников. Авторами рассмотрены виды мышления, связанные с профессиональным образованием, в том числе и с профессиональной деятельностью педагога – художника. Особое внимание уделено абстрактно - теоретическому мышлению, направленному на анализ и обобщение специальных источников, практическому мышлению, связанному с целостным видением ситуации, репродуктивному мышлению, воспроизводящие определённые способы или приёмы профессиональной деятельности по образцу, продуктивному, творческому мышлению, наглядно-образному мышлению, словесно-логическому мышлению, аналитическому, логическому мышлению, интуитивному мышлению, которое характеризуется быстротой протекания.

Ключевые слова: самостоятельное образование, художественное мышление, педагог-художник, рисунок, абстрактно – теоретическое мышление, практическое мышление,

репродуктивное мышление, продуктивное, творческое мышление, наглядно-образное мышление, словесно-логическое мышление, аналитическое, интуитивное мышление.

SELF-EDUCATION IN DRAWING AS A KEY FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF ARTISTIC THINKING OF FUTURE ART TEACHERS

Abdullaev Saifulla Faizullaevich, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor at the Department of Music and Fine Arts, Bukhara State Institute, Republic of Uzbekistan

abdullayevsayfulla@buxdpi.uz

Kadirov Arif Mahmudovich, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor at the Department of Music and Fine Arts, Bukhara State Institute, Republic of Uzbekistan

kadirovarif@buxdpi.uz

Musinova Aziza Sadykovna, Lecturer at the Department of Music and Fine Arts, Bukhara State Institute, Republic of Uzbekistan

azizamusinova@mail.ru

Annotation: This article addresses a current issue in modern art education — independent learning in drawing as a key factor in the development of artistic thinking in future art educators. The authors examine various types of thinking associated with professional education, including the professional activity of the art teacher. Particular attention is given to abstract-theoretical thinking aimed at analyzing and synthesizing specialized sources; practical thinking related to a holistic view of situations; reproductive thinking that reproduces specific methods or techniques of professional activity by example; productive, creative thinking; visual-imaginative thinking; verbal-logical thinking; analytical and logical thinking; and intuitive thinking, which is characterized by its rapid process.

Keywords: independent learning, artistic thinking, art educator, drawing, abstract-theoretical thinking, practical thinking, reproductive thinking, productive thinking, creative thinking, visual-imaginative thinking, verbal-logical thinking, analytical thinking, intuitive thinking.

На современном этапе развития системы образования Республики Узбекистан, особенно задач подготовки высококвалифицированных специалистов с учетом реалий и требований общества, большое значение приобретает задача качественной подготовки кадров педагогов высшей и средней школы.

Одной из основных идей Стратегии «Узбекистан-2030», как подчеркнуто в историческом Указе Президента Республики Узбекистан является создание системы образования, медицины и социальной защиты, полностью соответствующей потребностям народа и международным стандартам.

Важным в свете нашей монографии представляется основная мысль государственной задачи стратегии – поднятие на новый уровень системы общего среднего образования, внедрение во всех средних общеобразовательных учреждениях курсов обучения профессии, что конечно же требует от учителя изобразительного искусства навыков по основным видам изобразительного искусства.

Как подчеркнул в своём Указе Ш.М.Мирзиёев... в стране принимаются широкомасштабные меры по созиданию системы высшего образования, соответствующие приоритетным направлениям социально – экономического развития и требования международных стандартов. Одним из условий реализации постановления является разработка мер по внедрению в учебный процесс инновационных технологий. (1)

Определяющее значение для реализации задач эстетического воспитания и художественного образования имеет практическая реализация 5-ти инициатив, выдвинутых Президентом Шавкатом Мирзиёевым 3 апреля 2019 года. Первая инициатива предполагает привлечению 2019-2020 годах в культуру и искусство два миллиона молодых людей. При этом, практически во всех указах и постановлениях Президента как ключевое условие обеспечения эффективности образования – воспитание молодёжи, способных самостоятельно мыслить и принимать решения. Для этого предполагается основной упор в образовании на самостоятельную подготовку, воспитанию креативных качеств. (2)

Согласно нормативно - правовым актам и Указам Президента Республики Узбекистан, законов об образовании и долгосрочной программы подготовки кадров, подготовка учителей изобразительного искусства и черчения осуществляется в рамках направления образования 60110500 «Изобразительное искусство и инженерная графика», а также специальностях «Изобразительное искусство» и «Инженерная графика и дизайн». И разработка учебных программ и пособий именно должны быть направлены на самостоятельные, креативные образование студентов.

Педагог - ключевая фигура, определяющая состояние образования и культуры, а система университетов и педагогических вузов - это единая система, которая может и должна стать главным звеном в профессиональной подготовке будущего учителя, в развитии его культуры, широты интересов, эстетического образования и воспитания.

Важнейшее значение приобретают в этой связи современные инновационные исследования основных путей и направлений подготовки специалистов в области изобразительного искусства.

И поэтому основной задачей современной школы становится не столько обучение, передача конкретных знаний, сколько развитие самостоятельного мышления, самостоятельного освоения основ изобразительной грамоты. Недооценка роли изобразительного искусства, а также народного декоративно прикладного искусства в самостоятельном образовательном и воспитательном процессе отрицательно скажется на творческих, креативных сторонах личности будущего педагога – художника.

Исходя из вышеуказанных требований, предъявляемым к объёму знаний, умений и навыков, целей самостоятельного образования, определяемых современными стандартами образования, основными задачами подготовки будущих учителей изобразительного искусства в области самостоятельного образования по рисунку является:

- формирование творчески мыслящих студентов - рисовальщиков, способных в свою очередь к обучению и нравственно – духовному воспитанию в будущем учащейся молодёжи.
- разработка эффективных методов, средств и форм обеспечения у студентов прочных знаний, умений и навыков по самостоятельному освоению основ рисунка
- подготовка студентов, способных самостоятельно мыслить, заниматься творчеством, общественно активных, с развитым нравственным и духовным миром, владеющих в совершенстве современными рисовальными материалами (карандаш, цветные карандаши, уголь, сангина).

Стремление к графическому творчеству при наличии сформированного пространственного и творческого мышления, развития у студента личностных качеств, а именно:

- потребность в новой идее - композиции;
- цельное видение рисунка, путей её достижения;
- способность обращать внимание на характерные и нетипичные стороны изображаемых объектов, владение пространственной линией;
- готовность самостоятельно критически относиться к выполненным рисункам и наброскам;
- готовность работать с новыми рисовальными технологиями, например, в компьютерной графике, художественном конструировании и т.д.

Особое значение в самостоятельном образовании на первых курсах направления изобразительное искусство и инженерная графика занимают знакомство с литературой по изучаемой теме учебного предмета рисунка (научное наследие великих титанов Возрождения Леонардо да Винчи, Альбрехта Дюрера и др.), наброски и зарисовки улиц деревьев, композиции по теме и др.



Рис.1. Альбрехт Дюрер. Автопортрет.

Самостоятельное образование, в том числе и по рисунку тесно связано с психическими особенностями личности, с психофизиологическими факторами. В формировании самостоятельных, креативных умений и навыков в будущей композиционной деятельности отдельное место принадлежит сформированному художественному мышлению.




Рис.2. Леонардо да Винчи. Этюды головы

Важным звеном профессионально значимых качеств будущего педагога-художника является сформированное профессиональное мышление как необходимое условие для эффективного осуществления творческой деятельности. Развитие профессионального мышления личности художника – педагога – залог успешности как творческой, так и педагогической работы. В специальной литературе, а также и в научной лексике используется нередко термины, связанные с профессиональной деятельностью, как к примеру педагогическое мышление учителя, медицинское мышление врача, политическое мышление общественного деятеля, конструкторское мышление инженера, управленческое, творческое мышление живописца, музыканта, актёра и других. Нет сомнения, что сами процессы мышления у специалистов любого профиля в целом происходят в соответствии с познавательными процессами.

Рассмотрим виды мышления, связанные с профессиональным, в том числе и с профессиональной деятельностью педагога – художника:

- абстрактно - теоретическое мышление, направленное на анализ и обобщение специальных источников (в основном научной, психолого-педагогической, учебно-методической, искусствоведческой) и др. материалов, итогов ознакомления с выставками работ художников, музейных экспонатов и т.п.

- практическое мышление, связанное с целостным видением ситуации в своей профессиональной деятельности постановкой цели, задач, путей их реализации с выработкой

творческих планов и проектов;

- репродуктивное мышление, воспроизводящие определённые способы или приёмы профессиональной деятельности по образцу;

- продуктивное, творческое мышление, в ходе которого ставятся проблемы, выявляются новые стратегии, обеспечивающие эффективность труда, противостояние экстремальной ситуации;

- наглядно-образное мышление, означающие представление ситуации и изменения в ней, которые хочет получить человек в результате своей профессиональной деятельности;

- словесно-логическое мышление, где решение профессиональных задач происходит с помощью реального изменения ситуации на основе наблюдаемого двигательного акта;

- аналитическое, логическое мышление, включающее развёрнутое во времени, имеющее выраженные этапы мыслительной операции, представленные в сознании человека;

- интуитивное мышление, которое характеризуется быстротой протекания, отсутствием чётко выраженных этапов, минимальной осознанностью;

Все вышеуказанные виды мышления, в той или иной степени, влияют на уровень сформированности профессионального мышления, особенно такие её виды, как практический, наглядно-действенный и др. Их сочетание, в зависимости от профессиональной деятельности обеспечивают специфические виды мышления - педагогическое, оперативное, художественные и др.

И мышление художника ввиду специфики изобразительной деятельности отличаются своими особенностями, что связано со спецификой практической деятельности, особенно в процессе самостоятельного – творческого образования. **Таким образом, художественное мышление можно трактовать как мысленное, эстетическое восприятие окружающей действительности и её отражение в художественных образах.**

The method of lines belongs to the semi-discrete methods. Semi-discrete methods are based on the following idea: partial discretization of a partial differential equation is not complete, but not in all independent variables. For example, you can leave r as a continuous variable and discretize only the variable. The essence of the straight line method is that the rectangular area of the function of the main unknowns is covered with straight lines parallel to the r axis and equidistant from each other. Numerical values in given fields are sought only along these lines, and the derivative in the direction φ is replaced by approximate finite differences.

Note that the choice of boundary conditions on slotted surfaces of the form (9) was determined primarily by the possibility of separating variables over the coordinates r and φ , which greatly simplifies the solution of the original problem. According to the method of lines, the rectangular area of the function of principal unknowns is covered with lines parallel to the r -axis and equidistant from each other. The solution is sought only along these lines, and the derivative with respect to φ is replaced by a finite difference approximation. Approximate formulas of the second order

for the first and second derivatives have the form

$$y_{i,\varphi} \cong \frac{y_{i+1} - y_{i-1}}{2\Delta} \cong \frac{-3y_i + 4y_{i+1} - y_{i+2}}{2\Delta} \cong \frac{3y_i - 4y_{i-1} + y_{i-2}}{2\Delta}$$

$$y''_{i,\varphi} \cong \frac{y_{i+1} - 2y_i + y_{i-1}}{\Delta^2}, \quad (12)$$

where i changes from 0 to $N+1$ ($i=0, \overline{N+1}$), -projection of an unknown function onto a straight line with number i ; Δ is the partitioning step along the φ coordinate.

As a result of discretization, the vector of main unknowns of the total dimension $6N$ can be written as:

$$Y = (\{w_i\}, \{v_i\}, \{u_i\}, \{\sigma_{ri}\}, \{\tau_{\varphi i}\}, \{\tau_{zi}\})^T \cdot (i = \overline{1, N}) \quad (13)$$

Central differences (12) are used for internal lines ($1 < i < N$), the left and right differences allow taking into account the boundary conditions in φ . In the first case, the derivative with respect to φ in the right parts of the system of equations (8) is expressed by the formulas:

$1 < i < N$:

$$w_{i,\varphi} = (w_{i+1} - w_{i-1})/2\Delta, u_{i,\varphi} = (u_{i+1} - u_{i-1})/2\Delta, \quad (14)$$

$$v_{i,\varphi} = (v_{i+1} - v_{i-1})/2\Delta, \tau_{\varphi i,\varphi} = (\tau_{\varphi(i+1)} - \tau_{\varphi(i-1)})/2\Delta,$$

$$\tau_{\varphi i,\varphi} = (\tau_{\varphi(i+1)} - \tau_{\varphi(i-1)})/2\Delta$$

$$\sigma_{\varphi i,\varphi} = a(\sigma_{i+1} - \sigma_{i-1})/2\Delta + \frac{b}{r}[(v_{i+1} - 2v_i + v_{i-1})/\Delta^2 + w_{i,\varphi}] + ck u_{i,\varphi}$$

$$B_i = (u_{i+1} - 2u_i + u_{i-1})/\Delta^2 / k - kv_{i,\varphi}.$$

Boundary conditions at $\varphi = -\frac{\varphi_0}{2}$ is taken into account in the above equations corresponding to the straight lines $i = I$. For the main unknowns, not included in the boundary conditions, w_i, v_i, u_i , the right differences of the first relation (11) are used:

$$w_{i,\varphi} = (-3w_1 + 4w_2 - w_3)/2\Delta, v_{i,\varphi} = (-3v_1 + 4v_2 - v_3)/2\Delta,$$

$$u_{i,\varphi} = (-3u_1 + 4u_2 - u_3)/2\Delta. \quad (15)$$

For variable tangential stress τ_φ , conditions (10) are used using the central difference

$$\tau_{\varphi i,\varphi} \cong (\tau_{\varphi_2} - \tau_{\varphi_0})/2\Delta = -\tau_{\varphi_2}/2\Delta. \quad (16)$$

When approximating the differential of the function B with respect to φ , then the first and third of the conditions (10) σ_φ takes the form

$$\sigma_{\varphi i,\varphi} \cong (\sigma_{\varphi_2} - \sigma_{\varphi_0})/2\Delta = \sigma_{\varphi_2}/2\Delta = \left(a\sigma_{r_2} + \frac{b}{r}[(v_3 - v_1)/2\Delta + w_2] - ck u_2 \right) / 2\Delta$$

$$B_{i,\varphi} \cong (B_2 - B_0)/2\Delta = B_2/2\Delta = [(u_3 - u_1)/2\Delta / r - kv_2] / 2\Delta \quad (17)$$

It is also possible to represent the derivatives for the boundary conditions at $\varphi = \frac{\varphi_0}{2}$, and will represent a straight line with number $i = N$. The only difference is the replacement of right finite differences by left ones:

$i = N$:

$$w_{i,\varphi} = (3w_N - 4w_{N-1} + w_{N-2})/2\Delta$$

$$v_{i,\varphi} = (3v_N - \dots)/2\Delta$$

$$u_{i,\varphi} = (u_{i+1} - u_{i-1})/2\Delta$$

$$u_{i,\varphi} = (3u_N - \dots)/2\Delta \quad (18)$$

$$\begin{aligned}\tau_{\varphi,\varphi} &= -\tau_{\varphi(N-1)}/2\Delta \\ \sigma_{i,\varphi} &= \left(\tau_{\varphi(i+1)} - \tau_{\varphi(i-1)} \right) / 2\Delta \\ &\quad + \left(a\sigma_{N-1} + \frac{b}{r}[(v_N - v_{N-2})/2\Delta + w_{N-1}] + ck u_{N-1} \right) / 2\Delta = -\frac{\sigma_{N-1}}{2\Delta} \\ B_{i,\varphi} &= -[(u_N - u_{N-2})/2\Delta/r - kv_{N-1}] / 2\Delta = -\frac{B_{N-1}}{2\Delta}\end{aligned}$$

If we take into account the conditions of antisymmetry of vibrations (transverse) of the plate at $\varphi = 0$, then halve the number of lines in the equations:

$$w = u = \sigma_\varphi = 0. \quad (19)$$

The corresponding difference relations, taking into account conditions (19), can be written as:

$$\begin{aligned}i=N: w_{i,\varphi} &= -w_{N-1}/2\Delta \quad u_{i,\varphi} = -u_{N-1}/2\Delta \\ v_{i,\varphi} &= (3v_N - \dots)/2\Delta \quad (20) \\ \tau_{\varphi i,\varphi} &= (3\tau_{\varphi N} - 4\tau_{\varphi(N-1)} + \tau_{\varphi(N-2)})/2\Delta \\ \sigma_{i,\varphi} &= -\left(a\sigma_{N-1} + \frac{b}{r}[(v_N - v_{N-2})/2\Delta + w_{N-1}] + ck u_{N-1} \right) / 2\Delta = -\frac{\sigma_{N-1}}{2\Delta} \\ B_{i,\varphi} &= -(-2u_N + u_{N-1})/\Delta^2/r - kv_{i,\varphi}.\end{aligned}$$

The system of ordinary differential equations with complex coefficients, according to (19), has the form:

$$\begin{aligned}w'_i &= \sigma_i/k - a(ku_i + (w_i + v_{i,\varphi})/R); \\ v'_i &= \tau_{\varphi i} + (v_i - w_{i,\varphi})/R \quad (21) \\ u'_i &= \tau_{zi} + kw_i \\ \sigma'_i &= -\omega^2 w_i + [2((w_i + v_{i,\varphi})/R - w'_i) - \tau_{\varphi i,\varphi}]/r - k\tau_{zi} \\ \tau'_{zi} &= -\omega^2 u_i - (B_{i,\varphi} + \tau_{zi})/r + k(\sigma + 2(ku_i - w'_i)); \\ \tau'_{\varphi i} &= -\omega^2 v_i + (\sigma_{i,\varphi} + 2\tau_{\varphi i})/r - k(u_{i,\varphi}/R - kv_i).\end{aligned}$$

In differential equations (21) with complex coefficients, the expressions for the derivatives $w_{i\varphi}$, $v_{i\varphi}$, $u_{i\varphi}$, $\sigma_{i,\varphi}$, $\tau_{i,\varphi}$ are obtained from relations (19) - (21) depending on the boundary conditions along the coordinate φ . Also, conditions equivalent to conditions (19) on the free surface are posed, and forming together with equations (21) the boundary value problem, are obtained in the form

$$B_i = 0, \quad \tau_{\varphi i} = 0, \quad \sigma_\varphi = 0, \quad (i=1, N). \quad (22)$$

Thus, the original spectral problem (21), (22) with the help of discretization in the coordinate φ , according to the method of lines, is reduced to a canonical problem, for the solution of which we apply the previously used orthogonal sweep method.

The system of ordinary differential equations of the first order with complex coefficients, for a wedge-shaped plate, resolved with respect to derivatives, has the form[15]:

$$\begin{cases} z'_1 = z_2; \\ z'_2 = -\frac{6(1-\nu)}{h^3} z_3 + \nu \kappa^2 z_1; \\ z'_3 = z_4 - \frac{h^3 \Gamma_k}{3} \kappa^2 z_2; \\ z'_4 = \nu \kappa^2 z_3 + \frac{(1+\nu)h}{6} \kappa^4 z_1 - h \left(\frac{\omega}{C_s} \right)^2 \Gamma_k z_1; \end{cases} \quad (23)$$

The boundary conditions for this system can be written as follows:

a) the free left edge of the plate:

$$z_3(0) = z_4(0) = 0 \quad (24)$$

b) free right edge of the plate:

$$z_3(l_1) = z_4(l_1) = 0 \quad (25)$$

c) pinched right edge of the plate:

$$z_1(l_1) = z_2(l_1) = 0 \quad (26)$$

Thus, the spectral boundary value problem (23-26) has been formed with respect to the parameter ω describing the propagation of bending flat edges face-to-face waves in a Kirchhoff plate.

When the Timoshenko hypothesis is fulfilled, then the system of partial differential equations (23) takes the following form:

$$\left\{ \begin{array}{l} z_1' = z_2 + \frac{z_n}{\chi h}; \\ z_2' = -\nu \kappa z_3 - \frac{6(1-\nu)}{3} z_5; \\ z_3' = \kappa z_2 - \frac{12}{h^3} z_6; \\ z_4' = \chi h \kappa z_3 + \kappa^2 \left(\chi h - \frac{h c^2}{\Gamma_n} \right) z_1; \\ z_5 = -\kappa z_6 + z_4 + \frac{h^3}{12 \Gamma_n} \omega^2 z_2; \\ z_6' = -\chi h \kappa z_1 - \left[\chi h + \frac{\kappa^2 h^3}{12 \Gamma_n} \left(2(1+\nu) - \frac{c^2}{\Gamma_n} \right) \right] z_3 + \nu \kappa z_5. \end{array} \right. \quad (27)$$

The boundary conditions for this system can be written as follows:

a) the free left edge of the plate:

$$z_4 = z_5 = z_6 = 0, \quad x_1 = 0; \quad (28)$$

b) free right edge of the plate:

$$z_4 = z_5 = z_6 = 0, \quad x_1 = l_1; \quad (29)$$

c) pinched right edge of the plate:

$$z_1 = z_2 = z_3 = 0, \quad x_1 = l_1; \quad (30)$$

Thus, the spectral boundary value problem (27-30) has been formulated with respect to the parameter ω describing the propagation of bending plane edge waves in the Timoshenko plate.

3. Results and analysis

As an example of a viscoelastic material, we take a three-parametric relaxation kernel: $R_\lambda(t) = R_\mu(t) = A e^{-\beta t} / t^{1-\alpha}$. Dimensionless quantities are chosen in such a way that the shear rate C_s , density ρ and outer radius R have single values, Poisson's ratio $\nu = 0.25$, and core parameters $A = 0.048$; $\beta = 0.05$; $\alpha = 0.1$

The calculations were carried out in dimensionless parameters. The change in the complex phase velocity $C_0 = C_{0R} + i C_{0I}$ from corners $m^\square = m\varphi$ at different values of the instantaneous modulus of elasticity. The calculation results are shown in Fig.3 and Fig.4.

Figure 3 shows the change in the real part of the complex phase velocity C_0 from $m^\square$ at different values of the instantaneous modulus of elasticity: ($C_{0R} = C_{0R}^\square / C_R$, C_R - speed of Rayleigh's ox) 1. $E=0.01$; 2. $E=0.05$; 3. $E=0.1$; 4. $E=0.8$, where $E = E_0 / E_p$, E_p - modulus of elasticity of steel). From Fig. 3 it can be seen that with an increase $m^\square$ the phase velocities increase and asymptotically approach the Rayleigh wave. Figure 4 shows the change in the imaginary part of the complex phase velocity from $m^\square$ at different values of the instantaneous modulus of elasticity

($C_{0R} = C_{0R}^\square / C_R$, C_R - speed of Rayleigh's ox): 1. $E=0.01$; 2. $E=0.05$; 3. $E=0.1$; 4. $E=0.8$, where $E = E_0 / E_p$,

E_p - modulus of elasticity of steel).




Fig. 3. Dependence of the real part of the complex phase velocity on at different values of the instantaneous modulus of elasticity.




Fig. 4. Dependence of the imaginary part of the complex phase velocity on at different values of the instantaneous modulus of elasticity.

For a Kirchhoff plate of variable thickness, we studied the first five modes with the lowest complex phase propagation velocities $C = C_R + iC_I$, where C_R - phase velocities of propagating waves; C_I - damping speed. Figure 5 shows the dispersion curves of the first mode depending on the thickness, which varies linearly. It is assumed here that both edges of the plate are free. Straight line I corresponds to a constant thickness $h_1=h_2=0.1$. In this case, the plate oscillates like a rod. Curve II - variant $h_1=h_2/2=0.05$; curve III - variant $h_1=h_2/100=0.001$, curve IV-

$h_1 = h_2 / 1000 = 0,0001$ and $E_{\min} = 6,9 \cdot 10^6 \text{ } \kappa / \mathcal{M}^2$, $E_{\max} = 6,9 \cdot 10^8 \text{ } \kappa / \mathcal{M}^2$, $\beta = 10^{-4}$. It is seen that at $\kappa > 9$ damping speed increases with k . For a plate of constant thickness C_r for a segment $10^{-4} < C < 70$ decreases in a straight line. It can be seen that the dependence of the damping coefficient on the wave number starts from the wave number 3.6. With the entrainment of the wave number, the damping coefficient tends to the side of decrease.




Fig.5. Dispersion curves of the first mode

I. $h_1=h_2=0.1$; II. $h_1=h_2/2=0.05$; III. $h_2/100 = 0.001$; IV. $h_1=h_2/1000=0.001$

The calculation results obtained by equations (8)-(11) are compared with approximate equations obtained on the basis of the Kirchhoff and Timoshenko hypotheses (23)-(30). Based on the numerical results, the following relationship was obtained

$$C_0 = C_R \sin(m\varphi), \quad (31)$$

at $m\varphi < 90^\circ$ ($m = 1, 2, \dots$), which is given in [16, 18]. The waves that appeared in the acute angle of the wedge were called wedge waves or Troyanovsky-Safarov waves. The damping decrements of these waves turned out to be small numbers, but they change rapidly, i.e. turned out to be nonmonotonic functions of the parameters of harmonic waves.

When the viscosity C_0 is taken into account, the velocities of these waves decrease to 15%. As the opening angle decreases, the corresponding damping coefficients also decrease exponentially. For the damping factor, based on the numerical results, the following empirical relationship is proposed

$$C_{0I} = -C_R e^{-3.2m} \sin(m\varphi). \quad (32)$$

In table. Figure 1 shows the limiting values of the real part of the phase velocity of the first edge mode as a function of the wedge angle. Columns 5-6 show the phase velocities for various boundary conditions found within the framework of the above-described method for calculating a three-dimensional wedge. Column 5 corresponds to the calculation option with three internal straight lines ($N = 3$) and boundary conditions (11), column 6 corresponds to the boundary conditions:

$$\begin{aligned} \varphi = -\frac{\theta_0}{2} : \quad \sigma_{\varphi\varphi} = \sigma_{\varphi r} = \sigma_{\varphi z} = 0; \\ \varphi = 0 : \quad u_r = u_z = \sigma_{\varphi\varphi} = 0. \end{aligned} \quad (32)$$

Column 6 shows the results of calculations obtained by formula (31).

Also in columns 3 and 4, according to the theory of Kirchhoff and Timoshenko plates, the limiting values of the real part of the phase velocity of the first edge mode, obtained in [20, 21], are given.

According to the numerical results and the results presented in Table 1, we can conclude that the calculation options according to the Kirchhoff, Timoshenko methods and the three-dimensional theory are consistent within 7% at the corners of the wedge. base thickness does not exceed 0.5 (wedge angle $\varphi_0 = 28^\circ$). Note that the limiting phase velocity for the angle $\varphi = 90^\circ$ was calculated in [15], where the value 0.901 ($\nu = 0.25$). Thus, in wedge-shaped waveguides with a sufficiently small wedge angle, in contrast to rectangular waveguides, it is permissible to use the theory of Kirchhoff-Love plates in the analysis of the dispersion dependence of the first mode.

Table 1. Limiting values of the phase velocity of the first edge mode depending on the wedge angle

R	θ_0	By Krichhoff hypothesis	By Timoshenko's hypothesis	By three-dimensional theory, boundary conditions (11)	By 3D theory, boundary conditions	By formula (3.36) $R_\lambda = R_\mu = 0$
0.2	one hundred	0.2260	0.1862	0.1761	0.2542	0.1827
0.3	150	0.3802	0.2964	0.2982	0.3082	0.2763
0.5	280	0.5385	0.4329	0.4626	0.4755	0.4335
0.7	400	0.7014	0.5535	0.5923	0.6059	0.5746
1	600	1.0144	0.6718	0.7294	0.7414	0.7368
2	900	2.8637	0.8441	0.8792	0.8949	0.9212

It is known that at sufficiently small wedge angles, the theory of Kirchhoff plates can be used. When analyzing the dispersion dependence of the first mode, as well as the modes of oscillations near an acute wedge angle, they are also satisfactorily described by the theory of plates. [15]. This phenomenon should be considered as a characteristic of the dynamic behavior of a waveguide of variable thickness. In the case of a sector cylinder, the first mode has a limiting frequency, and the phase velocity tends to infinity. At large wave numbers, the limiting phase velocity of this mode also corresponds to the velocity of the Rayleigh wave. When locking, the axial displacements are equal to zero, and the oscillations of an infinite viscoelastic cylinder of a sectorial cross section occur in a plane-strained state. In the second mode, only the real and imaginary parts of the axial displacement are observed at the cut-off frequency, circumferential and radial displacements are equal to zero. In contrast to edge waves on a sharp wedge, viscoelastic waves on an infinite cylinder with sectoral cross section do not have a limiting solution, since the outer radius tends to infinity.

4. Conclusions

Based on the results of the research, the following conclusions were made:

1. On the basis of numerical results, it has been established that the propagation velocities in the wedge-shaped plates, subject to the Krichhoff-Love and Timoshenko hypotheses, differ by up to 6%. To fulfill these hypotheses, the wedge apex angle must be up to 28° . If the vertex angle is in $28^\circ < \varphi < 90^\circ$ Within the limits, the results differ by up to 20%.

2. Asymptotic dependences describing the phase velocities of wedge-shaped waves (31) and (32), the so-called Troyanovsky-Safarov formulas, are obtained.

3. The damping decrements turned out to be small numbers, but they change rapidly, i.e. turned out to be nonmonotonic functions of the waveguide parameters. When viscosity is taken into account, COR is reduced to

15%. As the opening angle decreases, the corresponding damping coefficients also decrease exponentially.

LITERATURE:

1. Safarov I. I., Kh T. M., Ruziyev T. R. Methods for Assessing the Seismic Resistance of Subterranean Hydro Structures under the Influence of Seismic Waves.
2. Safarov, I. I., Kh, T. M., Boltayev, Z. I., & Ruziev, T. R. (2022). Propagation of Proper Waves in a Viscoelastic Timoshenko Plate of Variable Thickness. *Int J Eng Tr and Tech*, 70, 252-256.
3. Safarov, I. I., Teshaev MX Akhmedov M. Sh, and T. R. Ruziyev. "Application Of The Method Of Finite Element For Investigation Of The Dynamic Stress-deformed Condition Of Pipeline Sides When Exposed External Loads." *Case Studies Journal ISSN (2305-509X)-Volume 6* (2017): 38-45.
4. Teshaev, M., Safarov, I., Boltaev, Z., Sobirova, R. N., & Ruziev, T. (2022, November). Propagation of natural waves in extended viscoelastic plates of variable thickness. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2647, No. 1). AIP Publishing.
5. Kuldashov, N., Boltaev, Z., Xudoyberdiyev, M., Juraev, U., & Ruziyev, T. (2023). Natural waves in a spatial viscoelastic cylinder with a radial crack. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 417, p. 06014). EDP Sciences.
6. Safarov, I. I., Teshaev, M. X., Boltayev, Z. I., Nuriddinov, B. Z., & Ruziyev, T. R. (2022, December). Stationary deformation of cylindrical shells with viscoelastic filler. In *Journal of Physics: Conference Series* (Vol. 2373, No. 2, p. 022038). IOP Publishing.
7. Boltayev, Z., Safarov, I., Teshaev, M., Sharipova, D., & Ruziyev, T. (2022, November). On the action of normal moving load on a viscoelastic three-layer cylindrical shell. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2647, No. 1). AIP Publishing.
8. Sh, A. M., Ruziyev, T. R., Umarov, A. O., & Atoev, A. B. (2018). Spatial Oscillations Varied Viscoelastic Pipeline under AC Varied Internal Pressure. *World Wide Journal of Multidisciplinary Research and Development. WWJMRD*, (4), 2.
9. Zaitsev BD, Kuznetsova IE, Borodina IA Characteristics of acoustic plate waves in potassium neonate (KNbO₃) single crystal, *Ultrasonics*, 39(2001). -2001. -pp. 51–55.
10. Ewing WM, Jardetzku WS, Press F. *Elastic Waves in Layered Media*, McGraw-Hill, New York, 1962, 357 p.
11. I. I. Safarov, Z. F. Dzhumaev, Z. I. Boltaev. Harmonic waves in an infinite cylinder with a radial crack, taking into account the damping ability of the material. *Problems of Mechanics of Uzbekistan*. 2011, No. 4, pp. 20-25.
12. Safarov II, Boltaev ZI Propagation of harmonic waves in a plate of variable thickness. *News of higher educational institutions. Volga region. Series: physics-mathematical sciences*, No. 4, 2011, p. 31-39.
13. Safarov I.I., Teshaev M.Kh., Boltaev Z.I. Mathematical modeling of the wave process in a mechanical waveguide with allowance for internal friction. Germany. LAP. 2013. 243p.
14. Yu. K. Konenkov, "On a Rayleigh-type bending wave," *Acoust. magazine* - 1960. - V. 6, issue. 1. - pp. 124–126.
15. Safarov II, Akhmedov M. Sh., Boltaev ZI Ducting in Extended Plates of Variable Thickness. *Global Journal of Science Frontier Research: F Mathematics & Decision Sciences*. 2016. Volume 16, Issue 2 (Ver.1.0). P.33-66.
16. Koltunov M.A. Creep and Relaxation. - M.: Higher School, 1976.- 276s.
27. S.K. Godunov. On numerical solutions of boundary value problems for systems of linear ordinary differential equations. – *Uspekhi matematicheskikh nauk*, 1961, vol. 16, no. 3, pp. 171-174
- 17 V.I. Myachenkov, I.V. Grigoriev. Calculation of composite shell structures on a computer: *Spavochnik*. -Moscow: Mashinostroenie, 1981.-216p.

IJTIMOIIY FANLAR

XOJA AHROR VALIYNING “RISOLAYI HAVROIYA” ASARIDA ILOHIY MUHABBAT TUSHUNCHASI

*Xolidaxon Xolikovna Raxmatova, Buxoro davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası
professori, falsafa fanlari doktori(DSc)
holidarahmatova7@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xoja Ahror Valiy ma’naviy merosining Xuroson tasavvuf maktabini asoschisi yirik mutasavvif Abu Said Abul Xayr (vaf. 440/1048) bilan bog‘liq jihatlarini o‘rganilgan. Xoja Ahror Valiyning “Risolayi Havroiya” (Hurlar risolasi) asari Abu Said Abul Xayr tomonidan yozilgan, bemor kishiga o‘qilsa sharofatli hisoblangan va shuning uchun juda ko‘p kishi tomonidan sharh etilgan ruboiyning tahliliga bag‘ishlangan.

Kalit so‘z va iboralar: Naqshbandiya ta’limoti, Xoja Ahror Valiy, mutasavvif, Abu Said Abul Xayr, hurlar, rizvon, koinot, mushohada, inson ruhi.

КОНЦЕПЦИИ БОЖЕСТВЕННОЙ ЛЮБВИ В «РИСОЛАИ ХАВРОИЯ» ХОДЖИ АХРОРА ВАЛИ

*Холидахон Холиковна Рахматова, Профессор кафедры "Социальные науки"
Бухарского государственного педагогического института
Доктор философских наук (DSc)
holidarahmatova7@gmail.com*

Аннотация: В данной статье рассматриваются аспекты духовного наследия Ходжи Ахрара Вали, связанные с великим мистиком Абу Саидом Абул Хаиром (ум. 440/1048), основателем Хорасанской школы мистицизма. «Рисалаи Хавройя» («Трактат о хуррах») Ходжи Ахрара Вали посвящен анализу рубаи, написанного Абу Саидом Абул Хаиром, который считался благоприятным при чтении больному человеку и поэтому комментировался многими людьми.

Ключевые слова и фразы: Учение Накшбандия, Ходжа Ахрар Вали, мистичесизм, Абу Саид Абул Хайр, Хавраия, ризван, вселенная, наблюдательность, человеческий дух.

CONCEPTS OF DIVINE LOVE IN KHODJA AKHRORA VALI'S “RISOLAI KHAVROIA”

*Kholidakhon Kholikovna Rakhmatova, Professor, Department of Social Sciences
Bukhara State Pedagogical Institute Doctor of Philosophy (DSc)
holidarahmatova7@gmail.com*

Annotation: This article discusses aspects of the spiritual heritage of Khoja Akhrar Vali associated with the great mystic Abu Said Abul Khair (d. 440/1048), the founder of the Khorasan school of mysticism. “Risalai Khavroya” (“Treatise on Khurrah”) by Khoja Ahrar Vali is devoted to the analysis of the rubaiyat written by Abu Said Abul Khair, which was considered favorable when reading to a sick person and therefore was commented on by many people.

Key words and phrases: Teachings of Naqshbandia, Khoja Ahrar Vali, mysticism, Abu Said Abul Khair, Khavria, rizvan, universe, observation, human spirit. Kirish (Введение/Introduction).

XV asrning ikkinchi yarmida Xoja Ahrorning mamlakat siyosiy, iktisodiy va madaniy-ma’naviy hayotidagi mavqei kuchaygan, mutasavvif naqshbandiya tariqatini nazariy jihatdan boyitibgina qolmay, balki undagi «dast ba kor, dil ba Yor» - «qo‘l mehnatda, dil Allox yodi bilan band bo‘lsin», degan shiorini amaliyotga joriy etgan. Mazkur yo‘nalishda Xoja Ahror Valiy bir necha asarlar yozgani xam ma’lum.

«Risolai Havroiyya» («Hurlar xakida risola») Shayx Abu Sa'id Abulxayrga (XI asr) tegishli bir tasavvufiy ruboiy sharhiga bag'ishlangan: «Risolai Validiyya» («Otaga atalgan risola»), tasavvufiy risola (Xoja Ahror uni o'z otasining iltimosiga ko'ra yozgan), «Faqarot ul-orifiyn» («Oriflar hayotidan lavhalar») naqshbandiya tariqatining nazariy tahlilini o'z ichiga olgan. Xoja Ahror o'z risolasida Shayx Abusaidning ruboiysidagi badiiy obrazlar tasavvufiy ma'nolarini muhokama qilgan. Avvalo, bu ruboiyni bemor tepasida o'qishdan maqsad muhabbatli kishilarning sururiga sabab bo'lish ekanini ta'kidlagan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya (Литература и методология/Methods). Xoja Ahror Valiyning «Risolai Havroiyya» (Hurlar risolasi) va mutaqaddamin va mutaaxxirin mashoyixlar naqli bilan bog'liq 52 ta rashhalarining 39-chisi(8, 352) Abu Said Abul Xayr ijodini tahlili bilan bog'liq. Xoja Ahror Valiyning «Risolai Havroiyya» – asarining nusxalari O'z FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda.(2, 23)

«Risolai Havroiyya» (Hurlar risolasi) Abu Said Abul Xayr tomonidan yozilgan, bemor kishiga o'qilsa sharofatli hisoblangan va shuning uchun juda ko'p kishi tomonidan sharh etilgan ruboiyning tahliliga bag'ishlangan. Chunki ilgari sharhlar Xoja Ahrorni qoniqtirmagan va o'zi bu ruboiyni tahlil etish maqsadida «Hurlar risolasi» nomi bilan mo'jazgina, lekin boy tasavvufiy mazmunni o'ziga olgan asarni yozgan.

«Risolai Havroiyya»da Abu Said Abul Xayrning quyidagi mashhur ruboiysini Xoja Ahror sharhlab, o'zining insonga oid qarashlarini bayon etadi:

Huro ba nazzorai nigoram saf zad,
Rizvon z-taajjub kafi xud bar kaf zad.
On xoli siyah bar on ruxon mutraf zad,
Abdol zi biym chang bar mus'haf zad. (383, 12)

Bu ruboiyning asosiy so'zlariga Xoja Ahror tomonidan sharh va izohlar berilgan. Shular asosida ruboiyni o'zbek tilidagi tabdilini quyida keltiramiz. Xoja Ahror «Risolai Havroiyya» asarining boshida, sharhlardan oldin inson haqida fikr yuritadi. U insonni tana va ruhdan iborat ilohiy mavjudot sifatida ko'rib tahlil etadi. Ruhlarini Haq o'z Jamolini muhoshadasi uchun yaratgan, deydi Xoja Ahror. Ruh tanaga kirganda o'z asli Haq Jamolidan hijoblar bilan to'siladi. Ammo asl holatda inson ruhida Haq Jamoli bilan muhabbat va unsiyat hosil bo'ladi. Jaloliddin Rumi aytgandek, nay aslidan uzilib yana unga yetish uchun nola qilganidek, inson ruhi doimo asliga tomon intiladi. Lekin ruhlar asl holatlariga qaytishga intilsalar ham, xohlasalar ham taqdir taqozosi bilan qayta olmaydilar. Odam (alayhissalom) qancha Jamolga intilsa ham farzandlari, badan bog'lanishlari tufayli hijob-pardalar hosil bo'lganini misol tariqasida Xoja Ahror yozadi.

Natijalar (Результаты/Results). Xoja Ahror insonlarni ikki toifaga bo'ladi. Biri bog'lanishi va taalluqlar pardasiga o'ralib o'z aslini unutib, kufru isyon yo'liga o'tadi. Ikkinchi qism payg'ambar va valiyalar yordami bilan aslini xotirlaydi va imyon nuri bilan munavvar bo'ladi. Natijada Haq Jamolini hech unutmaganlaridek ularda kuchli ishtiyoq paydo bo'ladi. «Muhabbat otashi ularning dillarida shunday o'rnashdiki, bu otash o'shal Jamol mushohada yodisiz taskin topmaydi. Agar bu otash ularni qattiq kuydirsayam, lekin bu otashsiz turolmaydilar.»(22, 12). Ikkinchi toifa- nurli, imyonli, komil insonlar uchun o'lim asl bilan bog'lanish, visol sururidir. Shuning uchun o'lim haqida gapirganda ular shod bo'ladilar. Xoja Ahror yozadi: «Ular shunday toifaki, biror zahmat-bemorlik yetganda ularga bir kishi shu holatlarida o'lim haqida gapirsa, ular shod bo'ladilar, zero, biladilarki, o'shal Jamol mushohadasini topish o'limsiz hosil bo'lmaydi.» (23, 12) Bu xabardan shod bo'lgan bemorning badaniga ham yengillik, hosil bo'ladi, deb yozadi Xoja Ahror «Haqiqiy Jamol mushohadasi lazzati bu olamdan o'tgandan keyin bo'ladi» – deb Xoja Ahror payg'ambarimiz Muhammad (sallallohi alayhi vasallam)ni «kim Menga Safar oyining chiqqanidan xabar bersa, Men unga Jannat bashoratini qilaman» hadisi orqali bu fikrni isbot etadi.

Xoja Ahror «o'limni eslash ulug'larning shodligi» ekanini, yuqorida tilga olgan Abu Said Abul Xayrning ruboiysi shu ma'noda bo'lganligi uchun bemorga muhabbat sururini, Haqqa qaytish zavqu shavqini berishini aytib, har bir ruboiydagi asosiy tushunchani izohlaydi. Xoja Ahror aslini esda tutgan, Ilohiy Jamol ishqida kuyib, unga yetishishni orzu qilayotgan komil inson bemorlik holatiga nisbatan o'z sharhini yozadi.

Xoja Ahror ruboiyni boshidagi «Huro» so'zi hurlar va farishtalarni anglatishini yozadiki, ular o'layotgan ilohiy ishqda kuygan bemor boshiga kelib saf tortib, uni kuzatib turadilar. Birinchi qatordagi «nigor» Xoja Ahror fikricha mahbublik maqomidagi inson ruhi. Qur'oni Karimdagi Moida surasining 54-

oyati - “U ularni yaxshi ko‘radi, ular ham uni yaxshi ko‘radilar”ni Xoja Ahror asos sifatida keltiradi. Abul Said Abul Xayr ruboiysining birinchi qatori Xoja Ahror sharhi bilan quyidagi ma‘no oladi:

Hurlar, farishtalar mahbublik maqomidagi ruh – nigoroni kuzatib, nazzora etib, saf tortdilar. Xoja Ahror bu holat mahbublik maqomidagi insonda bo‘ladi deb ta’kid etadi.

Muhokama (Обсуждение/Discussion). Ruboiyning ikkinchi qatoridagi “Rizvon”-dan murod esa dil bog‘i (jannat)ni qo‘riqlovchi aqldir,” deb Xoja Ahror dilni jannat bilan qiyoslaydi, “Ammo dil behishtga tabiat do‘zaxidan o‘tmaguncha yetmaydi” deb, Xoja Ahror ruh tanaga kirib, moddiy olam, shahodat olamida o‘z o‘rnini topib, bandalikni o‘rniga keltirganidagina qalb jannatga aylanishini yozib, moddiy olamdagi pokiza hayot kechirish ruh kamoloti uchun naqadar muhimligini ta’kid etadi. “Taajjub” so‘zini Xoja Ahror qalbni o‘zidan uzoq narsalarni bilib qolishi va bu esa aqlni hayratga tushishiga sabab ekanligini aytadi. Bundan kelib chiqib Abu Said Abul Xayr ruboiysini ikkinchi qatorini shu mazmunda tabdil etish mumkin:

Rizvon – qalb, dil jannatini qo‘riqlovchi aql (qalbni) ogohligidan taajjubga tushib, o‘z kaftini kaftiga urdi. Bu holat hayratdan lol bo‘lgan paytda insonga beixtiyor sodir bo‘ladi. Bu go‘zal holat aqlni lol etgan, hayratga solgan. Bu bilan Xoja Ahror qalbni ko‘rishni, anglash, dark etish darajasini cheksizligi va aqlni bilish darajasi chegaralanganligini ham ta’kid etmoqda.

Xoja Ahror ruboiyni uchinchi qatoridagi “xoli siyox” – qora xolni o‘lim vaqtida zuhurga keladigan xorlik, mazallat va kamtarliklar, deb sharh etadi. Shu qatorda “mutraf” so‘zi bor. Uni mazmuni “yuzni yopuvchi parda, hijob”(776, 15) -dir. Sharh va izohlar bilan ruboiyni uchinchi qatorini shunday mazmunda yozish mumkin:

O‘shal qora xol – o‘lim holati, ruhlar uchun hijob, pardani olib tashladi. (Ularga vasl bilan qo‘shilish uchun imkon berdi.)

Shuning uchun bo‘lsa kerak tasavvuf ahli “o‘limdan oldin o‘lmoq”ni istaydilar. Shuning uchun bo‘lsa kerak Bahouddin Naqshband: “Gar bimorem hech motam ne”, ya’ni “agar biz o‘lsak motam emas” – deb ta’kid etganlar.

Ruboiy to‘rtinchi qatoridagi “Abdol” va “Mus’haf”ni Xoja Ahror quyidagicha sharh etgan: “Abdoldan maqsad nafsoniy quvvatdurki, inson mohiyatida har xil o‘zgarishlar yasaydigan narsadir. Mus’hafdan murod esa Kull mazhari, jam’lik nusxasi bo‘lgan inson haqiqatidir.” (383, 15)

“Abdol” – Xudoga yaqin, xudoning xos kishilari bo‘lib, ular yetmish kishidan iborat.” Xoja Ahror shu yetmish quvvatni insonni botinida mavjudligini aytadi. Mus’haf – Qur’oni Karimni ham shu nom bilan ataydilar. Bu yerda Mus’haf – Qur’on qanday Olloh kalomi bo‘lib, butun Olam mohiyatini aks ettirsa, inson ham – Mus’haf – Olloh-Kullning zohir bo‘ladigan joyi, jam’ maqomidagi nusxa bo‘lib, uni Xoja Ahror inson haqiqati deydi. U yerda Qur’oni Karimdagi “Fussilot” surasidagi 53 oyatni keltirib, uni izohida yozilgan va inson mohiyatini ochib beradigan quyidagi ruboiyni keltiradi:

Ey nusxai nomai ilohi, ki tui,

Va ey oinai jamoli shohi, ki tui.

Berun zi tu nest, har chi dar olam hast,

Dar xud bitalab, har on chi xohi, ki tui.

Mazmuni:

Ey ilohiy noma nusxasi, sensan,

Ey Shoh jamoli ko‘zgusi, sensan.

Olamda nima bor bo‘lsa, senda bordir,

O‘zingdan talab qil, har nima istasang, o‘zingsan.

Abu Said Abul Xayr ruboiysini to‘rtinchi qatorida “chang solish”ni Xoja Ahror “o‘zlarining rutbasi pasayib, ruh martabasi oliy bo‘lganligidan ruhga yopishishdir”– deydi. Umuman ruboiyni to‘rtinchi qatorini quyidagicha tabdil etish mumkin:

(O‘lim holatida ruhiy olam sururini ko‘rib) abdol – barcha nafsoniy quvvatlar qo‘rqib, asl mohiyat, inson haqiqati bo‘lgan Mus’hafga yopishdilar. Xoja Ahrorning Abu Said Abul Xayr ruboiysini sharh, izoh, tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, inson kamoloti, haqiqiy asl mohiyatni topish, ilohiy ishq ila mahbublik maqomiga yuksalish uchun o‘limni eslash, “orbitai mavt”²⁴ning ahamiyati kattadir, foniy va boqiy, o‘zgaruvchan va abadiy narsalarni bilish inson uchun muhimdir. Xoja Ahrorning bu sharhlari Alisher

²⁴ Робитаи мавт – Нақшбандия тариқатидаги ўлим билан боғланиш ҳолатига мансуб амалиёт.

Navoiyning quyidagi mashhur misralari bilan hamohangdir:

O‘z vujudingni tafakkur aylagil,
Har na istarsen, o‘zingdan istag‘il.

Xoja Ahror rashhalari tufayli biz yana bir bor tasavvufga berilgan ta’riflarning eng yaxshisini angladik. Darhaqiqat, vaqt qadrini bilish har nafas, har onni to‘g‘ri o‘z o‘rniga sarflash jamiyat va inson kamoloti uchun zarur.

Xulosa (Заключение/Conclusion). Xulosa qilib aytish mumkinki, Xoja Ahror Valiyning Abu Said Abul Xayr ruboiysining sharhiga doir asari va tasavvufga oid hikmatli so‘zini ifodalovchi rashhasi uning inson, inson mohiyati, haqiqiy inson, ruh, tana, o‘lim, ilohiy ishqga oid tasavvufiy tushunchalarini anglashga imkon beradi. Bularni anglash Xoja Ahror shaxsiyatini chuqurroq bilish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бертелс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – Москва: Наука, 1965
2. Бобохонов Ш., Мансур А. Накшбандийя тариқатига оид қўлғемалар фихристи. Т.: Мовароуннахр, 1993. 22-23-бетлар.
3. Knish A.D. Musulmon tasavvufi. - Tarjimon Qodirqul Ro‘zmatzoda-Toshkent, “Fan ziyosi” nashriyoti, 2022.-448 b.
4. Komilov N. Tasavvuf. Toshkent: “Movarounnahr”- “O‘zbekiston”, 2009. – 446 b.
5. Каримов Э. Рол, место и социальные позиции духовенства Мавераннахра в ХЙв. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата исторических наук. -Ташкент: 1990.; Некоторые черты хозяйственной и политической деятельности Ходжа Ахрара // Узбекистан: страницы истории. -Ташкент: 1991. - С.5-7.
6. Mirzo Kenjabek. Hazrati Xoja Ubaydulloh Ahror: “Risolayi volidiyya” nazmiy tarjimasi va sharhi. -Toshkent: Sharq, 2019.
7. Sharipov A.Z. Inson manfaatlarini taminlash va halq bilan muloqot qilish jarayonlarida ijtimoiy hamkorlik. Imom Buxoriy saboqlari. Manaviy-marifiy, ilmiy-adabiy jurnal. №3, 2017– Samarqand, 2017. B.73-76
8. Navro‘zova G.N., Raxmatova X.X. Naqshbandiya tushunchalari genezisi. “Buxoro” nashriyoti, 2010. 232 b.
9. Faxriddin Ali Safiy. Rashahot: (Obi Hayot tomchilari). – Tabdil va so‘ng so‘z muallifi M.Hasaniy. – T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tib-nashr., 2003. 352-bet.
10. Ijtimoiy siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug‘ati. N.Mahmudov tahriri ostida. Toshkent. Sahhof nashriyoti, 2021. 304 b.
11. Идрис шах. Суфизм. М. 1994.
12. Xoja Ubaydulloh Ahror. Risolai Havroiyya/Tabarruk risolalar. Nashrga tayyorlovchi, tarjimon, so‘z boshi va izoh mualliflari – M.Hasaniy, B.Umrzoh, H.Amin. – T.: Adolat, 2004. 21-25-betlar.
13. Xoja Ubaydulloh Ahror. Tabarruk risolalar/ Tarjimonlar Mahmud Hasaniy, Bahriddin Umrzoq, Hamidulloh Amin. - Toshkent: Adolat, 2004.
14. Raxmatova X.X. The world importance of the teachings of Khoja Ahror Vali. Academicia aninternational Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) 2021, r 1508-1512
15. Фарҳанги забони тоҷики. Том 1. Москва: 1969. 26-б.

SHARQ MUTAFAKKIRILARINING YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH BORASIDAGI QARASHLARI

Umedjanova Malika Lukmanovna, BuxDPI Umumiy pedagogika kafedrası o'qituvchisi
umedjanovamalika1405@gmail.com

Annotatsiya: O'zbek eli qadimiy va boy ma'naviy merosga ega bo'lib, jahon ilm-fani, madaniyati, san'ati, adabiyoti, falsafasi, pedagogika va psixologiyasi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan Xalqlardan biri hisoblanadi. Uning olim-u mutafakkirlari insoniyatni ma'rifatli qilish, axloqiy qoidalarni to'g'ri belgilash, hayot yo'llarini aniq tanlash masalalari to'g'risida fikr yuritib, ijtimoiy pedagogik fanlar mazmunini boyitishga hissa qo'shdilar.

Kalit so'zlar: Oila, oilaviy hayot, do'stona va sog'lom oila, qadimiy va boy ma'naviy meros, oilada totuvlik, muhabbatga sadoqat, insoniy fazilatlar.

МНЕНИЯ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ О ПОДГОТОВКЕ МОЛОДЕЖИ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Умеджанова Малика Лукмановна, Преподаватель кафедры общей педагогики БухДПИ
umedjanovamalika1405@gmail.com

Аннотация: Узбекский народ обладает древним и богатым духовным наследием и считается одним из народов, внесших большой вклад в развитие мировой науки, культуры, искусства, литературы, философии, педагогики и психологии. Ее ученые и мыслители способствовали обогащению содержания социальных и педагогических наук, размышляя над вопросами просвещения человечества, правильного определения нравственных правил, выбора правильного образа жизни.

Ключевые слова: Семья, семейная жизнь, дружная и здоровая семья, древнее и богатое духовное наследие, семейная гармония, преданность любви, человеческие качества.

VIEWS OF EASTERN THINKERS ON PREPARING YOUNG PEOPLE FOR FAMILY LIFE

*Umedjanova Malika Lukmanovna Lecturer at the Department of General Pedagogy at
BukhSPI*
umedjanovamalika1405@gmail.com

Abstract: The Uzbek people have an ancient and rich spiritual heritage and are considered one of the peoples who have made a great contribution to the development of world science, culture, art, literature, philosophy, pedagogy and psychology. Its scientists and thinkers contributed to the enrichment of the content of social and pedagogical sciences, reflecting on the issues of enlightenment of humanity, the correct definition of moral rules, and the choice of the right way of life.

Key words: Family, family life, friendly and healthy family, ancient and rich spiritual heritage, family harmony, devotion to love, human qualities.

Ma'lumki, o'zbek eli qadimiy va boy ma'naviy merosga ega bo'lib, jahon ilm-fani, madaniyati, san'ati, adabiyoti, falsafasi, pedagogika va psixologiyasi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan Xalqlardan biri hisoblanadi. Uning olim-u mutafakkirlari insoniyatni ma'rifatli qilish, axloqiy qoidalarni to'g'ri belgilash, hayot yo'llarini aniq tanlash masalalari to'g'risida fikr yuritib, ijtimoiy pedagogik fanlar mazmunini boyitishga hissa qo'shdilar.

Aytish joizki, sharqda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga qadimdan jiddiy e'tibor berilgan.

Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf xos Hojib, Unsur-ul Maoliy Kaykovus, Xo'ja Nosuriddin Tusiy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur merosida; Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan Muqimiy, Furqat, Nodira, Anbar Otin, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Fitrat asarlarida oila, oilaviy tarbiya, oilaviy hayot, shuningdek oila barqarorligi, oilada totuvlik, sevib turmush qurish, muhabbatga sadoqat, oilaga vafodorlik kabi yuksak insoniy fazilatlar mahorat bilan bayon etilgan. Mazkur insoniy tuyg'ular, fazilatlar o'zbek xalqi, o'zbek oilasi uchun xos xususiyatlar bo'lib, bu nomlari zikr etilgan allomalar, olimlarning asarlarida aksiologik yondashuv misolida o'z ifodasini topgan. Zotan, buyuk mutafakkirlarning oila hayoti, turmush tarzi, oilada bolalar tarbiyasi, o'g'il va qizlarni turmush qurishga tayyorlashga oid bildirgan fikrlari, oila urf-odatlar, an'analari, oilaviy hayot qadriyatlarini to'g'risida bayon etgan fikrlari ko'p asrlar davomida farzandlar tarbiyasi va ularni oilaviy hayotga tayyorlashda dastur vazifasida xizmat qilgan va shunday bo'lib qolmoqda. Chunonchi, ularning ilmiy – nazariy g'oyalari bugungi kunda, qaysikim Yangi O'zbekiston barpo etilayotgan bir jarayonda yoshlarni aksiologik yondashuv asosida oilaviy hayotga tayyorlash uchun muhim pedagogik manba bo'lib xizmat qilishi tabiiy.

Mutafakkir olim Abu Nasr Forobiy(873-950-yy.)ning o'z davrida yaratgan axloqiy-ma'rifiy g'oyalari bugungi davr yoshlari tarbiyasi va ularni oilaviy hayotga tayyorlash uchun asosiy vosita sifatida xizmat qilishi ijtimoiy hayotda isbotlangan. Uning falsafiy-pedagogik asarlarida bayon etilishicha, insonning baxt-u saodatga erishuvi oilada olgan ta'lim-tarbiyasi, odob-axloqi bilan belgilanadi. Olim oilaviy hayotga tayyor bo'lishi uchun avvalo har bir yosh ilm o'rganishi, amaliy tarbiya olishi, hayot to'g'risida nazariy hamda amaliy bilimlarni olishi zarur. Mutafakkir o'rta asr sharq sotsiologiyasi va pedagogikasi tarixida birinchi bo'lib ijtimoiy-axloqiy tizimni yaratishga harakat qildi. [1; 24-b.].

Sharq Uyg'onish davrining buyuk mutafakkirlaridan yana biri Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o'z davri ilmlarini chuqur o'rganib, o'zining falsafiy, ijtimoiy qarashlarida axloq, odob, xulq-atvor, oila va oilada bola tarbiyasi to'g'risida foydali fikrlarni bayon etdi. Insoniyatning turmush tarziga, jamiyat kishilari, turmush voqealariga xolisona baho bera oldi; zamondoshlari-yu keyingi avlodlarni hayotga va jamiyatga ongli, insoniy munosabatda bo'lishga da'vat etdi Beruniy inson odobi, axloqi, hayot va turmush hodisalariga ijobiy xulq bilan qaray olishi mumkinligi bilan barcha mavjudotlardan ustun turadi, shuning uchun u o'zining kelajagi hisoblangan farzandlarini yaxshilikka, adolatga, halollikka, rostgo'ylikka o'rgata oladi va shuning uchun u muruvvat hamda futuvvat sohibi hisoblanadi, deb ta'kidlaydi. Beruniy ta'lim-tarbiya to'g'risidagi ta'limotida ota-onalarga qaratib, bolaning xulqini mo'tadillikda saqlashga e'tibor berib, uni qattiq g'azablanishdan, qo'rqish va xafalikdan saqlash lozim deb o'rgatadi. Bolalarning xohlagan va foydali narsalarini topib berish va sevmagan narsasini ko'zdan uzoqlashtirish kerakligini uqtiradi. Olimning fikricha, bu ishning ikki xil foydasi bor: biri bolaning ruhiga foyda qiladi va bora-bora xushxulqlik unga odat bo'lib qoladi, zero, yomon xulq mijoz buzilishini keltirib chiqaradi. Shuningdek, agar yomon xulq odatga kirib qolsa, g'azabni kuchaytiradi, qayg'u va hafsalasizlikni bo'shashtiradi, bolani beg'amlikka moyil etadi. Xulqning mo'tadilligi natijasida ham nafas, ham badan sog'lom bo'ladi. Umuman, Beruniyning fikricha, oiladagi yomon tarbiya, faqat shu oilaning o'zigagina salbiy ta'sir qilib qolmasdan, balki atrofdagi boshqa oilalarga ham yomon ta'sir qilishi mumkin. To'g'ri tarbiya – oila baxtining muhim asosidir [2; 38-b.].

Abu Ali ibn Sino (980-1037) Sharq va G'arbiy Yevropa fanida ilmiy asarlari bilan faylasuf-pedagog sifatida nom qozongan buyuk qomusiy olim sifatida tibbiyot, falakiyot, fizika, matematika, kimyo, biologiya, dorishunoslik, ruhshunoslik, fiziologiya, filologiya, falsafa, pedagogika, axloqshunoslik va jismoniy tarbiyaga oid ko'plab fanlarni o'z g'oyalari bilan boyitgan alloma ekanligi ma'lum.

Uning qalamiga mansub bo'lgan “Risola fiy'l axloq” (Axloq haqida risola), “Donishnoma”, “Tib qonunlari”, “Risolat al-axd” (Axd risolasi), “Ruhni tozalash haqida risola”, “Badanni boshqarish kitobi”

kabi risolalarida axloq, xulq-atvor, yurish-turish odobi to'g'risida mulohaza yuritilgan. Olim O'rta Osiyo Xalqlari hayotini o'rganar ekan, Xalqning an'analari, odatlari, turmush tarzining bir-biriga bog'liqligini, ular axloqqa doir ko'plab muammolarni ijobiy hal qilishga yordam berishini alohida qayd etadi.

Ibn Sino "Donishnoma" asarida o'z davridagi ilmlarni "amaliy" va "nazariy" ilmlarga ajratadi.

Amaliy ilmlarning o'zini ibn Sino yana uch turga bo'ladi:

- 1) mamlakatni, ya'ni "jamoani" idora qilish;
- 2) uyni "oilani" idora qilish;
- 3) o'z-o'zini idora qilishga ajratadi"[3; 102-b.].

Bundan ko'rinadiki, inson o'z-o'zini idora qilishi orqali oilani va mamlakatni idora qilish qobiliyatiga ega. Buning uchun u ilm o'rganishi, tabiat va jamiyatni idora etish ilmini egallashi lozim bo'lgan siyosat hisoblanadi. U o'zining "Axloq haqidagi risola" nomli kitobida inson va uning oiladagi hayoti to'g'risida gapirib, u yaxshi-yomon xulqni oilada tarbiya orqali o'rganadi deb ta'kidlaydi. Buning uchun oilada ijobiy xulqlarni tarbiyalashga e'tibor qaratib, yaxshi fazilatlar – donolik, jasurlik, aqllilik va adolatparvarlikni oilada o'rganishi lozim, deb hisoblaydi. Demak, inson axloqi, xulq-atvorining yaxshi yoki yomon bo'lishi yaratgandan emas, asosan, oila sharoiti va kishining o'ziga bog'liq ekan.

Unsur-ul Maoliy Kaykovus (1022-y. tug'ilgan, vafoti noaniq) – Sharq pedagogikasi olamida munosib mavqega ega alloma. U 63 yoshida o'g'li Gilonshohga bag'ishlab "Nasihatnoma"sini yaratdi va o'sha davr an'anasiga ko'ra, uning bobosi Shams-ul Maoniy Qobus sharafiga "Qobusnoma" deb nomladi. Asarda bola tarbiyasi, oilaviy hayot, inson kamoloti masalalari bayon etilgan. "Qobusnoma" asosini "Qur'oni Karim" suralari, Muhammad (sallallohu alayhi vasallam)ning faoliyati va ko'rsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli hikoyalar tashkil etadi. Asar 44 bobdan iborat bo'lib, dastlabki 4 bobi Haqni tanimoq, Payg'ambarlarning xilqati (yaratilishi), Alloh ne'matiga shukr qilmoq to'g'risida bo'lib, qolgan 40 bobi ota-onani hurmat qilish, haqqini bilish, farzand parvarish qilish, bu to'g'rida ota-onalarga maslahatlar, ilmiy bilimlar va san'atni egallash, har bir savdo, dehqonchilik ishlari va hunarni o'rganish, oilada, jamoada odob-axloq qoidalariga rioya qilish, saxovat va javonmardlik kabi ko'plab masalalar to'g'risida so'z yuritiladi.

"Qobusnoma"da hunar va ilm jamiyatning asosiy omili, oila kichkina bir bo'g'ini bo'lib uni taraqqiy ettiruvchi kuch sifatida tavsiflanadi. Odamlar uch guruhga bo'linib, ularning jamiyatda tutgan o'rni belgilanadi; odamlarning fazilatlar ham uch guruhga bo'linadi: aqllilik, haqgo'ylik, javonmardlik [4; 29-37-b.]. Asar boblari mazmunida o'zligini tanimoq, shukur qilmoq, insonparvar bo'lmoq, notiq bo'lmoq, vaqt qadriga yetmoq, har ishda tartibli bo'lmoq, odob me'yorini bilmoq, mehmondo'st bo'lmoq, yaxshi xulq-atvorli bo'lmoq, mehr-muhabbatli bo'lmoq, farzand tarbiyalamoq, do'st tutmoq, ilm egallamoq, hisob-kitob va o'lchovni bilmoq kabi hayotiy masalalar, insoniy fazilatlar, nasihat, maslahat tarzida, nazariy va amaliy yo'nalishda bayon qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Farobiy A.N. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 160 b.
2. Beruniy R. Ruhiyat va tarbiya haqida// E.To'raqulov –Toshkent, 1992-y. – 304 b.
3. Ибн Сино. Данишنامه. –Тожикистон: Таджгосиздат1957. – С.139-140.
4. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: O'qituvchi, 2011. – 208 b.

HADISLARNING JAMIYATIMIZ HAYOTIDA TUTGAN O'RNI
Dilbar Nazarova Baxtiyor qizi, Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi
dilbarnazarova00@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada buyuk muhaddis olim imom al-Buxoriyning hayot yo'li va uning durdona asarlari to'g'risida so'z boradi. Jumladan, "Al-jome as sahih"da qanday hadislar jamlangani, ularning mazmun-mohiyati bugungi jamiyatimizning turmush tarzida tutgan roli haqida fikr yuritiladi.

Президент матбуот хизмати томонидан амалга ошириладиган медиа таҳлили қуйидаги йўналишларда олиб борилади:

1. Миллий медиада давлат раҳбари фаолиятининг йоритилишини мониторинг қилиш. Матбуот хизмати мутахассислари асосий ОАВларни кузатиб боради ва Президент фаолияти тўғрисидаги материалларни таҳлил қилади. 2022 йилда ўтказилган таҳлил натижаларига кўра, Ўзбекистон Республикаси Президентининг халқаро ташаббусларига бағишланган материаллар сони 2020 йилга нисбатан 2,5 баробар ошган.

2. Хорижий медиада Ўзбекистон Республикаси Президенти фаолиятининг ёритилишини таҳлил қилиш. Матбуот хизмати мутахассислари хорижий нашрлар, телеканаллар ва интернет-ресурсларни мониторинг қилади. Масалан, 2021-2022 йилларда хорижий медиада Президент Шавкат Мирзиёевнинг "Янги Ўзбекистон" концепцияси ва минтакавий ҳамкорлик ташаббусларига бағишланган материаллар сони сезиларли даражада ошганини кўрсатди.

3. Ижтимоий тармоқларда давлат раҳбари фаолиятини ёритишнинг таҳлили. Президент матбуот хизмати Facebook, Instagram, Telegram ва бошқа платформаларда нашр этилган материалларни кузатиб боради. Таҳлил натижаларига кўра, 2022 йилда Президентнинг ижтимоий соҳа ва аҳоли фаровонлигини оширишга қаратилган ташаббуслари ижтимоий тармоқларда энг кўп муҳокама қилинган мавзулардан бири бўлган.

Мисол 2: Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги матбуот хизмати

ТИВ матбуот хизмати медиа таҳлили жараёнида қуйидаги усуллардан фойдаланади:

1. Халқаро медиада Ўзбекистоннинг ташқи сиёсатига оид материалларни мониторинг қилиш. 2022 йил таҳлил натижаларига кўра, Ўзбекистоннинг Марказий Осиё минтақасидаги интеграция жараёнларидаги фаол иштироки хорижий медианинг асосий эътибор марказида бўлган.

2. Медиада Ўзбекистоннинг халқаро ташаббусларини ёритиш усулларини таҳлил қилиш. ТИВ матбуот хизмати томонидан ўтказилган контент-таҳлил шуни кўрсатдики, 2021-2022 йилларда Ўзбекистоннинг БМТ доирасидаги ташаббусларини ёритишда ижобий тенденция кузатилган.

3. Хорижий ваколатхоналар матбуот хизматларининг материалларини қиёсий таҳлил қилиш. Бундай таҳлил Ўзбекистон ТИВ матбуот хизматида ўз фаолиятини такомиллаштириш ва халқаро тажрибани ўрганиш имконини беради.

Мисол 3: "Дарё" интернет нашрининг медиа таҳлили

Ўзбекистондаги йирик интернет нашри "Дарё"нинг контентни таҳлил қилиш стратегияси қуйидагиларни ўз ичига олади:

1. Фойдаланувчилар фаоллигини таҳлил қилиш*. Нашр мутахассислари қайси материаллар кўпроқ ўқилишини ва муҳокама қилинишини аниқлайди. Масалан, 2022 йилдаги таҳлил натижаларига кўра, таълим, соғлиқни сақлаш ва ижтимоий ҳимоя мавзуларидаги материаллар энг кўп ўқилган.

2. Медиа бозорда рақобатни таҳлил қилиш. "Дарё" нашри бошқа онлайн нашрлар ва ижтимоий тармоқлар контентини кузатиб боради. Бу янги форматлар ва мавзуларни жорий этиш имконини беради.

3. Контентни оптималлаштиришга қаратилган таҳлил. Нашр материалларни тақдим этиш формати ва услубини мунтазам равишда таҳлил қилади. 2021-2022 йилларда нашр интерактив контент ҳажмини 40% га оширди, бу эса аудитория жалб қилишни сезиларли даражада оширди.

ЖАНУБИЙ КОРЕЯ МАТБУОТ ХИЗМАТЛАРИДА МЕДИА МАТНЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Жанубий Корея ахборот технологиялари соҳасида дунё етакчиларидан бири ҳисобланади, бу эса матбуот хизматларида медиа таҳлилининг замонавий усулларини қўллаш имконини беради. Бугунги кунда Жанубий Корея матбуот хизматлари медиа таҳлилининг илғор технологиялари ва

инновацион усулларида фаол фойдаланмоқда.

Жанубий Кореяда медиа таҳлилининг ҳукукий асослари

Жанубий Кореяда медиа матнлари таҳлили фаолияти қуйидаги ҳукукий ҳужжатлар билан тартибга солинади:

- "Ахборот коммуникация тармоқлари ва ахборот ҳимояси тўғрисида"ги қонун (2020 йилда янгиланган)

- "Телерадиокўрсатувлар тўғрисида"ги қонун

- "Матбуот эркинлиги ва жамоатчилик манфаатлари тўғрисида"ги қонун

- Миллий ахборот агентлиги томонидан қабул қилинган кўплаб меъёрий ҳужжатлар

Бу ҳукукий ҳужжатлар Жанубий Кореяда медиа таҳлили фаолияти учун замонавий ҳукукий асосларни белгилайди ва замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш имкониятларини очиқ беради.

Жанубий Корея матбуот хизматларида медиа таҳлили амалиёти

Жанубий Корея матбуот хизматларида медиа таҳлили амалиёти қуйидаги мисоллар орқали кўриб чиқиши мумкин:

Мисол 1: Korean Broadcasting System (KBS) матбуот хизмати

КБС матбуот хизмати медиа таҳлилида қуйидаги замонавий ёндашувлардан фойдаланади:

1. Биг Data технологияларидан фойдаланган ҳолда контент таҳлили*. КБС мутахассислари улкан ҳажмдаги медиа контентини қайта ишлаш учун махсус дастурий таъминотдан фойдаланади. 2022 йилда ўтказилган таҳлил шуни кўрсатдики, КБС материалларида "ҳалқаро ҳамкорлик", "пандемия", "рақамли иқтисодиёт" мавзулари энг кўп ёритилган.

2. Реал вақт режимида ижтимоий тармоқлар таҳлили*. КБС мутахассислари ижтимоий тармоқларда фойдаланувчилар реакциясини мониторинг қилиш учун "Сосиал Pulse" тизимидан фойдаланади. Бу тизим материалларни тақдим этиш форматини оператив равишда ўзгартириш имконини беради.

3. Прогнозли таҳлил (Предистиве Analytics). КБС матбуот хизмати мутахассислари сунъий интеллект технологияларидан фойдаланган ҳолда қайси мавзулар ва форматлар аудиториянинг юқори қизиқишига сазовор бўлишини башорат қилади. 2022 йилда ўтказилган тажриба шуни кўрсатдики, бундай башоратларнинг аниқлик даражаси 78% ни ташкил этди.

Мисол 2: Samsung компанияси матбуот хизмати

Samsung компанияси матбуот хизмати медиа таҳлилида қуйидаги усуллардан фойдаланади:

1. Глобал медиада бренд имиджини мониторинг қилиш. Samsung мутахассислари турли мамлакатлардаги медиа платформаларини кузатиб боради ва компания имиджининг ўзгаришини таҳлил қилади. 2022 йилдаги таҳлил натижаларига кўра, Самсунгнинг экологик ташаббусларини ёритиш сезиларли даражада ошгани аниқланган.

2. Рақобатчилар медиа стратегиясини таҳлил қилиш. Samsung матбуот хизмати мутахассислари рақобатчи компанияларнинг медиа фаолиятини ўрганади. Бундай таҳлил Samsung медиага таъсир этиш стратегиясини такомиллаштириш имконини беради.

3. Истеъмолчилар фикр-мулоҳазаларини таҳлил қилиш. Samsung мутахассислари ижтимоий тармоқлар ва Интернет-форумларида компания маҳсулотлари тўғрисидаги шарҳларни таҳлил қилади. 2021-2022 йиллардаги таҳлил шуни кўрсатдики, Samsung маҳсулотларининг инновацион хусусиятлари энг кўп ижобий баҳоланган жиҳат бўлган.

Мисол 3: "Ёнҳап" ахборот агентлиги матбуот хизмати

"Ёнхап" ахборот агентлиги матбуот хизмати медиа таҳлилида қуйидаги инновацион усуллардан фойдаланади:

1. Кўп тилли контент таҳлили. "Ёнхап" мутахассислари турли тиллардаги материалларни таҳлил қилиш учун махсус лингвистик алгоритмлардан фойдаланади. Бу агентликка глобал медиа маконида Жанубий Корея билан боғлиқ хабарларни кенг қамровли мониторинг қилиш имконини беради.

2. Семантик тармоқ таҳлили. "Ёнхап" мутахассислари медиада муҳокама қилинадиган мавзулар ва тушунчалар ўртасидаги ўзаро боғлиқликни аниқлаш учун семантик тармоқ таҳлилидан фойдаланади. 2022 йилда ўтказилган тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, Жанубий Корея ташқи сиёсати билан боғлиқ материаллар кўпинча иқтисодий ҳамкорлик ва маданий дипломатия мавзулари билан боғланган.

3. Медианинг таъсир доирасини баҳолаш. "Ёнхап" мутахассислари агентлик материалларининг жамоатчилик фикрини шакллантиришга таъсирини таҳлил қилиш учун комплекс методикадан фойдаланади. 2021-2022 йиллардаги таҳлил "Ёнхап" материалларининг маҳаллий ва минтақавий медиа муҳитига таъсири юқори эканлигини кўрсатди.

ЎЗБЕКИСТОН ВА ЖАНУБИЙ КОРЕЯ МАТБУОТ ХИЗМАТЛАРИДА МЕДИА ТАҲЛИЛИ ТАЖРИБАСИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ

Ўзбекистон ва Жанубий Корея матбуот хизматларида медиа таҳлили тажрибасини қиёсий ўрганиш ушбу соҳадаги умумий тенденцияларни ва ҳар бир мамлакатнинг ўзига хос хусусиятларини аниқлаш имконини беради.

Ўзбекистон ва Жанубий Корея матбуот хизматлари фаолиятида қуйидаги умумий тенденциялар кузатилади:

1. Рақамли технологиялардан кенг фойдаланиш. Ҳар икки мамлакат матбуот хизматлари ҳам замонавий технологиялардан фойдаланишга интилоқда, бироқ Жанубий Корея бу соҳада сезиларли даражада илгарилаб кетган.

2. Ижтимоий тармоқлар таъсирининг ортиши. Ўзбекистон ва Жанубий Корея матбуот хизматлари фаолиятида ижтимоий тармоқлар мониторинги муҳим ўрин тутади.

3. Медиага таъсир этиш стратегияларининг такомиллашуви. Иккала мамлакат матбуот хизматлари ҳам медиа маконига таъсир этишнинг янги усуллари излаш ва жорий этишга интилоқда.

4. Халқаро медиада мамлакатлар имиджини яхшилашга қаратилган ҳаракатлар. Ўзбекистон ва Жанубий Корея матбуот хизматлари халқаро медиа маконида ўз мамлакатларининг ижобий имиджини шакллантириш ва мустаҳкамлашга алоҳида эътибор қаратмоқда.

ФАРҚЛИ ЖИҲАТЛАР

Ўзбекистон ва Жанубий Корея матбуот хизматлари фаолиятида қуйидаги сезиларли фарқлар мавжуд:

1. Технологик таъминот даражаси. Жанубий Корея матбуот хизматлари сунъий интеллект, Big Data ва бошқа инновацион технологиялардан кенг фойдаланса, Ўзбекистон матбуот хизматлари бу соҳада ҳали ривожланиш босқичида.

2. Медиа таҳлили методологияси. Жанубий Корея матбуот хизматлари комплекс ва кўп қиррали таҳлил методологиясидан фойдаланади, Ўзбекистон матбуот хизматлари эса кўпроқ анъанавий усулларга таянади.

3. Глобал медиа маконига интеграция даражаси. Жанубий Корея матбуот хизматлари глобал медиа макони билан чуқур интеграциялашган, Ўзбекистон матбуот хизматларининг глобал медиа маконига интеграцияси эса ҳали тўлиқ амалга ошмаган.

4. Матбуот хизматлари фаолиятининг шаффофлиги. Жанубий Корея матбуот хизматлари фаолияти нисбатан юқори даражада шаффоф бўлиб, бу эса улар томонидан қўлланиладиган медиа таҳлили усуллари ўрганиш имконини беради. Ўзбекистон матбуот хизматлари фаолияти эса кўпинча ёпиқ характерга эга.

ЎЗБЕКИСТОН МАТБУОТ ХИЗМАТЛАРИ УЧУН ТАВСИЯЛАР

Ўзбекистон ва Жанубий Корея матбуот хизматларида медиа таҳлили тажрибасини қиёсий ўрганиш натижаларига кўра, Ўзбекистон матбуот хизматлари учун қуйидаги тавсияларни ишлаб чиқиш мумкин:

1-2 қани?

3. Медиа таҳлили соҳасида мутахассислар тайёрлаш. Ўзбекистонда медиа таҳлили соҳасида юқори малакали мутахассисларни тайёрлаш тизимини яратиш зарур.

4. Халқаро ҳамкорликни кенгайтириш. Ўзбекистон матбуот хизматлари Жанубий Корея ва бошқа ривожланган мамлакатларнинг матбуот хизматлари билан ҳамкорликни йўлга қўйиши керак.

5. Медиа таҳлили натижаларидан самарали фойдаланиш механизmlарини ишлаб чиқиш. Ўзбекистон матбуот хизматлари медиа таҳлили натижаларини қарор қабул қилиш жараёнига самарали интеграция қилиш механизmlарини яратиши зарур.

ХУЛОСА

Ўзбекистон ва Жанубий Корея матбуот хизматларида медиа матнлари таҳлили тажрибасини қиёсий ўрганиш натижасида қуйидаги хулосаларни чиқариш мумкин:

1. Матбуот хизматларида медиа матнлари таҳлили замонавий ахборот жамияти шароитида тобора муҳим аҳамият касб этмоқда.

2. Ўзбекистон ва Жанубий Корея матбуот хизматлари медиа таҳлилида бир қатор умумий тенденциялар кузатилади, шу билан бирга сезиларли фарқлар ҳам мавжуд.

3. Жанубий Корея матбуот хизматлари медиа таҳлилида замонавий технологиялар ва инновацион усуллардан кенг фойдаланади, бу эса Ўзбекистон матбуот хизматлари учун фойдали тажриба бўлиши мумкин.

4. Ўзбекистон матбуот хизматлари медиа таҳлили соҳасида ўз салоҳиятини ошириш учун Жанубий Корея тажрибасидан фойдаланиши ва шу билан бирга миллий хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда ўз ёндашувини ишлаб чиқиши зарур.

5. Медиа таҳлили соҳасида халқаро ҳамкорлик Ўзбекистон матбуот хизматлари учун муҳим ривожланиш йўналиши ҳисобланади.

Шундай қилиб, Ўзбекистон ва Жанубий Корея матбуот хизматларида медиа матнлари таҳлили тажрибасини ўрганиш Ўзбекистон матбуот хизматлари фаолиятини такомиллаштириш ва самарадорлигини ошириш учун қимматли маълумотлар беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Алимов, Р. (2022). Ўзбекистонда матбуот хизматлари фаолиятининг замонавий тенденциялари. Ахборот ва жамият, 3, 45-58.

2. Болтабоев, М. (2021). Ўзбекистон Республикаси давлат органлари матбуот хизматларининг медиа билан ўзаро ҳамкорлиги. Тошкент: "Фан" нашриёти.
3. Chang, X.Ж. (2022). Media analysis in Korean public relations: Technological approaches. Seoul: Korean Media Research Institute.
4. Kim, J. & Park, C. (2021). Digital transformation of media analytics in South Korean PR practices. Asian Journal of Communication, 32(3), 220-236.
5. Lee, C. (2022). AI-диривен media monitoring systems in Korean public relations. Journal of PR Research, 18(2), 112-128.
6. Қодиров, А. (2022). Ўзбекистон Республикаси Президенти матбуот хизматининг ривожланиш босқичлари. Замонавий ахборот технологиялари, 4, 78-89.
8. Собирова, Д. (2023). Матбуот хизматларининг медиа таҳлили салоҳиятини ошириш механизмлари. Журналистика, 2, 34-47.
10. Юн, Х. (2023). Сомпаративе студизс оф медиа контент анализис ин Эаст Асиан соунтриэс. Интернационал Жоурнал оф Коммунисатион, 17, 2345-2367.

ABDURAUF FITRAT LAPAR JANRINING TABIATI XUSUSIDA

Amonov Ulug'murod Sultonovich, BuxDPI dotsenti, filologiya fanlari falsafa doktori (PhD)

ulugmurod.amonov@mail.ru

<https://orcid.org/0000-0002-9612-2453>

Annotatsiya. Lapar o'zbek xalq og'zaki ijodidagi qadimiy janrlardan biri bo'lib, yigitlar va qizlarning dialog shaklidagi ijrosiga asoslangan. Mazkur maqolada Abdurauf Fitratning folklor, folklorshunoslik sohasidagi faoliyatiga, aynan lapar haqidagi nazariy qarashlariga alohida ahamiyat berilgan. Maqolada adibning birinchilardan bo'lib lapar janrining ruhiyati, ohangdorligi, shakliy ko'rinishi hamda ijosi masalalariga chuqur nazariy tahlillarini ilmiy jihatdan asoslab berganligi ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: folklor, folklorshunoslik, lapar, an'ana, ijro, an'ana, manbashunoslik, matnshunoslik.

ABDURAUF FITRAT ON THE CHARACTERISTICS OF THE LAPAR GENRE

Amonov Ulug'murod Sultonovich, Associate Professor at Bukhara State Pedagogical Institute, PhD in Philological Sciences

ulugmurod.amonov@mail.ru

<https://orcid.org/0000-0002-9612-2453>

Abstract. Lapar is one of the ancient genres of Uzbek folklore and is based on the performance of young men and women in the form of a dialogue. In this article, special importance is given to Abdurauf Fitrat's work in the field of folklore, folklore studies, and his theoretical views on lapar. The article reveals that the writer was one of the first to scientifically base his in-depth theoretical analyzes on the issues of the spirit, melody, appearance and performance of the lapar genre.

Key words: folklore, folklore studies, lapar, tradition, performance, tradition, source studies, textual studies.

АБДУРАУФ ФИТРАТ О ПРИРОДЕ ЖАНРА ЛАПАР

Амонов Улугмурод Султонович, Доцент Бухарского государственного педагогического института, кандидат филологических наук (PhD)

ulugmurod.amonov@mail.ru

<https://orcid.org/0000-0002-9612-2453>

Аннотация. Лапар является одним из древних жанров узбекского фольклора и основан на исполнении юношей и девушек в форме диалога. В данной статье особое значение придается деятельности Абдурауфа Фитрата в области фольклора, фольклористики, его теоретическим взглядам на лапар. В статье выявлено, что писатель одним из первых научно обосновал свои глубокие теоретические исследования вопросов духа, мелодики, облика и исполнения жанра лапара.

Ключевые слова: фольклор, фольклористика, лапар, традиция, перформанс, традиция, источниковедение, текстоведение.

Fitrat o'zbek folklorini yaxlit tizim sifatida qarab, unga xos janrlarga aloqador nazariy muammolar haqidagi fikrlarini 1926-yilda adabiyot sohasi mutaxassislarini tayyorlab yetishtirish uchun yaratilgan "Adabiyot qoidalari (adabiyot muallimlari va adabiyot havaslilari uchun qo'llanma" nomli kitobida bayon etdi. Shu jihatdan bu kitob nafaqat adabiyotshunoslik, balki folklorshunoslik sohasi tadqiqotchilari uchun ham o'shandan boshlab dasturulamal vazifasini o'tab keldi. Aslida o'tgan asrning 20-yillarida adabiyotshunoslikdan mutaxassislar tayyorlash uchun darslik vazifasini o'tagan bu kitobda yozma adabiyot nazariyasi bilan bir qatorda og'zaki adabiyot, ya'ni folklor nazariyasiga aloqador tushunchalarga ham yo'l-yo'lakay izoh berib o'tilgan. Bundan ko'rinadiki, o'sha paytda hali folklorshunoslik alohida fan sifatida o'qitilmay, unga aloqador tushunchalar adabiyotshunoslik tarkibida o'rgatib borilgan. Folklorshunoslikni bo'lajak mutaxassislariga o'rgatish ishi esa shu sohaning haqiqiy darg'asi Hodi Zarifov tashabbusi bilan XX asrning 30-yillarida yo'lga qo'yilgan. Shunga asoslanib, folklorshunoslar avlodi Hodi Zarifovni "fan otasi" deya atashadi.

Fitrat o'zbek folklorining janriy tizimi va tarkibi to'g'risida to'xtalar ekan: "Bizda el

adabiyotining turlari shulardir: *ashula, ertak, maqol, topishmoq, lapar, doston*”, – deb ko‘rsatadi va bu janrlarning har biri xususida misollar bilan alohida-alohida fikr yuritib, ularga qisqacha bo‘lsa-da, ta’riflar keltiradi.

Fitrat xalq lirikasining yana bir mustaqil janri – **laparlar** haqida ham alohida to‘xtalib, u “el adabiyotining eng ma’lum turlaridan biri” ekanligini e’tirof etadi. Bu to‘g‘rida shoir Elbekning laparlar haqidagi maqolasidan “Burunlarda bobolarimiz tomonidan to‘y-to‘yga ko‘chirilib, buyuk havas bilan aytilib kelgan bu “adabiyot” bukun so‘nar holga yetmishdir. Lapar “opera”ga yaqinroq bir ruhda aytilgan asar bo‘lib, buni qizning nikohidan bir-ikki kun burun o‘yun kechasida “kuy” bilan aytib o‘qiydirlar. Munda kelin bo‘lg‘uchi qiz o‘zining yaqin o‘rtoqlarini chaqirib, “bazzm kechasi” yasaydir. Buning bir kechasiga qizlardan tashqari xotunlar, kuyov tomonidan yigitlar ham keladirlar. Bu ko‘ngulli kechani boshqarish ishi qari xotunlarga topshirilganlikdan ular tartib saqlab, kechani juda yaxshi o‘tkazadirlar. Bu yasalg‘usi bazzm kechasida qizlar yana yigitlar o‘zlarining ko‘nglidagi narsalarini lapar yo‘li bilan bir-birlariga onglatadirlar. Laparni boshlash oldida qizlar bilan yigitlar orasiga turg‘usi xotunlardan biri laparning boshlang‘ichi bo‘lg‘an quyidagi laparni aytib, ularni laparga undaydir”, – degan fikrlarini iqtibos olgan. Elbek tomonidan misol olingan quyidagi boshlang‘ich laparni ham ilova sifatida keltiradi:

*Laparning avvali 3boshi – marmar toshi,
Chit ro‘molni ho‘l qilg‘on ko‘zimning yoshi.
Chit ro‘molim xosa-ye,
Qo‘limda chinni kosa-ye,
Qizlar lapar aytganda
Yigitlar quloq solsa-ye. [1.76.]*

Fitratning ta’kidlashicha, bu olti misrani o‘rtoq Elbek to‘rt misra qilib ko‘rsatgan. Fitrat esa uning so‘ng ikki misrasini ohangiga qarab to‘rt misra qilgan. Shu bilan hammasi olti misra bo‘ladi [5.97].

Bundan so‘ng yigitlar tartib bilan ushbu yo‘lda laparni boshlashi, uni bir gal qizlar va bir gal yigitlar aytib, tong ottirishi an‘anaga aylangani bildirib o‘tiladi. Olim bu fikrini tasdiqlash uchun “*Lapar aytasang to‘yda aytgil suluv qizlar qochar-o*”, “*Ko‘zamb olib suvga chiqsam, oh urodur bir yigit*”, “*Daryoning naryog‘ida bir tub g‘o‘za*”, “*Daryoning naryog‘iga qo‘y beramiz*”, “*Qizlarjon, qaynar buloqqa boshlamang*”, “*Subhidamning salqini so‘ldirdi gullar bargini*” deb boshlanuvchi olti banddan iborat qo‘shiq matnlarini dialog ko‘rinishida keltirganki, bu bilan laparlarning qiz va yigitlar tomonidan galma-gal, biri ikkinchisiga javob tariqasida ijro qilinishi anglashilib turadi.

Lapar aytish an‘anasi xususida keyinchalik taniqli folklorshunoslar Muzayyana Alaviya, To‘ra Mirzaev, Mamatqul Jo‘raevlar bildirgan fikr-mulohazalar bu haqda Elbek va Fitrat tomonidan ilgari surilgan qarashlardan deyarli farq qilmaydi. Masalan, T.Mirzaev lapar ijrochiligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarga qaraganda ilgarilari obu osh tortilgach, hovlida gulxan yoqilib, hovli bazzmi o‘tkazilgan. Shundan keyin qizlar ro‘mol yoyilgan uyga, ya‘ni kelinning sepi yoyilgan, maxsus tayyorlangan uyga kirganlar. Qizlar uy ichida, yigitlar tashqarida – eshik oldida yoki qizlar uyning to‘rida, yigitlar poygakda tik turishib lapar aytishgan. Lapar aytishni e’tiborli kayvoni ayol, hamma tan olgan laparchi childirma jo‘rligida yoki childirmasiz boshqarib turgan. Bunda boshqaruvchi ruxsati bilan ikki yigit o‘z belbog‘ini yechib, lapar aytib, o‘ziga ma‘qul bo‘lgan ikki qiz oldiga tashlaydi. O‘z navbatida, qizlar ham lapar bilan javob aytib, yigitlar belbog‘iga biror narsa: olma, nok, anor, tuxum, shirinliklar, qo‘l ro‘molcha yoki xat tugib qaytaradi. Buni “lapar solishtirish” deb aytyshadi. Shu tariqa lapar aytyshish davom etadi.

M.Jo‘raev o‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari asosida tartib berib chop ettirgan “Oy oldida bir yulduz” kitobida lapar haqida to‘xtalar ekan, avvalo, uning qadimiy odatlarimizga ko‘ra, nikoh to‘yi marosimi tarkibida “lapar kechasi” ko‘rinishida o‘tkazilishini, shunga binoan lapar to‘y marosimi fol’kloriga oid janr ekanligini, asosan, nikohdan bir kun burun o‘tkazilgan qizlar yig‘inida ijro etilishini, Sayramda yashovchi o‘zbeklar odaticha, “Maslahat kuni”da ro‘mol yozilib, sep yoyilib uy yasatilishini va bunda kuyov tomondan ikki xotin “to‘y muborak”ka kelishini, quda taraf ularni yaxshilab kutib olib, bir kiyimlikdan sarupo berib jo‘natishini, ertasi kuni “qozon oshi” qilinishini, bu kuni kuyov tomondan to‘rt xotin, to‘rt erkak sovg‘a-salomlar bilan kelishini, ularga ham hurmat-e’tibor ko‘rsatilishini, o‘sha kuni kechasi qiz ko‘rar bo‘lishini, kelin o‘z yangalari va dugonalari bilan yig‘ilishib turishini, to‘rt yanga va jo‘ralar hamrohligida kuyov yigit ham kelishini, ularni qizning yangalari kutib olishini hamda o‘rtasi ustunli uyning bir tarafida qizlar, ikkinchi tarafida yigitlar turishini, keyin yangalar “Kuyov jo‘ralar, o‘tiringlar-ov! O‘tiringlar!” deya uch marta xitob qilishini, uchinchi xitobdan keyin uyning bir tomoniga

qizlar, bir tomoniga yigitlar qarama-qarshi o'tirishini, yangalar "Qo'shgani bilan qo'sha qarisin!" deb fотиha qilgach, shundan so'ng qizlar laparni boshlab berishini ma'lum qiladi [4.109.].

Lekin T.Mirzaev laparni, odatda, kuyov tomondan biror yigit boshlab berishini ta'kidlaydi. Shuningdek, Elbek va Fitratlar kabi lapar boshlanmasi "boshlang'ich lapar" deyilishini, yana so'zga chechan, tajribali laparchi ayol jarayonni nazorat qilib turishini aytib o'tadi. Olim laparni yigit boshlamasligi lapar matnlarining o'zida ham ifoda etilganligiga quyidagi misolni keltiradi:

Avval boshlab aytganda, qiz boshlamas,
Qiz boshlagan laparni el xushlamas.
Aytmayin deb bir xayol qilib edim,
Yoru jo'ram qo'ymadi, endi bo'lmas.

Ko'rinyaptiki, Elbek va Abdurauf Fitratning lapar haqidagi ilmiy mulohazalari keyingi davrda u haqda bildirilgan fikrlarga har tomonlama asos bo'lmoqda. Keyinchalik ularning fikrlari lapar bo'yicha to'plangan yangi ma'lumotlar hisobiga yanada boyitilgani va nazariy jihatdan to'ldirilgani kuzatilmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдурауф Фитрат . Эл адабиёти // Адабиёт қоидалари / ТА. 4-жилд. Дарслик ва ўқув қўлланмалари, илмий мақола ва тадқиқотлар. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б.76-77.
2. Ашулалар тўплами. III наشري. Тўпловчи ва тартиб берувчилар: Ғулом Зафарий ва Элбек. – Тошкент, 1935.
3. Amonov U. Abdurauf Fitrat xalq qo'shiqlari haqida. //Adabiy ta'lim metodologiyasi: xalqaro tajriba va ilmiy hamkorlik 2-kitob. – Toshkent: Mashhur press, 2024. – 176-181-b.
4. Ой олдида бир юлдуз // Ўзбек халқ маросим қўшиқлари. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – Б.109.
5. Элбек. Лапарлар // Билим ўчоғи . – 1922. – 1-сон. – Б.97.
6. Ўзбек фольклори. Педагогик институтлар учун хрестоматия / Тузувчи Ҳоди Зариф. 1-китоб. – Тошкент: Ўқувпеднашр, 1939. – Б.285-353.
7. Amonov U. Ўзбек фольклоршунослигининг илмий-назарий, амалий йуналишлари хақида мулохазалар. Жамият ва инновациялар. 2022 йил 19-23-б. <https://inscience.uz/index.php/socinov/article/view/1847>

ULUG‘BEK HAMDAMNING “TO‘RTKO‘CHA” ROMANI KOMPAZITSIYASIDA O‘LMAS OBRAZINING O‘RNI

Esanova Sabrina Zavqiddin qizi, Buxoro davlat pedagogika insituti “O‘zbek tili va adabiyoti”yo‘nalishi magistri

esanovasabrina7@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Ulug‘bek Hamdamning „Tortko‘cha“ romani kompazitsiyasida O‘lmas obrazining o‘rni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: domla, o‘tkir,til,o‘ch,xizmat,vatan,xiyonat,vafo, personaj, jang, farzand, munosabat, qadriyat, millat, urush, tank.

THE ROLE OF THE IMMORTAL IN THE COMPOSITION OF ULUGBEK HAMDAM'S NOVEL “TORTKOCHA”

Esanova Sabrina Zavqiddinovna, Bukhara State Pedagogical Institute, master’s student in Uzbek language and literature

esanovasabrina7@gmail.com

Abstract: The article discusses the role of the Immortal in the composition of Ulugbek Hamdam's novel "Tortkocha".

Keywords: domla, sharp, language, revenge, service, homeland, betrayal, loyalty, character, war, child, relationship, value, nation, war, tank.

РОЛЬ БЕССМЕРТНОГО В КОМПОЗИЦИИ РОМАНА УЛУГБЕКА ХАМДАМА «ТОРТКОЧА»

Сабрина Эсанова, Завкиддиновна, Бухарский государственный педагогический институт, 1 курс магистратуры по специальности «Узбекский язык и литература»

esanovasabrina7@gmail.com

Аннотация: В статье рассматривается роль Бессмертного в композиции романа Улугбека Хамдама «Торткоча».

Ключевые слова: пословица, острый, язык, месть, служба, родина, предательство, верность, характер, битва, ребенок, отношения, ценность, нация, война, танк.

Ulug‘bek Hamdamning har bir asarida millatning buguni va ertasi uchun muhim bo‘lgan dolzarb muammolar muayyan insonlar taqdiri asosida tasvirlanadi . „To‘rtko‘cha“ asari ham millat ahlining holati haqidagi falsafiy -publisistik asar.Romandagi har bir personaj ,har bir holatga ,har bir jarayonga o‘z munosabatini bildiradigan o‘zbeklardir.

Ulug‘bek Hamdam zamonaviy o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri bo‘lib, uning “To‘rtko‘cha” romani jamiyat, inson va ruhiyat mavzularini teran ochib bergan asar sifatida e‘tiborni tortadi. Roman kompozitsiyasi murakkab, ko‘p qatlamli bo‘lib, u realistik tasvirlar bilan falsafiy mushohadalarni uyg‘unlashtiradi. Bu asarda O‘lmas obrazi alohida kompozitsion va g‘oyaviy yuklama bilan chiqadi. Romanda bosh qahramon bo‘lgan O‘lmas va uning atrofidagi personajlar-jamiyatdagi voqea va hodisalarga befarq bo‘lmagan kishilar sifatida gavalantirilgan.Aynan shu jihat asarning hayotiylik darajasini oshirib ,o‘quvchiga yaqinlashtiradi. Masalan :Poyezda hammaslak bo‘lib qolgan yoshlar bilan suhbat davomida jahon tiliga aylanib borayotgan til-ingiliz tilini biladigan yoshlar eskilik sarqitidan voz kechish kerak degan fikrni ilgari surishayotganda „Sizlar „Ingilizchani o‘rganib oldim,endi uni bilmaganlar menga yo‘l bo‘shatsin,ketsin!”deb o‘ylaysizlar ,qattiq yangilishasizlar . Ana shu bilgan tillaring bilan -u ingilizcha bo‘ladimi ,xitoycha yoki arabcha ,farqi yoq ,-nima ishni qoyillatib bajarasizlar ,dunyoga nima berasizlar ,-mana bular yanada muhim!..”deya xitob qiladi. Cho‘rtkesar, haqqarvarlikka intilgan qahramon chet tilini o‘rganish -globallashgan dunyo odamiga xayotda o‘z o‘rnini topish uchun vosita ro‘lini, bizda esa bu vosita maqsadlar bilan almashtirib qo‘yilganligiga shama qiladi.Yana „, Bir jamiyat ilg‘or jamiyat bo‘lishni istasa ,o‘z bag‘ridan hamma tillarga joy beradi,berishi kerak ,o‘quv dargohlaridan barcha til mutaxassislarini yetishtirib chiqaradi ,chiqarishi kerak.Zarur bo‘lgan miqdorda ,albatta ”. O‘lmas tilidan aytilgan bu fikirlarga jadid bobomizning to‘rt tilni bilish kerak degan undoviga yaqin turadi. Barchasining zamirida esa sog‘lom ,ilg‘or dunyoqarashga ega bo‘lish yotishi aytiladi. O‘lmas — roman g‘oyasining kalit timsoli. O‘lmas obrazi oddiy inson timsolida gavalansa-da, u o‘zida

xalqning dardini, tarixning og'riqli izlarini, qadriyatlar va yangilanishlar orasidagi ziddiyatni mujassamlashtiradi. Uning ismi — "O'lmas" — ramziy ma'no kasb etib, xalq xotirasi, ruhiy barhayotlik timsoliga aylanadi. U hayotining turli bosqichlarida boshidan kechirgan sinovlar orqali o'zligini yo'qotmaydi, aksincha, o'zida jamiyatning ichki inqirozlarini aks ettiradi. Romanni mutolaa qilish davomida O'lmas shaxsiyatida mardlik, or-nomusni birinchi o'rinda qo'yish, fidoiylilik, cho'rtkesarlik, vatanparvarlik, sadoqat, ota-onaga hurmat, vafo, muhabbat, intiluvchanlik kabilarga ega bo'lgan mukammal, mustaqil shaxs tasavvurimizda gavdalanadi. Roman strukturasida O'lmas qahramon sifatida markaziy chiziqni ushlab turadi. Asardagi voqealar ko'pincha aynan uning hayoti atrofida quriladi. Uning fikrlari, his-tuyg'ulari, ichki ziddiyatlari roman voqealari bilan hamohang tarzda ochiladi. O'lmasning kechinmalari o'quvchini jamiyatdagi o'zgarishlar mohiyatini anglashga undaydi. Shu bilan birga, uning hayoti orqali roman kompozitsiyasi "shaxsiy — ijtimoiy — tarixiy" qatlamlar bilan boyitiladi. O'lmasning ichki monologlari, tashqi voqelik bilan bo'lgan ziddiyatlari orqali yozuvchi uning obrazini chuqur psixologik tahlil qiladi. Bu esa kompozitsiyada obrazning jonli, murakkab va realistik ko'rinishiga xizmat qiladi. O'lmas o'z hayoti orqali o'quvchini shubha, iztirob, haqiqatni izlash yo'lidan olib o'tadi. O'lmas — o'tish davri odamining timsoli. Roman asosan o'tish davri (sovetdan keyingi yangi davr) muammolarini ochib beradi. O'lmas bu murakkab davrda yashagan, eskilik bilan yangilik orasida qolgan, lekin o'z yo'lini yo'qotmagan shaxs sifatida ko'rsatiladi. Shu ma'noda u xalq ruhiy holatining badiiy ifodasi sifatida kompozitsiyaning ideologik markazida turadi.

Bosh qahramon har bir jarayonning oqibatining sababini, ildizini ochishga, shu orqali muammoga yechim topishga harakat qilishini ko'rishimiz mumkin. Masalan: Sotvoldi taklif qilgan „biznes“ ikkinchi bor „Zulayho“ mukofoti uchun she'r yozdirish uchun kelgan „shovvovz“ larni haydaganida birinchi bor yo'l qo'ygan xatosini sabab deb o'ylab, eziladi.

Asarda yomonlik ustidan doimo yaxshilik g'alaba qozonishi, dunyo yaxshilarsiz qolmasligi obrazlarning jonli tasviri orqali haqqoniy ifoda etiladi. Huddi shunday qahramonlardan biri Iskandar aka obrazidir. Jamiyatda ildiz otayotgan muammolarni hal etishga, ularni tag zamiri aniqlab o'zgartirishga kirishgan yalovbardorday tasavvur qilinadi. „U kunda Toshkent Markaziy do'koni ortidagi kitob do'koniga yo'l oladi... jangchi qurolni olib, yovga qarshi kurashishga otlangani kabi har tong kitob to'la sumkasini ortmoqlab bozorga yo'l oladi. Jangchi dushmanini o'ldirsa, kitobdor jaholatni“ tarzidagi gaplari fikrimizning dalilidir.

Asarda ijtimoiy tuzum, jamiyat hayoti, kishilar turmush-tarzi, oiladagi ichki munosabatlar, siyosiy hayot kabilarga keng to'xtalinadi. Asar markazida O'lmas, O'ktam, O'g'ilo, Zafar, Piri Komil, Ochil kabi qahramonlar turadi.

Ulug'bek Hamdamning "To'rtko'cha" romani nafaqat biron bir mahalla yoki shaxslar hayotiga bag'ishlangan asar emas, balki butun bir millat ruhini, uning tarixiy xotirasi, an'analari va zamonaviy hayotdagi o'rni haqida chuqur falsafiy asardir. Ulug'bek Hamdamning "To'rtko'cha" romani zamonaviy o'zbek adabiyotida o'ziga xos falsafiy va ijtimoiy mazmun bilan ajralib turadigan asarlardan biridir. Asarda muallif faqatgina voqealarni bayon etish bilan kifoyalanmay, balki insonning ichki dunyosi, jamiyatdagi o'zgarishlar, axloqiy tanazzul va qadriyatlar inqirozini chuqur yoritadi. "To'rtko'cha" oddiy voqealar zanjiri emas, balki ichki monologlar, orzular, xotiralar va falsafiy mushohadalar asosida qurilgan. Bu kompozitsion shakl o'quvchini chuqur tafakkurga undaydi. Asarda voqealar real hayotga yaqin tarzda tasvirlansa-da, har bir obraz va detalda ramziy ma'no yashiringan. Masalan, To'rtko'cha — hayot yo'li, tanlovlar va yo'llar chorrahasi timsolidir. Romandagi qahramonlar orqali yozuvchi xalqning o'tish davridagi ruhiy holatini, adashuvlarini, intilishlarini ko'rsatadi. Asar o'zbek xalqining o'zligini saqlab qolish yo'lidagi kurashining badiiy ifodasidir. Ulug'bek Hamdamning tili serma'no, obrazli va adabiy jihatdan boy. U xalqona iboralar, falsafiy fikrlar va nozik psixologizmni birlashtirib, o'ziga xos uslub yaratgan. Asar zamonaviy o'zbek kitobxonini fikr yuritishga, o'zini va jamiyatni anglashga undaydi. Romani nafaqat zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin namoyondasi, balki insoniy qadriyatlar, tarix va milliy o'zlikni anglash haqida chuqur falsafiy asardir. Asarning murakkab kompozitsiyasi — voqealarning ko'p qatlamliligi, makon va zamonning ramziy uyg'unligi — o'quvchini to'rtko'chaning sehrli dunyosiga tortadi. Bu yerda har bir obraz, har bir satr muallifning jamiyatga bo'lgan munosabatini, o'tmish va kelish o'rtasidagi ziddiyatlarni ifodalaydi. "To'rtko'cha" — nafaqat mahalla, balki butun bir davrning ovozi. Ijodkor bu ovozni roman sahifalarida abadiylashtirgan, uning obrazi esa o'zbek adabiyotining yangi bosqichidagi o'lmas marvaridga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ulug‘bek Hamdam “To‘rtko‘cha” romani - Toshkent. Yangi asr avlodi 2024.
2. Ulug‘bek Hamdam “Ota”. Toshkent. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti.2022.
3. Ulug‘bek Hamdam Badiiy tafakkur tadriji. Toshkent. 2002.
4. Abdulla, A. (2018). Zamonaviy o‘zbek romani poetikasi. Toshkent: Fan.
5. Jo‘rayev, S. (2021). “Ulug‘bek Hamdam ijodidagi ruhiy kechinmalar badiiy talqini”.
Filologiya masalalari, №1, 60–65.
6. Rasulov, B. (2022). “To‘rtko‘cha romanida o‘zlik izlanishi”. Ijod va tafakkur, №3, 78–83.

NON TURLARI VA ULARNING RAMZIY TALQINI

Nurova Yulduz Ubaydullayevna, Buxoro davlat pedagogika instituti, O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

Po'latova Zilola Maxmud qizi, BuxDPI O'zbek tili va adabiyoti magistranti

zilolapolotova122@gmail.com

Annotatsiya. O'zbek noni o'ziga xos shakli, ta'mi va pishirish usuli bilan ajralib turadigan, milliy madaniyatning muhim qismlaridan biridir. Ushbu maqola turli xil tarkib, shakl, pishirish usuli, ta'm hamda ishlatilish maqsadiga ko'ra farqlanadigan nonlarning ko'rinishlari haqida. Nonning ramziy talqini o'zbek xalqida va boshqa ko'plab madaniyatlarda juda chuqur ma'noga ega. U nafaqat oziq-ovqat, balki hayot, baraka, mehnat, halollik, va qadriyatlar timsoli hisoblanadi.

Kalit so'zlar. Non, patir, kulcha, Samarqand non, jizzali non, lochi non.

ВИДЫ ХЛЕБА И ИХ СИМВОЛИЧЕСКОЕ ТОЛКОВАНИЕ

Нурова Юлдуз Убайдуллаевна, преподаватель кафедры узбекского языка и литературы Бухарского государственного педагогического института

Пулатова Зилола Махмудовна, магистрантка по узбекскому языку и литературе Бухарского государственного педагогического института

zilolapolotova122@gmail.com

Аннотация. Узбекский хлеб является важной частью национальной культуры, отличаясь своей уникальной формой, вкусом и способом приготовления. В этой статье речь пойдет о видах хлеба, которые различаются по составу, форме, способу приготовления, вкусу и назначению. Символическое толкование хлеба имеет очень глубокое значение среди узбекского народа и многих других культур. Это не только символ еды, но и жизни, благословения, труда, честности и ценностей.

Ключевые слова. Хлеб, патир, кулча, самаркандский хлеб, хлеб джизали, хлеб лочи,

TYPES OF BREAD AND THEIR SYMBOLIC INTERPRETATION

Nurova Yulduz Ubaydullayevna, Lecturer at the Department of Uzbek Language and Literature, Bukhara State Pedagogical Institute

Po'latova Zilola Mahmud qizi, Master's student in Uzbek Language and Literature, Bukhara State Pedagogical Institute

zilolapolotova122@gmail.com

Abstract. Uzbek bread is an important part of national culture, distinguished by its unique shape, taste, and cooking method. This article is about the types of bread that differ in different ingredients, shapes, cooking methods, tastes, and purposes. The symbolic interpretation of bread has a very deep meaning among the Uzbek people and many other cultures. It is not only a symbol of food, but also a symbol of life, blessing, labor, honesty, and values.

Keywords. Samarkand bread, jizzali bread, lochi bread.

O'zbek tilida "non" atamasi umumiy leksik birlik bo'lib, uning turli shakllari adabiy tilda mustahkam joy olgan. Non turlari semantik maydon jihatidan bir necha guruhlariga ajratilishi mumkin:

A) Hududiy non nomlari (toponimik birliklar)

Samarqand noni – uzoq saqlanishi va barakasi bilan mashhur.

Xorazm noni – qattiq va zich bo'lib, sayohatlar uchun mos.

Farg'ona kulchasi – mayda va xushbo'y.

Bu nomlar geolingvistik hodisa sifatida til va madaniyat bog'liqligini ko'rsatadi.

B) Tayyorlash usuliga ko'ra nomlar (etnolingvistik birliklar)

Jizzali non – qovurilgan yog' (jizz) solinishi bilan ajralib turadi.

Patir non – maxsus bosim bilan tayyorlanadi, bardoshli va uzoq saqlanadi.

Qatlama non – qat-qat qilib yoyilib, qovuriladi.

Ushbu non turlarining shakli, tayyorlanish usuli, mazasi va funksional yuklamasi ularni alohida leksik birlik sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Quyida o'zbek adabiy tilida ishlatiladigan asosiy non turlari va ularning qisqacha tavsifini ko'rib chiqamiz:

1. Obi non – suv va un asosida qorilib, tandirda yopiladigan eng oddiy va keng tarqalgan non turi. U har kunlik iste'mol qilish uchun tayyorlanadi. Obi non o'zbek xalqining asosiy oziq-ovqat mahsuloti sifatida madaniy hayotida chuqur o'rin egallaydi.

2. Tandir non – tandirda yopiladigan, sathi tekis va yuzasi naqshli non turi. Ushbu non turi nafaqat kundalik iste'molda, balki marosimlarda ham keng ishlatiladi.

3. Patir – yog' bilan boyitilgan, qalin va to'yimli non bo'lib, tandirda yoki tovada pishiriladi. Yoz mavsumida sevib iste'mol qilinadi. Adabiy tilga "patir" shaklida kirgan va ba'zi shevalarda "fatir", "patur" shakllari mavjud.

4. Kulcha – yumaloq shakldagi, odatda kichik hajmda yopiladigan non. Ko'pincha naqshli bo'lib, pishirilishida usti qizargan va qattiqroq bo'ladi. U marosimlarda, ayniqsa hayitlarda keng ishlatiladi.

5. Lochi – ko'proq Farg'ona vodiysida tayyorlanadigan, yupqa va o'ralgan ko'rinishdagi non turi. U tuzlangan yoki quruq holatda uzoq muddat saqlanishi mumkin. Adabiy tilda kam uchrasa-da, ayrim ilmiy matnlarda tilga olingan.

6. Yufka non (yupqa non) – juda yupqa qilib yoyilgan va quruq holda saqlanadigan non turi. Ko'proq sayohat, safar uchun tayyorlanadi. Turkiy xalqlar tilida ham bu non turi "yufka" nomi bilan mashhur.

7. Jizzaxcha – Jizzax viloyatida tayyorlanadigan o'ziga xos yumaloq, yog'li non turi bo'lib, adabiy tilga hududiy nom sifatida o'tgani kuzatiladi. Jizzaxcha non odatda katta hajmda va tandirda pishiriladi.

8. Shirmoy non – yog'li yumshoq va o'ziga xos mayin tuzilishga ega. Bayramlarda yoki hurmatli insonlar uchun pishiriladi. Faxriddin bozordan, otasi tayinlaganicha, ikkita shirmoy non, yarim qadoq pista oldi" A.Qahhor[1;152] "Boshsiz odam". Bu non turlari o'zbek xalqining hayot tarzi, ijtimoiy munosabatlari va qadriyatlari bilan bevosita bog'liqdir.

Adabiyotda ham non turli ramziy va badiiy ma'nolarga ega bo'lib, asarlarda uning quyidagi asosiy turlari uchraydi: *Oddiy non* (bug'doy yoki arpa noni) – hayot, tirikchilik va mehnat ramzi sifatida tasvirlanadi. Masalan, Oybekning "Bolalik" asarida non ota-onaning mehribonligi va qiyinchilik davrida qadrlil ne'mat ekanligi aks etgan. Abdulla Qahhor "Anor" hikoyasida epigraf sifatida tanlangan misrada non orqali jamiyatdagi tengsizlik, adolatsizlik ochib berilgan. "Uylar to'la non, och-nahorim bolam, Ariqlar to'la suv, tashnani zorim, bolam. A.Qahhor[2; 72] *Qora non* – qashshoqlik, muhtojlik va og'ir davrlarni ifodalashda ishlatiladi. Masalan, Sobir Abdullaning "Qora non" hikoyasida bu tushuncha ochlik va ehtiyoj bilan bog'langan. *Tandir non* – milliylik va o'zbek madaniyatining ramzi. U an'anaviy turmush tarzini, mo'tabar mehmonni kutish yoki oilaviy birdamlikni ifodalashi mumkin. *Kulcha* – asosan Buxoro, Samarqand hududlarida yopiladi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida uy bekasi tomonidan mehmonlarga dasturxonga tortiladigan nonlar qatorida kulcha ham borligi tasvirlanadi. O'zbek xalq ertaklarida kulcha bolalarning sevimli taomi sifatida tilga olinadi. Masalan, "Bo'g'irsoq" ertagida dumalab ketadigan yumaloq non obraz sifatida ishlatilgan bo'lsa-da, o'zbek versiyalarida uni "kulcha" deb atash ham uchraydi. *Patir non* – patir qalin, yog'li yoki qaymoqli qilib tayyorlanadigan milliy non bo'lib, ko'proq to'kin-sochinlik, bayramona kayfiyat va obodlik ramzi sifatida tasvirlanadi. Abdulla Qahhorning hikoyalarida patir oddiy xalq hayotida uchraydigan, dasturxonda doimo turadigan non sifatida tasvirlangan. O'zbek xalq dostonlari va maqollarida ham patir non hurmat va qadr-qiyamat belgisi sifatida tilga olinadi: "Patir sindirmay oshingni oshama" – ya'ni, non qadrlanmasa, to'kinlik ham baraka keltirmaydi. O'zbek adabiyoti va xalq og'zaki ijodida kulcha va patir nonlari ko'pincha to'kin-sochinlik, halol mehnat, mehmondo'stlik, xalqona turmush tarzi kabi tushunchalar bilan bog'lanadi. Kulcha nonning asarlarda uchrashi: Oybekning "Bolalik" qissasida muallif o'zining bolaligida nonning qadri naqadar muhim bo'lganini tasvirlaydi. U yerda kulcha non bolalarning eng sevimli taomi sifatida tilga olinadi: "Onam non yopayotgan paytda biz, bolalar, kulcha pishishini kutardik. Kulchaning ustini eritilgan sariyog' bilan surkab berishsa, undan shirinroq narsa yo'q edi." [3;98] Bu parchada kulcha bolalik shirin xotiralari va ona mehrining ifodasi sifatida tasvirlangan. Cho'lpon – "Kecha va kunduz" romanida xalqning og'ir turmushi va kambag'allarning non topishdagi qiyinchiliklari tasvirlanadi. Bunda kulcha to'kin dasturxon belgisi sifatida ishlatiladi. "Qishloqning boylari qo'llarida kulcha nonni bo'lib yer, kambag'allar esa arpa noni bilan qanoatlanardi". [4;102] Bu tasvir kulchaning oddiy xalq uchun hamisha bayramona va to'kinlik ramzi bo'lganini ko'rsatadi. G'afur G'ulom – "Shum bola" qissasida bosh qahramon bozorga borib, kulcha non sotib olishga urinadi: "Bozorning bir burchagida kulcha sotayotgan xotincha bilan savdolashdim. Lekin pul yetmadi, burnimning tagida kulchalarning hidi kutilmaganda yoqimli bo'lib ketdi". [5;143] Bu epizodda kulcha bolalar uchun orzu qilinadigan mazali non sifatida aks ettirilgan.

Patir nonning asarlarda uchrashi: Abdulla Qahhor – “Anor” hikoyasida qahramonlarning qishloq hayotidagi oddiy, lekin samimiy muloqotlari tasvirlanadi. Shu jumladan, patir nonning dasturxonda bo‘lishi muhim: “Onam patir nonni bo‘lib berdi-da, ustiga yog‘ surtib, oldimga qo‘ydi. “Yeb ol, bolam, patirni iliq yegan boshqacha bo‘ladi dedi”. [6;78] Bu misolda patir ona mehr-muhabbatining timsoli sifatida ishlatilgan. Said Ahmad – “Jimjitlik” hikoyasida mehmondo‘stlik va insoniy munosabatlar tasvirlanadi. Mehmon kutish jarayonida patir nonning qadri ko‘rsatib beriladi: “Buvisining mehmon uchun yopgan patiri havo kabi yengil, maysa kabi yumshoq edi. Mehmon dasturxondan o‘rnidan turmay, patirdan bahramand bo‘ldi”. Bu parchada patir mehmondo‘stlik va mehrning ifodasi sifatida ishlatilgan. O‘zbek xalq maqollarida ham patir va kulcha nonning qadri ko‘p bora tilga olinadi: “Patir sindirmay oshingni oshama” – ya’ni, non qadrlanmasa, baraka bo‘lmaydi”. “Qo‘shnining patiri hid bilan ham qoniqtiradi” – qashshoqlik va ehtiyoj haqida aytilgan maqol. Kulcha va patir non o‘zbek adabiyotida xalqona hayot, mehr-muhabbat, mehmondo‘stlik, to‘kinlik va halol mehnat ramzi sifatida uchraydi. Bu nonlar aks etgan sahnalar odatda ota-onaning mehri, bolalik xotiralari, qishloq hayoti va milliy qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Samarqand noni katta, qalin va uzoq saqlanadigan non bo‘lib, u baraka, saxovat va milliy g‘urur ramzi sifatida tasvirlanadi. Odil Yoqubov – “Ulug‘bek xazinasi” romanida tarixiy voqealar va Sharq madaniyati tasvirlanar ekan, Samarqand nonining qadriyat sifatidagi o‘rni ham ta’kidlanadi: “Mirzo Ulug‘bekning mehmonxonasida pishirilgan qalin Samarqand nonlari hamisha dasturxonda bo‘lardi. U yillar davomida yo‘lovchilarga safar chog‘ida hamroh bo‘lib kelgan, uzoq muddat saqlanishi, barakasi bilan tanilgan”. [7;207] Bu misolda Samarqand noni faqatgina oziq-ovqat emas, balki tarixiy va madaniy meros ramzi sifatida tasvirlangan. Abdulla Qahhor – “O‘tmishdan ertaklar” asarning bir qismida qahramonlar Samarqand nonining chidamliligi haqida gaplashadilar: “Qishloqdan kelgan mehmon yelkasidagi xurjinni ochdi va undan qalin bir Samarqand nonini olib chiqib, “Bu non bitta oila uchun butun hafta yetadi”, deb kuldi. “Bu yerda Samarqand noni to‘kinlik va baraka ramzi sifatida ishlatilgan. Shukur Xolmirzayev – “Oq otli pahlavon” qissasida qahramon yurt tashqarisiga safarga chiqayotganida unga Samarqand noni hadya qilinadi: “Onasi o‘g‘liga ketishidan oldin qalin bir Samarqand nonini tutqazdi: “Bolangni eslasang, noningni sindirgin”. [8;167] Bu yerda Samarqand noni oila rishtalari va ona mehrining ramzi sifatida tasvirlangan.

Jizzali non – yog‘ va jizzaga to‘yingan, mazali non bo‘lib, odatda mehmondo‘stlik, to‘kinlik va shodlik belgisi sifatida tasvirlanadi. Said Ahmad – “Kelinlar qo‘zg‘oloni” asarida o‘zbek oilalaridagi hayot tasvirlanar ekan, jizzali nonning to‘kin dasturxon belgisi sifatida tilga olinadi: “Chol uydan chiqqancha: “jizzali noningni yegan odam kunduzi och qolmaydi”, deb kulib ketdi”. Bu misolda jizzali non quvvat va to‘yimlilik ramzi sifatida tasvirlangan. Tog‘ay Murod – “Ot kishnagan oqshom” asarida qishloq hayoti tasvirlanib, jizzali nonning ahamiyati haqida quyidagi misol keltiriladi: “Kampir issiq jizzali nonni tandirdan olarkan, hididan butun hovli to‘lib ketdi. “Mana buni non desa bo‘ladi!” – dedi chol qoniqish bilan”. Bu sahna jizzali nonning milliy qadriyatlar va oddiy xalq hayoti bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

O‘zbek xalq maqollarida ham jizzali nonning ahamiyati ko‘rinib turadi: “Jizzali non yegan, qo‘lini yalagan” – ya’ni, mazali narsadan keyin odam mamnun bo‘ladi. “Jizzali non bilan qorni to‘q, yurak tinch” – halol ne‘mat odamni baxtli qiladi.

Samarqand noni va jizzali non o‘zbek adabiyotida milliy qadriyatlar, to‘kinlik, mehmondo‘stlik va ona mehrining ramzi sifatida ko‘p uchraydi. Samarqand noni ko‘proq baraka va chidamlilik timsoli bo‘lsa, jizzali non mazalilik va to‘qchilik ifodasi sifatida tasvirlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

